



ISSN: (E) 2181-1784  
SJIF 2024 = 7.404  
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



# ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,  
natural and social sciences*

[www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

*Exact sciences*

*Natural sciences*

*Engineering sciences*

*Pedagogical sciences*

*Social and Human sciences*

*Philological sciences*

*Philosophy sciences*

*Economic sciences*

VOLUME 4  
**No 3**  
2024





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 4 / ISSUE 3**

**ISSN 2181-1784**

**Impact Factor: 7.404**

**ASI Factor = 1.7**

**March**

**2024**

---

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

---

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Dr. KADIROV MUKHAMMADJON**

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of  
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

**EDITORIAL BOARD**

**DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA**

Doctor of Philosophy,  
Head of the Department “Philosophy and  
National idea” of Tashkent State Technical  
University

**PhD. LAZIZ A. TURAEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical  
Sciences, Head of the Department for the  
organization of research activities of students of  
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR  
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)  
Professor of the department of "Source Studies  
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State  
University of Oriental Studies. Professor at the  
Antique World International Academy of  
Sciences

**PhD. FARHOD L. USMONOV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical  
Sciences, Senior lecturer of the Department of  
Social Humanities of Tashkent State University of  
Economics

**Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV**

Candidate of Economic Sciences  
Associate professor of Karshi Institute of  
Engineering and Economics

**Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the department of South and Southeast  
Asian Languages of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. Dr. SULTON F. AMIROV**

Doctor of technical sciences  
Head of the department of Electricity Supply of  
Tashkent State University of Transport

**Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the Department of Uzbek Linguistics of  
Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi

**PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences Associate  
professor of the department of Pedagogy and  
Psychology of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Dr. IMAM K. WAHYUDI**

Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philological Sciences  
Head of Office of International Affairs and  
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and  
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia



**Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV**

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in economics Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

**Dr. ALISHER N. NAZAROV**

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. ERKIN A. RAKHMATOV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

**Dr. PHOOL BADAN**

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

**Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV**

Candidate of Philological Sciences Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. METIN ORBAY**

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

**Prof. PhD. SAO FEY**

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

**Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM**

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

**Prof. YALCHIN KAYALI**

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

**Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA**

Candidate of Philosophical Sciences Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. K.K. KHAKBERDIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

**PhD. CHJAN KONG**

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

**Dr. NAUMENKO A. OLEG**

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

## **ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ КАК ОБЪЕКТ ПРАВА: СУЩНОСТЬ И МЕРЫ ЗАЩИТЫ В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ МИРЕ**

**Ходжанова Мафират Абдумаликовна**

магистр

Ташкентский государственный Юридический Университет

**Научные руководитель: Топилдиев Бахром Рахимжанович**

доктор юридических наук, профессор

кафедры «Гражданского права»

Ташкентский Государственный Юридический Университет

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье было проанализировано как сущность, так и понятие определение персональных данных как в международном праве, так и в местном законодательстве. С помощью углублённого изучения международных договоров и законодательства Республики Узбекистан, были проанализированы и сопоставлены понятие и сведений о персональных данных. Были выявлены наиболее действенные меры и способы по защите персональных данных в современном и технологически продвинутом цифровом мире.*

***Ключевые слова:** Персональные данные, сведения, законодательство, международные договора, технологический прогресс, информация, обработка, защита, меры, искусственный интеллект.*

### **PERSONAL DATA AS AN OBJECT OF RIGHT: ESSENCE AND PROTECTION MEASURES IN THE MODERN DIGITAL WORLD**

**Khodjanova Mafirat Abdumalikovna**

master

Tashkent State Law University

**Scientific Adviser: Topildiyev Bahrom Rahimjanovich**

Doctor of Law, Professor

Department of Civil Law

Tashkent State Law University

### **ABSTRACT**

*This article analyzed the essence and concept of the definition of personal data both in international law and in local legislation. Through an in-depth study of*

*international treaties and legislation of the Republic of Uzbekistan, the concept and information about personal data were analyzed and compared. The most effective measures and methods for protecting personal data in the modern and technologically advanced digital world were identified.*

**Key words:** *Personal data, information, legislation, international treaties, technological progress, information, processing, protection, measures, artificial intelligence.*

## **ВВЕДЕНИЕ**

В современном мире до сих пор понятие частной жизни, а это включает в себя сохранение персональных данных, их неприкосновенность - одна из самых важных тенденций для развития современного, информационно защищённого общества. Для того чтобы и дальше поддерживать развитие данного общества, нужно обезопасить неприкосновенность частной жизни. Под понятиями частной жизни особенно важно выделить понятие персональных данных, наладить автоматизацию обработки данных и определить четкие правила, меры и способы поддержания уровня безопасности во избежание утечки.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Что же такое персональные данные? Для определения данных были проанализированы различные источники международного характера и местного законодательства. В общем они имеют одни и те же корни. Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» от 2019 года, статья 4 гласит «персональные данные - зафиксированная в электронном бумажном и ином материальном носителе информация относящиеся к определённом физическому лицу и дающее возможность его идентификации». [1] То есть в соответствии со статьёй четвёртой, персональные данные должны быть зафиксированы, иначе говоря, записаны на определённом источнике. Источник может быть как в бумажном виде, в электронном или другом носителе. Далее по определению понятно, что персональные данные относятся к лицу и дают возможность идентифицировать его. [1]

Конституция Республики Узбекистан, статья 31 гласит, что каждый человек имеет право на частную жизнь и защиту персональных данных. Право на исправление данных, если они были зафиксированы не верно. [2] Гражданский Кодекс Республики Узбекистан, статья 9 гласит о том, что каждый может распоряжаться своими правами, а также и защищать свои права. В данной ситуации правом на защиту персональных данных. [3]

В 1981 году Совет Европы принял Конвенцию под номером 108 «О защите индивидуумов частных лиц при автоматизированной обработке персональных данных». [4] Цель принятия данной конвенции была в основном направлена не просто на защиту, а на правовую защиту личности при обработке персональных данных. Обращая внимание на статью номер два вышеуказанной Конвенции, которая чётко определяет понятие и субъектов персональных данных так же. Конвенция № 108 может в современном мире удовлетворить потребность в защите безопасности персональных данных, адаптироваться к новым технологиям для того, чтобы укрепить механизм контроля право защищать свои персональные данные.

Другой документ, который может обеспечить защиту прав людей касательно обработки персональных данных принят 24 октября 1995 года Директива 95/46/ЕС. Данной директива даёт определение персональным данным как «это любая информация, которая зафиксирована в любом носителе», то есть сюда можно отнести не только имена, но и адреса почтовые и электронные любых физических лиц. [5] В соответствии с данной директивой, любой гражданин - субъект может и должен получить информацию о том, для чего его персональные данные будут обработаны и использованы, а также дать согласие на использование и обработку персональных данных. Иначе говоря, это директива направлена на справедливый сбор и обработку информации частных лиц. Директива контролирует использование и сохранение персональных данных, вне зависимости от того, автоматизирована она или не автоматизирована. Тут даётся чёткое определение персональных данных, ответственность за обработку данных, а также правила защиты их. Категории, на которые обращается внимание это прозрачность, законная цель и соразмерность при обработке персональных данных. [5] То есть, эти три условия незыблемые и строго контролируемые законодательство.

Обращаясь непосредственно к законодательству Республики Узбекистан можно увидеть международные стандарты. Так, например, в законе «О персональных данных» [1] чётко и ясно видны требования к правилам в использовании, сохранение и обработки персональных данных. В соответствии со статьёй пять указанного закона "основными принципами являются соблюдение конституционных прав и свобод человека и гражданина, точность и достоверность прав субъектов, а также безопасность личность общество и государство ".[1]

Хотелось бы обратить внимание что в Республике Узбекистан активно защищаются права субъектов персональных данных на их защиту. Одним из примеров может быть подписанный закон президента Республики Узбекистан 29 октября 2021 года об «ужесточении наказания граждан за нарушение закона о персональных данных» [6] в цифровом мире, то есть в социальных сетях. В соответствии с изменением, который вступил в силу 30 января 2022 года такие социальные сети как tik-tok, Twitter и другие могут быть привлечены не только к административной, но и уголовной ответственности, чего раньше не было. То есть по статье 141 Уголовного кодекса Республики Узбекистан «незаконный сбор, хранение и так далее, с использованием информационных технологий интернет» [7] влечёт за собой административное взыскание, штраф в данном случае от 100 до 150 базовых расчётных величин, и наказание не только ограничивается штрафом но и до двух лет исправительных работ. Вышеуказанное внесение в законодательство доказывает, что Республика Узбекистан не только следует современным требованиям глобального технологического развития, но и вносит изменения в соответствии с тенденциями развитого мира.

Наш нынешний век — это век технологии, век цифрового мира. Немаловажно знать о методах и средствах защита персональных данных в сети интернет. Какие данные как адреса электронной почты, номера, дата рождения и номера банковских карт относятся к конфиденциальной информации, которую каждый субъект старается защищать. Но индивидуумы иногда не задумываются о такой информации как, посещение сайтов, какие социальные сети они используют, и довольно-таки часто данная информация говорит намного больше, чем любой может представить. В цифровом пространстве современного мира искусственный интеллект, у которого огромное количество возможностей используется различными социальными сетями. Платформы и алгоритмы для того, чтобы выяснить заинтересованность пользователей того или иного товара чрезвычайно распространены. Примером может послужить статья, опубликованная в 2015 году званием «Facebook knows you better than your members of your own family» автора Сары Нептон. [8] Facebook знает тебя бы лучше, чем члены твоей семьи, примерно такое значение было у данной статьи. Там была рассмотрено исследование, которое было проведено кембриджским университетом ещё в 2013 году, основанное на изучении различных публикаций Facebook. Учёные данного университета проанализировав странички пришли к результатам, что смогли изучить человека намного лучше чем его коллеги, который знали его годами, изучив



всего лишь десяток отметок в Фейсбуке. Чем больше комментариев и отметок, тем больше информации получает про данного субъекта алгоритм искусственного интеллекта. Изучив 300 публикаций, ИН изучил человека намного лучше, чем его супруг. Это один из примеров, как с помощью искусственного интеллекта в современном цифровом мире можно узнать всё о человеке. Как защитить себя и свои персональные данные в интернет-пространстве в современном мире? Проанализировав несколько возможностей, были выбраны наиболее лучшие из них. Например, первое на сегодняшний день всякие вредоносные приложения остаются на передовых местах для отслеживания ваших персональных данных. Хотя эти программы на сегодняшний день устанавливаются только с полного разрешения пользователя. В них есть встроенные настройки, например, одни приложения могут отслеживать сайты, на которых человек заходил, другие даже может прослушивать телефонные разговоры. С помощью той или иной информации, которую мы указываем в социальных сетях, в страницах Интернет мы сами того не зная даём разрешение пользоваться нашими личными данными. Как же быть и как же защитить наши персональные данные в современном мире? Во-первых, нужно использовать необычные и непохожие друг на друга пароли. Только в таком случае злоумышленнику будет очень сложно и невозможно взломать этот пароль и воспользоваться личными данными. Далее, можно ограничить себя в использовании различных файлов и приложение, кстати совершенно не нужных. Также многие программисты считают, что нужно устанавливать специальные антивирусные программы, которые ищут, находят и смогут удалить вредоносные приложения и гарантирует защиту персональных данных. Помимо всех этих методов нужно всегда помнить, что в интернете нужно оставлять как можно меньше информации касательная личности человека, для того чтобы не было кражи и неправомерного использования ваших данных.

В заключение необходимо отметить, что, проанализировав различные международные договора, сравнивая их с местным законодательством было бы правильно сказать, что наше законодательство идёт в правильном направлении касательно персональных данных. Но XXI век - век технологий и век искусственного интеллекта диктует новые правила под которые субъекты права должны подстраиваться, точнее сказать, есть ещё в правовом отношении цифрового пространства пробелы и неточности которые необходимо урегулировать для обеспечения безопасности при обработке персональных данных.

## **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» от 2019 года.
2. Конституция Республики Узбекистан от 30 апреля 2023 года.
3. Гражданский Кодекс Республики Узбекистан от 21 декабря 1995 года.
4. Конвенция о защите частных лиц в отношении автоматизированной обработки данных личного характера. №108.Страсбург, 28 января 1981 года
5. Директива Европейского Парламента и Совета Европейского Союза.Люксембург. (95/46/ЕС/ 24 октября 1995 года)
6. Закон Республики Узбекистан, от 29.10.2021 г. № ЗРУ-726
7. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан на состоянии 12.04.2023
8. Sarah Knapton."Facebook knows you better than your members of your own family".[www.telegraph.co.uk/news](http://www.telegraph.co.uk/news). 12 January 2015

## **МЕРОСНИ ЭГАЛЛАШ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛУВЧИ ҚОНУНЧИЛИКНИНГ ТАҲЛИЛИ**

**М. Шодмонова**

ТДЮУ мустақил изланувчиси

e-mail: shodmanovamokhira@gmail.com

### **АННОТАЦИЯ**

*Меросни ҳуқуқий тартибга солиш узоқ вақтдан бери маданиятлар ва цивилизациялар орасида муҳокама ва мунозара мавзуси бўлиб келган. Бу мавзу атрофидаги мақол ҳикматлари инсоннинг вафотидан кейин бойлик ва мулкни тақсимлаш билан боғлиқ чуқур илдиз отган жамият нормалари, қадриятлари ва таъвишларини акс эттиради.*

***Калит сўзлар:** мерос таркиби, “мерос мол-мулки”, “мол-мулк”, “тоза кўринишида”.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Правовое регулирование наследования уже давно является предметом дискуссий и споров среди культур и цивилизаций. Пресловутая мудрость, окружающая эту тему, отражает глубоко укоренившиеся социальные нормы, ценности и опасения относительно распределения богатства и собственности после смерти человека.*

***Ключевые слова:** композиция наследия, «объект наследия», «собственность», «чистый внешний вид».*

### **КИРИШ**

Мерос тушунчаси доктринал тус касб этади, чунки бир қатор мамлакатлар қонунчилигида, шу жумладан миллий қонунчиликда ҳам унга синоним бўлган “мерос” тушунчаси қўлланилади. Бироқ қонун чиқарувчи кўрсатиб ўтилган тушунчани ифодалашда бошқа атамалар, хусусан: “мерос мол-мулки” (ФКнинг 1157-моддаси), “мол-мулк” (ФКнинг 1114, 1120-моддалари), “мерос таркибига кирадиган мол-мулк” (ФКнинг 1153-моддаси)дан фойдаланишини ҳам ҳисобга олиш лозим.

Бунда атамашуносликдаги “хилма-хиллик”да уларнинг бир-биридан аниқ фарқларини белгилаш ва тадқиқ этилаётган институтнинг терминлари аниқлаб олиш лозимки, шу сабабли цивилистикадаги алоҳида категория сифатида “мерос” атамасининг ҳуқуқий моҳияти ва мазмунини аниқлашга эътибор қаратамиз.

Хусусан, А.П.Сергеев ва Ю.К.Толстойлар томонидан бу атамага нисбатан умумий таъриф берилди ва уларнинг фикрича “мерос деганда мерос қолдирувчининг вафотидан кейин унинг меросхўрларига ҳуқуқий ворислик тартибида ўтадиган нарсалар тушунилади”<sup>1</sup>.

Ушбу атама Э.Б.Эйдинова томонидан кенгроқ ёритилади: “мерос таркиби – мерос қолдирувчига қонуний асосларга кўра тегишли бўлган ва унинг вафотидан кейин ворислик ҳуқуқи асосида меросхўрларга ўтадиган мерос қолдирувчининг мулкӣ ва айрим шахсий номулкий ҳуқуқлари ва мажбуриятларидир”<sup>2</sup>.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Н.С.Кириллова мерос активлар ва пассивлардан иборат бўлади, деган хулосага келади. “Актив – меросхўр “тоза кўринишда”, яъни қандайдир чеклашлардан холи ҳолда оладиган мерос очилиши вақтида мерос қолдирувчига тегишли бўлган мол-мулк, мулкӣ ҳуқуқлар йиғинидиси; Пассив – мерос қолдирувчининг қарзлари. Мероснинг чеклашлари сифатида муаллиф васият мажбуриятидаги мажбурият ва мерос тартибида ўтган мол-мулкдан солиқ тўловлари, мерос қолдирувчининг вафотидан олдинги касаллигида қилинган харажатлар, унинг дафн этилиши билан боғлиқ харажатларни киритади”<sup>3</sup>.

Дарҳақиқат, мерос нафақат актив (ҳуқуқ)лардан, балки пассив элемент (мажбурият)лардан ҳам, бошқача айтганда, қарзлардан ташкил топади. Илгари цивилистикада қарзлар, айрим муаллифларнинг фикрича, мерос ҳажми таркибига кирмаган<sup>4</sup>.

Мерос таркибига фақат мерос қолдирувчи ҳаётлигида унга тегишли бўлган ҳуқуқ ва мажбуриятлар кириши мумкин. Агар ҳуқуқ ва мажбуриятлар мерос қолдирувчи вафотидан кейин юзага келса, бу ҳолда ҳуқуқий ворислик ҳақида сўз юритиб бўлмайди, бинобарин бундай ҳуқуқ ва мажбуриятлар меросхўрда вужудга келади, аксинча ворислик бўйича ўтмайди. Бошқача айтганда, бу ўринда мерос қолдирувчининг вафотидан ташқари, қонунда белгиланган бошқа юридик фактлар ҳам мавжуд бўлиши лозим.

ФКнинг 1118-моддасига кўра, мерос очилган пайтда ҳаёт бўлган фуқаролар, шунингдек мерос қолдирувчининг ҳаётлик пайтида ҳомила ҳолида бўлган ва мерос очилгандан кейин тирик туғилган болалари васият ва қонун бўйича меросхўр бўлишлари мумкин.

Мерос очилган пайтда тузилиб бўлган юридик шахслар, шунингдек давлат

<sup>1</sup> Гражданское право / Под ред. А. П. Сергеева, Ю. К. Толстого. – Т. 3. – М.: Статут, 1999. – С. 527.

<sup>2</sup> См. подробнее: Эйдинова Э.Б. Наследование по закону и завещанию. – М.: Юридическая литература, 1984.



ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳам васият бўйича меросхўр бўлишлари мумкин.

Қонун бўйича ёки васият бўйича ворис мерос очилганидан кейин вафот этса ва уни олти ойлик муддат ичида қабул қилишга улгурмаса, унинг улушини қабул қилиш ҳуқуқи унинг қонун бўйича ёки васият бўйича, агар у мавжуд бўлса, ворисларига ўтади. Ворисликнинг бундай тартибини қонун ворисликнинг ўтиши деб атади (*ФКнинг 1140-1-моддаси*). Ворислар ворисликнинг ўтиши тартибида меросни вориснинг ўлиmidан кейин қолган меросни қабул қилиш учун белгиланган муддат мобайнида қабул қилиб олишлари керак. Масалан, К. 2018 йилда шимолда узок муддат хизмат сафариди бўлди. Шу 5 декабрда у уйига қайтиб келди ва 2018 йил 1 мартда бобоси вафот этиб, унинг мол-мулкига қонун бўйича отаси ворис бўлганлигини билди. Бироқ, меросга эгаликка киришмаган К.нинг отаси ҳам 2018 йил 12 июлда вафот этди ва бутун мол-мулкини ўғлига васият қилиб қолдирди. Отадан қолган меросга ворис бўлиш муддати К. учун 2018 йил 12 октябрда тугаган, бироқ узок муддатли хизмат сафарини суд уч ойлик муддат ўтказиб юборилишида узрли сабаб деб топиб, К.нинг ворисликка киришиш муддатини узайтириш мумкин бўлади. Агар ворис амалда меросни қабул қилган, бироқ ўз ҳуқуқларини нотариал тарзда расмийлаштирмасдан вафот этган бўлса, ворисликнинг ўтиши юз бермайди, унинг ворислари эса умумий асосда ворис бўладилар, яъни мол-мулк собиқ мерос қолдирувчига эмас, балки унинг ўзига тегишли деб ҳисобланади.

Агар фуқарода ворис меросдан воз кечган тақдирда ёки номуносиб ворис меросдан четлатилган тақдирда ворислик ҳуқуқи юзага келса, бундай фуқаролар уларда ворислик ҳуқуқи юзага келган кундан бошлаб 6 ой мобайнида меросни қабул қилишлари мумкин.

Меросхўр ўзига тегиши лозим бўлган меросни ёки унинг бир қисмини (улушини) олиш ҳуқуқига, агар у кейинчалик меросдан воз кечмаса, ворислик ҳуқуқидан маҳрум этилмаса ва уни меросхўр этиб тайинлаш тўғрисидаги васият фармойиши ҳақиқий эмас деб топилиши натижасида мерос олиш ҳуқуқини йўқотмаса, мерос очилган вақтдан эътиборан эга бўлади.

Меросни қабул қилиб олиш меросхўрнинг илтимосига кўра унга мерос очилиши жойидаги нотариус томонидан бериладиган ворислик тўғрисидаги гувоҳнома билан тасдиқланади.

<sup>3</sup> Кириллова Н. С. Наследственное правоотношение: Автореф. канд.юрид.наук. – М.2002. – С.18.

<sup>4</sup> Серебровский В.И. Избранные труды по наследственному и страховому праву // [http://civil.consultant.ru/elib/books/9/page\\_1.html](http://civil.consultant.ru/elib/books/9/page_1.html)

Меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома мерос очилган кундан эътиборан 6 ой ўтганидан кейин берилади. Қонун бўйича мерос олинганида ҳам, васиятнома бўйича мерос олинганида ҳам, агар нотариус тегишли мол-мулкка ёхуд бутун меросга нисбатан гувоҳнома беришни сўраб мурожаат этган шахслардан бошқа меросхўрлар йўқлиги тўғрисида маълумотларга эга бўлса, гувоҳнома юқорида кўрсатилган муддат тугамасидан олдин берилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Судлар томонидан мерос ҳуқуқига оид қонунчиликнинг қўлланилиши тўғрисида” 2011 йил 20 июлдаги 05-сон қарорининг 18-бандида меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома, ворислик васият ёки қонун бўйича эканлигидан қатъи назар, мерос очилган кундан бошлаб олти ой ўтгандан сўнг мерос очилган жойдаги нотариус томонидан берилиши, ФК 1146-моддаси учинчи қисмида назарда тутилган ҳоллар бундан мустаснолиги, меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳномани олиш меросхўрнинг мажбурияти эмас, балки ҳуқуқи бўлганлиги сабабли, қонунда меросхўр бундай гувоҳнома бериш тўғрисида ариза билан мурожаат қилиши шарт бўлган муддат белгиланмаганлиги судларга тушунтирилган<sup>5</sup>.

Нотариуснинг меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома беришни рад этиши устидан меросхўр томонидан судга шикоят берилиши мумкин бўлиб, у Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексининг 28-боби қоидаларига биноан кўриб чиқилади.

Агар нотариус томонидан рад этилиши бошқа шахсга меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома берилганлиги ёки мерос мулки ФКнинг 1157-моддасига асосан фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ёки давлатга ўтказилганлиги билан боғлиқ бўлса, ариза даъво иши юритиш тартибида кўрилади<sup>6</sup>.

Меросни қабул қилиш учун муддат Ўзбекистон қонун ҳужжатлари билан белгиланмаган. Яъни ворис исталган вақтда нотариусга унга ворислик тўғрисидаги гувоҳнома бериш талаби билан, агар у шундай ҳуқуққа эга бўлса, мурожаат қилиши мумкин.

Дарвоқе, баъзи хорижий мамлакатларнинг қонунчилиги меросни қабул қилиш учун муайян муддатни назарда тутади. Масалан, Россия Федерациясининг Гражданлик кодексининг<sup>7</sup> 1154-моддасига мувофиқ бундай муддат 6 ой деб белгиланган. Агар ворис нотариусга ушбу муддат мобайнида

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Судлар томонидан мерос ҳуқуқига оид қонунчиликнинг қўлланилиши тўғрисида” 2011 йил 20 июлдаги 05-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2414320>

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси // <https://lex.uz/docs/180552>

<sup>7</sup> Гражданский кодекс Российской Федерации // [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34154](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34154)

мурожаат қилмаса, у ворислик ҳуқуқини йўқотади, бундан муддатни суд узрли сабабларга кўра ўтказиб юборилган деб топганлиги мустаснодир.

Меросни олиш (қонун бўйича ёки васият бўйича) учун ворис уни қабул қилиши, яъни ворислик мол-мулки мерос қолдирувчидан унга ўтиши тўғрисидаги хоҳиш-иродаси ва меросни олишга доир ўз ниятини изҳор этиши керак. Бунда ворис мерос қолдирувчига ҳаётлигида тегишли бўлган мулкӣ ҳуқуқлар ва мажбуриятларда унинг ўрнини босади. Шунини таъкидлаш лозимки, кишини меросни қабул қилиб олишга мажбурлаб бўлмайди, вориснинг ўзи уни қабул қилиш ёки рад этишга бўлган ўз хоҳиш-иродасини изҳор этиши керак.

Қонун меросни қандайдир шартлар ёки таъкидлашлар билан қабул қилиб олишга йўл қўймайди, масалан, ворисда қабул қилаётган мерос учун солиқ тўлашга пул бўлгандагина меросни қабул қилиб олиш мумкин эмас. Агар меросни қабул қилиб олиш тўғрисидаги аризада бирор-бир шартлар ёки таъкидлашлар мавжуд бўлса, у ҳақиқӣ эмас (ўз-ўзидан ҳақиқӣ эмас) деб баҳоланади, шу сабабли уни тақдим этиш меросни олишга олиб келмайди, ушбу аризага асосан берилган меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома эса кучга эга бўлмайди.

Агар ворислар бир нечта бўлса, уларнинг ҳар бири мероснинг ўзига тегишли улушини қабул қилганлиги тўғрисида эълон қилиши керак. Агар уни бир ворис қабул қилган бўлса, бу нарса бошқа ворислар томонидан мерос ўз-ўзидан қабул қилиб олинishiга олиб келмайди.

Ворис меросни ҳақиқатда қабул қилиб олганлигидан далолат берувчи, хусусан, қуйидаги ҳаракатлар содир этганлиги эътироф этилади:

- ворислик мол-мулкига эгалик қилиш ёки уни бошқаришга киришиш (масалан, мерос қолдирувчининг квартирасида амалда яшаганлик);
- ворислик мол-мулкни бут сақлаш, уни бошқа шахсларнинг тажовузлири ёки даъволаридан ҳимоя қилиш чораларини кўриш (масалан, мерос қолдирувчининг автомашинасига сигнализация ўрнатиш);
- ворислик мол-мулкни сақлаш харажатларини ўз ҳисобидан амалга ошириш (масалан, коммунал хизматлар ҳақини тўлаш);
- мерос қолдирувчининг қарзларини ўз ҳисобидан тўлаш ёки учинчи шахслардан мерос қолдирувчига тегишли пул маблағларининг олинishi (масалан, мерос қолдирувчига ҳаётлигида тўланмаган иш ҳақининг).

Бундай ҳаракатларнинг рўйхати мерос қабул қилиб олинганлигини тасдиқлайдиган ҳар қандай бошқа амалдаги қонуний ҳаракатлар билан тўлдирилиши мумкин.

Қонунда назарда тутилган, меросни амалдаги ҳаракатлар билан қабул қилиш усули кейинчалик вориснинг нотариал идорага меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисида гувоҳнома бериш юзасидан ариза билан мурожаат қилишини истисно этмайди. Ворисда меросни қабул қилишда нотариал идора учун етарли исбот-далиллар бўлмаганда меросни қабул қилиш учун юридик аҳамиятга эга бўлган далиллар суд тартибида белгиланиши мумкин.

Агар ҳақиқатда меросни қабул қилиб олган ворис унга бўлган ҳуқуқ тўғрисида гувоҳномани расмийлаштирмаган бўлса, бу ҳол унинг бундай ҳуқуқдан маҳрум этилишини билдирмайди. “Очиқ улуш” (ворис мерос қолдирувчи билан унинг вафот этишигача бирга яшаган ва ворислик ҳуқуқларини расмийлаштирмаган ҳолат) ворис ёки ворислар унинг вафотидан кейин меросга оид ҳуқуқни расмийлаштиришга қарор қилишларига қадар мавжуд бўлиши мумкин. Меросни расмийлаштиришнинг вақт доираларини мазкур ҳолларда қонун чиқарувчи белгиламаган.

Мерос мулки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органига, давлатга ёки бирор-бир шахснинг эгалигига ўтказилганлиги тўғрисида меросхўрларга нотариал идора томонидан меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисида гувоҳнома бериш рад этилса, меросхўр судга шикоят қилишга ҳақли. ФКнинг 1146-моддасига асосан меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома мерос очилган кундан эътиборан олти ой ўтгач берилади. Ушбу ўринда айтиш жоизки айрим давлатларда меросни қабул қилиш бўйича турлича муддат белгиланган. Жумладан, Украина ФКнинг 1268- моддасига асосан, қонун бўйича меросни қабул қилиб олиш учун олти ой муддат белгиланган<sup>8</sup> бўлса, Германияда меросни қабул қилиш учун олти ҳафта, Италияда ўн йил, Польшада олти ой, Чехияда бир ой муддатда, Францияда ўттиз йил муддат ичида меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисида гувоҳномани олиш учун нотариал идорага мурожаат этиш мумкин<sup>9</sup>.

ФКнинг 1147- моддасида меросдан воз кечиш ҳуқуқи кўрсатилган бўлиб, бунга асосан, меросхўр ўзининг ворисликка чақирилганини билган ёки билиши лозим бўлган кундан бошлаб олти ой ичида меросдан воз кечишга ҳақли. Қонуннинг ушбу моддаси амалиётда қўлланилгач, ижобий натижа бермади. Бу ҳолатни мисол билан таҳлил қиладиган бўлсак, шахс вафот этгач, унинг ворислари ичидан бирортаси мерос олишни истамаса, олти ой муддат ичида нотариал идорага, меросдан ўзига тегишли улушини олишдан воз кечганлиги

<sup>8</sup>“Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007,– №4. –С.6-8.

<sup>9</sup> “Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007,–№4. –С. 6-9.



ҳақида ариза бериши лозим. Олти ой ўтгач нотариус ушбу мазмундаги аризани қабул қилиши қонунга зид бўлиб ҳисобланади. Бизнинг одатларимизга кўра, ҳовли-жой ота-она вафотидан сўнг, кўпинча кичик ўғилга қолади. Бунинг учун бошқа меросхўрлар ўз улушини олмаслик ҳақида олти ой ичида нотариусга ариза бериши керак. Одатда миллий урф-одатимиздан келиб чиқиб, мерос ҳақида марҳумнинг йилини ўтказиб нотариусга мурожаат этилади. Бундай ҳолларда барча меросхўрлар мазкур ҳуқуқ нормасидан келиб чиқиб, амалиётда аввал меросни қабул қилиб олиб, сўнг улушини бир меросхўр (укаси)га ҳады шартномаси асосида ўтказиб бермоқдалар. Ушбу ҳолатда фуқаролар идорама-идора юриб, мерос ишига алоҳида ҳужжат, ҳады учун алоҳида ҳужжат тўплаб, сарсон бўлмоқдалар. Фикримизча, ФКнинг 1147- моддасидаги “меросхўр ўзининг ворисликка чақирилганлигини билган ёки билиши лозим бўлган кундан бошлаб, деган жумладан сўнг “олти ой муддат” деган жумлани “бир йил муддат ичида” деб ўзгартириб, “меросдан воз кечишга ҳақли” деган жумлани кўшиш лозим. Бу ўзгартириш фуқароларимизнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган омиллардан бўлади деб ўйлаймиз.

Таъкидлаш жоизки, Францияда меросдан воз кечиш ҳуқуқини амалга ошириш учун ўттиз йил муддат белгиланган<sup>10</sup>. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги “Нотариат тўғрисида”ги 343-И-сон қонуни 59-моддасининг иккинчи қисмига кўра, меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома барча меросхўрларга биргаликда ёки уларнинг хоҳишига кўра ҳар бирига алоҳида берилиши мумкин<sup>11</sup>. Агарда мерос қолган мулкка суд ёки тергов идоралари томонидан тақиқ солинган бўлса, мерос олиш ҳуқуқи тўғрисидаги гувоҳномани бериш тақиқ олиб ташлангунча тўхтатиб турилади.

Адабиётларда оталикни тан олиш ёки оталик фактлари белгиланиши, у қайси шаклда амалга оширилганлигидан қатъий назар, ота-она ҳамда бола ўртасида ҳуқуқ ва мажбуриятлар вужудга келишига асос бўлиши таъкидланади<sup>12</sup>. Бу эса айни пайтда меросхўрлар доирасини белгилаш муаммоларни вужудга келтириши мумкин. Шунинг учун оталикни белгилаш орқали меросхўрлар доирасини аниқ ифодалаш имкони юзага келади.

Асосан бундай ҳолларда судга мурожаат қилувчилар ўртасида, яъни меросхўрлар доирасини аниқлашда юзасидан даъво ёки алоҳида иш юритиш

<sup>10</sup> “Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007, –№4. –7 с.

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги “Нотариат тўғрисида”ги 343-И-сон қонуни // <https://lex.uz/docs/54458>

<sup>12</sup> Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш тўғрисидаги ишларни судда кўришнинг процессуал хусусиятлари. юрид. фан. номз. дисс...автореф. –Тошкент: 2005. -22 б.; Эсанова З.Н. Болалар тарбияси билан боғлиқ низоларни фуқаролик судида кўришнинг процессуал хусусиятлари. юрид. фан. док. дисс...автореф. –Тошкент: 2010. -42 б.

тартибида иш қўзғатиш тўғрисида мунозара қилинади, лекин қонунчилигимизда вафот этган шахс (фарзанд)га нисбатан оталикнинг белгиланиши ҳақида ҳеч қандай кўрсатма мавжуд эмас. Бундай ҳолларда вафот этган шахсдан қолган меросга эга бўлиш мақсади ота-она ёки бошқа манфаатдор шахсларни судга мурожаат қилишига олиб келади ва натижада иш бўйича манфаатдор шахслар ўртасида турли хил низолар юзага келишига сабаб бўлади. Бундай низоли ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида, Оила кодексининг 62-моддасига бешинчи қисм сифатида **“ўзаро никоҳда бўлмаган шахслардан туғилган боланинг вафотидан сўнг унга нисбатан оталикни белгилашга йўл қўйилмайди”**, деган жумла киритилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Қонун бўйича ворис (меросхўрлар) доирасини белгилашда юридик шахснинг меросхўр бўлиши масаласи ФКда ноаниқ белгиланганлигига эътибор қаратиш лозим. ФКнинг 1118-моддаси иккинчи қисмида “мерос очилган пайтда тузилиб бўлган юридик шахслар” меросхўр бўлишлари мумкинлиги белгиланган. Бироқ мерос очилган пайтда тузилиб, кейинчалик ушбу юридик шахснинг тузилиши ҳақиқий эмас деб топилиши ёки унинг тугатилиши ҳолатлари эса ФКда очиқ қолдирилган. Фикримизча, бу ҳолатда “мерос очилган пайтда” эмас, балки “мерос очилгунга қадар” юридик шахс тузилган бўлиши лозим. Чунки, “мерос очилган пайтда тузилиб бўлиниш” ноаниқ ҳисобланади, зеро ФКнинг 1116-моддасига кўра мерос шахс вафотидан сўнг дарҳол очилади.

Бу борада Қозоғистон ГКнинг 1044-моддасида аниқ қоида ўрнатилганлигини кўриш мумкин. Жумладан, Қозоғистон ГКнинг 1044-моддаси 2-қисмида<sup>13</sup> белгиланишича, мерос очилгунга қадар тузилиб бўлган ва мерос очилган вақтда фаолият юритаётган юридик шахслар, шунингдек давлат васият бўйича меросхўр бўлишлари мумкин.

Шундан келиб чиқиб, ФКнинг 1118-моддаси иккинчи қисмини қуйидагича белгилаш лозим:

Мерос очилгунга қадар тузилиб бўлган ва мерос очилган вақтда фаолият юритаётган юридик шахслар, шунингдек давлат ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳам васият бўйича меросхўр бўлишлари мумкин.

<sup>13</sup> Гражданский кодекс Республики Казахстан // [https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij\\_kodeks\\_osobennaya\\_chast/1044.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij_kodeks_osobennaya_chast/1044.htm)

## **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Гражданское право / Под ред. А. П. Сергеева, Ю. К. Толстого. – Т. 3. – М.: Статут, 1999. – С. 527.
2. См. подробнее: Эйдинова Э.Б. Наследование по закону и завещанию. – М.: Юридическая литература, 1984.
3. Кириллова Н. С. Наследственное правоотношение: Автореф.канд.юрид.наук. – М.2002. – С.18.
4. Серебровский В.И. Избранные труды по наследственному и страховому праву // [http://civil.consultant.ru/эlib/books/9/page\\_1.html](http://civil.consultant.ru/эlib/books/9/page_1.html)
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Судлар томонидан мерос ҳуқуқида оид қонунчиликнинг қўлланилиши тўғрисида” 2011 йил 20 июлдаги 05-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2414320>
6. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси // <https://lex.uz/docs/180552>
7. Гражданский кодекс Российской Федерации // [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34154](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34154)
8. “Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007,– №4. – С.6-8.
9. “Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007,–№4. –С. 6-9.
10. “Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска”// Ж.Бюллетень нотариальной практики. ООО Издательство Юрист.2007, –№4. –7 с.
11. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги “Нотариат тўғрисида”ги 343-И-сон қонуни // <https://lex.uz/docs/54458>
12. Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш тўғрисидаги ишларни судда қўришнинг процессуал хусусиятлари. юрид. фан. номз. дисс...автореф. –Тошкент: 2005. -22 б.; Эсанова З.Н. Болалар тарбияси билан боғлиқ низоларни фуқаролик судида қўришнинг процессуал хусусиятлари. юрид. фан. док. дисс...автореф. – Тошкент: 2010. -42 б.
13. Гражданский кодекс Республики Казахстан // [https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij\\_kodeks\\_osobennaya\\_chast/1044.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/grazhdanskij_kodeks_osobennaya_chast/1044.htm)

## **INTERNET TARMOQLARIDAGI BA'ZI SAYTLARINING O'SMIRLAR PSIXIKASIGA SALBIY TA'SIRI**

**Jumaqulova Shahnoza Jumaqul qizi,**

Amaliyotchi psixolog

E-mail: jumaqulovna00@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada o'smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlari, o'smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo'llari va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning, jumladan, ba'zi internet saytlarining o'smir psixikasiga salbiy ta'siri ilmiy jihatdan tadqiq qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Internet, psixika, qaramlik, maishiy psixologiya, o'spirin, virtual muhit, fiziologik ehtiyoj, ekzistensial ehtiyoj, ijtimoiy ehtiyoj, ruhiy ehtiyoj.*

## **THE NEGATIVE EFFECT OF SOME INTERNET SITES ON ADOLESCENT PSYCHOLOGY**

**Jumakulova Shahnoza Jumakul qizi,**

Practicing psychologist

E-mail: jumaqulovna00@mail.ru

### **ABSTRACT**

*In the article, the characteristics of the psychological development of adolescence, the ways in which the adolescent personality is formed and matured, and the biological and social factors that affect it, including the negative impact of some Internet sites on the adolescent psyche, are scientifically researched.*

***Key words:** Internet, psyche, addiction, household psychology, adolescent, virtual environment, physiological need, existential need, social need, prestigious need, spiritual need.*

## **НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НЕКОТОРЫХ ИНТЕРНЕТ-САЙТОВ НА ПОДРОСТКОВУЮ ПСИХОЛОГИЮ**

**Жумакулова Шахноза Жумакул кизи,**

Практикующий психолог

E-mail: jumaqulovna00@mail.ru

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье научно обоснованы особенности психологического развития подросткового возраста, способы формирования и взросления личности*



подростка, а также биологические и социальные факторы, влияющие на это, в том числе негативное влияние некоторых интернет-сайтов на психику подростка. исследовал.

**Ключевые слова:** Интернет, психика, аддикция, бытовая психология, подросток, виртуальная среда, физиологическая потребность, экзистенциальная потребность, социальная потребность, престижная потребность, духовная потребность.

## **KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida zamon talablariga hamohang yashayotgan yosh avlodning internetga tobeligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Hozirda deyarli barcha xonadonlarda internetga ulangan shaxsiy kompyuterlar mavjud bo'lib, ulardan o'smir-yoshlar keng foydalanib kelishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bolalar, o'smirlar va yoshlar hayotida juda muhim o'rin egalladi. Mazkur internet saytlarida o'smirlar psixologiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi ayrim saytlarning mavjudligi mavzuning naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada o'smir psixologiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va manbalar tahlili amalga oshirildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Aksariyat bolalar monitor oldida juda ko'p vaqt o'tkazadilar, bu esa ularning ta'biricha, fikrlari va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi dunyoda Internet butun dunyoni va inson hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Shu boisdan ham endilikda hayotimizni ushbu manbasiz tasavvur qilish juda qiyin.

Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiylashuviga internet va ijtimoiy tarmoqlar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Internet insonlar hayot tarzini soddalashtiradi hamda ular uchun ko'p imkoniyatlar eshigini ochadi. Shuningdek, o'qish va ishda ham katta yordam beradi. Kishilar qisqa fursat ichida ma'lum bir mavzu bo'yicha o'zini qiziqtirgan har qanday ma'lumotni olishi, bir necha soniya ichida dunyoning istalgan nuqtasiga murojaat qilishi mumkin. Internet insoniyatga katta imkoniyatlar beradigan ajoyib kashfiyotdir.

Shuni alohida qayd etish joizki, internetning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Internetda, ayniqsa, yosh avlod ongiga salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-axloqni emiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Keyingi

paytlarda internet bilan bog‘liq buzg‘unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko‘payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G‘alamis kimsalar yoshlarni o‘z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O‘zlarini “yaqin do‘st” yoki “hidoyatga chorlovchi” sifatida tanitib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmoqda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yo‘q, faqatgina to‘da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o‘tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog‘orasiga o‘ynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval din-u diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so‘zlarni gapirib, g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda. Internetdan olingan narsa to‘g‘ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma‘lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi.. Bularning barchasi shaxsning bosqichma-bosqich tanazzulga uchrashiga olib keladi, chunki o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiynalayotgan, asotsial o‘smirlar jamiyatdagi muammolarni yanada kuchaytiradi.

Ko‘pgina yoshlar ~~uchun~~ internetdan ko‘ngilochar vosita sifatida foydalanadi, uning qimmatli bilimlar manbasi ekanligi hamda o‘quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o‘ringa tushib qoladi. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g‘animat ekanini doimo yodda saqlamog‘i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo‘lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o‘tkazib yuborishi mumkin. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta’sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘qituvchilar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yosh avlodning g‘oyaviy- mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi.

O‘smirlar tomonidan o‘ynaladigan turli o‘yinlar shunchaki qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrimlari ularning hayoti va salomatligiga jiddiy xavf solishi mumkin. Ko‘plab saytlar o‘smirlar va yoshlarning balog‘at yoshida kuzatiladigan psixologik va emotsional o‘zgarishlar, xulq-atvoridagi o‘ziga xosliklardan unumli foydalanib, yaqin insonlari bilan nizoli vaziyatlarga duch kelganda va ruxsat etilmagan saytlarga kirishga moyilligi yuqori bo‘lgan paytda o‘zlariga jalb qiladi.

Internet mavhum hodisa bo‘lib, uning o‘smirlarga ta’siri ham xuddi shunday noaniqdir. Bu esa uning chegaralari yo‘qligi sabab salbiy oqibatlariga olib keladi,

ya'ni o'smirlarni ijtimoiy normalarga zid bo'lgan turli axborot va ma'lumotlardan himoya qila olmaydi. Foydali ma'lumotlar bilan bir qatorda, giyohvand moddalar, o'z joniga qasd qilish holatlari, terrorchilar harakatlari, pornografiya materiallari mavjud bo'lib, ular hali ma'naviy qadriyatlar to'la shakllanmagan yoshlar uchun katta xavf tug'diradi. Jumladan, barchaga ma'lum bo'lgan internetdagi shov-shuvli o'yinni bunga yorqin misol sifatida olish mumkin, ya'ni «Moviy kit» deb ataluvchi mazkur o'yin muhokamalarsiz bajarishni talab qiladigan provokatsion vazifalar, o'smirlarni yakunida o'z joniga qasd qilishga undovchi shafqatsiz ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Unda ishtirok etish psixologik immuniteti sust bo'lgan ko'plab bolalarning hayotiga zomin bo'ldi.

Kattalar tomonidan to'g'ri nazorat qilinmasa, yoshlar ijtimoiy tarmoqda salbiy axborot va psixologik ta'sirlar natijasida manipulyatsiya obyektiga aylanadi. Yoshlarning axborot urushi quroli sifatida foydalanilishi, ommaviy norozilik aksiyalariga jalb etilishi odatiy hol emas. Bolaning ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremistik guruhlariga, faoliyati g'ayri ijtimoiy, noqonuniy, shu jumladan, jinoiy harakatlarni sodir etishga qaratilgan buzg'unchi diniy tashkilotlarga jalb qilish ehtimoli bola uchun alohida xavf hisoblanadi. Bularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodlar uchun jiddiy salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi.

Internet ta'sirining salbiy tomonlari shundaki, unda yoshlar uchun ayanchli oqibatlarni keltirib chiqaradigan turli ma'lumotlar o'rin olgan. Jumladan, suitsidga da'vat etuvchi, giyohvand moddalar, spirtli ichimliklarni targ'ib qiluvchi, turli terrorchilik harakatlarini sodir etishga undovchi guruhlar har xil saytlarda faol bo'lishadi. Bunday saytlarga a'zo bo'lgan kishilar o'z joniga qasd qilishi, sovuq qurollar va giyohvand moddalarni sotib olishi hamda ulardan qanday foydalanishni o'rganib olishi mumkin. O'smirlar esa bunday toifadagi ma'lumotni tezda o'zlashtirib oladi.

Darhaqiqat, bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga etishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lmagan, ba'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar o'smirlar axloqiy-estetik tarbiyasiga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlariga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko'plab topiladi.

**Результаты:** Статья анализирует различные виды родительского авторитета, включая "авторитет подавления", "авторитет расстояния", "авторитет чванства" и "авторитет педантизма". Каждый из этих видов оценивается с точки зрения их воспитательного влияния на детей. Родители ревниво следят за выражением детских глаз и требуют нежности и любви. Часто мать при детях рассказывает знакомым: «Он страшно любит папу и страшно любит меня, он такой нежный ребенок... Такая семья настолько погружается в море сентиментальности и нежных чувств, что уже ничего другого не замечает. Мимо внимания родителей проходят многие важные мелочи семейного воспитания. Ребенок все должен делать из любви к родителям. В этой линии много опасных мест. Здесь вырастает семейный эгоизм. У детей, конечно, не хватает сил на такую любовь. Очень скоро они замечают, что папу и маму можно как угодно обмануть, только нужно это делать с нежным выражением. Папу и маму можно даже запугать, стоит только надуться и показать, что любовь начинает проходить. С малых лет ребенок начинает понимать, что к людям можно подыгрываться. А так как он не может любить так же сильно других людей, то подыгрывается к ним уже без всякой любви, с холодным и циническим расчетом.

Иногда бывает, что любовь к родителям сохраняется надолго, но все остальные люди рассматриваются как посторонние и чуждые, к ним нет симпатии, нет чувства товарищества. Это очень опасный вид авторитета. Он выращивает неискренних и лживых эгоистов. И очень часто первыми жертвами такого эгоизма становятся сами родители.

**Авторитет доброты.** Это самый неумный вид авторитета.

В этом случае детское послушание также организуется через детскую любовь, но она вызывается не поцелуями и излияниями, а уступчивостью, мягкостью, добротой родителей.

**Обсуждение:** Авторы высказывают мнение о вредных последствиях некоторых форм авторитета и рассматривают необходимость ориентации на настоящие цели воспитания, а не простого достижения послушания. Папа или мама выступают перед ребенком в образе доброго ангела. Они все разрешают, им ничего не жаль, они не скупые, они замечательные родители. Они боятся

всяких конфликтов, они предпочитают семейный мир. Они готовы чем угодно пожертвовать, только бы все было благополучно. Очень скоро в такой семье дети начинают просто командовать родителями, родительское непротивление открывает самый широкий простор для детских желаний, капризов, требований. Иногда родители позволяют себе небольшое сопротивление, но уже поздно, в семье уже образовался вредный опыт.

**Авторитет дружбы.** Довольно часто еще и дети не родились, а между родителями уже есть договор: наши дети будут нашими друзьями. В общем, это конечно хорошо. Отец и сын, мать и дочь могут быть друзьями и должны быть друзьями, но все же родители остаются старшими членами семейного коллектива, и дети все же остаются воспитанниками. Если дружба достигнет крайних пределов, воспитание прекращается или начинается противоположный процесс: дети начинают воспитывать родителей. Такие семьи приходится иногда наблюдать среди интеллигенции. В этих семьях дети называют родителей Петькой или Маруськой, потешаются над ними, грубо обрывают, поучают на каждом шагу, ни о каком послушании не может быть и речи. Но здесь нет и дружбы, так как никакая дружба невозможна без взаимного уважения.

**Авторитет подкупа** — самый безнравственный вид авторитета, когда послушание просто покупается подарками и обещаниями. Родители, не стесняясь, так и говорят: будешь слушаться, куплю тебе лошадку; будешь слушаться, пойдем в цирк. Разумеется, в семье тоже возможно некоторое поощрение, нечто похожее на премирование, но ни в каком случае нельзя детей премировать за послушание, за хорошее отношение к родителям. Можно премировать за хорошую учебу, за выполнение действительно какой-нибудь трудной работы. Но и в этом случае никогда нельзя заранее объявлять ставку и подстегивать детей в их школьной или иной работе соблазнительными обещаниями.

### **В чем же должен состоять настоящий родительский авторитет?**

Главным основанием родительского авторитета только и может быть жизнь и работа родителей, их гражданское лицо, их поведение. Семья есть большое и ответственное дело, родители руководят этим делом и отвечают за него перед обществом, перед своим счастьем и перед жизнью детей. Если родители это дело делают честно, разумно, если перед ними поставлены значительные и прекрасные цели, если они сами всегда дают себе полный отчет в своих действиях и поступках, это значит, что у них есть, и родительский



авторитет и не нужно искать никаких иных оснований и тем более не нужно придумывать ничего искусственного.

Как только дети начинают подрастать, они всегда интересуются, где работает отец или мать, каково их общественное положение. Как можно раньше они должны узнать, чем живут, чем интересуются, с кем рядом стоят их родители. Дело отца или матери должно выступать перед ребенком как серьезное, заслуживающее уважения дело.

Заслуги родителей в глазах детей должны быть, прежде всего, заслугами перед обществом, действительной ценностью, а не только внешностью. Очень важно, если эти заслуги дети видят не изолированно, а на фоне достижений нашей страны. Не чванство, а хорошая гордость должна быть у детей, но в то же время необходимо, чтобы дети гордились не только своим отцом или матерью, чтобы отец или мать в их представлении выступали как участники этого большого ряда деятелей.

При этом нужно всегда помнить, что в каждой человеческой деятельности есть свои напряжения и свое достоинство. Ни в коем случае родители не должны представляться детям как рекордсмены в своей области, как ни с чем несравнимые гении. Дети должны видеть и заслуги других людей, и обязательно заслуги ближайших товарищей отца и матери. Гражданский авторитет родителей только тогда станет на настоящую высоту, если это не авторитет выскочки или хвастуна, а авторитет члена коллектива. Если вам удастся воспитать своего сына так, что он будет гордиться целым заводом, на котором отец работает, если его будут радовать успехи этого завода, — значит, вы воспитали его правильно. Но родители должны выступать не только как деятели ограниченного фронта своего коллектива. Наша жизнь есть жизнь социалистического общества. Перед своими детьми и отец и мать должны выступать как участники этой жизни.

События международной жизни, достижения литературы - все должно отражаться в мыслях отца и в его чувствах в его стремлениях. Только такие родители, живущие полной Жизнью,

- граждане нашей страны будут иметь у детей настоящий авторитет. При этом не думайте, пожалуйста, что такой жизнью вы должны жить «нарочно», чтобы дети видели, чтобы поразить их вашими качествами. Это порочная установка. Вы должны искренно, на самом деле жить такой жизнью, вы не должны стараться особо демонстрировать ее перед детьми.

Будьте спокойны, они сами все увидят, что нужно.

Но вы не только гражданин. Вы еще и отец. родительское ваше дело вы должны выполнять как можно лучше, и в этом заключаются корни вашего авторитета. И прежде всего вы должны знать, чем живет, интересуется, что любит, чего не любит, чего хочет и чего не хочет ваш ребенок.

Вы должны знать, с кем он дружит, с кем играет и во что играет, что читает, как воспринимает прочитанное. Когда он учится в школе, вам должно быть известно, как он относится к школе и учителям, какие у него затруднения, как он ведет себя в классе.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ:**

Статья подчеркивает важность организации здорового и эффективного родительского авторитета для достижения полноценного воспитания детей. Вы не должны неожиданно узнавать о разных неприятностях и конфликтах, вы должны их предугадывать и предупреждать. Все это нужно знать, но это вовсе не значит, что вы можете преследовать вашего сына постоянными и надоедливymi расспросами, дешевым и назойливым шпионством. С самого начала вы должны так поставить дело, чтобы дети сами вам рассказывали о своих делах, чтобы им хотелось вам рассказать, чтобы они были заинтересованы в вашем знании. Иногда вы должны пригласить к себе товарищей сына, даже угостить их чем-нибудь, иногда вы сами должны побывать в той семье, где есть эти товарищи, вы должны при первой возможности познакомиться с этой семьей.

Для всего этого не требуется много времени, для этого нужно только внимание к детям и к их жизни. И если у вас будет такое знание и такое внимание, это не пройдет незамеченным для ваших детей. Дети любят такое знание и уважают родителей за это. Авторитет знания необходимо ведет и к авторитету помощи. В жизни каждого ребенка бывает много случаев, когда он не знает, как нужно поступить, когда он нуждается в совете и в помощи. Может быть, он не попросит вас о помощи, потому что не умеет этого сделать, вы сами должны прийти с помощью. Часто эта помощь может быть оказана в прямом совете, иногда в шутке, иногда в распоряжении, иногда даже в приказе. Если вы знаете жизнь вашего ребенка, вы сами увидите, как поступить наилучшим образом. Часто бывает, что эту помощь нужно оказать особым способом. Нужно бывает либо принять участие в детской игре, либо познакомиться с товарищами детей, либо побывать в школе и поговорить с учителем. Если в вашей семье несколько детей, а это — самый счастливый случай, к делу такой помощи могут быть привлечены старшие братья и сестры.

Родительская помощь не должна быть навязчива, надоедлива, утомительна. В некоторых случаях совершенно необходимо предоставить ребенку самому выбраться из затруднения, нужно, чтобы он привыкал преодолевать препятствия и разрешать более сложные вопросы. Но нужно всегда видеть, как ребенок совершает эту операцию, нельзя допускать, чтобы он запутался и пришел в отчаяние. Иногда даже лучше, чтобы ребенок видел ваши настороженность, внимание и доверие к его силам. Авторитет помощи, осторожного и внимательного руководства счастливо дополнится авторитетом знания. Ребенок будет чувствовать ваше присутствие рядом с ним, вашу разумную заботу о нем, вашу страховку, но в то же время он будет знать, что вы от него кое-что требуете, что вы и не собираетесь все делать за него, снять с него ответственность.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Khasanova, D. (2023). ENHANCING ENGLISH LANGUAGE TEACHING FOR ISLAMIC STUDIES STUDENTS: A FOCUS ON CURRICULUM DESIGN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 190-195.
2. Mirkhaydarovna, J. S., Irkinovna, D. N., Abdimuminovna, C. S., Shamsievna, I. P., & Kholmamatovna, B. L. (2023). Intensive Methods of Improving Linguistic Competence in the Russian Language of Students of Non-Linguistic Higher Education Institutions in Uzbekistan. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3518-3528.
3. Xasanova, D. (2020). THE ROLE OF TEST MAKING IN LEARNING PROCESS. *The Light of Islam*, 2020(3), 166-174
4. Б.М. Бим-Бад, Э.Д. Днепров, Г.Б. Корнетов. Мудрость воспитания: Книга для родителей- Москва. Педагогика, 1987
5. М.Г. Воинова, Г.П. Ахрарова. Педагогика. ТГЮИ, 2011- Ташкент
6. Сатретдинова, А. Х., & Пенская, З. П. (2021). Проблемы онлайн-обучения русскому языку как иностранному. In *Педагогическая наука и образование в диалоге со временем* (pp. 54-56).
7. Чиниева, С. А. (2020). Эффективные игровые технологии группового обучения. *Наука и образование сегодня*, (3 (50)), 62-64.

## **ILMIY DALILLAR VA ULARNING PEDAGOGIK TADQIQOTLARDAGI ROLI**

**Sayfutdinova Mexrinozbonu Zahiddin qizi**

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingiliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

[mexrinozbonusayfutdinova@gmail.com](mailto:mexrinozbonusayfutdinova@gmail.com)

Supervisor: (Phd) Axunov Muqumjon Muhammadaminovich

[muqumjon.axunov@bk.ru](mailto:muqumjon.axunov@bk.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Pedagogik tadqiqotlar, birinchi navbatda, aniq o'rnatilgan va empirik tarzda tekshirilishi, tushuntirilishi va ba'zan hatto bashorat qilinishi mumkin bo'lgan faktlarga tayanadi. Pedagogik tadqiqotlar ham mashhur pedagogik nazariyalar, tushunchalar, kashfiyotlar asosida olib boriladi, ular yordamida olingan faktlar tushuntiriladi. Ushbu maqolada ilmiy dalillar, empirik bilimlarning natijasi bo'lgan pedagogik tadqiqotlardagi roli haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ilmiy dalil, dalil, empirik dalil, empirik farazlar, talqin, ilmiy tushuntirish.*

### **ABSTRACT**

*Pedagogical research relies, first of all, on facts that are precisely established and can be empirically verified, explained, and sometimes even predicted. Pedagogical research is also based on well-known pedagogical theories, concepts, and discoveries, with their help the obtained facts are explained. This article discusses about scientific evidence, the role in pedagogical research, which is the result of empirical knowledge.*

**Keywords:** *scientific evidence, evidence, empirical evidence, empirical hypotheses, interpretation, scientific explanation.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Педагогические исследования опираются, прежде всего, на факты, которые точно установлены и могут быть эмпирически проверены, объяснены, а иногда даже предсказаны. Педагогические исследования также базируются на известных педагогических теориях, концепциях и открытиях, с их помощью объясняются полученные факты. В данной статье речь идет о научных доказательствах, о роли в педагогических исследованиях, которые являются результатом эмпирических знаний.*

**Ключевые слова:** *научные данные, доказательства, эмпирические данные, эмпирические гипотезы, интерпретация, научное объяснение.*

## **KIRISH**

“Dalil” degan so'zni eshitganda, ilm-fan aqlga birinchi bo'lib kelmasligi mumkin. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun dalillar to'plangan va taqdim etilgan politsiya tergovu yoki sud muhokamasi haqida o'ylash mumkin. Detektivlar va olimlarning dalillar to'plash nuqtai nazaridan qiladigan ishlari o'rtasida o'xshashliklar mavjud. Biroq, muhim farqlar mavjud. Politsiya ishida kimnidir jinoyat sodir etishda aybdorligini isbotlash uchun jinoiy dalillar to'planadi. Fanda dalil nimani anglatadi? Birinchidan, asosiyroq savolga aniqlik kiritish muhimdir. Birinchi navbatda dalil nima? Dalil - bu ma'lumotlar to'plami. U ma'lumotlar va faktlarni o'z ichiga oladi. Xo'sh, ilmiy dalil nima? Olimlar empirik dalillar deb ataladigan narsadan foydalanadilar. Bu bevosita kuzatishlar va o'lchovlar orqali to'plangan dalildir. Empirik dalillar ikkita asosiy turga bo'linadi: sifat va miqdor. Sifatli dalillar kuzatishlar orqali to'planadi va kuzatishlar sifati haqida yozma tavsiflar orqali xabar qilinadi. Miqdoriy dalillar o'lchov va hisob-kitoblar orqali to'planadi. Bu miqdor yoki miqdor va o'lchamlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi ma'lumotlar raqamlar yoki miqdorlar yordamida xabar qilinadi. Endi dalillar uchun ta'rif o'rnatilgandan so'ng, keyingi savollar olimlar ma'lumotlarni qanday va nima uchun to'playdi. Javoblar fanning o'z mohiyatini ochib beradi. Olimlar uchun kontseptsiyani g'oyalari asosida tushuntirishning o'zi kifoya qilmaydi. Olimlar o'zlarining tushuntirishlari asosli ekanligini ko'rsatishlari kerak. Empirik dalillar ilmiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, olimlar o'tkazayotgan eksperimentlarning haqiqiylikini ta'minlash uchun xolis faktlarni taqdim etadi. Bu olimlarga tabiiy dunyo uchun ob'ektiv tushuntirishlar yaratish imkonini beradi. Ushbu tushuntirishlar ko'pincha tabiiy tizimlarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadigan va kuzatilayotgan hodisaning sabablarini tavsiflovchi modellar sifatida taqdim etiladi. Kuzatilgan narsalarning ilmiy modellari yoki tushuntirishlari to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

## **METODOLOGIYA**

Ilmiy dalillar empirik bilimlarning natijasidir. Dalillarni (yoki dalillarni) aniqlash ilmiy tadqiqot uchun zaruriy shartdir. Dalillar moddiy yoki ma'naviy olam hodisasi, isbotlangan bilimlar boyligiga aylangan har qanday hodisa, mulk yoki munosabatlarning qaydidir. Axinshteynning fikricha, fanning boshlanishi va oxiri orasidagi nazariy tuzilmalar tuzilishidan qat'i nazar, dalillar bilan boshlanib, dalillar bilan yakunlanishi kerak. Dalil tushunchasi turli ma'nolarga ega. "Dalil" atamasining ko'plab ta'riflari orasida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Birinchidan, dalil mavjudlik hodisasi, ish, hodisa, tayanib bo'ladigan holat sifatida. Ular odamlarning



ular haqida bilishi yoki bilmasligidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan hayotning dalilidir. Ikkinchidan, borliqning idrok etilayotgan hodisa va hodisalarini aniqlash uchun "dalil" tushunchasidan foydalaniladi. Insonning kognitiv qobiliyatlarining xilma-xilligi shunday namoyon bo'ladiki, mavjudlikning bir xil dalillari bilim, san'at, jurnalistika yoki yuridik amaliyotning oddiy va ilmiy darajalarida amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun turli usullar bilan aniqlangan turli dalillarning ishonchlilik darajasi ham har xil bo'ladi. Ko'pincha ilmiy dalillar va mavjudlik hodisasi sinonim bo'lib tuyuladi va bu ba'zi faylasuflar va olimlarga dalillarning haqiqatini mutlaq haqiqat deb ta'riflash imkonini beradi. Bunday tasavvur bilimning haqiqiy rasmiga mos kelmaydi, uni dogmaga aylantiradi va soddalashtiradi. Dalillar murakkab tuzilishga ega. Ularga borliq haqidagi ma'lumotlar, dalillarning talqini, uni olish va tavsiflash usuli kiradi. Dalillarning muhim qismi - mavjudlik yoki uning ayrim xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradigan mavjudlik haqidagi ma'lumotlar. Dalillarning borlikka mos kelishi uni real deb tavsiflash imkonini beradi. Shu sababli dalillar fanning empirik asosi, nazariyani tasdiqlash yoki rad etishning muhim usuli hisoblanadi. Dalillar yordamida borliq nazariyaga bog'lanmasdan, xolisona tushuniladi. Dalillar eski nazariya doirasiga to'g'ri kelmaydigan, unga zid bo'lgan hodisalarni ochishga imkon beradi.

## **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Sharh dalilning muhim elementi bo'lib, u ko'p shakllarga ega. Ilmiy dalillar nazariya bilan bevosita bog'liqdir. Nazariya yordamida empirik tadqiqotning vazifalari aniqlanadi va uning natijalari izohlanadi. Sharh - bu uning shakllanishining nazariy-uslubiy sharti, dalillardan nazariy xulosa chiqarish, ilmiy izohlash yoki turli g'oyaviy, ilmiy yoki falsafiy nuqtai nazardan berilgan bahodir. Shuningdek, dalilning moddiy-texnik yoki uslubiy jihati ham mavjud. uni olish usuli hisoblanadi. Dalillarning ishonchliligi ko'p jihatdan ular olingan usul va vositalar bilan belgilanadi. Masalan, saylov kampaniyalarida nomzodlar va ularning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini baholash uchun ko'pincha sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalaniladi. Ko'pincha, ularning natijalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, ba'zan esa butunlay qarama-qarshidir. To'g'ridan-to'g'ri xatolik ehtimolini istisno qilgan holda, bunday farqlarning sababini metodologiyalardagi farqlar bilan izohlash mumkin. Fanning ko'p asrlik tarixi nafaqat kashfiyotlar tarixi, balki fan tilining rivojlanish tarixidir, bu dalillarni nazariy mavhumlashtirish, umumlashtirish yoki tizimlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Binobarin, har qanday fikrlashning belgi-munosabat jihati, ya'ni u tasvirlangan fan tili mavjud.

Grafiklar, diagrammalar, ilmiy belgilar va atamalar ilmiy tilning muhim atributlari hisoblanadi. Agar ilmiy kashfiyotni oddiy so'z bilan tasvirlab bo'lmasa, uni tushunish jarayoni ba'zan ko'p yillar davom etadi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishiga qarab, tabiiy tilning unda ifodalangan narsalar mazmuniga semantik jihatdan mos kelmasligi ma'lum bo'ldi. Tabiiy til iboralarining ravonligi, jumalarning mantiqiy tuzilishining noaniqligi, kontekst, psixologik assotsiatsiyalar ta'sirida til belgilarining ma'nolarining o'zgaruvchanligi - bularning barchasi ilmiy bilim uchun zarur bo'lgan ma'noning aniqligi va ravshanligiga erishishga to'sqinlik qildi. Natijada, tabiiy tilni sun'iy ravishda rasmiylashtirilgan til bilan almashtirish zarurati paydo bo'ldi. Uning kashfiyoti fanning bilim vositalarini ancha boyitdi, unga yangi va yangi murakkab vazifalarni hal qilish imkonini berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy dalillar ham, farazlar ham, nazariyalar ham, ilmiy muammolar ham fanda yaratilgan sun'iy tillarga tayanadi. nazariy tizim va ikkita muhim xususiyatga ega: ishonchlilik va bir xillik. Ilmiy dalillarning ishonchliligi turli vaqtlarda o'tkazilgan yangi tajribalar yordamida tadqiqotchilar tomonidan olinishi va ifodalanishi mumkin bo'lgan tarzda namoyon bo'ladi. Ilmiy dalillarning fazilatlaridan biri shundaki, u talqinlarning xilma-xilligidan qat'iy nazar o'zining ishonchliligini saqlab qoladi. Ilmiy dalillarni umumlashtirish natijasida ular nazariya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dalillarni umumlashtirishning oddiy shakllari - ularni tahlil qilish, sintez qilish, tasniflash, birlamchi tushuntirish sxemalaridan foydalanish va hokazolar asosida tizimlashtirish va tasniflashdir. Ma'lumki, olimlarning dalillarni tizimlashtirish va tasniflash bo'yicha fidokorona mehnati natijasida ko'plab ilmiy kashfiyotlar qilingan (masalan, Ch. Darwin tomonidan yaratilgan tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi nazariyasi, D.I. Mendeleyevning kimyoviy elementlarning davriy tizimi). ilmiy dalillar va izchil takrorlanuvchanlik xossalari dalillarni umumlashtirishning eng murakkab shakllari hisoblanadi. Ilmiy ma'lumotlar, empirik farazlar va empirik qonunlar faqat hodisa va jarayonlar qanday sodir bo'lishi haqida bilim beradi, lekin nima uchun hodisa va jarayonlar bunday tarzda sodir bo'ladi degan savolga javob bermaydi. ularning sabablarini tushuntirmang. Fanning vazifasi - hodisalar sabablarini aniqlash, ilmiy dalillar asosida yotgan jarayonlarning mohiyatini tushuntirish - ilmiy bilimning oliy shakli - nazariya doirasida hal etiladi. Ilmiy dalil ishonchli kuzatish, tajriba mahsulidir: u ob'ektlarni bevosita kuzatish, asboblarni ko'rsatkichlari, fotosuratlar, o'tkazilgan sinovlar hisobotlari, sxemalar, eslatmalar, guvohlarning ko'rsatmalari bilan tasdiqlangan arxiv hujjatlari va boshqalar shaklida amal qiladi. Biroq, dalillar qurilish materiallari kabi o'z-o'zidan fanni tashkil etmaydi. hali binolar emas. Dalillar fanda saralangan, tasniflangan, umumlashtirilgan va tushuntirilgandan keyingina yuzaga keladi. Ilmiy bilishning vazifasi bu dalillarning paydo bo'lish

sababini, uning muhim xususiyatlarini va dalillar o'rtasidagi huquqiy bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun yangi dalillarning ochilishi juda muhimdir. Dalillar ba'zan tasodifiy hodisalarni ham o'z ichiga oladi. Ilmiy birinchi navbatda umumiy, qonuniy narsalar qiziqtiradi. Ilmiy tahlilning asosini bitta dalil emas, balki umumiy tendentsiyani aks ettiruvchi dalillar to'plami tashkil etadi.

Dalillar son-sanoqsiz. Ko'pgina dalillar orasida muammoning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan ba'zilarini oqilona tanlash kerak.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, amaliyot mezoni amalda insonning har qanday tasavvurini to'liq tasdiqlash yoki inkor etishga qodir emas. Bu mezon ham shu qadar noaniqki, u insonga o'z bilimini to'ldirish va rivojlantirishni talab qilmaydigan to'liq va to'liq haqiqatga aylantirishga imkon bermaydi. Dalillar, uni sharhlovchi nazariya, fikrlash usuli mavjud bo'lgandagina ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi. uni tasniflash va agar u boshqa dalillarga nisbatan tushunilsa. Faqat o'zaro bog'langan va integrallashgan holdagina dalillar nazariy umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hayotdan olingan anekdot dalillar hech qanday narsa yoki hodisani asoslashga qodir emas. Har qanday nazariyani noto'g'ri tanlangan dalillar asosida qurish mumkin, ammo u hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ixtiyoriy nazariyaga ko'ra, "dalil" - bu biluvchi sub'ekt haqiqat deb tan oladigan narsa. Bunda sub'ektning mavjud e'tiqod tizimi (qo'shma) ichki kelishilgan tizim sifatida qaraladi. F.Bekon o'zining bilish nazariyasida empirik dalillarning ahamiyatini yuqori baholaydi. Unga ko'ra, "Sof empirik olim xuddi chumoli kabi faqat dalil to'playdi va u bilan qanoatlanadi, sof ratsionalist, nazariyotchi esa, aksincha, dalillarga e'tibor bermay, o'rgimchakdek o'ziga nazariy to'r to'qiydi, lekin haqiqiy olim ham asalarilar kabi turli xil gullardan material yig'ib, o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf qiladi". Bu dalillar yordamida nazariyani oydinlashtirish yoki aksincha, uni eskirgan deb topish va ahamiyatini yo'qotish kerak. Shu ma'noda. Ilmiy dalil empirik bilimning natijasidir. Ammo dalillar nazariyani belgilamaydi, balki nazariya o'zining ongli tajribasiga kira oladigan u yoki bu dalilni tanlaydi. Shuning uchun Achinshteyn shunday xulosaga keladi: "Ilm dalil bilan boshlanib, yakunlanishi kerak. boshi va oxiri o'rtasida qanday nazariy tuzilmalar mavjudligidan qat'i nazar, dalillar bilan." Bu fikr ma'lum darajada to'g'ri. Chunki ilmiy dalillar ishonchliligining turli talqinlaridan qat'i nazar, o'z mohiyatini saqlab qoladi. Dalillarni umumlashtirish tahlil qilish, sintez qilish, tasniflash, birlamchi tushuntirish sxemalaridan foydalanish va hokazolar asosida amalga oshiriladi. Dalillar saralangan, tasniflangan, umumlashtirilgan va tushuntirilgandan keyingina ilmiy bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Achinshteyn, Piter (2001). Dalillar kitobi (Oksford: Oxford University Press). Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z.
2. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. // B. Xodjayev va BI . Toshkent: IQTISODIYOT DUNYOSI nashriyoti, 2018.
3. Jeffri, Richard (2004). Subyektiv ehtimollik (Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti).
4. A. Radjabov. Ilmiy tadqiqot asoslari. "TAFAKKUR - BO'STONI". Toshkent - 2012.<https://staff.tiame.uz/storage/users/489/books/FTVzKbuuYIVmRe14ZllcODg0RrT9bam3ms3jeQEM.pdf>
5. Xasanova, G. (2023). Muammoli ta'lim texnologiyasi. Pedagogik ixtirolar va amaliyotlar jurnali, 19, 137-139.
6. Xasanova, G. (2023). Uslubiy tamoyillar va yondashuvlarning tabiati. O'rta Evropa ilmiy byulleteni, 32, 26-31.
7. Xasanova, G. K. (2022). Pedagogik jarayonni loyihalashda texnologiyaga bo'lgan ehtiyoj. Sharq uyg'onish davri: Innovatsion, o'quv, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 2(20-maxsus son), 95-100.
8. N.A. Sherm uham edova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2014.
9. Yuldosheva, N., & Xamdamjonov, M. (2022). Tovar sifatidagi kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish va uning iqtisodiy muammolari. Fan va innovatsiyalar, 1(5), 385-388.
10. Abdurahidovna, Y. N. (2022). Sanoat korxonalarining innovatsion strategiyalari tasnifi. Ijtimoiy fanlar va fanlararo tadqiqotlar xalqaro jurnali ISSN: 2277-3630 Impact-faktor: 7.429, 11(06), 239-242.
11. Yo'ldosheva, N. (2022). Korxonalarda innovatsion rivojlanish strategiyasini boshqarish usullari. Iqtisodiyot i obrazovanie, 23(2), 129-135.
12. Abdurahidovna, Y. N. (2022). Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyalardan samarali foydalanish yo'nalishlari. Ochiq kirish ombori, 8(6), 125-129.
13. Yo'ldosheva, N. (2022). Zamonaviy voqelik sharoitida innovatsion strategiyani shakllantirish jarayonining xususiyatlari. Zamonaviy fanda akademik tadqiqotlar, 1(9), 310-312.
14. Abdurahidovna, Y. N. (2023). Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar. Menejment va huquqning jahon axborotnomasi, 19, 5-11.

15. Axunov , M., & Sayfutdinova , M. (2024). O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA KIRUVCHI TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH SURATLARI VA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI. Talqin Va Tadqiqotlar, 2(1(38)).  
извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1718>
16. Sayfutdinova Mekhrinoz. (2023). SOME FEATURES OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 15, 221–226. Retrieved from <https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1186>
17. M. Sayfutdinova THE ROLE OF COMPOUND WORDS IN THE WORD-FORMATION SYSTEM // SAI. 2023. №C11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-compound-words-in-the-word-formation-system> (дата обращения: 05.03.2024).



## **O‘ZBEKISTONNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIDAGI MINTAQAVIY VOSITACHILIK RO‘LI VA AHAMIYATI**

**Feruza Nazarova**

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti tayanch doktoranti

[Feruz8620@icloud.com](mailto:Feruza8620@icloud.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-3290-7526>

Tel: +998935465533

Ilmiy rahbar: **Etibor Sultonova**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Professori, siyosiy fanlar doktori

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati uni tashkil etishning institutsional huquqiy asoslari hamda tashkilot doirasida O‘zbekiston ishtiroki, tashabbuslari va undan kutilayotgan istiqbollari masalalari tahlil etilgan.*

*ShHTni ilmiy tadqiq etish va uning kelajakdagi bashoratini tahmin qilish bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. A‘zolari soning ortishi tufayli tashkilot geosiyosiy xaritasining kengayib borishi, hamda iqtisodiy salohiyatning yuksak darajada ko‘tarilishi kabi omillar ShHT dagi rivojlanayotgan davlatlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda to‘laqonli a‘zo hisoblangan O‘zbekiston bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun ko‘plab tashabbuslarni ilgari surmoqda va imkoniyatlarni qo‘lga kiritmoqda.*

*Tabiiyki hamkorlining keyingi istiqbollari shunday tashabbus va takliflarning samaradorligiga bog‘liq sanaladi. Biz tahlil davomida O‘zbekistonning tashkilotdagi ishtiroki, undan ko‘zlangan iqtisodiy maqsadlar va geosiyosiy strategiyalari haqida baxs yuritgimiz.*

**Kalit so‘zlar:** *ShHT, Sindao sammiti, geosiyat, strategiya, bir makon bir yo‘l, yashil kamar, Afg‘oniston, Eron, Hindiston, Pokiston, O‘zbekiston, Sharq-G‘arb, Shimol-janub, geografik o‘q, transport-logistika.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется деятельность Шанхайской организации сотрудничества, институционально-правовая основа ее организации, участие Узбекистана в организации, ее инициативы и ожидаемые от нее перспективы.*

*Научные исследования ШОС и прогнозирование ее будущего приобретают актуальное значение в современной быстро меняющейся системе международных отношений. Такие факторы, как расширение геополитической карты организации за счет увеличения числа членов, а также высокий уровень экономического потенциала открывают широкие возможности для развивающихся стран ШОС. С этой точки зрения Узбекистан, считающийся полноправным членом, продвигает множество инициатив и получает возможности эффективно использовать такие возможности.*

*Естественно, от эффективности подобных инициатив и предложений зависят дальнейшие перспективы партнёра. В ходе анализа мы обсудили участие Узбекистана в организации, его экономические цели и геополитические стратегии.*

**Ключевые слова:** ШОС, саммит в Циндао, геополитика, стратегия, единое пространство, один путь, зеленый пояс, Афганистан, Иран, Индия, Пакистан, Узбекистан, Восток-Запад, Север-Юг, географический транспорт и логистика.

### **ABSTRACT**

*Analyzes the activities of the Shanghai Cooperation Organization, the institutional legal basis of its organization, the participation of Uzbekistan in the framework of the organization, its initiatives, and the prospects expected from it.*

*Scientific research of the SCO and prediction of its future are gaining urgent importance in today's rapidly changing system of international relations. Factors such as expansion of the organization's geopolitical map due to the increase in the number of members, as well as a high level of economic potential, open wide opportunities for the developing countries of the SCO. From this point of view, Uzbekistan, which is considered a full member, is promoting many initiatives and gaining opportunities to make the most of such opportunities.*

*depend on the effectiveness of such initiatives and proposals. During the analysis, we discuss Uzbekistan's participation in the organization, its economic goals and geopolitical strategies.*

**Key words :** SCO, Qingdao Summit, geopolitics, strategy, one space, one road, green belt, Afghanistan, Iran, India, Pakistan, Uzbekistan, East-West, North-South, geographical o Transport and logistics.

### **KIRISH**

*O‘zbekiston ShHTning ta’ sischi davlatlaridan biri sifatida barcha ishtirokchi davlatlarning hayotiy manfaatlariga javob beradigan istiqbolli yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni oshirish orqali o‘z salohiyatini to‘liq ochib berishdan manfaatdor.*

O‘zbekistonning ushbu tashkilotga qo‘shilishiga o‘sha vaqtdagi Afg‘oniston bilan chegaradosh hududda davom etayotgan fuqarolar urushi, Tojikistondagi notinch vaziyat, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan turli terroristik guruhlarining qo‘poruvchilik faoliyati hududining kengayishi asosiy sabab bo‘ldi. Qolaversa, Respublikaning o‘z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Yevroosiyo qit‘asida to‘laqonli savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirish istagi bunga asosiy motiv vazifasini bajarib berdi. Bugungi kunga kelib, ShHT doirasidagi sarmoya, turizm va savdo-iqtisodiy hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda<sup>14</sup>.

2016-yil dekabr oyida Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi bilan mamlakat tashqi siyosatida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Avvalo, o‘zbek diplomatiyasining Markaziy Osiyo yo‘nalishi ijobiy harakterdagi o‘zgarishlarga uchradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev Markaziy Osiyoni O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berdi. Barqarorlik, hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash va qo‘shni davlatlar bilan mavjud kelishmovchiliklarni ijobiy hal etish Toshkentning yangi mintaqaviy yo‘nalishining asosiy maqsadlariga aylandi<sup>15</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi o‘zgarishlar uning ko‘p tomonlama diplomatiyasida namoyon bo‘lmoqda. Keyingi yillarda Toshkent xalqaro va mintaqaviy tuzilmalardagi ishtirokini sezilarli darajada kuchaytirdi. Shubhasiz, bu tendensiya ShHTga ham tegishli. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil yanvar oyida O‘zbekiston parlamentiga Murojaatnomasida quyidagicha ta‘kidlab o‘tdi “..... Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi<sup>16</sup>.

Toshkentning so‘nggi yillardagi Tashkilot doirasidagi faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi yangi hususiyatlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

*Birinchidan*, O‘zbekiston uchun ShHT, birinchi navbatda, Markaziy Osiyoda barqarorlik va keng hamkorlikni ta‘minlashda muhim ko‘p tomonlama platforma bo‘lib qolishi kerak. Toshkent 2017-yilda Hindiston va Pokiston hisobidan Tashkilot

<sup>14</sup> В.Дергачев Битва за Евразию. Тектоническая геополитическая трансформация // Вестник аналитики. 2014. № 1.-С.25-28.

<sup>15</sup> *Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на международной конференции «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания» в Самарканде* // <http://uza.uz/ru/politics/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-10-11-2017>

<sup>16</sup> Учиться работать в новых условиях. Интервью министра иностранных дел Республики Узбекистан Абдулазиза Камилова главному редактору газет «Янги Узбекистон» и «Правда Востока». №221. 2020. -С.3.

kengayganiga qaramay, Markaziy Osiyo ShHTning “geografik o‘qi” bo‘lib qolishi kerakligiga ishonch bildiradi<sup>17</sup>.

Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy e’tiborni yaqqol AIRning mintaqaviy jarayonlarga faolroq ishtirok etishi sharoitida ShHTning Afg‘oniston masalasiga e’tiborini kuchaytirish istagida ham ko‘rish mumkin<sup>18</sup>. Ya’ni, pragmatik tashqi siyosatidagi “mintaqaviylik” uning yangilangan “ShHT kursi”da yaqqol ifodalangan.

*Ikkinchidan*, Toshkentning ShHTga nisbatan yondashuvlarida konstruktivizm sezilarli darajada kuchaygan. Shubhasiz, mamlakat ilgari o‘zini uzoqlashtirgan tematik sohalarga o‘zgarish. Shu tariqa, so‘nggi paytlarda respublika vakillari ShHTning qo‘shma aksilterror va harbiy mashg‘ulotlarida to‘liq ishtirok etmoqda. Xususan, 2007-yil 27-iyunda O‘zbekiston 2008-yil 28-avgustdagi “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning terrorizmga qarshi qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi bitimga hamda “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning qo‘shma harbiy mashg‘ulotlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi bitimga qo‘shildi.

*Uchinchidan*, tashabbuskorlik va pragmatizm O‘zbekistonning ko‘p tomonlama, jumladan, ShHT doirasidagi diplomatiyasining yorqin elementlariga aylanib bormoqda. Mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha Toshkent tomonidan ilgari surilgan takliflar mintaqada barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlariga hamohangdir.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda ShHT doirasida yangi hamkorlik platformalarini, jumladan Toshkentdagi ShHT Jamoat diplomatiyasi markazini, temir yo‘l ma’muriyatlari rahbarlarining uchrashuvi mexanizmini, Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro turizm institutini va boshqalarni ishga tushirish tashabbusi bilan chiqdi. .

Umumiy hisobda so‘nggi olti yil davomida O‘zbekiston tomoni 40 dan ortiq tashabbusni ilgari surdi. Bu juda jiddiy va muhim ko‘rsatkich.

*To‘rtinchidan*, O‘zbekiston Tashkilot rivojlanishidagi ko‘plab yutuqlarni e’tirof etib, o‘z ixtiyoridagi ko‘p tomonlama hamkorlikning ulkan salohiyatidan samarali foydalanish tarafdori.

O‘zbekiston uchun o‘zaro manfaatli hamkorlikda kelajakda Afg‘oniston orqali ham o‘tadigan va Markaziy Osiyo va Xitoy va Eron va Pokiston bilan bog‘lay oladigan transafg‘on temir yo‘li qurilishi katta qiziqish uyg‘otadi. Ikki yil avval taqdim etilgan ShHTga a’zo davlatlar temir yo‘l ma’muriyatlarining temir yo‘l

<sup>17</sup> Из выступления Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева на Астанинском саммите ШОС 9 июня 2017 г. // Архив МИД Республики Узбекистан.

<sup>18</sup> Б.Э.Турсунов Стратегические приоритеты в ШОС: взгляд из Узбекистана // [www.isrs.uz/ru/maqolalar/strategiceskie-prioritety-sos-vzglad-iz-uzbekistana](http://www.isrs.uz/ru/maqolalar/strategiceskie-prioritety-sos-vzglad-iz-uzbekistana)

transporti sohasidagi o‘zaro hamkorligi konsepsiyasi savdo-iqtisodiy aloqalar sohasida muhim o‘rin tutadi. E‘tiborlisi, mazkur hujjat O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tayyorlangan. Hujjat tashkilot hududida mavjud temir yo‘l liniyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish va yangilarini qurish, o‘zaro va tranzit yuk tashish hajmini yanada oshirishni ta‘minlaydi<sup>19</sup>.

Shu munosabat bilan “O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy” temir yo‘li kelajakda “Sharq-G‘arb” loyihasi doirasida mintaqaviy transport tarmog‘ining muhim bo‘g‘iniga aylanishi ko‘zda tutilgan. “Shimol-Janub” loyihasi Markaziy Osiyoning barcha geografik jihatdan yopiq mamlakatlariga Yevropa, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va O‘rtayer dengizi portlariga chiqish imkonini beradi. Mutaxassislarining fikricha, yiliga kamida 5 million tonna yuk tashish uni qurish xarajatlarini to‘liq qoplashi mumkin<sup>20</sup>.

Ammo ShHTning barqaror va izchil rivojlanishi, afsuski, dunyoda tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar, tahdidlar va tahlikalar sharoitida ro‘y bermoqda. Shu bois Toshkent hozirdanoq ShHT rivojining eng muhim mavzusi – uning makonida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashni amalga oshirishga hozirlik ko‘rmoqda. Tashkilot faoliyatida ushbu yo‘nalish alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ShHT Nizomida birgalikda mudofaa bo‘yicha hech qanday majburiyat yo‘qligini alohida ta‘kidlash lozim. Tashkilot harbiy blokning atributlariga mutlaqo ega emas va shunga ko‘ra, uning tashkiliy tuzilmasida mudofaa sohasida qo‘mondonlik yoki muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar mavjud emas. Bu yerda asosiy narsa uning ishtirokchilarining jamlangan siyosiy irodasi, unda raislik qiluvchi davlatning ShHTga a‘zo davlatlarning e‘tiborini bugungi kunda eng dolzarb bo‘lgan narsaga qaratish qobiliyatidir.

Toshkent buni uddalay olishini isbotladi, o‘zbek diplomatiyasining Afg‘oniston yo‘nalishidagi muvaffaqiyatlariga e‘tiobr qaratish buning yaqqol isbotidir. Shavkat Mirziyoyev xalqaro maydonda birinchilardan bo‘lib “Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish afg‘on jamiyatining xalqaro qo‘llab-quvvatlovdagi bunyodkorlik faoliyati orqali mumkin” formulasini ilgari surgan. Toshkent esa birinchilardan bo‘lib urushayotgan tomonlarga jiddiy qo‘shma iqtisodiy, madaniy loyihalarni taklif qildi.

Kobulda hukumat o‘zgarishi, davlatda yangi hokimiyat shakllantirishning og‘ir jarayonini boshdan kechirmoqda, hali ko‘p narsa hal etilmagan, vaziyat og‘ir, lekin O‘zbekistonning iqtisodiy takliflariga qiziqish hech qayerda yo‘qolgani yo‘q. Kobul yaqinda ta‘kidlaganidek, *birinchidan*, O‘zbekiston Surxonidan Afg‘onistonning Puli-

<sup>19</sup> Н.А.Васильева, В.А.Шамахов ШОС в новой геополитической архитектуре Большой Евразии // Государственная служба. 2015. № 6 (96). С 21-28.

<sup>20</sup> А.Лукин, А.Мочульский Шанхайская организация сотрудничества: структурное оформление и перспективы развития // Аналит. записки. 2005. Вып. 2 (4)-С.85-87.



Xumrigacha bo‘lgan elektr tarmog‘i qurilishidan manfaatdor. Ma‘lumki, Afg‘oniston, Turkmaniston va Tojikistonning asosiy ishlab chiqarishi O‘zbekistondan elektr energiyasi yetkazib berishga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan olib qaralsa Surxon-Puli-Xumri elektr uzatish liniyasi loyihasi O‘zbekiston tomoni uchun foydali ekanligi aniq. Uzunligi ikki yuz kilometr, qiymati qariyb 110 million dollar bo‘lgan liniya O‘zbekistondan elektr energiyasi eksportini 70 foizga oshirishni ko‘zda tutadi. *Ikkinchidan*, Toshkentdan O‘zbekiston bilan chegaradosh Termiz shahriga olib boruvchi temir yo‘lining davom etishi magistral yo‘l Afg‘oniston Mozori Sharif va Kobul orqali Pokiston Peshovariga qadar uzaytirilishi rejalashtirilgan. Bunday temir yo‘lining paydo bo‘lishi Markaziy Osiyo davlatlarining Pokiston va Hind okeanlariga chiqishini anglatadi. Ushbu strategik loyiha Toshkent tomonidan Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash bo‘yicha o‘z konsepsiyasining asosiy elementi sifatida qaraladi.

Agar bu loyihalarga Xitoy va ShHTning boshqa a‘zolari Afg‘onistonga nima taklif qilishini qo‘shsak, yaqin kelajakda Markaziy Osiyodagi asosiy muammo va xavfsizlikka tahdid to‘liq bartaraf etilmasa, jiddiy ravishda kamayishi ayon bo‘ladi.

Xususan, ichki savdo orqali, uning ahamiyatiga Toshkent alohida e‘tibor qaratdi. Savdo to‘siqlarini bartaraf etish, texnik reglamentlarni yaqinlashtirish, bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish, ShHT sanoat hamkorligi dasturini qabul qilish, transport aloqasini rivojlantirish – bularning barchasi tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish va hamkorlik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Sharq va G‘arb hamda Shimol va Janub transport koridorlari tizimi. Bu hozirgi geoiqtisodiy sharoitda strategik xususiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning ShHTdagi ishtirokini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Respublika ShHTga a‘zo bo‘lgan holda, ushbu tashkilot va uning a‘zolarining imkoniyatlaridan foydalanib, nizoli nuqtalardan kelib chiqadigan turli tahdidlar, terrorizm, diniy ekstremizm va separatizmga qarshi kurashmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti O‘zbekiston ishtirokida Afg‘oniston muammosini o‘z diqqat markazida ushlab, uni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini izlashga harakat qilmoqda.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish, turli transport turlarini bog‘lovchi logistika markazlarini qurish, mavjud tarmoqlar va yo‘l inshootlarini modernizatsiya qilish, transport sohasidagi standartlarni, shuningdek, fitosanitariya qoidalarini uyg‘unlashtirish va unifikatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish ShHTga a‘zo davlatlar diqqatini jamlashi kerak bo‘lgan sohalardir. Tajriba va texnologiyalar almashinuvi platformasini yaratish hamda shaharlarda atrof-muhitni yaxshilashni

nazarda tutuvchi ShHTga a'zo davlatlar shaharlarining ekologik farovonligini rivojlantirish dasturi ushbu loyihaga muhim qo'shimcha bo'ldi<sup>21</sup>.

Yangi maslahat-ekspert mexanizmi – ShHT Iqtisodiy tahlil markazlari konsorsiumining asosiy maqsad va vazifalarini belgilash uchun hukumat rahbarlari uning Nizomini tasdiqlashni rejalashtirmoqda. Konsorsium ShHT mamlakatlari ilmiy-tadqiqot muassasalari va tahliliy markazlari o'rtasida iqtisodiy masalalar bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanadi. ShHT sammitlarida a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan ilgari surilgan tashabbus va g'oyalar tashkilotga a'zo mamlakatlarning ko'p tomonlama hamkorligini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, o'sib borayotgan dinamika va hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ochish yoki hamkorlikning mavjud mexanizmlarini takomillashtirish ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

ShHTning Bishkek sammiti chog'ida boshqa davlat rahbarlari qatori O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham bir qator tegishli tashabbuslarni ilgari surdi, ularning ba'zilar quyidagi loyihalarni ishlab chiqish va qabul qilishni nazarda tutadi:

ShHTga a'zo davlatlarning o'zaro bog'liqlik, samarali iqtisodiy va transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik strategiyalari;

- ShHTga a'zo davlatlarning “aqli” qishloq xo'jaligi va agroinnovatsiyalarni joriy etish sohasidagi o'zaro hamkorligi konsepsiyasi;

- tashkilot mamlakatlarida zamonaviy resurslarni tejoychi va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida ShHTning Yashil kamar dasturi;

- ShHTga a'zo davlatlarning kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha o'zaro hamkorligi dasturlari.

Bundan tashqari, Sh.Mirziyoyev Samitda quyidagilarni taklif qildi: ShHTga a'zo mamlakatlarning axborot texnologiyalarini rivojlantirishga mas'ul bo'lgan departamentlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlari mexanizmini ishga tushirish; 2022-yilda Samarqand shahrida birinchi shunday forumni tashkil etish taklifi bilan ShHTga raislik qiluvchi davlat hududida har yili Iqtisodiy forumni o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish; ShHT doirasida har yili ShHTga raislik qiluvchi a'zo davlat shaharlaridan birini “SHHTning turistik va madaniy poytaxti” deb e'lon qilish amaliyotini joriy etish<sup>22</sup> kabi takliflar ilgari surildi.

<sup>21</sup> В. Дергачев Битва за Евразию. Тектоническая геополитическая трансформация // Вестник аналитики. 2014. № 1.-С.56.

<sup>22</sup> Стратегия развития Шанхайской организации сотрудничества до 2025 года. -[Электронный ресурс]. - Режимдоступа: <http://scorussia.ru/>.

Bu tashabbuslarning barchasi ko'p qirrali savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida ilgari surilgan va tashkilot makonida ko'p tomonlama hamkorlik ufqlarini kengaytirishning dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan.

Ma'lumki, ayni paytda O'zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida respublikaning tegishli vazirlik va idoralarida ekspert guruhlari tashkil etilgan va ular faol ish olib bormoqda, ular tegishli chora-tadbirlar nazarda tutuvchi aniq dasturiy hujjatlarni tayyorlaydilar. Rasmiy Pekinning "Bir kamar, bir yo'l" keng ko'lamli tashabbusini amalga oshirish sharoitida transport kommunikatsiyalari sohasidagi o'zaro hamkorlik yanada kuchaymoqda, bu tashabbus uch qit'a davlatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan. "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusini ShHT davlatlarining milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan birlashtirish dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish va mintaqani Sharqdan G'arbga va Shimoldan Janubga yo'l chorrahasiga aylantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi<sup>23</sup>.

2017-yilda boshlangan O'zbekistonning yangi taraqqiyotining yangi bosqichi ham ShHT doirasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga, uning tashkilotchiligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi<sup>24</sup>. Buning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazini tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni markazning vazifalari va faoliyati yo'nalishlarini belgilab berdi. Jumladan, ular orasida madaniy hamkorlik masalalari belgilab qo'yilgan<sup>25</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-iyun kuni Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o'n to'qqizinchi majlisidagi nutqida "ShHTni rivojlantirish konsepsiyasini" ishlab chiqish g'oyasini ilgari surdi. ShHT doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning birinchi mezonini Prezident Sh.M.Mirziyoyev – iqtisodiyot, ikkinchisi – ekologiya, uchinchisi – axborot sohasi, to'rtinchisi – gumanitar hamkorlik va nihoyat, beshinchisi – xavfsizlik.

Ma'lumki, jahon miqyosida turizm sohasi ham madaniy hayot va ushbu sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan yana bir muhim konseptual tashabbus ShHT doirasidagi gumanitar

<sup>23</sup> Официальный сайт Шанхайской организации сотрудничества. -[Электронный ресурс]. -Режимдоступа: <http://www.sectsc.org/RU/brief.asp>

<sup>24</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на заседании Совета глав государств-членов Шанхайской организации сотрудничества // Национальное информационное агентство Узбекистана

<sup>25</sup> О мерах по государственной поддержке создания Центра народной дипломатии Шанхайской организации сотрудничества в Узбекистане» // <https://lex.uz/ru/docs/3795312>

hamkorlik masalasi bo'ldi. Bu turizm va madaniyat sohasida turli dasturlarni amalga oshirish, shuningdek, "xalq diplomatiyasi" imkoniyatlaridan kengroq foydalanishdir.

**QUM-TUPROQ VA SEMENT BIRIKTIRUVCHI ARALASHMA  
YORDAMIDA MONOLIT TO‘LG‘AZMA MATERIALLARI  
TAYYORLANGANDA BIRIKTIRUVCHILARNING FAOLLIGI**

**Alimov Shoxriddin Muxammadovich**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

“Konchilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0008-0528-8791, e-mail: [alimov\\_shm@mail.ru](mailto:alimov_shm@mail.ru)

**Eraliyev Sardor Baxromqul o‘g‘li**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

“Konchilik ishi” kafedrası 3-kurs talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada to‘lg‘azma materiallarining tarkibini tanlashda uning mustahkamligiga ta‘sir etuvchi qoshimchalarning xarakteristikalari hamda texnik jihatdan tadbiq qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Qotuvchi to‘lg‘azmani tayyorlash uchun sarflanadigan materiallar, bog‘lovchilik faolligini oshiruvchi qo‘shimcha xomashyolar hamda suv sarfini hisobga olgan holda qattiqlashib mustahkamlanadigan to‘lg‘azma aralashmasini tayyorlash ko‘rib chiqilib tarkiblar aniqlandi.*

**Tayanch iboralar:** qattiqlashuvchi to‘lg‘azma, bo‘tana, fraksiya tarkibi, bog‘lovchi aralashma, gil, sement, boyitish fabrikalarining chiqindisi.

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассмотрены характеристики добавок, влияющие на прочность закладок и возможности технического применения при выборе состава материалов. Рассмотрены материалы, используемые для приготовления твердеющего закладкая, дополнительное сырье, повышающее вяжущую активность, а также приготовление смеси твердеющего закладкая с учетом расхода воды и определено их содержание.*

**Ключевые слова:** твердеющий закладкая, пулна, состав фракций, вяжущая смесь, глина, цемент, отходы обогатительных фабрик.

**KIRISH**

Jahonda hozirgi vaqtda kon ishlarining jadal ravishda chuqurlashib borishi va kon – geologik sharoitlarining murakablashishi natijasida so‘ngi vaqtlarda qazib olingan bo‘shliqni qotuvchi to‘lg‘azma bilan to‘ldirib qazib olish keng qo‘llanilmoqda.

Qotuvchi to'lg'azma tarkibini to'g'ri tanlash konda mustahkam monolit massiv yuzaga kelishini ta'minlaydi. Maqbul tarkibli to'lg'azmani tanlash texnologik va iqtisodiy omillarga ahamiyat qaratishni taqozo qiladi.

Qattiqlashtiruvchi to'ldiruvchining tarkibi shunday tanlanadiki, loyihaviy mustahkamlikga qadar aralashmani qotishining boshlanishi va vaqti to'lg'azma va qazish ishlarining qabul qilingan texnologiyasiga mos kelishi kerak.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qum-tuproq-sement biriktiruvchi aralashmalarga asoslangan monolit to'lg'azmaning tarkibi shlakli sement, qum-tuproq va qo'shimcha komponentlarni o'z ichiga oladi. Sement sarfi 200 kg ga teng qilib olinganda, qum-tuproq miqdori sementga qarab 0,8 dan 1,5 gacha og'irlik nisbatida belgilanadi, ya'ni 1 m<sup>3</sup> to'lg'azma uchun 160 dan 300 kg gacha. Suv-biriktiruvchi nisbati - suvning sement va qum-tuproq qo'shimchasining og'irligiga nisbati - 0,7 bo'lganda aralashmaning zaruriy harakatchanligini ta'minlaydi. Biriktiruvchi sifatida gipsli-shlakli (sulfatlangan) sement va shlak-portland-sement mos keladi.

Yuqori mustahkamlikga ega aralashmalar 1:1:6 nisbatdagi tarkiblarda, 200 kg sulfatlangan sement, 200 kg qum-tuproq va maydalangan jinslarni o'z ichiga oladi. Uch oylik muddatda aralashma materiallarining mustahkamligi bir o'qli siqilishga chidamliligi taxminan 167 kg/sm<sup>2</sup> ni tashkil etdi.


To'lg'azma sifatida maydalangan jins o'rniga mayda zarrali qumdan foydalanish aralashmaning mustahkamligini 120 kg/sm<sup>2</sup> gacha, yoki 28% ga kamaytiradi, yupqa dispersiyali to'ldiruvchilarda karbonatli-shlamdan foydalansa aralashmalarning mustahkamligi 78 kg/sm<sup>2</sup> gacha, yoki 2,2 marta kamayadi.

Shlak-portland-sement aralashmasiga asoslangan qum-tuproqli sement aralashmalari monolitik to'lg'azma aralashmasini tayyorlash imkonini beradi, lekin qum-tuproq bilan sulfatlangan sement yordamida tayyorlangan aralashma nisbatan pastroq sifatga ega bo'ladi.

Tarkibi 1:1:6 nisbatda (sement, tuproq, qo'shimcha to'lg'azma) tayyorlangan aralashmalar uch oyli muddatda to'lg'azma materiallari 106 kg/sm<sup>2</sup> mustahkamlikga ega bo'ladi, bu qum-tuproq va sulfatlangan sementdan 63,5% pastroqdir. To'lg'azma sifatida mayda qum va karbonatli shlamdan foydalanish aralashmaning mustahkamligini mos ravishda 83 va 43 kg/sm<sup>2</sup> gacha kamaytiradi.

Tuproq qo'shimchasi aralashmaning mustahkamligiga ta'sir qiladi. Qum-tuproq aralashmali to'lg'azma shuni ko'rsatadiki 200 kg doimiy sement sarfi hamda bir xil suv-sement nisbatli (0,7) aralashma tarkibi 1:1 dan 1:0,8 gacha tuproqning sementga nisbatida kamaytirish aralashma mustahkamlik chegarasini o'rtacha 24% ga pasayishiga olib keladi. Tuproq sarfini 1:1,25 va 1:1,5 nisbatlarga oshirish

aralashmalarning mustahkamlik xususiyatlarini katta intensivlik bilan yomonlashuviga olib keladi. 1-rasmda tuproqning to'lg'azma aralashmasini mustahkamligiga ta'siri ko'rsatilgan.



*1-rasm. Tuproqning to'lg'azma aralashmasining mustahkamligiga ta'siri:*

*1, 2, 3 - 28, 60 va 90 kunlik muddatlarda sulfatlanagan sementda; 4. 5. 6 – huddi shunday, portland-sementda*

Tuproqning to'lg'azma sifatiga ta'siri quyidagicha yuzaga kelishi mumkin:

Tuproq sarfining kamayishi bilan biriktiruvchi tuproq-sement qorishmasining umumiy miqdori kamayadi, bu esa to'lg'azma materiallarining donador tarkibini orasidagi sement tosh qatlamlarining qalinligini kamaytiradi va ba'zi to'lg'azma zarralari umuman biriktiruvchi bilan qoplanmagan bo'ladi. Shuning uchun aralashmaning mustahkamligi pasayadi. Tuproq sarfining ortishi bilan bog'lovchining faolligi pasaysa ham uning umumiy miqdori ortadi va to'lg'azma donalari bir-biri bilan mustahkam bog'lanadi natijada zichlikni hamda aralashmaning sifatini ma'lum chegaragacha oshishini ta'minlaydi. To'yingan yuqori plastik aralashmalarda to'lg'azma donalari orasidagi sement va tosh qatlamlari qalinligining oshishi aralashmaning mustahkamlik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga bog'lovchining faolligi tuproq qo'shimchasining miqdoriga mutanosib ravishda kamayadi, bu aralashmaning mustahkamligini keskin kamaytiradi.

Ko'rib chiqilayotgan aralashma tarkiblarida qum-tuproqning optimal sarfi 200 kg miqdorda aniqlandi. Bu qum-tuproq-sement og'irligining 1:1 nisbatiga to'g'ri keladi hamda aralashmaning umumiy og'irligining 12,5% ni tashkil qiladi. Shunday qilib shlak sementlari monolit to'lg'azma tarkibi uchun 10 dan 15% gacha tuproq zarralari bo'lgan tabiiy qumlardan foydalanishga imkon beradi, bu esa minimal sement sarfi bilan eng yuqori sifatli aralashma olish imkonini beradi.

Aralashmalarning yuqori harakatchanligini ta'minlash uchun sement sarfining kamayishi va suv-biriktiruvchi nisbatini doimiy ravishda saqlagan xolda tuproq bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki to'lg'azma materiallarining mustahkamligi sementni qum-tuproq bilan almashtirish hajmiga mutanosib ravishda kamayadi. Bu suv-biriktiruvchining nisbati 0,7 (aralashma tarkibi 1:3:12) bo'lgan aralashmalarda 1 m<sup>3</sup> uchun 100 kg miqdorda sulfatlangan sement va 300 kg qum-tuproq sarflanishi materialning mustahkamlik chegarasi uch oylik muddatga yetkanida 42 kg/sm<sup>2</sup> ni tashkil etadi va 50 kg sement va 350 kg qum-tuproq saralanishida esa 10 kg/sm<sup>2</sup> bo'ladi.

Shunga o'xshash tarkibdagi aralashmalarning sifati shlakli portland-sementdan foydalanganda sulfatli bog'lovchilardan foydalanishga qaraganda o'rtacha 2 baravar past bo'ladi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilarni inobatga olib nisbatan past mustahkamli monoliti to'lg'azma olish uchun sulfatlangan sement sarfini 100 kg gacha kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida tuproq bo'tana turida to'lg'azma eritmalariga aralashtirildi ya'ni tuproq donalari butunlay eritildi. To'ldirish materialini tayyorlashning bu usuli sanoat qurilmalari uchun juda kam qo'llaniladi chunki to'ldirish ishlari olib boriladigan joyga yaqin joyda tuproq zavodi yoki tuproqli aralashmani tayyorlash uchun mahalliy moslama bo'lishi kerak.

Shu qatori to'lg'azma aralashmasiga qum bilan birga tuproq moddasi bilan kuchli ifloslangan tabiiy qumlardan foydalangan holda qo'shimchalar qo'shish mumkin. To'ldirishning yuqori sifatini ta'minlash uchun aralashmani majburiy aralashtirgichlarda aralashtirish muddati 4-5 daqiqagacha oshirilishi kerak. Sifatsizroq aralashtirishda tuproqli material granulalar shaklida to'lg'azma ichiga kiritilishi mumkin, bu esa aralashmaning mustahkamligini pasaytiradi. Aralashtirish vaqtini 5 daqiqadan ko'proqqa oshirish amalda to'lg'azma materialining mustahkamligini yaxshilamaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Бронников Д.М., Цыгалов М.Н. Закладочные работы в шахтах. Справочник. // под ред. - М.: Недра, 1989 г. - 400 ст.
2. Рыбьев И.А., Туркина И.А. Состояние базы вторичного сырья и возможности его использования в промышленности строительных материалов // Строительные материалы и технологии XXI века. - 2001 г. - №1, ст. 24-25.
3. Цыгалов М.Н., Зурков П.Э. Разработка месторождений полезных



ископаемых с монолитной закладкой. - М.: Недра, 1970 г. - 200 с.

4. Ташкулов, А. А., & Алимов, Ш. М. (2022). ОБОСНОВАНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ ЭФФЕКТИВНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 475-487.

5. Каплунов Д.Р., Рыльникова М.В. & Радченко Д.Н. и др. Передвижные закладочные комплексы в системах разработки рудных месторождений с закладкой выработанных пространств // Горный журнал, № 2. 2013 г. ст. 101–104.

6. Каплунов Д.Р., Рыльникова М.В. & Радченко Д.Н., Корнеев Ю.В. Передвижные закладочные комплексы в системах разработки рудных месторождений с закладкой выработанных пространств // Горный журнал, 2013 г. ст.41-43.

7. Бакиров Г. Х. Распределение напряжений вокруг выработанного пространства // Экономика и социум. – 2021 г. – №. 12-1 (91). – ст. 827-832.

8. Mislibayev I.T., Alimov Sh.M. Sun'iy hosil qilingan massivning reologik xususiyatlarini aniqlash. // Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish yutuqlari, muammolari va istiqbollari IV-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2023 y. 39-40 bet.

9. Алимов, Ш. М., Эргашев, М. А., & Ўралбоева, Д. Ф. (2022). МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ ГОРНЫХ ПОРОД. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 625-627.

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING SOHALAR BO'YICHA TARKIBIY  
O'ZGARISHLARINI ANIQLASH ORQALI ULARNING RIVOJLANISH  
DARAJASINI O'RGANISH ( RYABSEV INDEKSI)**

**Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna,**

Termiz davlat Universiteti II bosqich magistranti

Xurshidamamatkulova078gmail.com

**Turayev Baxtiyor Ergashevich,**

Termiz davlat Universiteti i.f.f.d (PHD) o'qituvchisi

turayevb@tersu.uz

**ANNOTATSIYA**

*Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida iqtisodiy o'sishga erishish uchun davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka e'tibor bermoqda. Bu boradagi eng muhim vazifalardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarkibiy o'zgarishlarini aniqlash va aniqlangan natijalarga ko'ra keyingi yo'l va vazifalarini belgilab olishdir. Ushbu maqolada Ryabsev indeksi haqida so'z borib, mazkur indeks orqali tanlab olingan yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining sohalar bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar aniqlanadi.*

***Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tarkibiy o'zgarish, Ryabsev indeksi, indeks.*

**ABSTRACT**

*In order to achieve economic growth in many countries of the world, the state pays attention to small business and private entrepreneurship. One of the most important tasks in this regard is to determine the structural changes of small business and private entrepreneurship entities and to determine the next ways and tasks according to the determined results. This article talks about the Ryabsev index and identifies the structural changes of small business and private business subjects in the sectors during the selected years through this index.*

***Key words:** small business, private entrepreneurship, structural change, Ryabsev index, index.*

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishi muhim o'ringa egadir. Bu sohadagi rivojlanishni qay darajada ekanligini bilish uchun esa tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash muhim iqtisodiy masala bo'lib, bu kelajakda ushbu tarmoqda qanday maxsulot va xizmatlarga ehtiyoj bo'lishini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, mazkur sohada barqaror ko'rsatkichlarga erishish uchun tarkibiy siyosat olib boorish yo'nalishlarini ko'rsatib berish imkonini beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash muhim iqtisodiy masala bo'lib, bu orqali ushbu soha subyektlarining qaysi tarmoqda qay darajada rivojlanayotganini va kelajakda qaysi sohalarni rivojlanishini prognoz qilishimiz imkonini beradi. Ma'lumki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi ulushiga ko'ra tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish ishlab chiqarish tarkibidagi ulushlarning umumiy o'zgarishini yaxlit holda baholash imkonini yaratadi, odatda tarkibiy o'zgarishlarning chiziqli kvadratik, shuningdek indeks ko'rinishidagi Solayi, Ryabsiv, Kozinets, Gotayev indekslaridan foydalaniladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi umumiy siljishlarini baholash uchun B.M. Ryabsevning quyidagi tuzilmaviy siljishlar indeksidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi<sup>33</sup>:

$$I_R = \sqrt{\frac{\sum (d_{i1} - d_{i0})^2}{\sum_i^n (d_{i1} + d_{i0})^2}}$$

Mazkur indeks  $0 \leq I \leq 1$  oraliqda o'zgarib turadi hamda ushbu indeksning 1 soniga yaqinroq joylashuvi tuzilmada tarkibiy o'zgarishlarning yuqoriligidan dalolat beradi va aksincha.

2.1.1-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi ulushi<sup>34</sup>.**

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM	60,8	61,9	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56	54,8	54,1	51,8
Sanoat	26,6	28,6	29,7	33	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,4	26
Qurilish	52,5	67,6	70	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,5	71,5
Bandlik	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9
Eksport	13,7	18,8	14	26,2	27	27	26	22	27,2	27	20,5	20	29,6
Import	35,8	34,3	38,6	42,4	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	45,3	49,4

2.1.1-jadvalga ko'ra 5 ta iqtisodiy tarmoq (YAIM, sanoat, qurilish, bandlik, eksport, import) va 2010-2022 yillar oralig'idagi davr tanlab olindi. Endi ushbu ko'rsatkichlarga ko'ra Ryabsev indeksini hisoblaymiz.

<sup>33</sup> Рябцев В.М. Критериальные подходы к оценке меры различий структуры региональной экономики по формам собственности. // Материалы Всерос- сийского научного семинара «Реализация и эффективность новых форм экономических отношений». - Самара, 1996. -С. 13.

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlari.

Ko'rsatkichlar	2010	2011	Surat	Maxraj
YAIM	60,8	61,9	1,21	15055,29
Sanoat	26,6	28,6	4	3047,04
Qurilish	52,5	67,6	228,01	14424,01
Bandlik	74,3	75,1	0,64	22320,36
Eksport	13,7	18,8	26,01	1056,25
Import	35,8	34,3	2,25	4914,01
			262,12	60816,96
			0,00431	0,06565

Ko'rsatkichlar	2015	2016	surat	Maxraj
YAIM	64,6	66,8	4,84	5132,29
Sanoat	40,6	45,3	22,09	4541,412
Qurilish	66,7	66,9	0,04	4480,964
Bandlik	77,9	78,2	0,09	6129,324
Eksport	27	26	1	729
Import	44,5	46,8	5,29	2713,368
			33,35	23726,36
			0,001406	0,037491

Ko'rsatkichlar	2021	2022	surat	maxraj
YAIM	54,1	51,8	5,29	11214,81
Sanoat	27,4	26	1,96	2851,56
Qurilish	72,5	71,5	1	20736
Bandlik	74,5	73,9	0,36	22022,56
Eksport	20	29,6	92,16	2460,16
Import	45,3	49,4	16,81	8968,09
			117,58	68253,18
			0,001723	0,041505

Ko'rsatkichlar	2016	2022	surat	maxraj
YaIM	66,8	51,8	225	14065,96
Sanoat	45,3	26	372,49	5083,69
Qurilish	66,9	71,5	21,16	19154,56
Bandlik	78,2	73,9	18,49	23134,41
Eksport	26	29,6	12,96	3091,36
Import	46,8	49,4	6,76	9254,44
			656,86	73784,42

			0,008902	0,094353
--	--	--	----------	----------

Olingan natijalarni talqin qilish uchun Ryabsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar me'yorini baholash shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib u 2.1.1-jadvalda o'z ifodasini topgan. Ryabsev indeksi bo'yicha olingan natijalar quyidagi grafikda o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra 2010-2011-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish ulushining tarmoqlardagi umumiy siljishlari 0.065 punktini, 2015-2016-yillarda 0.037 punktini hamda 2021-2022-yillarda 0.041 punktini, 2016-2022-yillarda 0.094 punktini tashkil etdi.

### 2.1.1 jadval

#### Ryabsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar me'yorini baholash shkalasi<sup>35</sup>.

Koefitsent qiymatlarining intervali	Tuzilmaviy o'zgarishlarning me'yoriy tavsifi
0.030 gacha	O'xshash tuzilma
0.031-0.070	Juda past darajadagi tafovut
0.071-0.150	Past darajadagi tafovut
0.151-0.300	Ahamiyatli darajadagi tafovut
0.301-0.500	Sezilarli darajadagi tafovut
0.501-0.700	Juda sezilarli darajadagi tafovut
0.701-0.900	Teskari tuzilma
0.901 va undan yuqori	To'la teskari tuzilma


2.1.1-rasm.

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlardagi ulushining umumiy siljishlar dinamikasi. Ryabsev indeksi<sup>36</sup>.

<sup>35</sup> Рябцева В.М., Чудилина Д. Региональная статистика. - М., «МНД», 2001. –С. 153.

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma'lumotlariga ko'ra Microsoft Excel dasturi orqali muallif tomonidan ishlab chiqildi.





Ryabsev indeksi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tuzilmasidagi siljishlarning to'plam tuzilmasi maksimal o'zgarishi mumkin bo'lgan holatga nisbatan qanchaga o'zgarganligini ko'rsatadi. Agar ushbu umumlashtiruvchi indeksni nazariy jihatdan 0 va 1 qiymatlar oralig'ida o'zgarishini inobatga oladigan bo'lsak, u holda tahlil qilinayotgan davrlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha umumiy siljishlari haqida ma'lum bir xulosaga kelish qiyin emas. Jumladan, taqqoslanayotgan tarkibiy siljishlar orasidagi farq qanchalik kichik bo'lsa, Ryabsev indeksining qiymati nolga yaqin va aksincha, farq qanchalik katta bo'lsa, shunchalik birga yaqin bo'ladi. Biz ko'rib chiqqan to'rtta davrlar orasida qiyoslash amalga oshiradigan bo'lsak, 2010-2011-yillar davomida tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy tarmoqlarda sezilarli darajada kuzatilgan 0.065 punktga erishgan va bu Ryabsev indeksi bo'yicha tuzilmaviy o'zgarishlar shkalasida juda past darajadagi tafovutni ko'rsatmoqda. 2016-2022-yillardagi ko'rsatkichga to'xtaladigan bo'lsak, 0.094 punktni tashkil qilib, shkala bo'yicha past darajadagi tafovutga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. B. Y. Xodiyev, T. Sh. Shodiyev, B. B. Berkinov *Ekonometrika* - T: Iqtisodiyot 2018. – bet 112.
2. Maxmudov Nosir Maxmudovich, Usmonov Baxtiyor Xusanboyevich *Mashinasozlik tarmog'i ishlab chiqarishida tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishlari va tarmoqqa jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligi*. “ Iqtisod va moliya “ jurnali Toshkent 2017 –yil, № 8 B. 5-6
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumolari.

## **KORXONALARDA METROLOGIK TA'MINOTNI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR**

**S.A.Axmedova**

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti 60711300-Metrologiya,  
standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada korxonaning metrologik ta'minotning ahamiyati va uning asosiy maqsadlari, mahsulotlarni ishlab chiqarishda metrologik ta'minotning sifat darjasiga ta'siri, ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti yoritib berilgan. Qolaversa korxonlardagi metrologik ta'minotning muammolari hamda bu muammolarga sabab bo'luvchi omillar haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *metrologik ta'minot, etalon bazasi, metrologik qo'llab quvvatlash, ishlab chiqarish.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the importance of metrological supply of the enterprise and its main goals, the impact of metrological supply on the quality level of production, metrological supply of production. In addition, the problems of metrological supply in enterprises and the factors causing these problems are described.*

**Key words:** *metrological supply, reference base, metrological support, production.*

### **KIRISH**

Metrologik ta'minot har qanday korxonaning sifat menejmenti tizimining asosidir. Metrologik ta'minotni shunday ta'riflash mumkin: o'lchashlar birligini ta'minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo'lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me'yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarining belgilanishi va tadbiq etilishi.

Metrologik ta'minotning vazifasiga quyidagilar kiradi [2]:

- o'lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta'minlash va tadbiq etish;

- o'lchashlarni amalga oshirish, uning natijalarini qayta ishlash va tavsiya etish borasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

- hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;

- o'lchash vositalarining davlat sinovlari;

- o'lchash vositalarining va uslublarining metrologik attestatsiyasi va hokozalar.

Metrologik ta'minotning asosiy maqsadlariga mahsulot sifatini, ishlab chiqarish va uni avtomatlashtirishning samaradorligini oshirish; detallar va agregatlarning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash; moddiy boyliklarning va energetik resurslarining hisobini olib borish ishonchliligini ta'minlash; atrof – muhitni himoya qilish; salomatlikni saqlash va hokozalar kiradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Korxonada metrologik ta'minotning asosiy maqsadi tashkilot tomonidan talab qilinadigan hajmlarda va loyihaga muvofiq o'z vaqtida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishonchli o'lchash ma'lumotlarini ta'minlaydigan ilg'or nazorat-o'lchov jarayonlari va metrologik vositalarni yaratish va qo'llashdir. Shu yerda ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti degan tushunchaga to'xtalib o'tmoqchimiz.


*Ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti* – bu metrologik xizmatlarni ishlab chiqarishda o'lchash birliligini ta'minlashga qaratilgan faoliyati [2].

Ishlab chiqarishning metrologik ta'minotiga quyidagilar kiradi:

- tashkilot yoki korxonadagi o'lchashlar ahvolini tahlil qilish;
- o'lchanishi lozim bo'lgan kattaliklarni ratsional nomenklaturasini, o'lchash vositalarni nomenklaturasini, o'lchash me'yorlarini va aniqliklarini aniqlash;
- o'rnatilgan aniqlikka mos keluvchi o'lchashlarni bajarish uslubiyotini ishlab chiqarish;
- texnik topshiriqlarni, konstruktorlik va texnologik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish;
- metrologik me'yoriy hujjatlar (MH) ni joriy qilish;
- korxonani metrologik masalalari bo'yicha MH ishlab chiqarish;
- korxonada metrologik qoidalarga, me'yorlarga va talablarga rioya qilish [2].

Ishlab chiqarish jarayonida metrologik ta'minotning o'rni va ahamiyati quyidagi 1-rasmda o'z aksini topgan.

**KOLBASA MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING TEXNOLOGIK JARAYONI  
MISOLIDA METROLOGIK TA'MINOTNING O'RNI**



**1-rasm. Ishlab chiqarish jarayonida metrologik ta'minotning o'ri.**

Bugungi kunga qadar mutaxassislar korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini metrologik ta'minlash holati to'g'risida aniq fikrga ega emaslar. Darhaqiqat, GOST 1.25–76 “GSS. Metrologik ta'minot. Asosiy qoidalar” davlatlararo standarti bekor qilinganidan keyin metrologik ta'minotni tashkil etishga yondashuvda yaxlitlik yo'qoldi. Ushbu standart o'rniga, bir butun turli maqomdagi bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi, ammo bu hujjatlarning barchasi faqat metrologik ta'minotning mahalliy vazifalarini ko'rib chiqadi.

Korxonada metrologik ta'minotning roli va vazifalari bo'yicha bir nechta fikrlar mavjud. Ulardan biri yangi standart ishlab chiqish zarurligini aytadi. Ikkinchisi, zamonaviy amaldagi davlatlararo va xalqaro standartlarga muvofiq o'lchashlarni amalga oshirishni ta'minlash zarurligiga asoslanadi. Uchinchi nuqtai nazar, ISO standartlariga, ya'ni ISO 10012-2008 “Tashkilotlarni boshqarish. O'lchashlarni boshqarish tizimlari. O'lchash jarayonlariga qo'yiladigan talablar va o'lchash asboblari” standart talablarni belgilaydi va o'lchashlarni boshqarish tizimini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Korxonaning metrologik ta'minoti qanday omillarga bog'liq bo'lishi mumkin? Metrologik ta'minotning hozirgi holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillar guruhlarini ko'rib chiqaylik.

1. *Etalon bazasining holati.* Har bir mamlakat etalonlar bazasiga ega. Qaysiki mamlakatda etalonlar bazasi kuchli bo'lsa, ushbu mamlakatda o'lchashlar birliligini ta'minlash darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston etalonlar bazasi 29 ta milliy boshlang'ich etalonlarini o'z ichiga oladi.

So‘nggi o‘n besh-yigirma yil ichida ko‘pchilik ishlab chiqarish korxonalari metrologik bazani rivojlantirish uchun imkoniyatlari cheklangan edi. Bu, birinchi navbatda, korxonaning etalon bazasiga tegishli. Natijada korxonalarni zamonaviy o‘lchash vositalari bilan jihozlash, o‘lchashning ilg‘or usullarini joriy etish tizimli va maqsadli amalga oshirilmadi. Bu esa mahsulot sifatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Metrologik laboratoriyalarning jihozlarini optimallashtirish uchun mutaxassislar zamonaviy o‘lchash usullari va vositalari haqida ma‘lumotlarga, mavjud global muammolar va ularning yechimlari, tendensiyalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Biroq, so‘nggi 15 yil ichida nafaqat chiziqli burchakli o‘lchash asboblari bo‘yicha ma‘lumotnoma, balki shunchaki sharh maqolalari ham bosma nashrlarda chop etilmagan.

*2. Korxonalarning texnologik o‘lchashlarini metrologik ta‘minlash. Zamonaviy o‘lchash vositalarining yetishmasligi va eskirgan o‘lchash usullaridan foydalanish mavjud o‘lchash vositalari parkining past samaradorligini keltirib chiqaradi, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatishda yuqori xarajatlarga olib keladi.*

Bugungi kunda mashinasozlik kompleksining aksariyat korxonalarida metrologik ta‘minot darajasi sezilarli darajada yomonlashdi. Soha tashkilotlarida aniq tizim yo‘q. Ko‘pgina fundamental vazifalar, jumladan metrologik ekspertiza, o‘lchash vositalari parkini optimallashtirish, jarayonni boshqarishda o‘lchashlarni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish va qo‘llash mukammal bajarilmaydi yoki juda qisqartirilgan hajmda bajariladi.

## **XULOSA**

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarish korxonalarida metrologik ta‘minot masalasiga alohida e‘tibor qaratish, korxonada o‘lchashlar birliligini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish, korxonaning zamonaviy o‘lchash vositalari bilan jihozlanishi, shuningdek, zamonaviy o‘lchash usullaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim. Bu esa bizga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratib beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. GOST R ISO 10012–2008. Tashkilot boshqaruvi. O‘lchovlarni boshqarish tizimlari. O‘lchov jarayonlari va o‘lchash uskunalariga qo‘yiladigan talablar. Huquqiy ma‘lumotnomadan kirish. "ConsultantPlus" tizimi.
2. U.A.Maxmonov. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalash. Darslik. Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2023. -372 b.



3. Ф.А.Эргашев, З.Б.Шавкатжонова. Роль метрологического обеспечения в повышении качества продукции в текстильной производстве / Материалы международной конференции «Перспективы и проблемы метрологического обеспечения инновационных технологий», 18- 19 май 2021 г., Ташкент, Узбекистан. 2021, - С. 398-402.

**UDK 622.27**

**KOVULDI OLTIN KONIDA QAZIB OLINGAN BO‘SHLIQNI  
TO‘LDIRISHDA FOYDALANILAYOTGAN TO‘LG‘AZMA  
MATERILLARINING MAQBUL VARIANTINI ISHLAB CHIQUISH.**

**Mislibayev Ixom Tuychibayevich**

NDKTU Konchilik ishi fakulteti dekani t.f.d., professor

**Xasanov Obid Abdullayevich**

TDTU Olmaliq filiali Konchilik ishi fakulteti dekani, PhD.

**Alimov Shoxriddin Muxammatovich**

TDTU Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrası katta o‘qituvchisi

**Berdiyeva Dilrabo Xasanovna**

TDTU doktorant

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada “Olmaliq KMK” AJ Issiqlik elektr markazi (IEM) bug‘ qozonlarini qizdirishda ishlatilgan ko‘mirning kuli va yonmagan qismidan foydalangan holda, qazib olingan bo‘shliqni to‘ldirish ishlari va texnik jihatdan tadbiiq qilish afzalliklari va imkoniyatlari hisoblab chiqilgan. Iqtisodiy ko‘rsatgichlarini hisoblash va tahlil qilish bu o‘zgartirishlarning maqsadga nomuvofiqligini ko‘rsatib beradi. Kovuldi koni sharoitida qotuvchi to‘lg‘azmaning 1 m<sup>3</sup> uchun sarflanadigan harajatlari ishlab chiqildi va ishlab chiqilgan kon ishlari rejasiga asosan qo‘shimcha qovushqoq vositalarining ushbu summadagi ulushi 22% dan oshib ketmasligi talab qilindi. Shu shartdan kelib chiqib taklif etilgan variantning iqtisodiy hisob-kitobi aniqlangan.*

***Tayanch iboralar:** qotuvchi to‘lg‘azma, ko‘mir kuli, qizil qum, fraksiya o‘lchamlari, transportabellik (kameragacha yetkazib kelish), kamera, qazib olish tizimi, sement, marmar qumi.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье определены преимущества закладки выработанного пространства с использованием золы и несгоревшей части угля, применяемых для обогрева паровых котлов Иссык-Кульского электроузла (ИЭМ) АО «Алмалыкский ГМК». Выполнен анализ экономических показателей технологии с применением данной закладки. Рассчитана стоимость твердеющего заполнителя на 1 м<sup>3</sup> в условиях рудника Каульды, и, согласно разработанному плану горных работ, доля дополнительных загустителей составит не более 22%. Исходя из этого условия, был произведен экономический расчет для предлагаемого варианта.*

***Ключевые слова:** твердеющая закладка, угольная зола, красный песок, размеры фракций, транспортабельность (доставка в камеру), камера, горная система, цемент, мраморный песок.*

Kon ishlarining jadal ravishda chuqurlashi va kon – geologik sharoitlarining murakablashishi natijasida so‘ngi paytlarda qazib olingan bo‘shliqni qotuvchi to‘lg‘azma bilan to‘ldirib qazib olish keng qo‘llanilmoqda.

Qotuvchi to‘lg‘azma tarkibini to‘g‘ri tanlash konda mustahkam (monolit) massiv yuzaga kelishini ta‘minlaydi. Maqbul tarkibli to‘lg‘azmani tanlash texnologik va iqtisodiy omillarga ahamiyat qaratishni taqozo qiladi.

Qotuvchi to‘lg‘azma tarkibini tanlash kon yaqinidagi mahalliy materiallarning yaroqliligini aniqlash, ularning zaxiralarini, foydalanishga yaroqli miqdoriga qarab aniqlash, ularning keyinchalik ta‘minoti yoki qazib olinishini, qazib olish va yotqizish (to‘ldirish) ishlari joyiga yetkazib berishning mumkin bo‘lgan usullarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ikkinchi bosqichda to‘ldiruvchilarning fizik-mexanik xususiyatlarini, bog‘lovchilarning faolligini o‘rganish kerak bo‘ladi. Qotuvchi to‘lg‘azmaning oqilona tarkibi eksperimental ravishda, turli xil kompozitsiyalarning qotuvchi to‘lg‘azma na‘munalarini ishlab chiqish va transportabellik (kameragacha yetkazib kelish) qobiliyatini sinab ko‘rish orqali aniqlanadi [2,4].

Qotuvchi to‘lg‘azmaning tarkibi hosil qilingan sun‘iy massivning kerakli qattiq va mustahkamligiga, aralashmani yetkazib berishning qabul qilingan usuliga, yotqizish massivini qurish texnologiyasiga, birikish va jipslashish intensivligiga hamda yotqizish ishlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qarab tanlanishi kerak.

*Qotuvchi to‘lg‘azma bilan to‘ldirib qazib olish tizimining afzalliklari:*

- minimal yo‘qotishlar bilan murakkab ruda tanalarini qazib olishga imkon beradigan moslashuvchanlik;
- yo‘qotilish va sifatsizlanishni 3 – 4% ga kamaytirishi;
- noturg‘un va beqaror rudalarni o‘zlashtirish jarayonida xavfsiz ish sharoitlarini yaratilishi;
- ruda tanasini to‘liq o‘zlashtirishning imkoni, yo‘qotilish va sifatsizlanishni (odatda 3-4 marta) kamaytirish.
- Kovuldi oltin konida qotuvchi to‘lg‘azma bilan to‘ldirib qazib olish tizimidan foydalanishning bir qator kamchiliklari mavjud:
  - qotuvchi to‘lg‘azmalar majmuasi (kompleksi) dagi eskirgan uskunalar;
  - ko‘p miqdordagi sement sarfi;
  - qotuvchi to‘lg‘azma massivini yaratishning va to‘siq barpo qilishning murakkabligi va mehnat talabligi;
  - qovushqoqligini oshiruvchi quruq ko‘mir sanoati kulining tanqisligi;
  - to‘lg‘azma quviri liniyasining yer yuzasida joylashgan qismida qotuvchi to‘lg‘azma qorishmasining qish mavsumida muzlashi va propka yuzaga kelishi;
  - uzoq masofalarga yotqizish quvuri orqali tashish paytida beton aralashmaning tabaqalashtirish zarurati, yoki fraksiyasiga ko‘ra tabiiy tabaqalanishi;
  - kon lahimi to‘liq shipiga to‘ldirish imkoniyati cheklanganligi.

Ushbu kamchiliklarning barchasi ruda qazib olish tannarxining oshishiga olib keladi.

Kovuldi oltin konini o'zlashtirish jarayonida quyidagi asosiy muammolar yuzaga kelmoqda:

✓ Qotuvchi to'lg'azmaning mustahkamligi past, sababi qum fraksiyasi va zichligi yuqori, natijada tayyorlangan beton qorishmasidan sement yuvilib ketishi yuzaga kelmoqda;

✓ To'ldiriladigan tozalovchi kameralardagi to'siqlar masofasini kattaligi sababli to'lg'azma yotqiziladigan kamera tubida va to'siq atrofida to'lg'azma shpgacha to'lmasligi, natijada to'lg'azma va ship orasida bo'shliq yuzaga kelishi kuzatilmoqda;

✓ To'lg'azma quvurlarida tiqilib qolish holatlari tez-tez yuzaga kelmoqda, kameraga smenalik hajmdagi qotuvchi to'lg'azma yotqizilgandan so'ng, quvur ichida qolgan qorishmani chiqarib tashlash uchun suvning o'zini quvur ichidan yurg'iziladi, natijada kameradagi sement yuvilib ketadi, yoki to'siq tashqarisida amalga oshirilsa gorizontda 20 – 30 sm sathli suvga to'lishi yuzaga kelmoqda.

Kovuldi oltin koniga qotuvchi to'lg'azma tayyorlash uchun M-400 va M-500 markadagi sement, bo'sh tog' jinslarini maydalashdan hosil bo'lgan qum va ko'mir yonishidan hosil bo'ladigan kuldan foydalaniladi [6].

Kovuldi koni 2002 yil "Uzalmazzolota" davlat korxonasiidan chiqib, "Olmaliq KMK" AJ tarkibiga qo'shilganidan so'ng 2003 yildan boshlab kul o'rniga 2 km shimoliy g'arbda joylashgan Marmar konida hosil bo'ladigan marmar qumi (kroshka)dan foydalanib kelmoqda. 2018 va 2019 yillarda "Olmaliq KMK" AJ ga qarashli Sharhiya karyeridan qazib olinadigan qizil qumdan foydalanildi, stabil ta'minlab berish imkoni bo'lmagani uchun Sharhiya karyeridan qazib olinadigan qizil qumdan voz kechildi. 2019 yil 4 choragidan boshlab shu kungacha Marmar koni qumidan foydalanib kelinmoqda.

2022 yil uchun tasdiqlangan kon ishlari rejasi asosida shaxtaning yillik ma'dan qazib olish unumdorligi 100 ming tonna, to'lg'azma ishlari yillik hajmi 25 ming m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

Ko'mir halq xo'jaligida keng foydalaniladi, ko'mirning kulini dehqonchilikda va sanoat ishlab chiqarishda foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Ko'mir kulining tarkibi va sifati turlicha. Ko'mir yoqish mahsulotlarida oziqa moddalari mavjud bo'lib, ular o'simliklar uchun kam uchraydigan shaklda bo'ladi. Bundan tashqari, ko'mir kulida og'ir metallar va boshqa zararli moddalar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'mir kuli eng yaxshi o'g'it hisoblanmaydi va qishloq xo'jaligida kamdan kam qo'llaniladi.

Ko'mir kulining tarkibi:

Kremniy oksidi (SiO<sub>2</sub>) – 45-60%

Alyuminiy oksidi (Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>) – 20-30%

Temir oksidi (Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>) – 5-20%

Magniy oksidi (MgO) – 0,5-3%

Kalsiy oksidi (CaO) – 1-15%.





1-rasm. M-400 va M-500 markadagi sement



2-rasm. Bo'sh tog' jinslarini maydalashdan hosil bo'lgan qum



3-rasm. Ko'mir yonishidan hosil bo'ladigan zol

*Kovuldi oltin konida quyidagi variantlarda qotuvchi to'lg'azma qorishmasi tayyorlanishi ko'zda tutilgan:*

1.  $\Pi + K + \Pi + B;$
2.  $\Pi + K + B;$
3.  $\Pi + \Pi + B;$
4.  $(\Pi^* + \text{III}) + K + \Pi + B;$
5.  $(\Pi^* + \text{III}) + K + B;$
6.  $(\Pi^* + \text{III}) + \Pi + B;$
7.  $\text{III} + K + \Pi + B;$
8.  $\text{III} + K + B;$
9.  $\text{III} + \Pi + B;$

bunda,  $\Pi$  – sement,  $K$  – katta o'lchamli qum,  $\Pi$  – qum,  $\Pi^*$  – sement qovushqoqligini oshiruvchi qo'shimcha,  $\text{III}$  –sementsiz qovushqoq,  $B$  –suv [8].

Qotuvchi to'lg'azma tarkibini "Olmaliq KMK" AJ Issiqlik elektr markazi (IEM) bug' qozonlarini qizdirishda ishlatilgan ko'mirning kuli va yonmagan qismidan foydalangan holda, murakkab tarkibli qorishma varianti ko'rib chiqiladi:

$$(\Pi^* + \text{III}) + K + \Pi + B;$$

Faolligi  $R_{\Pi} = 40$  MPa bo'lgan M400 markali sement;

Faolligi  $R_{\text{III}} = 5$  Mpa bo'lgan shlak;



katta o‘lchamli qum – fraksiyasi 20 mm gacha, mayda o‘lchamli qum –qum.  
Sement qovushqoqligini oshiruvchi murakkab tarkibli qo‘shimcha sarfi quyidagicha aniqlanadi (1-jadval):

$$\Pi^* = 600 \left[ \frac{\sigma_{\text{сж}} - c(600)^d \sigma_{\text{ш}}}{a(600)^b \sigma_{\text{ш}} - c(600)^d \sigma_{\text{ш}}} \right]^{\frac{1}{b}}$$

1-jadval

**Shlakli qovushqoqning hisoblangan parametrlari quyidagi jadvalda keltirilgan:**

Shlakning faolligi,	Etalon to‘lg‘azmaning mustaxkamlik chegarasi	Empirik koeffitsiyent	
		<i>s</i>	<i>D</i>
3,8	1,5	1	0,38
5	2	0,059	0,48
6,2	2,5	0,018	0,67
7,5	3	0,01	0,78

$$\Pi^* = 600 \left[ \frac{5,3 - 0,059(600^{0,48} \cdot 2)}{0,0046(600)^{0,99,7} - 0,059(600)^{0,48} \cdot 2} \right]^{\frac{1}{0,9}}$$

Texnologik yo‘riqnomaga ko‘ra, Kovuldi konida suv sarfi B quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi:

$B = 360 \div 450 \text{ l/m}^3$  – katta o‘lchamli qum qorishmasida;

$B = 400 \div 500 \text{ l/m}^3$  – katta va mayda o‘lchamli qum qorishmasida;

$B = 450 \div 550 \text{ l/m}^3$  – mayda o‘lchamli qum qorishmasida;

“Olmaliq KMK” AJ Issiqlik elektr markazi (IEM) bug‘ qozonlarini qizdirishda ishlatilgan ko‘mirning kuli va yonmagan qismidan foydalangan holda, to‘ldirishni hisobga olib suv sarfi  $B 450 \text{ l/m}^3$  deb qabul qilinadi;

Katta va mayda o‘lchamli qum qorishmasi sarfi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K(\Pi) = \frac{1 - \frac{BЖ}{P_{3,ш}} - \frac{B}{P_B}}{\frac{1}{P_{3,к(3,ш)}}}$$

bunda, BЖ – qovushqoqlarning umumiy miqdori, kg;

$p_{3,ш}$  – qovushqoqning zichligi ( $p_{3,ш} = 3100 \text{ kg/m}^3$ );

$p_B$  – suvning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$p_{3,к} = 2500 \div 2700 \text{ kg/m}^3$  – katta o‘lchamli qum zichligi;

$p_{3,ш} = 3400 \div 3600 \text{ kg/m}^3$  – mayda o‘lchamli qum zichligi.

Aralashgan qo‘shimcha qorishmalar sarfi  $K + \Pi$  quyidagi formula bilan hisoblash tavsiya etiladi:

$$K + \Pi = \frac{1 - \frac{BЖ}{P_{3,ш}} - \frac{B}{P_B}}{\frac{1 - K}{P_{3,ш}} + \frac{K}{P_{3,л}}}$$

bunda,  $\kappa$  – umumiy qo‘shimcha qorishmalar massasidagi katta o‘lchamdagi qorishmaning ulushi ( $\kappa < 0,3 \div 0,4$ ).

$$K = \kappa(K + \Pi)$$

$$\Pi = (K + \Pi) - K$$

Qorishma tarkibini muqobillashtirish qilish quyidagi tartibda va to‘lg‘azma umumiy balansi mazkur shartni qanoatlantirishi kerak:

$$\left( \frac{\Pi}{P_{3,II}} + \frac{III}{P_{3,III}} + \frac{D}{P_{3,IV}} \right) + \frac{K}{P_{3,K}} + \frac{\Pi}{P_{3,\Pi}} + \frac{B}{P_B} = 1$$

Muvozanat 2% gacha buzilsa, tabiiy holda  $K$  yoki  $\Pi$  sarfi ko‘payadi.

$$K + P = \frac{1 - \frac{600}{3100} - \frac{450}{1000}}{1 - 0,32 - \frac{0,32}{2650} + \frac{0,32}{2600}} = 940 \text{ kg/m}^3$$

$$K = 0,32 \cdot 940 = 308 \text{ kg/m}^3$$

$$P = 940 - 308 = 632 \text{ kg/m}^3$$

2-sonli to‘lg‘azma kompleksi sutkalik unumdorligi  $300 \text{ m}^3$  ni tashkil qiladi, shaxtaning to‘lg‘azma bo‘yicha sutkalik unumdorligi  $92.6 \text{ m}^3$  ni mazkur hisoblar asosida foiz mutanosibligini ta‘minlab amalga oshiriladi [9]:

$$25 \text{ 000 m}^3 / 270 \text{ kun} = 92.6 \text{ m}^3/\text{kun}$$

(365 kun=52 hafta, har haftada 5 kun ishlaydi, 5 kun\*52 hafta =260 kun)

Qotuvchi to‘lg‘azmaning  $1 \text{ m}^3$  uchun hisoblangan tarkibi quyidagicha bo‘ladi:

$$S = 125 \text{ kg}, SH = 475 \text{ kg}, K = 308 \text{ kg}, P = 632 \text{ kg}, B = 450 \text{ l.}$$

Laboratoriya sinovlaridan so‘ng qotuvchi to‘lg‘azmaning  $1 \text{ m}^3$  hajmi uchun tarkibi muqobillashtiriladi. Qorishmaning solishtirma og‘irlig‘i

$$\gamma_n = 0,01(450 + 308 + 632 + 125 + 475) = 19,9 \text{ kN/m}^3 \text{ ni tashkil qiladi.}$$

100 ming tonna/yil ruda yoki hajmda  $37 \text{ 800 m}^3 / \text{yil}$  ruda qazib olinganda minimal to‘lg‘azma ishlari quyidagi hajmda amalga oshirilishi kerak:

$$Q_n = 37800 * 1.3 * \frac{1.02}{2.65} = 18914,264 \text{ m}^3/\text{yil};$$

2-sonli to‘lg‘azma kompleksi soatlik unumdorligi kamida quyidagi ko‘rsatgichda bo‘lishi kerak:

$$Q_{PCH} = \frac{18914,264}{300 * 2 * 6} = 10,5 \text{ m}^3/\text{soat};$$

Bu unumdorlikni ta‘minlash uchun quvur diametri kamida quyidagicha bo‘lishi kerak:

$$d = 35 \sqrt{\frac{10,5}{0,6}} = 146,3 \text{ mm};$$

Standart ko‘rinishdagi diametri  $d = 159 \text{ mm}$  bo‘lgan quvur tanlanadi.

273 metr vertikal skvajinadan va 400 metr qiya kon lahimidan tushib kelgan qorishma gorizontal bo‘yicha o‘z oqimi bilan minimal borish masofasi topiladi:

$$L_c = 0,75 \cdot 400 \frac{10 \cdot 19,9}{100 - 1} - 2 - 4 \cdot 20 - 3 \cdot 10 = 490 \text{ m}$$

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Kovuldi oltin konida 1977 yildan buyon qazib olingan bo‘shliq qotuvchi to‘lg‘azma bilan to‘ldirilib qazib olinmoqda. O‘tgan 45 yil mobaynida bu qazib olish tizimini takomillashtirish uchun turli variantlar

ko‘rib chiqilgan va sinab ko‘rilgan. Har bir taklif qilingan variantlarning o‘ziga hos afzalliklari va kamchiliklari mavjud, bu xulosalar ishlab chiqarish amaliyotida o‘z isbotini topib, aynan texnik va iqtisodiy ko‘rsatgichlari hisobiga variantlar tahlil qilinib, maqbul variantlar tanlangan [1,3].

“Olmaliq KMK” AJ Issiqlik elektr markazi (IEM) bug‘ qozonlarini qizdirishda ishlatilgan ko‘mirning kuli va yonmagan qismidan foydalangan holda, to‘ldirish hisoblab o‘tildi.


Texnik jihatdan tadbiiq qilish afzalliklari va imkoniyatlari hisoblab chiqilib, tegishli hulosalar chiqarildi. Iqtisodiy ko‘rsatgichlarini hisoblash va tahlil qilish bu o‘zgartirishlarning maqsadga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini ko‘rsatib beradi. Narxlar (so‘mda) ishlab chiqarishdagi haqiqiy holatdan farq qiladi, o‘zgartirish Kovuldi koni ma‘muriyati tomonidan talab etildi [7].

Kovuldi koni sharoitida qotuvchi to‘lg‘azmaning 1 m<sup>3</sup> uchun sarflanadigan harajat 145 000 so‘mni tashkil qiladi. Ishlab chiqilgan kon ishlari rejasiga asosan qo‘shimcha qovushqoq vositalarining ushbu summadagi ulushi 22% dan oshib ketmasligi kerak. Shu shartdan kelib chiqib, yaqin tarixda qo‘llanilib kelingan va taklif etilgan variantni iqtisodiy solishtirib ko‘ramiz (2-jadval):

2-jadval

**Iqtisodiy ko‘rsatkichlarini solishtirilgan jadval**

<b>Ko‘rsatgichlar nomi</b>	<b>IEM ko‘mir kuli va yonmagan qismi</b>	<b>Sharhiya karyeri qizil qumi</b>	<b>Oqtosh marmar koni marmar qumi</b>
<i>1 m<sup>3</sup> sotilish narxi, so‘m</i>	14 000	16 500	21 000
<i>1 m<sup>3</sup> tashish narxi, so‘m</i>	15 000	15 000	7 000
<i>Qo‘l mehnatiga talabgorligi, so‘m</i>	2 900	0	0
<i>Umumiy tannarxi, so‘m</i>	31 900	31 500	28 000
<i>Umumiy tannarxdagi ulushi</i>	0.22	0.21	0.19



Iqtisodiy ko'rsatgichlar umumiy tannarx summasidagi ulushi talablarini qanoatlantirmoqda. Texnik ko'rsatgichlar esa kon ishlari rejasida ko'zda tutulgan 25 000 m<sup>3</sup> to'lg'azma ishlari talablarini bajarmaydi, ya'ni yillik rejani bajarish uchun kerak bo'ladigan miqdordagi qo'shimcha qovushqoqlikni oshiruvchi vositalar bilan ta'minlab berish imkoni yo'q.

Qo'shimcha qovushqoqlikni oshiruvchi vositalarning umumiy tannarx summasidagi ulushi qancha kam bo'lsa va ta'minot kamida yillik ehtiyojni qondirsa bu qo'shimcha iqtisodiy maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oqtosh marmar koni marmar qumida qo'shimcha qovushqoqlikni oshiruvchi vositalarning umumiy tannarx summasidagi ulushi eng kam 19% ko'rsatgichda, ammo yillik ehtiyojni qanoatlantirmaydi.

Sharhiya kareri qizil qumi qo'shimcha qovushqoqlikni oshiruvchi vositalarning umumiy tannarx summasidagi ulushi o'rtacha 21% ko'rsatgichda, ammo qizil qumning abrazivligi tufayli quvurlarning yemirilishi 25 baravarga ko'p.

IEM ko'mir kuli va yonmagan qismi qo'shimcha qovushqoqlikni oshiruvchi vositalarning umumiy tannarx summasidagi ulushi chegaraviy 19% ko'rsatgichda, ta'minoti yillik ehtiyoj talablarini qanoatlantiradi, mahsulotning fizik – mexanik xususiyatlari texnologiya yechimlar doirasida.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Бердиева Д.Х. «Совершенствования закладочных работ в системе разработки месторождения Каулди», Экономика и социум, ст.509-513, 2020 г.
- 2) Алимов Ш.М., Ташкулов А.А. «Обоснование оптимальных параметров эффективного регулирования степени дробления» Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7. May 2022 стр 475-487.
- 3) Бердиева Дилрабо Хасановна, Субанова Зарнигор Абдинаби кизи «К вопросу снижения себестоимости закладочных работ при система разработки

горизонтальными слоями с закладкой» Ориентал Ренаиссансэ: Инновативе, эдусатионал, натурал анд социал ссиэнсэс, ст. 674-679. 2021/5.

4) Алимов Ш.М., Эргашев М.А., Ўралбоева Д.Ф. «Методы регулирования степени дробления горных пород» “O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” jurnali materiallari to‘plami 20-noyabr, 2022-yil.

5) Бердиева Д.Х. Косимов М.О. «Выбор оптимального варианта системы разработки на руднике Каулди» Ориентал Ренаиссансэ: Инновативе, эдусатионал, натурал анд социал ссиэнсэс, ст 235-240, 2021/7

6) Бердиева Д.Х., Мамазиёева Ш.Ш. «Преимущества камерно столбовой системы разработки на месторождение Кавулди» Экономика и сотсиум. ст 303-307 2021г

7) Бердиева Д.Х. Косимов М.О. «Усовершенствование закладки труб в условиях шахты Каулди» Сэнтрал Асиан Асадемис Жоурнал оф Ссиэнтифис Ресеарч. ст. 52-59 2022/2-3

8) Именитов В.Р. «Процессы подземных горных работ при разработке рудных месторождений» М., «Недра», 1978 г. 528 с.

9) Баранов А.О. «Расчет параметров технологических процессов подземной добычи руд» – М.: «Недра», 1985 г. 224 с.



## **O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA EPIK FORMULALAR TASNIFI**

**Djurakulova Gulnoza Shavkatovna,**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

dotsent v.b. (PhD),

djurakulovagulnoza5@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola folklor janrlarining, ayniqsa, xalq dostonlarining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan an’anaviy epik formulalar tadqiqiga bag‘ishlanadi. Maqolada an’anaviy takrorlar sohasida shu paytgacha qilingan ishlar umumlashtirildi hamda ushbu masala echimi yo‘lida keyingi qadam tashlandi. Tadqiqot ishida epik formulalarning doston janrida paydo bo‘lish sabablari va qonuniyatlari o‘rganib chiqilib, tahlil qilindi. Matnda takror qoliplarini ko‘rsatish mumkin bo‘lgan umumiy belgilar ajratib ko‘rsatildi. Maqola muallifi epos kuylovchilarning ko‘p asrlik an’anasi asosida yuzaga kelgan epik formulalar xalqning ma’naviy merosi, madaniyatning yaqqol namunasi degan xulosaga keladi. Bu formulalar madaniyatning yaqqol namunasi bo‘lishi bilan birga ma’lum bir qonuniyat vazifasini ham o‘taydi.*

**Kalit so‘zlar:** folklor, epik formulalar, epos, doston, an’ana, takror, qolip, baxshi.

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная научная статья посвящена изучению традиционных этических формул, которые являются характерной чертой фольклорных жанров, особенно народного эпоса. В статье подводятся итоги проделанной к настоящему времени работы в области этических формул и делается следующий шаг к решению этой проблемы. В исследовательской работе изучены и проанализированы причины и закономерности появления традиционных повторов в эпическом жанре. Выделены общие символы, которые могут указывать на повторяющиеся шаблоны в тексте. Автор статьи приходит к выводу, что узоры, созданные на основе многовековой традиции певцов эпоса, являются духовным наследием народа, ярким образцом культуры. Эти закономерности являются ярким примером культуры, а также служат определенным законом.*

**Ключевые слова:** фольклор, эпос, этическая формула, традиция, повторение, образец, эпический певец.

## **KIRISH**

Folklordagi an'anaviylik og'zakilik asosida yashaydi va saqlanadi. An'ana qandaydir noma'lum turg'unlik emas, balki davomiylik, ketma-ketlik, izchillik natijasida rivojlanadigan taraqqiyot bosqichi va bu bosqichda nomoyon bo'luvchi barqarorlikdir. An'anaviylik ana shu murakkab jarayonda kechuvchi doimiy o'sish va harakatdagi og'zaki tarixiy-adabiy holatning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Individuallik esa an'anaviylik doirasida amal qiluvchi xalq ijrochiligiga xos eposda namoyon bo'luvchi badiiy uslubning bosh belgisi xisoblanadi. An'anaviylik va individuallikning o'zaro bog'liqligi, aloqasi hamda folklor qonuniyatlariga mos ravishda yuzaga chiqishi kabi xususiyatlar barcha tadqiqotchilar tomonidan etarlicha e'tirof etilgan.

Baxshi epik an'analarni saqlovchi, ajdodlardan kelayotgan bu epik merosni ustoz baxshilardan qabul qilib doston kuylari, ijro yo'llari, mazmun mohiyatini an'ana doirasida kelajak avlod vakillariga etkazuvchi, ayni jarayonda, ijodkor ijrochi sifatida epik an'ana doirasida dostonga ijodiy sayqal beruvchi ijrochi san'atkor sanaladi. Baxshi epos namunalarini an'anaviy yo'lda kuylar ekan unga epik bilim va epik xotira tayanch bo'ladi. Baxshi xalq dostonlarini kuylashida epik bilim va epik xotira asosida xalq dostonlari strukturasi tayanchi bo'lmish an'anaviy epik formular, ijro yo'llari, doston nag'malarini holat va vaziyatga mos ravishda qayta ijro etuvchi ijrochi hisoblanadi.

pointing to its positive impact on language proficiency and learner engagement (Godwin-Jones, 2018). However, it is important to acknowledge that the success of TELL interventions is contingent upon several factors, including learner characteristics, instructional design, and technological considerations (Stockwell, 2012). Moreover, this review highlights the evolving nature of TELL, with emerging trends such as adaptive learning technologies, gamification, and mobile-assisted language learning (MALL) shaping the future of language education. Despite the promise of these innovations, challenges such as access disparities, technical limitations, and pedagogical concerns remain significant hurdles to widespread TELL implementation (Kukulaska-Hulme & Shield, 2008). Addressing these challenges requires a concerted effort from educators, policymakers, and technology developers to ensure equitable access to TELL resources and effective integration into language curricula. In light of the findings presented in this review, several implications for practice and policy emerge. Educators and practitioners are encouraged to adopt a learner-centered approach to TELL implementation, incorporating pedagogically sound principles and leveraging technology to enhance personalized learning experiences (Levy & Stockwell, 2006). Furthermore, integrating TELL into language curricula requires thoughtful planning and collaboration across disciplines, as well as ongoing professional development to support educators in effectively utilizing technology in their teaching (Warschauer & Meskill, 2000). Looking ahead, future research in the field of TELL should focus on addressing gaps in knowledge and exploring new avenues for innovation. Areas for further investigation include the impact of emerging technologies on language learning outcomes, the effectiveness of blended learning models, and the role of social and cultural factors in shaping TELL practices (Komilov et al., 2023). By embracing a multidisciplinary approach and engaging in collaborative research endeavors, scholars can contribute to the continued advancement of TELL and its transformative potential in language education. In conclusion, while challenges and complexities persist, the promise of technology-enhanced language learning is undeniable. By harnessing the power of technology, educators can create immersive and engaging learning experiences that empower learners to achieve their language learning goals (Ortikov, 2023). As we navigate the evolving landscape of TELL, it is imperative to remain vigilant in our efforts to promote equitable access, foster innovation, and enhance language education for learners worldwide.

## **REFERENCES**

1. Bax, S. (2003). CALL—past, present and future. *System*, 31(1), 13-28.

2. Belz, J. A., & Thorne, S. L. (2006). Internet-mediated intercultural foreign language education. In S. Fotos & C. M. Browne (Eds.), *New perspectives on CALL for second language classrooms* (pp. 159-178). Lawrence Erlbaum Associates.
3. Blake, R. (2013). *Brave new digital classroom: Technology and foreign language learning*. Georgetown University Press.
4. Blin, F., & Munro, M. (2008). Why hasn't technology disrupted academics' teaching practices? Understanding resistance to change through the lens of activity theory. *Computers & Education*, 50(2), 475-490.
5. Cenoz, J., & Gorter, D. (2015). *Multilingual education: Between language learning and translanguaging*. Cambridge University Press.
6. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing, and research*. Cambridge University Press.
7. Chapelle, C. A., & Jamieson, J. M. (2008). *Tips for teaching with CALL: Practical approaches to computer-assisted language learning*. Pearson Longman.
8. Chapelle, C. A., & Sauro, S. (Eds.). (2017). *The Handbook of Technology and Second Language Teaching and Learning*. John Wiley & Sons.
9. Chapelle, C. A., Jamieson, J., & Parks, S. (2010). CALL evaluation. In N. C. Doughty & M. H. Long (Eds.), *The handbook of language teaching* (pp. 476-494). John Wiley & Sons.
10. Chen, C. M., & Jang, S. J. (2010). Motivation in online learning: Testing a model of self-determination theory. *Computers in Human Behavior*, 26(4), 741-752.
11. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining “gamification.” In *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments* (pp. 9-15).
12. Gikandi, J. W., Morrow, D., & Davis, N. E. (2011). Online formative assessment in higher education: A review of the literature. *Computers & Education*, 57(4), 2333–2351.
13. Godwin-Jones, R. (2018). Language teaching and technology: Past, present, and future. *Language Learning & Technology*, 22(1), 5–24.
14. Kern, R. (2006). Perspectives on technology in learning and teaching languages. *TESOL Quarterly*, 40(1), 183-210.
15. Komilov, J. K., Dehkonov, B. A., & Ortikov, U. K. (2023). The function of metalanguage in the graphic communication. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 622-626.
16. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction.

*ReCALL*, 20(3), 271-289.

17. Levy, M. (1997). *Computer-assisted language learning: Context and conceptualization*. Oxford University Press.
18. Levy, M., & Stockwell, G. (2006). *CALL dimensions: Options and issues in computer-assisted language learning*. Routledge.
19. Moher, D., Liberati, A., Tetzlaff, J., Altman, D. G., & PRISMA Group\*. (2009). Preferred reporting items for systematic reviews and meta-analyses: the PRISMA statement. *Annals of internal medicine*, 151(4), 264-269.
20. Ortikov, U. (2023). Practical uses of corpus analysis in designing language teaching materials. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(7), 304-309.
21. Ortikov, U. (2023). Time allocation for vocabulary training in ESP classrooms. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 364-370.
22. Reinders, H., & Pegrum, M. (2016). Supporting language learning on the move: An evaluation of mobile language learning applications. *ReCALL*, 28(2), 138-159.
23. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching*. Cambridge University Press.
24. Rienties, B., & Toetenel, L. (2016). The impact of learning design on student behaviour, satisfaction and performance: A cross-institutional comparison across 151 modules. *Computers in Human Behavior*, 60, 333-341.
25. Smith, A., & Jones, B. (2019). The Effectiveness of Technology-Enhanced Language Learning: A Meta-Analysis. *Language Learning & Technology*, 23(2), 1-18.
26. Stockwell, G. (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform. *Language Learning & Technology*, 14(2), 95-110.
27. Stockwell, G. (2012). *Computer-assisted language learning: Diversity in research and practice*. Cambridge University Press.
28. Stockwell, G., & Hubbard, P. (2013). Some emerging principles for mobile-assisted language learning. *ReCALL*, 25(3), 319-330.
29. Thorne, S. L. (2003). Artifacts and cultures-of-use in intercultural communication. *Language Learning & Technology*, 7(2), 38-67.
30. Thorne, S. L. (2009). The intercultural turn and language learning in the crucible of new media. In A. Mohamed, A. H. Sulaiman, & R. M. Noor (Eds.), *Language and Language Teaching: Selected Papers from the 7th Language International Conference (LIC)*, Gombak, Malaysia (pp. 93-103). Universiti Putra Malaysia Press.
31. Thorne, S. L., Black, R. W., & Sykes, J. M. (2009). Second language use,

socialization, and learning in Internet interest communities and online gaming. *Modern Language Journal*, 93(1), 802-821.

32. Warschauer, M. (1996). Computer-assisted language learning: An introduction. In S. Fotos (Ed.), *Multimedia language teaching* (pp. 3-20). Logos International.

33. Warschauer, M. (2000). The changing global economy and the future of English teaching. *TESOL Quarterly*, 34(3), 511-535.

34. Warschauer, M. (2004). *Technology and social inclusion: Rethinking the digital divide*. MIT Press.

35. Warschauer, M., & Meskill, C. (2013). Technology and second language learning. In J. Rosenthal (Ed.), *Handbook of undergraduate second language education* (pp. 303-318). Routledge.

## **YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

**Abduraxmonova Zebo Yuldoshevna**

Toshkent davlat transport universiteti

“Chet tillari” kafedrası o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirishdagi amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikrlar ilgari surilgan. Bundan tashqari ta'lim tizimini va sifatini takomillashtirish yuzasidan keng xorijiy tajriba o'rganilgan. Ushbu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, ta'lim, ta'lim-tarbiya, pedagog, yoshlar, islohotlar, moliyaviy mustaqillik, ta'lim sifati.*

### **ABSTRACT**

*In this article, opinions are put forward about the reforms that are being implemented to improve the quality of higher education in the new Uzbekistan. In addition, a wide range of foreign experience in improving the education system and quality has been studied. As a result of these analyses, suggestions and recommendations were developed for the improvement of the educational system of the Republic of Uzbekistan.*

***Key words:** Higher education, education, education, pedagogue, youth, reforms, financial independence, quality of education.*

### **KIRISH**

Jahondagi rivojlangan davlatlar o‘z faoliyatining turli sohalarini, shu jumladan, ta‘lim sohasini rivojlantirishni ham tegishli milliy modellar asosida prognoz qilishgan. Har bir mamlakat o‘zining tarixi va ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda prognozlash jarayoniga nisbatan o‘z yondashuvlarini qo‘llagan va doimiy o‘zgarib turadigan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ularni takomillashtirgan. Prognozlashning xususiyatlari bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy sohada dunyoda yuzaga kelgan tizimlarning ayrim turlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Dunyoda kadrlar tayyorlash jarayonlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mos prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan. prognoz qilish jarayonida ta‘lim mazmunini takomillashtirish, o‘quv rejalari va dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘quv jarayonida turli innovatsion modellarni joriy



etish, professor- o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashda muvofiqlikni ta'minlashga asosiy ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, talabalarning sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish, ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarining o'rni va rolini qayta ko'rib chiqish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallashib bormoqda. Negaki, jamiyat rivoji va istiqboli ko'p jihatdan kadrlarga bog'liq ekan, albatta bunda ta'lim asosiy rol o'ynashini e'tiborga olish lozimligini anglashga intilish tendensiyasi kuchaydi. Shu jihatdan olib qaralganda ta'lim sifati va natijadorligiga erishish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning falsafiy mohiyatini anglash bo'yicha turli xil yondashuvlar keyingi o'n yilliklarda faollashayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, kognitiv tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'p uchraydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimi borasidagi islohotlar pirovard natijada oliy ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuksak talablari va e'tirof etilgan namunalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda ilg'or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta'lim va tarbiya jarayonlarini tadqiq etishni taqazo etmoqda.

Hozirgi kun talablariga javob beruvchi zamonaviy ta'lim talablarini belgilaydigan eng muhim omillar nimalardan iborat degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bunday omillarning asosiysi ta'lim tizimida yangi oltinchi texnologik yo'nalishga o'tish. Shu kungacha dunyoda beshinchi texnologik yo'nalishlar, ya'ni telekommunikatsiya, internet va elektronika hukmronlik qilgan. Yangi texnologik yo'nalishlar esa biotexnologiya, nanotexnologiya, sun'iy intellektga o'tishni, shuningdek, insonlarning bilim olishiga investisiya kiritishning alohida rolini o'z ichiga qamrab oladi. Bu sivilizatsiya rivojlanishining yangi bosqichi - axborot sivilizatsiyasi bosqichidir. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini belgilashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar to'g'risida to'xtalib o'tar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Tarmoqlar rahbarlari kadrlarga ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotni Oliy ta'lim vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etishadi. Keyin mutaxassislarni tayyorlash kvotalari bo'yicha chuqur o'ylanmagan takliflar ishlab chiqiladi. Buning natijasida kadrlar sifati va ularni ishga joylashtirish muammosi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Ta'lim sifatini ta'minlashning omillari sirasiga mutaxassislar quyidagilarni kiritishadi: a) ta'lim muassasalari; b) professor-o'qituvchilar; v) talabalar, bitiruvchilar; g) ota – onalar; d) iste'molchilar, kadrlar buyurtmachilari. 1998 yilda YUNESKO tomonidan tashkil etilgan oliy ta'limni Butundunyo konferensiyasida "XXI asr uchun oliy ta'limning Butun dunyo deklaratsiyasi" qabul qilindi . Bu deklaratsiyada ta'limning sifati tushunchasiga quyidagi ta'rif berildi: "Sifat - bu oliy ta'lim sohasidagi ko'p tarmoqli konsepsiya bo'lib, u o'z ichiga faoliyatning barcha funksiyalarini va turlarini, o'quv va akademik dasturlarni, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalarni, ta'lim muassasalarini yetuk va malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'z ustida muntazam mustaqil ishlaydigan talabalar, binolar, inshootlar, moddiy-texnik baza, qurilmalar va jihozlar va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashni o'z ichiga oladigan tizim". Agar olimlarning fikrlariga murojaat qiladigan bo'lsak, Djim Kollinz shunday ta'kidlaydi: "Buyuk kompaniyalarning rahbarlari qayta tashkil etish jarayonini o'z jamoasiga kerakli insonlarni olish va keraksiz insonlardan qutilishdan boshlagan. Shundan so'ng ular qaysi tomonga suzishni tanlaganlar. Asosiy g'oya barcha narsalarni kadrlar hal qiladi, nima degan so'zdan kim degan so'z muhimroqdir. Chunki kadrlar bu strategiya, bu tashkiliy tuzilma, bu taktika. Kompaniyalar bugungi kunda yangi sifat bosqichiga o'tish uchun o'z asoslarini yaratishi zarur. Mening fikrimcha bu savolning fundamental javobi kadrlar masalasi hisoblanadi . Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Djim Kollinzning ushbu fikrlari bugungi kunda kadrlar tayyorlash sifati ta'lim sifatiga muvofiq bo'lishi lozim, degan so'z bilan mos keladi. Buning uchun ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni olib borishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim. Bir so'z bilan aytganda kadrlarni puxtaroq tayyorlamasdan turib, ularni qadriga yetmasdan turib biror bir sohada muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Zamonaviy jamiyatda fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi oliy ta'lim tizimiga quyidagi vazifalarni yechimini topishni yuklamoqdaki, ular sirasiga a) kadrlarni sifatli va kafolatli tayyorlash; b) professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligini ta'minlash; g) oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ta'lim dasturlarini baholash taomillarini takomillashtirish va boshqa shu kabilarni kritish mumkin.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini sifat bosqichiga ko'tarish borasida so'nggi uch yillik ichida bir qancha huquqiy-meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga faol joriy etib kelinmoqda. Ana shunday muhim strategik hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning falsafiy mohiyati va mazmuniga e'tibor bersak, bunda O'zbekiston Respublikasida oliy

ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanganligiga guvoh bo'lamiz. Farmon maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni izchillik asosida amalga oshirib borish nazarda tutilgan. Ya'ni: "oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Aytish mumkinki, farmonda belgilangan vazifalarni istiqbolda amaliyotga faol tadbiiq etish orqali oliy ta'lim tizimi sifatini oshirish bilan bir qatorda, dunyoda mamlakatimiz nufuzi va obro'sining oshishiga hamda dunyoning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga erishish uchun xizmat qilishi shubhasizdir. Shuningdek, farmonda nazarda tutilgan mamlakatimiz aholisining oliy ta'limning qamrov darajasini oshirish orqali falsafaning asosiy qonunlaridan biri "miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishi"ga o'tish orqali sifatli kadrlarni yetishtirishni yo'lga qo'yishi va kadrlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini rivojlanishi, pirovard natijada sifatli kadrlarga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum ma'noda xizmat qiladi.

Buning uchun ta'lim jarayoniga o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini joriy etish orqali o'quv jarayonini samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini yanada yaxshilashga erishish lozim. Bu xususda Prezident SH.M.Mirziyov shunday ko'rsatma bergan: "...mening nazarimda, ikkita asosiy vazifani hal etish zarur: birinchi – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart;

• ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish "-

lozimligini ko'rsatib, bu borada aniq chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lida muhim amaliy qadamlar tashlandi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni statistik ma'lumotlar asosida o'rganadigan bo'lsak, yetarlicha yechimini kutayotgan ijtimoiy muammolar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Agar 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra tahlil qilsak, Oliy ta'lim tizimida talabalar sonining qamrovi 9% ni tashkil etgan, bu mintaqaviy va xalqaro standartlarga nisbatan past bo'lib, O'zbekiston ta'lim tizimining boshlang'ich va o'rta darajalaridagi vaziyatdan keskin farq qiladi (bu yerda maktab yoshidagi aholining deyarli 100% qamrab olingan). Markazlashtirilgan rejalash-tirish tizimi oliy o'quv yurtlarida (universitet va institutlarda) talabalar sonini ham, ularning o'qish sohasini ham belgilaydi. Har bir yo'nalishda oliy o'quv yurtlaridagi joylar soni davlat qarorlari bilan belgilanadi va talabalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkazilgan milliy test sinovlari natijalari asosida tanlanadi. O'rta ta'lim tizimi deyarli 100% va oliy ta'lim tizimi 9% qamrab olinsa, 10 ta maktab bitiruvchisidan 9 tasi universitetga kira olmaydi, oliy ma'lumotga talab yuqori va universitetlarda taqdim etiladigan har bir joy uchun raqobat 6 kishidan oshgan. Universitetlarga kirayotgan talabalarning 60 foizini erkaklar tashkil etadi (keyingi yillarda mintaqadagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda universitet-larda ayollar ulushi kamayib borgan. Buning turli xil sabablar bo'lgan). Bu kabi masalalar keyingi uch yillikda qisman o'zgarishlarni olib kelgan bo'lsada, hali to'la ravishda xalqaro standartlarga javob bera olmaydi. Bunga sabab qilib bir qator byurokratik to'siqlar haliyam saqlanib qolayotganiligini ko'rsatish mumkin. 2019 yildagi modernizatsiyalar ham O'zbekistonda oliy ma'lumotli kadrlar yetishmovchiligi mavjudligini to'xtata olmadi. Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim tizimining bitiruvchilari ko'pincha o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishlamaydilar (masalan, pedagogika universitetlari bitiruvchilarining atigi 57 foizi ta'lim sohasida ish bilan ta'minlanmoqdalar, qurilish sohasida esa qurilish oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun mo'ljallangan barcha lavozimlarning to'rtidan uch qismini egallaydi, qolgan qismini boshqa universitetlarning bitiruvchilari egallagan). Qamrab olishning past darajasi va ish beruv-chilar, sanoat va universitetlar o'rtasidagi munosabatlarning sustligi, shuningdek, iqtisodiyotning innovatsiyalar, texnologiyalarni moslashtirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini cheklaydi. Shubhasiz, universitetlarni

o'zgaruvchan iqtisodiyot talablariga javob berishga tayyorlash va universitet bitiruvchilariga talab va taklif o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun ko'p ishlar qilinishi kerak.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston oliy ta'lim tizimining ichki menejmenti haqiqatdan ham bo'linib ketgan (buni xalqaro mutaxassislar ham ta'kidlashgan), shu bilan birga menejment jarayonida ishtirok etadigan ko'plab tashkilotlarning majburiyatlari takrorlanmoqda. Masalan, Prezident devoni huzurida ta'lim siyosatini ishlab chiqish uchun mas'ul davlat maslahatchisi boshchiligidagi maxsus bo'lim mavjud. Parlamentda ta'lim siyosati ishlab chiqilishini nazorat qiluvchi va uni amalga oshirish natijalarini tahlil qiluvchi maxsus ta'lim qo'mitasi mavjud. Bosh vazirning o'rinbosarlaridan biri ta'limni rivoj-lantirish bilan bog'liq masalalar uchun mas'uldir va Vazirlar Mahkamasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish va oliy ta'limni rivojlantirishni nazorat qiluvchi maxsus bo'lim (Ijtimoiy kompleks) mavjud. Vazirlar Mahkamasi bo'limga umumiy rahbarlik qiladi va davlat ta'lim standartlarini tasdiqlaydi. Iqtisodiyot va mehnat vazirliklari mehnat bozorini bitiruvchilarni yetarlicha ta'minlab berish uchun javobgardir. Ularning prognozlariga binoan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan universitetlarga qabul kvotalari belgilanadi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi universitetlarni boshqaradi va boshqa vazirliklar, masalan, universitetlarni davlat tomonidan moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan Moliya vazirligi va oliy ta'lim sohasida ilmiy ishlar bo'yicha strategik tavsiyalarni berish uchun mas'ul bo'lgan Fanlar akademiyasi bilan aloqada vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ya'nikim, bu oliy ta'lim tizimida ularning javobgarligini ta'minlash qiyinligidan dalolat beradi.

## **REFERENCES**

1. Абдурахмонова, З. Ю. (2020). ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА ДЛЯ НАУЧНО ТЕХНИЧЕСКОГО ТЕКСТА. In *Общественные и гуманитарные науки* (pp. 296-297).
2. ABDURAKHMONOVA, Z. THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *ЭКОНОМИКА*, 12-16.
3. Abdurakhmonova, Z. Y. MODERN UZBEKISTAN AND ITS TOURISM POTENTIAL.
4. Юлдашева, Д. М., & Абдурахмонова, З. Ю. СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ НА РУССКИЙ ЯЗЫК ФРАНЦУЗСКИХ ТЕРМИНОВ. *ББК 80я43*, 172.



5. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 16, 73-82.
6. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
7. Абдурахмонова, З. Ю. (2022). ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТИВОР ВАЗИФАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 491-500.

## **XOJA AHMAD YASSAVIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI**

**Sadikova Dildor Abdullayevna**

FTTI "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, xususan Xo'ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g'oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** pedagogika, ta'lim, tarbiya, adolat, insonparvarlik, halollik, nafs, xulq-atvor.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problem of spiritual and moral education in our country. in particular, the importance of Khoja Ahmed Yassavi's humanitarian ideas in the education of young people today is considered.*

***Key words:** pedagogy, education, training, justice, humanity, honesty, self-esteem, behavior.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining ma'naviy tarbiya sohasida tutgan o'rni juda ulkan ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish va ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanish ishlarini ko'rsatib berish, bugungi kunda pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini va g'oyalari alohida ahamiyatga egadir. Yuqoridagi fikrdan ayonki, Xoja Ahmad Yassaviy buyuk siymolar qatorida juda katta ma'naviy-tarbiyaviy meros qoldirgan.

Xoja Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan 11-asrning 2-yarmi (1166) tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan

bo'lgan. Yassaviy chig'atoy tilida ijod qilgan. Yassaviy tug'ilgach, ko'p o'tmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko'chib borgach, ustozlari Arslon bobo bilan uchrashadi va undan tahsil oladi (Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim). Yassaviy Yassida botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtirgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tasavvuf ilmining buyuk namoyondasi, Sharq tasavvufida munosib o'ringa ega bo'lgan “Yassaviy” tariqatining asoschisi va turkiy poeziyaning yirik vakillaridan biri bo'lmish Ahmad Yassaviy tug'ilgan yili noma'lum. Vafoti esa turli yozma manbalarda hijriy 562 (milodiy 1166-67) yil deb aniq ko'rsatiladi. Ammo Nasafiyning Ahmad Yassaviy 1103-yilda tug'ilib, 1166-yil vafot etgan degan fikri ham bor. Ba'zi rivoyatlarda uning 130 yil umr ko'rganligi ta'kidlanadi. Orif Usmon esa: “Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga payg'ambar yoshiga kelgach er ostida hujra yasatib “chillaga” kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, riyozat chekib er ostida o'tkazgan”, deb ta'kidlaydi. Bu rivoyatga ko'ra 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda 133 yil umr ko'rib, hijriy 562 yilda vafot etgan. Umuman, Yassaviyning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam va u har tomonlama chuqur o'rganilmagan, e'tibordan chetda qolib ketgan.

O'sha zamonlarda ilm-ma'rifatning Movorounnahrda markazlaridan bo'lgan Buxoroda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig'ilishgan. Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sofiysi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o'rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, Yusuf Hamadoniy muridlari qatoridan o'rin oladi. Bugungi kun talaba-yoshlarda Yassaviy hikmatlarini o'rganish orqali bir-biriga mehr- muhabbat, muruvvat va oqibat, saxiylik, saxovat diyonat, qanoat, himmat, adolat, sabr- toqat, mehribonlik, rostgo'ylik fahm - farosatlilik, ziyraklik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar rivojlanib borganligiga guvoh bo'ldik. Yassaviy yoshlarga murojaat qilib, bilim egallash oson emasligini, buning uchun esa yillar davomida har qanday qiyinchiligi mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishlash kishidan irodali bo'lishni talab qiladi. Shunday xulqqa ega bo'lgan Shaxsgina bilim va fan chmqqilarini yillar davomida egallab olishini ta'kidlaydi. Bu borada u o'zining 20 yoshgacha Buxoroda va boshqa shaharlarda ustozlari rahnamoligida ilm-ma'rifat o'rganganligi, natijada barcha insonlardagi kabi o'zida bo'lgan xilma-xil illatlardan umri davomida qutulishga

intilganligini quyidagi misralarda ifodalaydi: O'n to'qqizda yetmish maqom zohir bo'ldi, Zikrin aytib, ichu toshim tohir bmladi, Qoyda borsam, Xizr bobom hozir bo'ldi, G'avs-ul-g'iyos may ichurdi, tmydim mano. Yoshim etti yigirmaga, o'tdim maqom, Bihamdilloh, pir xizmatin qildim tamom. Ul sababdan Haqqa yovuq bo'ldim mano. Xoja Ahmad Yassaviy mutasavvuflar qoidasiga ko'ra, ilm-ma'rifat hosil qilib, irshod (vasiyatnoma)olganidan keyin ham faqirlik yo'lini tanlab, biror erda muqim uy-joy qilmay, shaharma-shahar, qishloqma - qishloq yurib, xalqni ilmga, ma'rifatga, hukmdorni iymon-e'tiqodga, insof-diyonatga da'vat qiluvchi bilimlarni targ'ib qilgan va zuhd, taqvoni yuzaki tushungan, ilmga amal qilmaydigan zohidlarni qoralagan: Ey behabar, ishq ahlidin bayon so'rma, Dard istagil ishq dardiga darmon so'rma. Oshiq bo'lsang, zohidlardin nishon so'rma, Bu yo'llarda oshiq bo'lsa, tovoni yo'q. Yoki Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lgil, Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lgil, Nafsni tiyib, dargohiga loyiq bo'lg'il, Ishqsizlarni ham joni yo'q, iymoni yo'q. Ushbu satrlardan ko'rinib turibdiki, smfiylar orasida ham odilman deb maqtanib, nopok ishlar qiladigan riyokorlar ymq emas. Xoja Ahmad Yassaviy mzing "Hikmatlar" nomli asarida ustoz Arslonbob so'zlarini eslatib, ana shunday bilimsiz dindorlarni qattiq qoralaydi: Pir xizmatin qilduk deb, tolibmen deb yurarlar, Yoyyib harom - harishni, qo'lbarig'a urarlar, Ko'zlarida nami yo'q, xalq ichra kirarlar, Arslon bobom so'zlarin eshitingiz, tabarruk. Yassaviyning «Hikmatlar» asaridagi ilm va aqliy tarbiyaga doir fikrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish Shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy faqat yirik din arbobi bo'libgina qolmay, ajoyib shoir va buyuk ma'rifatparvar, pedagog ekanligi bilan ham kmz mngimizda namoyon bmladi. Uning atrof-muhitdagi hayot ziddiyatlarini kuzatishlari juda nozik va teran pedagogik mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bir zamonlar gullab yaShnagan, ilmu urfon yuksakligiga erishgan Buxoroda ham, boshqa Shaharlardagi kabi, Shohlar va xokimlar, vazirlar va hatto olimlardan himmat, ma'rifat, insof-diyonat yo'qolib ketganligi, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada bo'shliqning paydo bmlayotganligi Yassaviyni juda qattiq tashvishga solayotganligini quyidagicha ifodalaydi:

Ahli dunyo, xalqimizda saxovat yo'q, Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q, Darveshlarning duosida ijobat yo'q, Turlik balo xalq ustig'a yog'di, do'stlar. Yoki Nokas, hasis bediyonat qullar hoqim, Manmanlik haddin oshib, bo'ldi zolim Xalq ichinda xor bo'ldilar darvesh, olim Himoyati xalqni kofir bo'ldi, ko'ring.. . . Bu misralar barcha xalqni ogohlantiruvchi aqliy, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini, u hamma vaqt tarbiyada, imlda, axloqiy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozongan. Shu bilan birga Xoja Ahmad Yassaviy fanni, bilimni chala, sayoz o'rganishga qarshi chiqadi. Har bir so'zning ma'nosini bilib olgan holda ularni xalqiga, o'sib kelayotgan yosh avlodga

nishon deb keltirgan hikmatlaridagi soʻzlarini dur va gavhar bilan tenglashtiradi. Xoja Ahmad Yassaviy oʻz vazifasiga yuzaki qarovchi, palapartish bajaruvchi, bilimi sayoz olimlarni ayovsiz tanqid qiladi va «haqiqiy olim kim?» degan savolga qator hikmatlari orqali javob beradi: Olim uldur, xisht yostanib tahsil qilsa, Kecha-kunduz Tangrisiga zori qilsa, "Fal-yaz haqu" oyatini tafsir qilsa, Andogʻ olim olim boʻlur, doʻstlarimo!. Olimlik va undagi yuksak aqliy salohiyatni Yassaviy qanday tushunadi va targʻib qiladi degan savol tugʻiladi. Yassaviy buni quyidagicha taʼriflaydi: «Olimlik - bu shariat bilan tariqatni tushunish, ularning talabiga javob qila bilish». Olimlikning asosiy mezoni sifatida esa Qurʼonni toʻgʻri tushunish va tushuntirishni belgilaydi. Buni u gavharlarni yigʻa bilish bilan qiyoslaydi: Olim uldur - Shariatda javlon qilsa, Tariqatning bozoriga oʻrnin solsa, Muhabbatning daryosidan gavhar olsa, Andogʻ olim olim boʻlur, doʻstlarimo!. Shu sababli shoir olimlarning bilimlariga tanqidiy koʻz bilan qarab men olim deb kitob oʻqishni emas, balki uning maʼnosini tushunish, har bir soʻzning mohiyatini oyat mazmunidek anglash, shaytonlik, manmanlikdan kechgan, johillik bilmagan kishini olim deb koʻrsatadi. Yassaviy kitobning maʼnosini tushuntirib, quruq yodlab, yuzaki oʻqishni bilim olish deb hisoblamaydi. Shuningdek, u oyatlarning tagida yotgan ulugʻ gʻoyalarni tahlil qila olish, uning mohiyatini bilish va hayotga tatbiq eta olish lozimligini uqtiradi: Olimmen deb kitob oʻqur, maʼno uqmas, Koʻp oyatning maʼnosini hargiz bilmas, Takabburu manmanlikni dini tutmas, Olim ermas, johil turur, doʻstlarimo!. Xoja Ahmad Yassaviy ushbu tanqidiy qarashlarini boʻlgʻusi olimlarga qarata nasihat sifatida yetkazadi. Bu esa ular uchun yanada koʻproq oʻqish va izlanishga, bilim egallashga, olgan bilimlarini turmushga, hayotga bogʻlab shogirdlariga yetkazishlariga turtki boʻlgan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga taʼsiri haqidagi koʻplab ajoyib asarlar mavjud. Insoniyat ularni sinchiklab oʻrganadi, oʻtmish maʼnaviy merosiga qunt bilan baho beradi. Keyingi avlodning Yassaviy boʻlgan hayrati cheksiz. Shu boisdan ham daho mutafakkir ijodiy merosini chuqur anglash yoʻlida dunyoning barcha olimlari hamjihatlikda faoliyat yuritishi zarur. Xoja Ahmad Yassaviy gʻoyalari asosida taʼlim muassalari talabalariga taʼlim-tarbiya berishning alohida shakllari oʻz ichiga quyidagilarni oladi: Yassaviy hayoti va iodiga oid adabiyotlarni, badiiy asarlarni, alloma yaratgan hikmatlarni oʻqish - oʻrganish; tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyati bilan tanishish, "Buyuk tasavvuf allomalari komil inson haqida", "Yassaviy- buyuk mutaassiv", "Soʻfiylar kamtarlik haqida", "Poklik iymondandir" kabi mavzularda suhbatlar oʻtkazish, Yassaviy pedagogik qarashlariga oid mustaqil ishlar, referatlar tayyorlash, tasavvuf allomalari



hayoti va ijodiga oid teleko'rsatuvlar, filmlarni tomosha qilish, tarixiy muzeylarga sayohat, tarixchi, faylasuf va pedagog olimlar bilan davra suhbatlari tashkil etish.

## REFERENCES

1. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. – T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2001 yil.
2. Al-Buxoriy. Hadis, Al-jome` as-sahih. -T.: “Qomuslar” bosh tahririyati, 1991-1992 yillar , 1- 4-kitoblar.
3. N. Komilov. Tasavvuf. -T.: «Yozuvchi», 1996 y
4. N.Komilov. «Komil inson haqida 4 risola». -T.: «Ma'naviyat»,1997 y.
5. Kubro Shayx Najmiddin. Jamoling menga bas: Ruboiylar /Forsiydan Matnazar Abdulkakim tarj.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.-64 b.
6. Kurultaevich, I. K., Zairjanovich, Y. S., Abdullayevna, S. D., Botirovich, T. B., & Anatolievna, T. M. (2023). Specifics Of Teaching Foreign Language Speaking To Students At A Non-Linguistic Institute (Iper) In The Distance Learning Format. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 549-559.
7. Sadikova, D. A. (2023). TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE MODERN STUDY OUTLOOK: TEACHING DICTIONARIES. *World of Scientific news in Science*, 1(2), 104-115.
8. Saparbaevna, R. R., Allanazarovna, E. R., & Nawbahar, O. (2020). Physiological Ergogenic Medicines: Modern Trends Of Application In The Training Of Athletes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
9. Reymbaeva Roza, Ernazarova Raya, Joldasbaeva Gulchexra, & Allambergenovna Laura. (2023). HANDBALL EFFICIENCY IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 721–725. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1774>
10. Roza, R., Talgat, K., Raya, E., & Aynura, P. (2023). THE CONTENT AND FORMS OF SUPPORT FOR PROFESSIONAL SELF-DETERMINATION OF STUDENT TEACHERS. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 273-279.
11. Saparbaevna, R. R., Erejepovich, K. D., Allanazarovna, E. R., & Sabitovna, P. A. (2022). Organization Of Rational Nutrition of Athletes in Training and Competitive Activities. *Specialusis Ugdyimas*, 2(43), 3566-3568.
12. Mamatqulov, E. (2022). TARAQQIYOT STRATEGIYASI YANGI O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY ISLOHOTLAR ASOSI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 950-953.
13. Saparbaevna, R. R., & Allanazarovna, E. R. (2020). Aspects Of Studying Snakes In The Fauna Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 3765-3771.

**УДК: 9:433:94**

## **XX АСР БИРИНЧИ ЧОРАГИДА ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ЭМИГРАЦИЯНИНГ ТАРИХШУНОСЛИГИ**

**Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли.**

Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

[bmamarajabov@dtpi.uz](mailto:bmamarajabov@dtpi.uz)

### **АННОТАЦИЯ**

*Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати натижасида Ўрта Осиё халқларининг фаол миграцияси кузатилган бироқ минтақа халқлари тарихининг мазкур масаласи ҳали ҳамон маҳаллий тарихчи олимлар томонидан тўлиқ ўрганилмаган. Бу мавзуда хорижда амалга оширилган тадқиқотлар эса турли мафкуравий қарашлар сабаб ўқувчилар учун ҳолис ахбаротни бера олмайди. Мазкур мақолада Ўрта Осиё халқлари миграциясининг зарб ва маҳаллий тарихчи олимлар томонидан ўрганилишининг тарихшунослик таҳлили амалга оширилган.*

**Калит сўзлар:** мафкуравий ёндашув, миллий қизиқишлар, маданий ўзига ҳослик, миллий ўзига ҳослик, интеграция, маданий бегоналашув.

## **ИСТОРИОГРАФИЯ ЭМИГРАЦИИ НОВОАЗИЙСКИХ НАРОДОВ В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XX ВЕКА**

### **АННОТАЦИЯ**

*В результате колониальной политики Российской империи наблюдалось активное переселение народов Средней Азии, однако этот вопрос истории народов региона еще не до конца изучен местными историками. Исследования, проводимые по этой теме за рубежом, не могут предоставить студентам объективную информацию из-за разных идеологических взглядов. В данной статье проводится историографически й анализ изучения миграции народов Средней Азии западными и местными историками. Ключевые интересы, культурная идентичность, интеграция, культурное отчуждение.*

**Ключевые слова:** Идеологический подход, национальные интересы культурная идентичность, национальная идентичность, интеграция, культурное отчуждение.

## **HISTORIOGRAPHY OF EMIGRATION OF NEO ASIAN PEOPLE IN THE FIRST QUARTER OF THE 20<sup>TH</sup> CENTURY**

### **ABSTRACT**

*As a result of the colonial policy of the Russian Empire, the active migration of the peoples of Central Asia was observed, but this issue of the history of the peoples of the region has not yet been fully studied by local historians. Researches conducted abroad on this topic cannot provide unbiased information for students due to different ideological views. In this article, a historiographical analysis of the study of the migration of Central Asian peoples by Western and local historians is carried out.*

**Key words:** *ideological approach, national interests, cultural identity, national identity, integration, cultural alienation.*

### **КИРИШ**

XX асрнинг дастлабки учдан бир қисми Марказий Осиё халқлари тарихида энг кўп одамлар қурбон берилган, муҳожир бўлган, ҳалок бўлган, уйларини ташлаб кетган, мамлакатни мажбуран тарк этган, ҳар бир ўзбек, тожик, қирғиз, қозоқ ва туркманлар учун муқаддас оила ришталари узилиши энг кўп кузатилган бир давр бўлди. 1917 йилги давлат тўнтариши сабаб вужудга келган муҳожирлик тўлқинлари натижасида кўшни мамлакатларда Марказий Осиё халқлари диаспоралари вужудга келди.

*Диаспора* келиб чиқиш мамлакати айни бўлган кишиларнинг тарихий ватандан ташқарида юзага келган гуруҳидир. Одатда диаспора беқарор ва вақти чекланган тоифадир. Уни бориб жойлашган мамлакатида интеграция ёки чиқиб кетган мамлакатига қайтиш (яъни реэмиграция) кутади. Мабодо ўша муҳожирларни қабул қилган мамлакатнинг жуғрофий муҳити, одатлари ва дини улар чиқиб кетган мамлакатникидан деярли фарқ қилмаса, интеграция осон кечади. Шунинг учун тожиклар ва туркий халқлар Афғонистон ва Туркия жамиятига миллий-маданий ўзига хослигига унчалик таҳдид туғилмаган ҳолда интеграциялашди.

Марказий Осиё халқларининг ўзлари мансуб бўлган тарихий маданий макондан ташқарида бошлаган янги ҳаёти ва унинг барча тавсилотлари, бор мураккабликлари ҳамда кузатилган оқибатлари минтақа тарихшунослари эътиборига яқиндан бошлаб сабаб бўлаётган бўлсада, бу жараёнлар ғарб тарихшунослигида атрофлича ўрганилган ва катта илмий тадқиқотлар учун мавзу бўлган. Шундан келиб чиқиб биз Марказий Осиё халқларининг XIX аср охири XX аср бошларидаги миграцияси тарихини ўрганиш мақсадида олиб

борилган тадқиқотларни икки гуруҳда, ғарб ва маҳаллий тарихчилар томонидан ёзилган тадқиқотлар деб таснифлашимиз мумкин.

### **Мавзунинг ғарб тарихшунослигида ўрганилиши:**

Россия империясининг жанубидаги чегара худудларида яшовчи халқларнинг тарихи, этнографияси ва социологияси европаликлар томонидан чуқур ўрганилган. XIX аср охири XX аср бошларида мазкур минтақанинг геосиёсий аҳамияти ошиб борар экан, мустамлакачилик мақсадларида бўлган империялар ўз стратегик мақсадлари учун минтақа халқларини тадқиқ қила бошлади. Ғарблик тадқиқотчиларнинг изланишлари натижасида Ўрта Осиёга чегарадош Афғонистон, Шимолий Ҳиндистон, Эрон ва қисман Шарқий Хитойда Ўрта Осиёдан муҳожир бўлиб келиб янги жамоаларни ташкил қилаётган гуруҳлар аниқланган. Ўрта Осиёлик муҳожирлар ҳақида биринчилардан бўлиб 1920 йилларда Шинжонда тадқиқотлар олиб борган Оуэн Лэттимор ёзган. Лэттимор минтақанинг ғайриоддий хилма-хиллиги билан боғлиқ бўлган Ўрта Осиёнинг ўзига хос хусусиятини биринчи бўлиб аниқлаган. У, 1940 йилларда минтақанинг мураккаб сиёсий ривожланишини белгиловчи кўплаб кўринадиган ва кўринмас чегаралар борлиги ҳақида ёзиб уларни шартли равишда қуйидагича таснифлайди, хусусан:

- Маданий ва тил чегаралари (бу ерда турклар, хитойлар, мўғуллар, эронлар, афғонлар, тибетлар яшайди);
- Диний (ислом, буддизм, шаманлик, конфуцийлик);
- Сиёсий (мустақил, ярим мустақил давлатлар, мустамлакалар, монархиялар);
- Цивилизация (саноатлашган СССР, тез ўзгариб бораётган кўчманчи ва чорвачилик билан шуғулланувчи Мўғулистон, Хитойнинг қадимги қишлоқ хўжалиги ва бошқалар).

Буларнинг барчаси Латтиморга ушбу минтақани “Осиёнинг ўзаги”, янги жаҳон тортишиш маркази – “Хитой, Россия, Ҳиндистон ва мусулмон Яқин Шарқидаги сиёсий оқимлар тўқнашадиган гирдоб” деб аташга асос берди<sup>51</sup>. Ўшандан бери кўп йиллар ўтган ва СССР энди мавжуд бўлмасада, Латтиморнинг Ўрта Осиё “Осиёнинг ўзаги” эканлиги ҳақидаги фикрининг тўғрилигига шубҳа қилиш учун ҳеч қандай асос йўқ.

Инқилоб ва фуқаролар уруши даврида Ғарбнинг Марказий Осиёга бўлган қизиқиши Яқин Шарқ ва Жанубий Осиёда хизмат қилган собиқ Британия ҳарбий офицерлари, дипломатлари ва разведка зобитлари томонидан қўллаб-

<sup>51</sup> Owen Lattimore, *Inner Asian Frontiers of China* -New York: American Geographical Society - Boston: Beacon, 1967. Pp 13.

қувватланган. Булар Эссертон, Бейли, Малессон, Скрин ва бошқалар.<sup>52</sup> 1940 йиллар охирида Британия империяси парчаланиб кетганидан сўнг нафақага чиққанган собиқ зобитлар ва давлат мулозимлари ўз хотираларини ёзишни бошладилар ва “Марказий Осиёни ўрганиш марказлари” йиғилишларида ўзларининг кузатиш натижаларини эълон қилиб бордилар. Улар Британия ҳукуматининг Марказий Осиёдаги сиёсати ҳақида кўплаб очиқ эътирофлар қолдирган. Уларнинг асарлари Совуқ уруш даврида ёзилган ва шунинг учун сиёсий жиҳатдан кескин, радикал анти-большевизм позициясидан ва соф субъектив нуқтаи назардан иборат.

Россияда бошланган фуқаролар уруши охирига бориб вазиятнинг ўзгариши, швед, немис ва ҳатто япон саёҳатчилари ва тадқиқотчиларининг Ғарбий Хитой ва Афғонистоннинг қўшни ҳудудларига кириб келишига ва кўплаб илмий адабиётларни яратиш имкониятига эга бўлишига олиб келди. Ўрта Осиё халқларининг мазкур даврдаги тарихини ўрганишда ғарб антрополог ва этнографларининг асарлари қимматлидир. 1930 йилларда Швециялик дипломат ва олим Гунара Яррингнинг Афғонистон ўзбеклари (ирредентлар ва эмигрантлар) ҳақида бир қатор мақолалари чоп этилди. Унинг бу мавзудаги соф этнографик асарлари Ғарб тадқиқотчиларининг кейинги тадқиқотлари учун асос бўлди.<sup>53</sup>

Умуман олганда, минтақанинг сиёсий тарихи ижтимоий-маданий тарихдан кўра ғарб тадқиқотчиларининг эътиборини кўпроқ тортди. Бу борада ХХ асрнинг 20 йиллари Марказий Осиёдаги воқеалари иштирокчиси бўлган Георгий Агабеков томонидан ёзилган “Чекист эслатмалари” ва “ЧК ишда” номли китобларни эслатиб ўтишимиз мумкин. Бу Совуқ уруш даврида “советологлар” деб номланган бир неча авлодлар учун қимматли манба бўлган. Агабековнинг ўзи Туркфронт ЧКнинг оператив ходими бўлиб ишлаган (1922-1924). Шунингдек, Агабеков ОГПУ (давлат сиёсий бошқаруви бирлашмаси) нинг чет эл (разведка) бўлими ходими сифатида (1924-1929) Афғонистон ва Эронда ОГПУ резиденти бўлган. 1930 йилда у тақиблар натижасида Ғарбга қочиб кетган<sup>54</sup>.

<sup>52</sup> Etherton P.F. In the Heart of Asia - London, 1925; Bailey, Lt.-Frederic M, Mission to Tashkent - London, 1946; Он же, In Russian Turkestan Under the Bolsheviks // Journal of the Royal Central Asian Society 8, pt.1(1921); Malleon, Sir Wilfred, "The British Military Mission to Turkestan, 1918-1920 //Journal of the Royal Central Asian Society. Vol. 9, pt.2 (1922):96-110. Skrine C. P. Chinese Central Asia - Boston & New York: Houghton Mifflin Company, 1926. (1988)

<sup>53</sup> Jarring Gunnar. "The New Afghanistan //Svenska Orientsallskapets Arsbok. Stockholm: Borkforlags Aktieboleget Thule, 1937-131-145.

<sup>54</sup> Агабеков Г. ГПУ. Записки чекиста- Берлин, 1930; Агабеков Г. ЧК за работой - Москва: Книга, милосердие, просвещение, 1992.



Совуқ урушнинг якуний босқичида СССРда ислом тарихига ихтисослашган энг кўзга кўринган советшунос олимлардан бири Александр Беннингсен (Россиядан келган мухожир) Ўрта Осиёнинг чегара худудларидаги мухожирлар муаммосига бошқа томондан ёндашди. У СССР жанубидаги халқларнинг катта қисми унинг чегараларидан ташқарида - Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларида ҳам яшашига эътибор қаратди. Совет Шарқи халқлари, дейди у, фақат расмий маъмурий мақомга эга бўлиб, уларнинг сиёсий ва маданий ҳаёти руслар назорати остида эди. Муаллиф Совет ҳукуматининг хориждаги ватандошларга нисбатан ижобий давлат сиёсати юритмаганига асосланиб, биз “миллат” деб ҳисоблашга одатланган нарсаларнинг нисбийлигини кўрсатиб, “миллат”нинг мавжудлигини шубҳа остига қўйди. У, ўз фикрини Ўрта Осиёнинг совет қисмидаги халқларнинг ўзлари мансуб бўлган тарихий ватанларидан ташқарида яшаб келаётганлиги билан изоҳлайди<sup>55</sup>.

Inson resurslari (HR) brendingi iste'dodlarni egallash va boshqarish strategiyasining muhim jihati sifatida paydo bo'ldi, bu ish qidiruvchilarning tashkilotlarni tanlagan ish beruvchi sifatida qabul qilishiga ta'sir qiladi. Ushbu maqola HR brendingining ish o'rinlari va malakalariga ta'sirini o'rganadi, tashkilotlar yuqori iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolish uchun o'z qadriyatlarini, madaniyatini va ish beruvchining qadr-qimmatini strategik tarzda qanday etkazishiga e'tibor qaratadi. Adabiyotlarni, amaliy tadqiqotlarni va empirik tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali ushbu tadqiqot HR brendingi va ish malakasi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni o'rganadi. U HR brendingi tashabbuslari ish izlovchilarning tashkilotning jozibadorligi haqidagi tasavvurlarini qanday shakllantirishi va ularning ish imkoniyatlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Bundan tashqari, maqolada HR brendingining ish malakasiga ta'siri, shu jumladan ish beruvchining brending strategiyalari va kerakli ko'nikmalar, malakalar va madaniy muvofiqlik o'rtasidagi moslashuv o'rganiladi. Unda tashkilotlar kerakli malakaga ega bo'lgan nomzodlarni jalb qilish va uzoq muddatli ishtirok etish va saqlab qolish uchun HR brendingidan qanday foydalanishi mumkinligi muhokama qilinadi. HR brendingi ish va malakalarga ta'sir qilish mexanizmlarini yoritib, ushbu tadqiqot o'z tashkilotining iqtidorlarni egallash va boshqarish amaliyotini yaxshilashga intilayotgan HR mutaxassislarini uchun qimmatli tushunchalarni beradi. Ish imkoniyatlarini samarali muloqot qilish va tashkilot qadriyatlarini va talablariga mos keladigan nomzodlarni jalb qilish uchun HR brendingi sa'y-harakatlarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Oxir oqibat, ushbu maqola HR brendingi iste'dodlar bozorida ish va malakalarni idrok etishga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. U strategik HR brending tashabbuslarining tashkilot obro'sini shakllantirish, yuqori iste'dodlarni jalb qilish va bugungi dinamik mehnat bozorida raqobatdosh ustunlikni qo'llab-quvvatlashda muhimligini ta'kidlaydi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

<b>Muallif</b>	<b>Olingan hulosa</b>
Ambler, T. va Barrow, S. (1996). Ish beruvchi brendi. Brend boshqaruvi jurnali.	Ambler va Barrou "ish beruvchi brendi" tushunchasini taqdim etadilar va uning iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolishdagi ahamiyatini muhokama qiladilar. Ular kuchli ish beruvchi brendini yaratish uchun tashkiliy qadriyatlarni xodimlarning idroklari bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydilar.
Kabel, D. M. va Turban, D. B. (2003). Ishga qabul qilish kontekstida tashkiliy obro'ning qiymati: brend kapitali istiqboli. Amaliy psixologiya jurnali.	Kabel va Turban ishga qabul qilish jarayonida tashkiliy obro'ning yoki ish beruvchi brendining rolini o'rganadi. Ular ish beruvchining obro'si ish izlovchilarning qarashlari va qarorlariga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun brend-kapital asosini taklif qiladi.
Backhaus, K. va Tikoo, S. (2004). Ish beruvchi brendini kontseptsiyalash va tadqiq qilish. Karyera rivojlantirish xalqaro.	Backhaus va Tikoo kontseptual asoslar va uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan ish beruvchining branding tadqiqotlari haqida to'liq ma'lumot beradi. Ular ish beruvchining branding strategiyalarining samaradorligini tushunish uchun empirik tadqiqotlar zarurligini ta'kidlaydilar.
Berthon, P., Ewing, M., & Hah, L. L. (2005). Maftunkor kompaniya: ish beruvchi brandingdagi jozibadorlik o'lchovlari. Xalqaro reklama jurnali.	Berthon, Ewing va Hah ish beruvchining jozibadorligi o'lchovlarini, jumladan, tashkiliy madaniyat, ish muhiti va martaba imkoniyatlarini aniqlaydi. Ular ushbu o'lchovlar asosida ish beruvchining branding samaradorligini baholash uchun asosni taklif qiladilar.
Kollinz, C. J. va Stivens, C. K. (2002). Erta ishga qabul qilish bilan bog'liq faoliyat va mehnat bozoriga yangi ishtirokchilarning ariza qarorlari o'rtasidagi munosabatlar: ishga qabul qilishda brend tenglik yondashuvi. Amaliy psixologiya jurnali.	Kollinz va Stivens kampusga yollash va ish beruvchining taqdimotlari kabi erta yollash tadbirlarining ish izlovchilarning ish beruvchi brendi haqidagi tasavvurlariga ta'sirini o'rganadilar. Ular ishga qabul qilish bo'yicha ijobiy tajribalar orqali brend kapitalini yaratish muhimligini ta'kidlaydilar.

Ushbu tadqiqotlar HR brendingi ishni idrok etish va malakaga qanday ta'sir qilishini tushunishimizga yordam beradi, samarali ish beruvchi branding strategiyalari va ularning iste'dodlarni egallash va saqlab qolishga ta'siri haqida tushuncha beradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda asosan meta-analiz usulidan foydalanib turli manbalardan ma'lumotlar tahlil qilish orqali izlanildi. Mavzuni yoritishda bir qancha jahon internet

manbasi ma'lumotlar bazasidan olingan ilmiy va statistik ma'lumotlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar iqtisodiy-matematik va statistik tahlil qilindi. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotda monografik tahlil, analiz va sintez, tanlama usul, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiyalash usullari qo'llanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda o'tkazilgan tahlillar HR brendingi, ishni idrok etish va malaka o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Ma'lumotlar ish izlovchilar va xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, shuningdek, tashkiliy hujjatlar va ikkilamchi manbalar orqali to'plangan. Ma'lumotlardagi naqshlar, korrelyatsiyalar va tendentsiyalarni aniqlash uchun statistik tahlillar o'tkazildi.

#### Jadval-1. HR brendingning ish o'rinlar va malakalar tizimi bilan bog'liqligi<sup>86</sup>

<b>HR brendingining ish tushunchalariga ta'siri:</b>	Tahlil HR brendingi va ishning jozibadorligi haqidagi ijobiy tasavvurlar o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiyani aniqladi. Tashkilotlarni kuchli ish beruvchi brendiga ega deb bilgan ish izlovchilar ushbu tashkilotlarda ishga joylashish imkoniyatlariga ko'proq qiziqish bildirishgan.
	Tashkilot madaniyati, obro'si va xodimlarning guvohliklari kabi HR brending o'ziga xos o'lchovlari ish jozibadorligining muhim bashoratchilari sifatida paydo bo'ldi. Ushbu o'lchovlar bo'yicha ijobiy tasavvurga ega bo'lgan tashkilotlar ko'proq kerakli ish beruvchilar sifatida qabul qilindi.
<b>HR brendingi va ish malakalari o'rtasidagi muvofiqlik:</b>	Tahlilning asosiy topilmasi HR brendingi sa'y-harakatlarini kerakli ish malakalari bilan muvofiqlashtirish muhimligi edi. Ish izlovchilar ko'proq lavozimlarga ariza berishadi va ish beruvchi brendi ularning malakasi, ko'nikmalari va martaba intilishlariga mos keladigan tashkilotlardan ish takliflarini qabul qilishadi.
	O'z qadriyatlarini, madaniyati va martaba rivojlanishi imkoniyatlarini samarali etkazgan tashkilotlar kerakli malaka va malakalarga ega bo'lgan nomzodlarni jalb qila oldilar, bu esa jalb qilish va ushlab qolishning yuqori darajalariga olib keldi.
<b>Moderatsion omillar:</b>	Tahlil shuningdek, HR brendingi, ishni idrok etish va malaka o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan bir nechta moderativ omillarni aniqladi. Bular sohaga xos omillar, geografik joylashuvi va ish izlovchilarning demografik xususiyatlaridan iborat edi.
	Misol uchun, yuqori raqobatbardosh sohalarda yoki iste'dodlar etishmasligi bo'lgan joylarda ishlaydigan tashkilotlar yuqori iste'dodlarni jalb qilish uchun o'zlarining ish beruvchi brendini yanada samaraliroq farqlashlari kerak bo'lishi mumkin.

<sup>86</sup> Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar doirasida shakllantirildi

Umuman olganda, tahlil natijalari ish haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va kerakli malakaga ega nomzodlarni jalb qilishda HR brendingining ahamiyatini ta'kidlaydi. HR brendingi sa'y-harakatlarini tashkiliy qadriyatlar va ish talablari bilan strategik muvofiqlashtirish orqali tashkilotlar bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida yuqori iste'dodlarni jalb qilish, jalb qilish va saqlab qolish qobiliyatini oshirishi mumkin. Ushbu topilmalar o'z tashkilotining iste'dodlarni egallash va boshqarish strategiyalarini optimallashtirishga intilayotgan HR mutaxassislari uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqot HR brendingi, ishni idrok etish va malaka o'rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Topilmalar bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida yuqori iste'dodlarni jalb qilish, jalb qilish va saqlab qolish uchun strategik vosita sifatida HR brendingining muhimligini ta'kidlaydi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, kuchli ish beruvchi brendiga ega bo'lgan tashkilotlar ish izlovchilar tomonidan ko'proq kerakli ish beruvchilar sifatida qabul qilinadi. Tashkilot madaniyati, obro'si va martaba rivojlanishi imkoniyatlari kabi omillarni o'z ichiga olgan HR brendingining ijobiy tasavvurlari ishning jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bundan tashqari, HR brendingi sa'y-harakatlarini kerakli ish malakalari bilan muvofiqlashtirish nomzodlarni kerakli ko'nikmalar, malakalar va madaniy moslashuvga jalb qilishning muhim omili sifatida paydo bo'ldi.

Ushbu tadqiqot natijalari HR mutaxassislari va tashkilot rahbarlari uchun bir nechta ta'sirga ega. Birinchidan, bu tashkilotlarning ish izlovchilar bilan rezonanslashadigan va tashkilot qadriyatlari va maqsadlariga mos keladigan kuchli ish beruvchi brendini yaratish va qo'llab-quvvatlashga sarmoya kiritish zarurligini ta'kidlaydi. Ikkinchidan, kerakli malakaga ega bo'lgan nomzodlarni jalb qilish uchun ish imkoniyatlari va ish beruvchining qiymat takliflari bilan samarali muloqot qilish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, topilmalar shuni ko'rsatadiki, HR brendingi sa'y-harakatlari ularning samaradorligini oshirish uchun muayyan sanoat kontekstlari, geografik joylashuvi va maqsadli demografiyasiga moslashtirilishi kerak. Ish izlovchilarning o'ziga xos afzalliklari va motivatsiyasini tushunib, tashkilotlar maqsadli iste'dodlar fondiga murojaat qiladigan maqsadli HR brending strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Umuman olganda, ushbu tadqiqot HR brendingi va iste'dodlarni egallash bo'yicha o'sib borayotgan adabiyotlar to'plamiga hissa qo'shadi, bu uning ish tushunchalari va malakalariga ta'sirining empirik dalillarini taqdim etadi. Iste'dodlarni boshqarish uchun strategik dastak sifatida HR brendingidan foydalangan holda, tashkilotlar mehnat bozorida o'zlarining

raqobatbardosh mavqeini mustahkamlashlari va barqaror o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan ishchi kuchini qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Tashkilotlar tobora dinamik va raqobatbardosh muhitda iqtidorlarni egallash va boshqarish muammolarini hal qilishda davom etar ekan, ushbu tadqiqot natijalari strategik qarorlar qabul qilishda axborot berish va yuqori iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolishda tashkiliy samaradorlikni oshirish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ambler, T., & Barrow, S. (1996). The employer brand. *Journal of Brand Management*.
2. Cable, D. M., & Turban, D. B. (2003). The value of organizational reputation in the recruitment context: A brand-equity perspective. *Journal of Applied Psychology*.
3. A Backhaus, K., & Tikoo, S. (2004). Conceptualizing and researching employer branding. *Career Development International*.
4. Collins, C. J., & Stevens, C. K. (2002). The relationship between early recruitment-related activities and the application decisions of new labor-market entrants: A brand equity approach to recruitment. *Journal of Applied Psychology*
5. Sartain, L., & Schumann, T. (2006). *Brand from the inside: Eight essentials to emotionally connect your employees to your business*. John Wiley & Sons



## **INTERFAOL TA'LIM USULLARINI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

**Rizayeva Nasiba Muhammadiyevna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi  
psixologi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning asosiy mazmuni, mohiyati va ta'lim jarayonini sifat darajasini oshirish uchun foydalaniladigan interfaol metodlarning turlari va ularni qo'llash texnologiyasi keltirib o'tilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida dars jarayonini didaktik talablar asosida loyihalashning zarurati, dolzarbligi, mazmuni, mohiyati, usullari va shakllari, darslarni olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, yangi interfaol usublardan foydalanishning ijobiy ahamiyati yoritib berilgan. Interfaol metodlardan namunalar tavsiya etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagog, psixologiya, interfaol metodlar bahs, breynshtorming, trening, yozma bahs, polilog, dialog, monolog, munozara.*

## **PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF INTERACTIVE LEARNING METHODS**

**Rizayeva Nasiba Muhammadiyevna**

Practitioner psychologist of the 19th comprehensive school of Khatirchi district of  
Navoi region

### **ABSTRACT**

*In the article, the main content and essence of pedagogical technologies used in the educational process and the types of interactive methods used to improve the quality of the educational process and the technology of their application are mentioned. Also, the necessity, relevance, content, essence, methods and forms of designing the lesson process based on didactic requirements in the conditions of modern education, the ways of using pedagogical technologies in conducting lessons, and the positive importance of using new interactive methods are highlighted. Examples of interactive methods are recommended.*

**Keywords:** *Pedagogue, psychology, interactive methods, debate, brainstorming, training, written debate, polylogue, dialogue, monologue, discussion.*

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УСПЕШНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ**

**Ризаева Насиба Мухаммадиевна**

Практический психолог 19-й общеобразовательной школы Хатырчинского  
района Навоийской области

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье упомянуто основное содержание и сущность педагогических технологий, используемых в образовательном процессе, а также виды интерактивных методов, используемых для повышения качества образовательного процесса, и технология их применения. Также отмечены необходимость, актуальность, содержание, сущность, методы и формы проектирования процесса урока с учетом дидактических требований в условиях современного образования, способы использования педагогических технологий при проведении уроков, а также положительное значение использования новых интерактивных методов. выделено. Рекомендуются примеры интерактивных методов.*

**Ключевые слова:** Педагог, психология, интерактивные методы, дебаты, мозговой штурм, обучение, письменная дискуссия, полилог, диалог, монолог, дискуссия.

### **KIRISH**

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida ham metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir . Pirovard natijasida talabalar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda

mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Pedagogik psixologiya o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Bu kabi psixologik qonuniyatlarini o'rganish jarayonida muammoni qo'yilishi, tadqiqotlar metodikasini tanlash, ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni qayta ishlash, qonuniyatni amalda qo'llash kabi asosiy bosqichlarni qo'llash kerak bo'ladi. Ularni ilmiy jihatdan umumlashtirish uchun esa bir qator psixologik metodlardan foydalaniladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, Davlat ta'lim standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ya'ni o'quvchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

- a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;
- b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin;
- v) munozara ishtirokchilarning o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;
- g) fikr bayon etishda kerak bo'lsa tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin;
- d) munozara paytida ko'p yozish shart emas;
- e) agar biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni so'rashdan tortinmang;

j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas»ligi unutmaylik!

Shuningdek, mashg'ulot davomida yozma bahs o'tkazish usullarini qo'llash manfaatli bo'ladi. Agar mashg'ulotlar bir-birlarini yaxshi tanimaydigan boshlangich guruhlarda boshlangan bo'lsa, «tanishish» mashqlarini o'tkazish, albatta ishni kichik guruhlardan boshlash lozim. Bunda erkin yo'naltirilmagan bahs shaklini qo'llash o'rinliroq. Bunda o'qituvchi ishtirokchilarga bir-birlarini yaxshi tanib olsalar, birgalikda harakat qilsalar, umumiy ish uchun manfaatli bo'lgan natijalarga erishish mumkinligini tushuntirishi lozim.

Agar ishtirokchilar biror yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, murakkabroq masala yuzasidan umumiy nuqtai nazarga ega bo'lish va mantiqiy xulosalarga erishishni maqsad qilgan bo'lsalar, unda dars avvalida o'qituvchi yoki oldindan tayyorgarlik ko'rgan guruh a'zosi ma'ruza qilishi, ma'ruza yuzasidan keyin bahs uyushtirilishi, dars oxirida imkon bo'lsa, o'qituvchi o'zi tayyorlagan tarqatma materiallarini har bir a'zoga berishi kerak. Faollashtiruvchi usullar materiallar qo'lga berilgach, ishga solinadi.

Agar darsning yoki amaliy mashg'ulotning maqsadi tinglovchilardagi aniq qobiliyatlarni rivojlantirish, malakalarni oshirish va yangi tajribadan foydalanish bo'lsa, unda bahsning predmeti avvalo tajriba almashinuvga qaratilishi, bunda ayrim mashqlar ham bajarilishi, ularning natijalari tahlil qilinishi, rolli o'yinlarni bajarishgacha olib borilishi kerak. Bunda o'qituvchining roli ancha mas'uliyatli bo'lib, u mashg'ulotgacha konkret yuriqnomalarni o'quvchilarga berishi va guruh ishini muntazam kuzatib, nazorat qilib turadi.

Agar munozara darslarining maqsadi - ishtirokchilarning yangi, mustaqil fikrlarga kelishi, ularni shaxsiy tajriba va vaziyatlarga bog'lab aytib berishlariga olib kelish bo'lsa, unda o'qituvchi «Men»- munozaradaman» holatida guruhli bahsni kichik guruhlarda tashkil etishi, ularda alohida holatlar va vaziyatlarning tahliliga barchaning diqqatini qaratishi, ishtirokchilarni turli rollarni tasavvur qilishga majbur qila olishi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savolnomalarni dars oxirida tarqatib, shakllangan yangi g'oyani ajratib olishi kerak. Demak, bu shakldagi ish har bir ishtirokchidan puxta tayyorgarlikni va aniq ko'nikmalarni talab qiladi.

Bahs shaklida mashg'ulot o'tkazganda, qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta. Qarorlarning samarali bo'lishi uchun quyidagilarni yodda tutish kerak:

- mashg'ulot boshlanishidan oldin o'qituvchi tahlil qilinishi lozim bo'lgan muammoni belgilaydi va unga qay tarzda munosabat bildirilishi lozimligini tushuntiradi;

- qisqa bo'lsa-da, bu muammoning oldingi darslarga bog'liqligi, uyga berilgan vazifa, muhokama qilinadigan masalaga oid muhim faktlar esga tushiriladi;

- bahs qatnashchilari kichik guruhchalarga (4-5 kishi) bo'linib, mashg'ulot oxirida fikrlar umumlashtirilishi uchun qog'ozlar taxt qilib qo'yiladi;

- guruhda ishlash mobaynida bildirilgan fikrlarning afzal va kamchilik tomonlari haqidagi o'z mulohazalarini og'zaki yoki yozma tarzda qarorlar shaklida bayon etadilar;

- ish yakunida guruhning vakillari o'z guruhining ishi to'g'risida gapirib, ularni boshqalarniki bilan qiyoslaydi. Zarurat bo'lsa, o'qituvchi har bir guruhning qarorlarini o'zaro qiyoslab, savollarga javob beradi, noaniqroq qarorlarga o'z munosabatini bildiradi.

Pedagogik amaliyotda bahsning mohiyati ko'pincha faqat og'zaki dialoglar va tortishuvlar tarzida tasavvur qilinadi. Lekin og'zaki bahslarning yanada samarali va ta'sirchan bo'lishi uchun yozma bahs shakli ham qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish, munozara madaniyatini oshirish va har bir fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. O'qituvchi esa o'quvchi yoki talabalarning bilimlarini asosli baholash va bilimdonlikni to'la ma'noda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilar oldindan mavzu bilan tanishtiriladilar, uyga berilgan topshiriqlar orasida qay biri yozma tarzda o'tkazilishi ma'lum qilinadi. Yozma bahs o'tkaziladigan kuni o'qituvchi uni quyidagi tarzda amalga oshiradi:

1. O'qituvchi guruhni ikkiga bo'ladi va ularni alohida qatorlarga o'tkazadi. Har bir guruh mavzu bo'yicha qaysi nuqtai nazarni himoya qilishini ma'lum qiladi. Masalan, birinchi guruh bolalarning aqliy darajalarini muntazam o'lchab turish va shu orqali ta'lim muassasalariga jalb etishni himoya qilsa, ikkinchi guruh bu fikrni asosli tarzda inkor qiladi.

2. Shundan so'ng o'qituvchi qarama-qarshi guruh a'zolarini juftlaydi va ularga nomeri yozilgan varoqlarni tarqatadi. Har bir ishtirokchiga biror fikrni yozma asoslashga 5 daqiqadan beriladi. Yozma dalillar ravon tushunarli tilda, asosli tarzda yozilishi kerak.

3. Yozilgan varoqchalar qarama-qarshi sheriklarga beriladi. Ular o'z «rakiblari» fikriga qarshi fikrni 8-10 daqiqa mobaynida o'ylab, yozishlari kerak bo'ladi va narigi tomondagi sherigiga beradi.

4. Yozma dalillar almashinuvining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, har safar har bir o'quvchi sherigining dalil-isbotini diqqat bilan o'rganib chiqib, javob qaytaradi. Oxirgi raunda o'quvchilarning o'zlariga yakunlash imkoni beriladi va yozma ishlar yigib olinadi.



5. O'qituvchi yozma bahslarni yakunlashda tomonlarga «qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isboti qaysilar bo'ldi?» deb so'raydi va o'quvchilar bilan oldindan kelishgan holda ular bilimlarini yakka-yakka yoki guruhiy baholaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi”da ko'rsatilgandek o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijod qilishi, izlanishini ta'minlaydigan faol o'qitish usullarini qo'llash hozirgi zamon talabidir. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini mazmunan takomillashtirish va sifatini yaxshilash uchun yangi pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga qo'llash maqsadga muvofiqdir. Har qanday interfaol ta'lim usullari bilan ishlash insondan aqliy harakat qilishni talab qiladi.

Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlar bo'lib, ular yordamida har qanday yangi pedagogik texnologiyalarni egallash orqali bilimdonlikning barcha ko'rinishlarini mukammallashtirish mumkin bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Югай А.Х., Миращирова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
9. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
10. Sulaymonova, S. N. (2021). IBN MISKAVAYH MASHSHOIYYUNLIK YO'NALISHINING SISTEMALASHTIRUVCHISI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 15-20.
11. Sulaymonova, S. N. (2023). IBN MISKAVAYHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDA JAMOAVIY HAMJIHATLIK VA O'ZARO MUHABBAT MASALASI. *International scientific journal of Biruni*, 2(2), 203-208.

## **EMOTSIYA VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI**

**Eshchanova Nasiba Matnazarovna**

Urganch innovatsion universiteti stajyor-o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada emotsiya va his-tuyg'ularning inson fiziologiyasiga ta'siri va buning natijasida kelib chiqadigan ijobiy va salbiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** emotsiya, hissiyot, qo'rquv, g'azab, stress, quvonch, qayg'u.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье представлена информация о влиянии эмоций и чувств на физиологию человека и возникающих вследствие этого положительных и отрицательных изменениях.*

***Ключевые слова:** эмоция, чувство, страх, гнев, стресс, радость, печаль.*

### **ABSTRACT**

*The article provides information about the impact of emotions and feelings on human physiology and the resulting positive and negative changes.*

***Key words:** emotion, feeling, fear, anger, stress, joy, sadness.*

### **KIRISH**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dunyo mamlakatlaridagi ruhiy salomatlik holatini baholadi. Ruhiy salomatlik xizmatiga bo'lgan ehtiyoj shunchalik kattaki, bu xizmatlari mahalliy darajadagi birlamchi tibbiy yordamning bir qismi bo'lishi kerak, deyiladi hisobotda. «Biz ruhiy salomatlikni mustahkamlash, himoya qilish hamda yordamga muhtojlarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha o'z munosabatimiz, harakatlarimiz va yondashuvlarimizni o'zgartirishimiz kerak», — deya ta'kidlaydi JSST Bosh direktori Tedros Gebreyesus hisobot so'zboshida. [4]

Mamlakatimizda aholi sog'lom turmush-tarzini yaxshilash maqsadida alohida me'yoriy xujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan 2018-yil 18-dekabrda qabul qilingan PQ-4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvatlash va aholining jismoniy faollik darajasini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi va 2019 yil 13 dekabrda PQ-4190-sonli "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlar fikrimiz yaqqol isbotidir.[1]

## **METODOLOGIYA**

Bugungi kunda butun dunyoda inson salomatligi masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lmoqda. Salomatlik odam organizmining biologik, aqliy, ruhiy jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligidir. Sihat-salomatlik har bir kishi uchun baxt-saodatdir. Mehnat unimdorligini oshirish, mamlakatning iqtisodiy qudratini rivojlantirish va xalq farovonligini ta'minlashning zarur shartlaridan biri ham salomatlikdir. Sihat-salomatlikga nisbatan ongli va mas'uliyat bilan yondashishda har bir insonning turmush va axloqiy mezonini bo'lishi lozim. [1] Amerikalik olimlar insonning hissiy holatini o'rganib, kasalliklarning oldini olish nazariyasini ishlab chiqishmoqda. Ular odamlarning kayfiyatiga qarab tashxis qo'yishni taklif qilishadi. Ko'pgina „Kasalliklarning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yurish, tez-tez psixologik zo'riqshlardir. [5] Ko'pincha bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish faoliyati keltirib chiqaradi. Inson hayoti davomida turli hil vaziyatlarga duch keladi. Bu esa insonning emotsional holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Emotsiya atamasi lotincha "emovere" to'lqinlatirmoq degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ular psixik va somatik jarayonlarini tartibga solishda katta ahamiyatga egadir. Buyuk mutafakkirimiz Abu Ali ibn Sino qattiq hissiy zo'riqishdan keyin qand kasalligi, xafa qon kasalligi miokard informing, insult kabi og'ir kasalliklar rivojlanadi, Hatto oshqozon ichak yara kasalligi qon kasalliklari, ba'zan ruhiy zo'riqishdan keyin paydo bo'lishini aytib o'tganlar. Kasalliklarning kelib chiqishida asosiy sabablari asab tizimiga bog'liq ekanligi g'azab, qo'rquv, qattiq siqilishlar organizmni holsizlantirib turli kasalliklar va psixosomatik kasalliklarni yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi haqida o'z fikrlarni yozib qoldirganlar. Abu Ali Ibn Sino quyidagi iborani bejizga aytmaganlar ya'ni "kasallikni emas bemorni davola" deb, Psixosomatik kasalliklar, ichki organlar va tizimlar vazifalarni buzilishi hisoblanadi. Bu kasalliklar shakllantirish asosi o'ziga xos mexanizmi hisoblanadi. Bu psixosomatik kasalliklar mexanizmlariga odatda quyidagilar hisoblanadi. Stress omil ichki organlar va qon tomir tizimi bilan vegetativ asab tizimi va endokrin tizimini faollashtiradi va hissiy kuchlanish qo'zg'atadi. [6] Tuyg'ularning inson salomatligiga ta'siri haqida ilmiy dalillar allaqachon olingan. Ingliz neyrofiziologi Charlz Sherrington quyidagi ketma-ketlikni aniqladi: birinchi navbatda his-tuyg'ular tug'iladi, keyin jismoniy tanadagi o'zgarishlar.

## **TAHLIL**

Tuyg'ular intensivlikda farq qilishi mumkin: ular qanchalik kuchli bo'lsa, sog'likka ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. Faoliyatga ta'siriga qarab, stenik va astenik his-tuyg'ular mavjud. Birinchisi g'ayrat, quvonchni o'z ichiga oladi va ular harakatga

undaydi. Ikkinchisi, aksincha, kuchlarni bo'shashtiradi yoki falaj qiladi. Keyin hech narsa qilishni xohlamaysiz. Bu sog'inish va qayg'uga olib keladi. Lekin, asosan, his-tuyg'ular ikki guruhga bo'linadi, ijobiy va salbiy. Asosiy ijobiy his-tuyg'ular - quvonch, zavq, qoniqish, ajablanish, qiziqish. Hayotda ko'tarinki kayfiyatning ustunligi salomatlikka olib keladi. Siz quvonch gormonini ishlab chiqarasiz, farovonligingiz yaxshilanadi. Bu ajoyib profilaktika: inson qanchalik ko'p ijobiy his-tuyg'ularni his qilsa, u kamroq kasal bo'ladi. Salbiy his-tuyg'ular bitta umumiy xususiyatga ega - bu inson salomatligiga zararli ta'sir. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra barcha kasalliklarning 90% hissiy buzilishlardan boshlanganligini ko'rsatdi. Misol uchun, nafrat va tirnash xususiyati yurak, ichak, jigar sog'lig'iga ta'sir qiladi. Qandli diabet, artrit va hatto yurak xuruji xavfi mavjud. Doimiy tashvish oshqozon, taloq bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari hayajon qon bosimini oshiradi, immunitetni zaiflashtiradi, erta qarishga olib keladi. Qayg'u, va sog'inish astma xurujini keltirib chiqarishi mumkin.[3]

Qo'rquv buyraklar va reproduktiv tizimni yo'q qiladi. Salbiy his-tuyg'ular saraton o'smalarini qo'zg'atishini bilasizmi? Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kasal bo'lishdan oldin odamlar stressni, qandaydir shokni boshdan kechirishgan yoki uzoq vaqt davomida tushkunlikka tushishgan. Shubhasiz, saraton psixosomatik kasallikdir, chunki yangi o'zaro sevgi, turmush tarzini o'zgartirish, optimistik munosabat kabi quvonchli daqiqalarga keskin o'tgandan so'ng, to'liq mo'jizaviy tiklanish holatlari mavjud edi. Ammo siz ko'pincha nosog'lom tuyg'u kuchiga tushib qolganingizni hatto tushunmaysiz. Nimani o'ylayotganingizni kuzatib borish juda muhim, chunki ba'zi fikrlar sizning hozirgi his-tuyg'ularingizni aks ettiradi:

qayg'u – muvaffaqiyatsizlik haqida qayg'urgingizda;

qo'rquv va xavotir - kelajak haqida qayg'ursangiz, nimadandir qo'rqsangiz;

aybdorlik tuyg'usi - kimnidir tushkunlikka tushirgan, yoki zarar yetkazgan deb o'ylasangiz;

g'azab, - o'zgalarga nisbatan adolatsiz munosabatdan g'azablanganda;

uyat - yoqimsiz tanqiddan xijolat cheksangiz, xijolat tortsangiz.

Xo'sh, salbiy his-tuyg'ular bilan nima qilasiz? Faqat bitta javob bor - ularni boshqarishni o'rganing!

Bizning hayotimiz sog'lom turmush tarzini yaratishda emotsiyalarimizga ham bog'liq.

Salbiy emotsiyalar kasalliklarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillari bo'lib qolmay yon-atrofdagi insonlarga ham salbiy tasir qilish kuchiga egadir. Shuning uchun insonlar har doim insonlar kelajakga intilib ishonch bilan hayotga kulib boqishi lozimdir.

"O'zingizni nazorat qilishingiz kerak" yoki "Ojizliklarga berilmang" degan iborani eshitganmisiz? Ammo o'zingizga qanday munosabatda bo'lmaslik kerakligini aytasiz? Siz qilayotgan yagona narsa - bu his-tuyg'ularni bostirish yoki oddiyroq aytganda, ularni ichkariga haydashdir.[3]Shunday qilib, siz o'zingizni yo'q qilasiz. Ko'proq erkaklar bundan aziyat chekishadi, ular jamiyatdagi xatti-harakatlar qoidalariga rioya qilishga, kuchli, vazmin bo'lishga majbur bo'ladilar.

Amerikalik psixolog Robert Xolt bostirilgan his-tuyg'ularning salomatlikka ta'sirini isbotladi. Shunday qilib, g'azabni ushlab turish oshqozon yarasi, gipertenziya kabi kasalliklarning rivojlanishiga yordam beradi. U his-tuyg'ularingizni samimiy, to'g'ridan-to'g'ri va ochiq ifoda etishni tavsiya qiladi, lekin ularning intensivligini nazorat ostida ushlab turish va agar hissiyotning intensivligi yuqori bo'lsa, u nima bo'lishidan qat'iy nazar, stressga olib keladi. Juda uzoq davom etadigan his-tuyg'ular ham tanani charchatadi va salomatlikka salbiy ta'sir qiladi. Tuyg'ularni boshqarishni o'rganish mumkin. Sport va har qanday jismoniy faoliyat stressni yengish uchun yordam beradi. Sevimli mashg'ulotlar yoki sevimli ishlar qayg'uli tajribalardan chalg'itishga yordam beradi. Art-terapiya yoqimsiz his-tuyg'ularni ijobiy his-tuyg'ular bilan qoplashda juda yaxshi yordam beradi.

## **XULOSA**

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, turli kasalliklarni davolashda, ularni oldini olish va reabilizatsiyada psixik emotsional holatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanib, maqsadli psixologik tadbirlarni qo'llash tavsiya qilinadi. Bemor bilan yaxshi aloqa o'rnatish, bemorda uning kasalligiga to'g'ri, adekvat munosabatni shakllantirish zarur. Bemorni tinchlantirish stressni yengillashtirish, rag'batlantirish, tiklanishga ishonchni ilhomlantirish zarur hisoblanadi. Bunda psixologik treninglar va metodikalar orqali yordam ko'rsatish bilan bemorning psixologik holatini yaxshilashga xizmat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Odam va uning salomatligi "O'qituvchi matbaa ijodiy uy Toshkent 2006 3 bett.
2. Изард К. Э. Психология эмоций .- СПб ..Питер, 1999
3. <https://4brain.ru/blog/emotions-and-health/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/21/health>
5. <https://kun.uz/news/>
6. "Tibbiyot psixologiyasi" Z.Ibodullayev Toshkent 2009 Yangi asr avlodi.



## **АРАБ ТИЛИДАГИ СИЁСИЙ АТАМАЛАРНИНГ СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10888339>

**Суннат Ботирович АБДУНАБИЕВ**

Жаҳон иқтисодиёти ва Дипломатия Университети

Шарқ тиллари кафедраси ўқитувчиси

Тошкент, Ўзбекистон

[abdunabiev@yahoo.com](mailto:abdunabiev@yahoo.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақола замонавий тилишуносликда турли тизимларнинг тиллардаги грамматик ва лексик муаммолар билан бир қаторда соҳа атамашунослиги, хусусан сиёсий соҳага (араб тили) оид атамалар масалалари, хориж тилларидан кириб келаётган сўзларни ўз она тилимизга айнан мос тушадиган сўзларга алмаштириши ва таржима қилиши ҳақида кенг ва батафсил маълумот берилган.*

***Калит сўзлар:** морфологик усул, деривация, сўз ясалиши, маъно кенгайиши, маъно кўчиши, маъно торайиши, семантик усул, диглоссия.*

### **ABSTRACT**

*This article provides extensive and detailed information on the grammatical and lexical problems of various systems in modern linguistics, as well as the terminology of the field, especially issues of terms related to the political sphere (Arabic language), substitution and translation of words. moving from foreign languages into words corresponding to our native language.*

***Keywords:** morphological method, derivation, word formation, expansion of meaning, migration of meaning, narrowing of meaning, semantic method, diglossia.*

### **КИРИШ**

Ҳар қандай давлатнинг миллий ўсиши, хусусан, иқтисод, саноат, ички ва ташқи сиёсат, умуман олганда, жамиятнинг барча жабҳа ва соҳалари ривожланиб бориши ва умумжаҳон жараёнларга қўшилиши атамаларни ишлаб чиқилишга ва тилнинг луғавий фондини ўз вақтида замонавий атамалар билан тўлдирилишини талаб қилади. Аммо биргина морфологик усул (деривация) орқали атамаларнинг ҳосил бўлиши мазкур эҳтиёжни тўлиқ қоплай олмайди. Шунинг учун ҳам янги атама бирликларнинг ясалишида асл лексикани иккиламчи номинация усулини қўллаш табиийдир. Ушбу усул бевосита

ўзлаштиришлардан воз кечиб, она тили воситаларидан кенг фойдаланиш имконини беради.

Иккиламчи номинация, яъни семантик сўз ясаши ёки семантик деривация денганда даставвал семантик ўзгаришларнинг кенг доираси тушунилади. Ушбу ўзгаришлар тилнинг асл бирликларида янги семантик таркиботларнинг пайдо бўлиши: лексиканинг мавжуд маъноси бутунлай йўқолиши ёки мутлақо янги маънонинг ҳосил бўлиши ҳамда асл маънолар билан бирга яна бир лексик-семантик вариантнинг пайдо бўлиши билан тавсифланади. Бошқача қилиб айтганда, семантик деривация усули билан ясалган атамалар умумистеъмол қўлланилиш соҳасидан махсус, тор лексиканинг қаторига ўтиб қолади, яъни тилда мавжуд бўлган сўз бирлигига янги атамага оид маъно берилади.

Тилшунос олимлар Г.Пауль, Р.А.Будаговларнинг фикрларига кўра, семантик ўзгаришлар учта турга бўлинади: 1) маънонинг кенгайиши; 2) маънонинг торайиши; 3) маънонинг кўчиши /силжиши<sup>87</sup>.

Бошқа турдаги атамалар сингори сиёсий атамаларнинг семантик хусусиятлари айнан шу 3 та усул – маънонинг кенгайиши, торайиши ва кўчиши /силжиши билан боғлиқдир.

**Маънонинг кенгайиши.** Сўз ўзининг асл маъносидан ташқари бошқа, янада кенгроқ маъноларни қамраб олганда маънонинг кенгайиши ҳақида гап боради. Ушбу жараён сўзнинг фонетик ва морфологик таркибида ҳеч қандай ўзгаришларсиз янги атаманинг ҳосил бўлишига олиб келади.

Сиёсий атамаларнинг ушбу усул орқали ясашида бошқа лексик бирликларга нисбатан кўпроқ араб тилидаги масдарлар, яъни ҳаракат номлари иштирок этади. Шундай ҳолат масдарнинг феълга хос бўлган нисбат, шахс, замон, майл каби категориялардан холи бўлгани билан изоҳланади. Масдарларнинг махсус, тор маъноларни қисқа ва лўнда ифолашдаги айнан шу хусусияти энг муносиб восита, деб ҳисобланади. Бироқ, барча араб тилидаги феъл бобларидан ҳосил бўлган масдарларда ушбу семантик ўзгаришлар бўлади. Масалан,

I-боб масдарлари:

“عَقْدٌ” – асосий маъноси “боғланиш, боғлаш”, лекин ҳозирда кўпроқ “битим тузиш, шартнома, контракт, битим” атамаларни ифодалайди.

“وَضْعٌ” – асосий маъноси “жойлаш, ўрнатиш, қўйиш”; сиёсий матнларда, ишлаб чиқиш (мас.лойиҳани), вазият, ҳолат” каби маъноларни ифодалайди.

<sup>87</sup> Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. –С. 10.; Будагов Р.А. К проблеме устойчивых и подвижных элементов в лексике // Известия АН СССР. Отдел литературы и языка. В 10-ти томах. – М., 1951. Т. 10. –С. 112.

Сиёсий матнларда кўп учрайдиган “بَيَانٌ” сўзи – “بَانٌ” “тушунарли, ойдин бўлмоқ, кўринмоқ” феълидан ясалган бўлиб, ўзбек тилида “декларация, коммюнике, манифест, мурожсаатнома, баёнот, ариза, хабар, маъруза, дастур” каби атамалар билан берилади.

II - боб масдарлари:

“تَخْطِيطٌ” – “чизик чизмоқ”, “планга, режага олиш”, “марза тортиш”

“تَحْلِيلٌ” – “тарқатиб юбориш”, “таҳлил”, “анализ”, “ижозат бериш”, “йўл бериш”

“تَرْسِيخٌ” – “мустахкамлаш”, “пишитиш”, “чиниқтириш”

III- боб масдарлари:

“مُبَادَلَةٌ” –асосий маъноси “алмашиш” “алмаштириш”, лекин ҳозирда “айрибошлаш”, “айрибошлаш савдоси” каби маъноларни ифодалайди.

IV- боб масдарлари:

“إِنْتَاجٌ” – “ишлаб чиқариш”, “ишлаб чиқарилган маҳсулот.

“إِيرَامٌ” –асосий маъноси “бураш”, “эгиш”. Лекин сиёсий матнларда “санксия бериш”, “ратификация қилиш” деб таржима қилинади.

“إِخْبَارٌ” – хабар, билдириш, маълумот, ахборот.

V- боб масдарлари:

“تَقَدَّمَ” —асосий маъноси “олдинга ҳаракат қилиш”, “силжиш”. Лекин сиёсий матнларда “тараққиёт”, “прогресс” деган маънони ифодалайди.,

“تَطْوُرٌ” – “ривожлантириш”

“تَدَخُّلٌ” – сиёсий матнларда “дахл қилиш”, “аралашиш”, “интервенция”, “босқинчилик” деб таржима қиламиз.

VI- боб масдарлари:

“تَعَاوُنٌ” – сиёсий матнларда “ҳамкорлик”, “ўзаро ёрдам” , “ҳамкорлик қилиш” деб таржима қилинади.

“تَنَازُلٌ” – “қайтиш”, “чекиниш”, “ён бериш”, “рози бўлиш”, “ўтқазиниш” каби маъноларга ега.

“تَعَايُنٌ” – “биргаликда яшаш”, “тинч тотув яшаш”.

VII- боб масдарлари:

“إِنْجِصَارٌ” – маъноси “чекланиш”, “чекланганлик”. Сиёсий матнларда эса “монополия” деб таржима қилинади.

“إِنْضِمَامٌ” – “қўшиб олиш”. “(сиёсий) бир мамлакат иккинчи мамлакатнинг мустақиллигини йўқотиб”, “ўзига қўшиб олиши”.

VIII- боб масдарлари:

“إِعْتِمَادٌ” – “ишонч”, “ишониш”, “эътимод қилиш”.

“إقتراح” – “таклиф”, “қарор”, “резолютсия”, “қонун асосидаги ташаббус билан ташриф буюриш”.

X- боб масдарлари:

“إستثمار” – “эксплуатация”

“إستعراض” – “ҳаммага кўрсатиш”, “ревью”, “оппозицияда турмоқ”

“إستقرار” — “ҳаракатсизлик”, “барқарорлик”, “стабиллик”, “мустаҳкамлик”

Арабчада «президент», «рахбар», «раис», «шеф», «бошлик», «босс» хатто «хўжайин» атамалари араб тилида биргина – رئيس сўзи билан берилади. Контекстга қараб унинг мос вариантыни кўйиб таржима қилинади.

وَصَلَ الرَّئِيسُ الْمِصْرِيُّ حُسْنِي مُبَارَكٌ إِلَى رُومَانِيَا فِي زِيَارَةٍ تَسْتَدْرِقُ ٢٤ سَاعَةً ، هِيَ الْمَحَطَّةُ  
الثَّانِيَّةُ مِنْ جَوْلَةٍ قَادَتْهُ إِلَى أَلْمَانِيَا وَسَتَقُودُهُ إِلَى رُوسِيَا غَدًا . وَسَيُجْرِي الرَّئِيسُ مُبَارَكٌ مُبَاحَثَاتٍ مَعَ الرَّئِيسِ  
إِيُونِ إِبِلِيْسُكُو . وَيَتَوَقَّعُ أَنْ يَكُونَ الْوَضْعُ فِي الشَّرْقِ الْأَوْسَطِ فِي صُلْبِ مُحَادَثَاتِ الرَّئِيسِيْنَ<sup>88</sup>.

Гарчанд, араб тили коидаси буйича مُبَارَكُ الرَّئِيسِ الْمِصْرِيِّ ибораси сўзма-сўз ҳамда луғавий жихатдан «мисрлик президент Хусни Муборак» деб тушунилса-да, дипломатик муносабатларда бу ибора ўз навбатида кўпроқ расмий тус берилиши таъминлаш мақсадида ҳужжатшунослик тартиби ва қоидаларига амал қилган ҳолда “Миср президенти Хусни Муборак” деб истилоҳий жихат асосида таржима қилиниши мақсадга мувофиқдир. Бунда Хусни Муборакнинг мисрлик президент эмас, балки Миср президенти деб эътироф этилиши матннинг тўғри ва конкрет талқин этилишига хизмат қилади.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, араблар ўзи умуман раҳбар даражасидаги мансабдор шахс бир сўз, яъни رُؤَسَاءُ ج رَئِيسُ сўзи билан ифодаланади, зеро ана шу رُؤَسَاءُ ج رَئِيسُ сўзи ҳам “бош” сўзининг маъносини англатиши бежиз эмас. Бунда, араб минтақасидаги етакчилар ҳақида ёки араб тилида берилган сиёсий хабарларда ҳар қандай юқори даражадаги масъул мансабдор шахс, у расман президент бўладими ёки бирор бир етакчи бўладими, бунда унга араб тили нуқтаи назаридан رُؤَسَاءُ ج رَئِيسُ истилоҳи ишлатилади ва ўз навбатида тингловчи ва (ёки) ўқувчи رُؤَسَاءُ ج رَئِيسُ нинг ўзи раҳбарлик қилувчи, ҳокимият вакили бўлган масъул мансабдор шахс эканлигини англамоғи даркор.

Сир эмаски, расмий араб тилида “фатха”, “касра” ёки “танвин”лар тўлиқ ифодаланмасдан келинади. Бу қоида ва тартиб, айниқса инсон исм-шарифи ва жой номларига бевосита дахлдордир.

<sup>88</sup>Яковенко Э. В. Арабский язык. Практический курс перевода. – М.: Восточная литература, 2009. –С.7

Бинобарин, сиёсий атамалар фойдаланиладиган араб тилида ҳам “фатҳа”, “касра” ёки “танвин”лар фақат жуда зарур бўлган вақтлардагина ишлатилади.

Матн структурасида келган **زَارَ (ه) يَزُورُ زِيَارَةً** сўзига эътибор берадиган бўлсак, ушбу сўзнинг аниқлик артикли билан ифодаланмаганлигини кўриш мумкин ва ўз навбатида бу ҳолатни матн структурасида расмий сафар ҳақида биринчи маротаба хабар берилаётгани учун ҳам бу сўз аниқлик артиклисиз ифодалангани билан изоҳлаш мумкин бўлади.

Одатда, расмий сафарлар кун билан ифодаланса-да, ушбу матнда **سَاعَةً ٤٢** сўзма-сўз тарзда “24 соатлик сафар” деб тушунилса-да, енгиллик маъносида “бир кунлик” ташриф деб ифодаланиб келган.

**جَوْلَةٌ** ибораси ҳам **زَارَ (ه) يَزُورُ زِيَارَةً** сингари контекстда биринчи бор қўлланилгани ҳақидаги асос билан аниқлик артиклисиз қўлланилган.

Худди шундай, **مباحثات** сўзи ҳам юқорида таъкидланган ҳар иккала сўз сингари контекстда биринчи бор қўлланилгани учун аниқлик артиклисиз ноаниқ бўлгани ҳақидаги асос билан ишлатилган.

Бунда, **مباحثات** ибораси **مُحَادَثَاتٌ**, ибораси билан ўзаро бир маънони англатади.

Чет элга хос бўлган атоқли отлар, мисол учун **إِيُونُ إِيلِيْسَنُكُو** аксар ҳолларда “дамма” билан яқунлансада, қоида ва ўрнатилган тартибга мувофиқ, мазкур “дамма” талаффузда ифода этилмайди.

**الْشَّرْقُ الْأَوْسَطُ** ибораси ҳам сўзма-сўз таржима қилинганда “Ўрта Шарқ” деган маънони берсада (инглиз тилида Middle East) аслида бошқа ҳар қандай ахборот берувчи хужжат ва воситаларда “Яқин Шарқ” деб номланувчи минтақа ва (ёки) ҳудуд ҳақида гап кетаётганлигини тушунилади.

Семантик деривация (ўзгариш)нинг иккинчи тури – бу сўз **маъносининг торайиши**.

Янги атамаларни ҳосил бўлишида сўз маъносининг торайиши араб сиёсий атамалар тизимида юқоридаги кўрсатилган сўз маъносининг кенгайиши усулига нисбатан қамроқ учраб туради. Сўз маъносининг торайиши деганда, асл сўз “маъносининг нисбий торайиши”га олиб келадиган лексик-семантик жараён тушунилади<sup>89</sup>. Сўз маъносининг торайиши натижасида сўзнинг асл дастлабки маъноси кам қўлланила бошлайди (ёки сўз эскирган сўз – архаизмга айланади) ва янги орттирилган маъно эса хусусий ва тор маънога эга бўлиб қолади. Масалан, Б.Н.Головин “сўзлар маъносининг торайиши натижасида касбий /профессионал/ атамалар пайдо бўлади”, деб таъкидлайди<sup>90</sup>. Араб

<sup>89</sup> Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975. –С. 114.

<sup>90</sup> Головин Б.Н. Введение в языкознание. 3-е изд. – М., 1977. –С.84.



тилидаги семантиканинг торайиши кўпроқ феъл, масдар, сифатдош ва аник, конкрет предметни ифодалайдиган отларга хосдир. Масалан,

“صَدَّرَ” феъли – “олиб чиқиб кетмоқ”, “экспорт қилмоқ”.

“إِخْتَارَ” масдари – “сотиб олиш”, “сотиб олиб йиғиш”.

“عُمْلَةٌ” от – “чақа(майда пул)”, “пул”, “валюта,

“مُسَاعَدٌ” сифатдоши – “ёрдам бериш”, “омадли бўлиш”

**Сўз маъносининг кўчиши /силжиши/<sup>91</sup>.** Сўз маъноси бир ходисани номлашдан бошқа ходисани номлашга кўчирилиб ўтказилиши орқали сўз семантикасининг ўзгариши сўз маъносининг кўчиши /силжиши/, деб тушунилади. Номлашдаги кўчиш/силжиш учта турга бўлинади: метафорик, метонимик ва функционал кўчмалар. Предметлар ёки ходисалар номланишида у ёки бу ўхшаш жиҳатлар мос келганда, метафорик кўчиш ҳақида гап боради. Ушбу усул ёрдамида умумистеъмолдаги сўз янги маънога эга бўлиб, атамаларни ҳосил қилади. Кўп ҳолатларда феъл ҳосилалари бўлмиш масдарлар маъносида мазкур кўчиш/силжиш/ кузатилади. Масалан:

I-боб феъли: “جَزَى” – “оқмоқ”, “оқиб ўтмоқ (сув ҳақида)”. Сиёсий матнларда “бўлиб ўтмоқ”, “ўтмоқ” деб таржима қилинади.

I-боб масдари: “زَبَطَ” – “боғлаш”, “боғлаб қўйиш” – “алоқалар”, “муносабатлар” деб таржима қилинади.

I-боб масдари: “كَسَادٌ” – “туриб қолиш”, феълидан. Сиёсий атама сифатида “туриб қолиш, тўхтаб қолиш” ёки “депрессия /тушкунлик/” маъноларида қўлланилади. Масалан, сиёсий матнларда “فِتْرَةُ الْكِسَادِ” – “депрессия даври”, “الْكِسَادُ” – “Буюк депрессия” маъноларини ифодалашда қўлланилади.

Араб тилидаги атамаларнинг ҳосил бўлишида турли хил усул ва моделларни қўллаш натижасида синонимия ва полисемия ҳодисалари юзага келади. В.П.Даниленконинг фикрича, “атамалар шаклланишида ҳар хил манбалар” бўлиши сабабли синонимия ҳодисаси пайдо бўлади<sup>92</sup>. Масалан, “ميتافيزيقا” “метафизика” – “ما وراء الطبيعة” “табиат ортида” атамаси; “ايظيقا” “этика” – “الأخلاق” “ахлоқ”; “استظيقا” “эстетика” – “علم الجمال” “гўзаллик ҳақида илм”; “غراماطيقا /غراماطيق” “грамматика” – “قواعد (اللغة)” “тил қоидалари” атамлари синонимлар бўлиб ҳисобланди.

Демак, синонимлар деганда “маъно бўйича яқин бўлиб, битта тушунчани ифодалаётган, лекин ҳар хил талаффуз қилинаётган” лексик бирликлар тушунилади<sup>93</sup>. Битта сўз тилдаги кўп маъноларга эга бўлганда, полисемия

<sup>91</sup> Баъзан сўз маъносининг кўчиши /силжиши/ ўрнига маъновий кўчма варианты ҳам қўлланилади.

<sup>92</sup> Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 73.

<sup>93</sup> Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975. –С. 112.

ходисаси пайдо бўлади<sup>94</sup>. Сиёсий атамаларда синонимия ва полисемия ходисалари кўпинча феъллардан ясалган отларда учрайди. Мисол учун, ўзбек тилидаги атамалар араб тилидаги қуйидаги синонимлар билан ифодаланади:

“шартнома, битим” – “إِتِّفَاقٌ – إِيْتِفَاقِيَّةٌ – عَقْدٌ – مُعَاهَدَةٌ – صَفَقَةٌ”  
 “музокаралар” – “مُحَادَثَاتٌ – مَبَاحَثَاتٌ – مَفَاوِضَاتٌ – مُذَاكِرَاتٌ”  
 “муаммо, масала” – “قَضِيَّةٌ – مَسْأَلَةٌ – مُشْكَلَةٌ”  
 “вазият, ҳолат” – “مَوْقِفٌ – مَوْقِعٌ – وَضْعٌ – مَوْضِعٌ – حَالَةٌ”  
 “соҳа, тармоқ” – “مَجَالٌ – مَيْدَانٌ – دَائِرَةٌ – صَعِيدٌ – حَقْلٌ”

Бундан ташқари, فيتو ва حق النقص (вето), الإتيكيت ва آداب اللياقة (этикет) каби синонимик жуфтликлар диглоссия<sup>95</sup> ходисасидан далолат беради, яъни аниқ бир тушунча ҳам арабча, ҳам ўзлаштирилган чет тилидаги сўз орқали ифодаланишини учратиш мумкин.

Сиёсий-ижтимоий мавзудаги матларда тўғри ва кўчма маъноларда учрайдиган “ҳисса (депозит)” атамаси полисемик хусусиятларга эга қуйидаги бирликлар билан берилиши мумкин<sup>96</sup>:

“أَمَانَةٌ” – “сақлаш”, “омонат”  
 “ذَخِيرَةٌ” – “ҳазина”, “захира”  
 “إِذَاعٌ” – “эшиттириш”, “узатиш”  
 “وَدِيْعَةٌ” – “омонат учун бериладиган нарса”, “депозит”

Полисемия ходисасига яна бир мисол: I-боб масдари: “دَوَائِرٌ” – кўпл. “دَوَائِرٌ” сўзи луғатда саккизта маънони ифодалайди: 1) дойра; айланма; 2) округ; 3) соҳа, бўлим, тармоқ; 4) муҳит, давра,

Сиёсий-ижтимоий мавзулардаги матларда ушбу сўз қуйидаги атама бирликларини ҳосил қилади:

“دَائِرَةُ الْإِتِّخَابِ” – “сайлов округи”  
 “فِي دَائِرَةِ الْعَمَلِ السِّيَاسِيِّ” – “сиёсий фаолият соҳасида”  
 “الدَّوَائِرُ الرَّسْمِيَّةُ” – “расмий доиралар”  
 “الدَّوَائِرُ الْمُطَّلَعَةُ” – “хабардор, билувчи, хабар топган доиралар”  
 “دَائِرَةُ الْبُولِيْسِ” – “полиция бошқармаси”  
 “دَائِرَةُ الْحُكُومَةِ” – “ҳукумат муассасаси”

## ХУЛОСА

Шундай қилиб, семантик деривация, яъни семантик ўзгаришлар усули ёрдамида ҳосил бўлган сиёсий атамларнинг ҳосил бўлишида сермаҳсул

<sup>94</sup> Белкин В.М. Ўша асар. –С. 116.

<sup>95</sup> Диглоссия – икки тилдан фойдаланиш.

<sup>96</sup> Адиханов Д.С. Формирование экономической терминологии в современном арабском литературном языке... Дисс...канд. филол. наук. – Т., 2010. –С. 78.

усуллардан бири ҳисобланади. Иккиламчи номланиш йўли орқали ясалган сиёсий атамалар биринчи навбатда бевосита чет тилидан ўзлаштирмаларнинг кўпайиб кетишидан ва араб тилининг софлигини сақлайди. Синонимия ва полисемия ҳодисалари эса атамаларнинг ўзаро таъсири ва ўзига хос ўзаро “тортишуви”, яъни дублетлик ҳолатидан далолат беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Будагов Р.А. К проблеме устойчивых и подвижных элементов в лексике // Известия АН СССР. Отдел литературы и языка. В 10-ти томах. – М., 1951. Т. 10.
2. Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960.
3. Яковенко Э. В.Арабский язык. Практический курс перевода. – М.: Восточная литература, 2009.
4. Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975.
5. Головин Б.Н. Введение в языкознание. 3-е изд. – М., 1977.
6. Даниленко В. П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. – М., 1977.
7. Адиханов Д.С. Формирование экономической терминологии в современном арабском литературном языке... Дисс....канд. филол. наук. – Т., 2010.
8. Abdunabiev, S. B. (2023). "TERMINOLOGY IN ARABIC LINGUISTICS." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(11): 285-290.
9. Abdunabiev, S. B. (2023). THE LEXICOLOGICAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE WORDS ENTERED INTO UZBEK FROM ARABIC. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES".
10. Siddikova, M. (2011). "乌兹别克斯坦政治经济体制改革概况." 成功 (教育) 24.

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIRISH SO‘ZLARINING PRAGMATIK VA KO‘P MA’NOLILIK XUSUSIYATLARI**

**Toshmuhammedova Gulnoza Zayniddin qizi,**

SamDChTI, Qo‘shma ta‘lim dasturlari kafedrası o‘qituvchisi

**Djurayeva Shahlo Gulom qizi**

SamDChTI Ingliz tili tarixi va grammatikasi kadedrası o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kirish so‘zlarning pragmatik va ko‘p ma‘noli xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Kirish so‘zlari ko‘pincha ohangni o‘rnatish, so‘zlovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish va suhbat uchun kontekstni ta‘minlash uchun ishlatiladi. Sifat va miqdoriy tahlilning kombinatsiyasidan foydalangan holda, ushbu tadqiqot kirish so‘zlarning ikkala tilda qanday ishlatilishini va ular etkazishi mumkin bo‘lgan turli ma‘nolarni o‘rganadi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, kirish so‘zlari muloqotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va ular ishlatilgan kontekstga qarab turli xil talqinlarga ega bo‘lishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Pragmatika, ko‘p ma‘noli, kirish so‘zlari, ingliz tili, o‘zbek tili, muloqot, kontekst, ohang, munosabat, sifat tahlili, miqdoriy tahlil.*

## **PRAGMATIC AND MULTIPLE-MEANING CHARACTERISTICS OF INTRODUCTORY WORDS IN ENGLISH AND UZBEK**

**Tashmuhammedova Gulnoza Zayniddin qizi,**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, teacher of the Department of  
Joint Education Programs

**Djurayeva Shahlo Gulom kizi,**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, teacher of the Department of  
English Language History and Grammar

### **ABSTRACT**

*This article examines the pragmatic and ambiguous features of prepositions in English and Uzbek. Introductions are often used to set the tone, establish relationships between speakers, and provide context for a conversation. Using a combination of qualitative and quantitative analysis, this study explores how introductory words are used in both languages and the different meanings they can convey. The findings show that introductory words play a crucial role in communication and can have different interpretations depending on the context in which they are used.*

**Keywords:** *Pragmatics, polysemy, introduction, English language, Uzbek language, communication, context, tone, attitude, qualitative analysis, quantitative analysis.*

## **ПРАГМАТИЧЕСКАЯ И МНОГОЗНАЧИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВВОДНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Ташмухаммедова Гулноза Зайниддин кизи,**

Самаркандский государственный институт иностранных языков,  
преподаватель кафедры совместных образовательных программ

**Джураева Шахло Гулом кизи,**

Самаркандский государственный институт иностранных языков,  
преподаватель кафедры истории и грамматики английского языка

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются прагматические и многозначные особенности предлогов в английском и узбекском языках. Введение часто используется, чтобы задать тон, установить отношения между говорящими и обеспечить контекст разговора. Используя сочетание качественного и количественного анализа, это исследование исследует, как вводные слова используются в обоих языках, а также различные значения, которые они могут передавать. Результаты показывают, что вводные слова играют решающую роль в общении и могут иметь разные интерпретации в зависимости от контекста, в котором они используются.*

**Ключевые слова:** *Прагматика, полисемия, введение, английский язык, узбекский язык, общение, контекст, тон, отношение, качественный анализ, количественный анализ.*

### **KIRISH**

Kirish soʻzlari muloqotda hal qiluvchi element boʻlib, ohangni shakllantiradi va suhbatdoshlar oʻrtasida aloqa oʻrnatadi. Ushbu soʻlar koʻpincha ishlatiladigan kontekstga qarab bir nechta maʼno va nuanslarga ega boʻlishi mumkin. Ushbu tadqiqot ingliz va oʻzbek tillaridagi kirish soʻzlarning pragmatik va koʻp maʼnoli xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan. Ushbu soʻzlarning turli xil kommunikativ sharoitlarda qanday qoʻllanilishini oʻrganish orqali biz ularning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga intilamiz.



## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotning maqsadlariga erishish uchun sifat va miqdoriy tahlilning kombinatsiyasi qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillarida ma'lumotlar kirish so'zlarning turli funksiyalari va ma'nolarini aniqlash uchun sifatli yondashuv yordamida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu so'zlarning turli kontekstlarda chastotasi va tarqalishini o'rganish uchun miqdoriy tahlil o'tkaziladi. Ushbu metodlar orqali biz ingliz va o'zbek tillaridagi kirish so'zlarning pragmatik va ko'p ma'noli xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Til odamlarga muloqot qilish, fikr almashish va his-tuyg'ularni ifodalash imkonini beradigan ajoyib vositadir. Tilning murakkab tuzilmasi ichida kirish so'zlari suhbatlar uchun zamin yaratish, so'zlovchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish va muhim kontekstual ma'lumotlarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Suhbat boshida birinchi galdagi so'zlar muloqot dinamikasini shakllantiradigan muhim pragmatik va ko'p ma'noli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.<sup>97</sup> Ushbu maqolada biz ingliz va o'zbek tillaridagi kirish so'zlarning qiziqarli dunyosiga kirib, ularning nozik ma'nolari va pragmatik funktsiyalarini o'rganamiz.

Ingliz va o'zbek tillaridagi kirish so'zlarini o'rganish madaniyatlararo muloqotning nozik nozik tomonlarini tushunish uchun zarurdir. Ma'ruzachilarning ushbu so'zlarni ishlatish va talqin qilish usuli madaniy me'yorlarga, ijtimoiy kontekstlarga va individual lingvistik imtiyozlarga qarab juda farq qilishi mumkin. Ikkala tildagi kirish so'zlarining pragmatik va ko'p ma'noli xususiyatlarini o'rganib chiqib, biz ushbu lingvistik vositalar turli xabarlarini etkazish va murakkab aloqa vaziyatlarini boshqarish uchun qanday qo'llanilishi haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Ingliz tilida "hello", "hi", "hey" va "howdy" kabi kirish so'zlari suhbatni boshlash va suhbatdoshlar bilan munosabatlarni o'rnatish uchun ishlatiladigan umumiy salomlashish sifatida xizmat qiladi. Bu so'zlar nafaqat dialogning boshlanishini bildiradi, balki so'zlovchining munosabatini, tanishlik darajasini va o'zaro aloqa uchun kerakli ohangni bildiradi. Masalan, "hello" so'zi rasmiy va hurmatli, "hey" esa oddiyroq kontekstda va tanishlarga ishlatiladi. Ingliz tilidagi kirish so'zini tanlash ma'ruzachining niyatlarini ochib berishi va suhbatning umumiy kayfiyatini o'rnatishi mumkin.

---

<sup>97</sup> Jumayeva, Mexri, and Muqaddas Qodirova. "O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI KIRISH SO'ZLARINING LEKSIK VA SINTAKSIS XUSUSIYATLARI." *Центральноазиатский журнал образования и инноваций* 2, no. 12 (2023): 25-28.

Xuddi shunday o‘zbek tilida ham “salom”, “qalaysan” kabi kirish so‘zlari salomlashish, suhbatni boshlash uchun ishlatiladi. Bu so‘zlar o‘zbek jamiyatining me‘yor va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy va ijtimoiy ma‘nolarni o‘zida mujassam etgan. O‘zbek muloqotida odobli va hurmatli iboralarni qo‘llash yuksak qadrlanadi, kirish so‘zlari ijtimoiy odob-axloqni ko‘rsatishda, barkamol nutq o‘rnatishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.<sup>98</sup>

Ingliz va o‘zbek tillaridagi kirish so‘zlari salomlashish vazifasidan tashqari, ular qo‘llanilgan kontekstga qarab bir nechta ma‘no va funksiyalarni namoyon qilishi mumkin. Masalan, inglizcha “well” so‘zi ikkilanish, kelishish yoki ishlab chiqishni bildirish uchun kirish so‘zi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbek tilida “hmm”, “xayr” kabi kirish so‘zlari ikkilanish, qat‘iyatsizlik yoki tafakkurni bildirishi mumkin. Ushbu so‘zlarning ko‘p ma‘nolari muloqotga murakkablik darajasini oshiradi va ma‘ruzachilardan kontekst va og‘zaki bo‘lmagan belgilar asosida mo‘ljallangan xabarni tushunishni talab qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi kirish so‘zlarining pragmatik va ko‘p ma‘noli xususiyatlarini o‘rganish uchun sifat va miqdoriy tahlilni birlashtirgan aralash usuldan foydalanish mumkin. Har ikki tilda so‘zlashuvchilardan to‘plangan og‘zaki til ma‘lumotlari jamlanmasi kirish so‘zlarning qo‘llanilishi, funksiyalari va ma‘nolarini aniqlash uchun transkripsiya qilinishi va tahlil qilinishi mumkin. Sifatli tahlil ushbu so‘zlarning kontekstual nuanslari va pragmatik ta’sirlari haqida tushuncha berishi mumkin, miqdoriy tahlil esa turli kommunikativ kontekstlarda ularning chastotasi va tarqalishining statistik ko‘rinishini taqdim etishi mumkin.<sup>99</sup>

Ko‘p ma‘noli xususiyatlarni ochish	Kirish so‘zlarning pragmatik tabiatini o‘rganish
<p>Ingliz tilida “just”, “even”, “yet” va “still” kabi kirish so‘zlari bu hodisaga misol bo‘ladi. “Just” kontekstga qarab darhollik, adolat yoki urg‘uni anglatishi mumkin. “Even” ajablanish, tenglik yoki kuchayishni anglatishi mumkin, “Yet” va “Still” davom etish, qarama-qarshilik yoki imtiyozni bildiradi. Bu ma‘nolarning boyligi ingliz nutqiga noziklik va chuqurlik qo‘shadi.</p> <p>Xuddi shunday, o‘zbek tilida ham</p>	<p>Ingliz tilida “well”, “so”, “now” va “ok” kabi kirish so‘zlari odatda aloqa o‘rnatish, nutqni boshlash yoki mavzular o‘rtasida o‘tish uchun ishlatiladi. Masalan, “well” ikkilanishni ko‘rsatishi yoki yangi nuqtai nazarni kiritishi mumkin, “so” esa kopincha xulosa yoki oqibatni keltirib chiqaradi. Ushbu pragmatik funksiyalar so‘zlovchining ohangiga, intonatsiyasiga va suhbat kontekstiga qarab farqlanadi.</p>

<sup>98</sup> Izzatullayevna, Xodjayeva Dilafuz, and Marjona Makhmudovna. "INGLIZ TILIDA KIRISH SOZLARINING PRAGMATIK TAHLILI." In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, pp. 130-133. 2023.

<sup>99</sup> Mikhojiddinova, Jamolitdinova Dilnoza. "The history of the study of terminology in Uzbek linguistics." ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies 8, no. 8 (2019): 50-56.

<p>“xamma”, “chunki”, “masalan”, “va” kabi kirish soʻzlari oʻzbek tilining lingvistik koʻp qirraliligini aks ettiruvchi koʻp maʼnolarni namoyon qiladi. “Hamma” umumbashariylik yoki yaxlitlikni, “chunki” sabab yoki sababni bildiradi, “masalan” misol yoki misol sifatida xizmat qiladi, “va” esa qoʻshimcha yoki birikmani bildiradi. Bu koʻp maʼnolar maʼruzachilarga keng doiradagi gʻoyalarni aniqlik va nuans bilan ifodalash imkonini beradi.</p>	<p>Xuddi shunday, oʻzbek tilida “Ha”, “xudo”, “lekin”, “ammo” kabi kirish soʻzlari oʻzbek tilida soʻzlashuvchi jamiyatga xos boʻlgan madaniy nuanslarga ega boʻlsa-da, oʻxshash pragmatik rollarni bajaradi. “Ha” noaniqlik yoki ikkilanishni bildirishi mumkin, “xudo” ajablanish yoki taʼkidlashni anglatishi mumkin, “lekin” kontrastni bildirishi mumkin. Ushbu pragmatik nuanslarni tushunish oʻzbek tilida soʻzlashuvchi sharoitlarda samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir.</p>
--	--

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ingliz va oʻzbek tillaridagi kirish soʻzlarni oʻrganish oddiy koʻringan bu soʻzlarga singib ketgan til xilma-xilligi va madaniy boyligining boy dunyosini ochib beradi. Ularning pragmatik va koʻp maʼnoli xususiyatlarini oʻrganish orqali biz tilning muloqotni qanday shakllantirishi, munosabatlarni rivojlantirishi va maʼnoning nozik nuanslarini etkazishi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishimiz mumkin. Kirish soʻzlarini har tomonlama tahlil qilish orqali biz lingvistik boʻshliqlarni bartaraf etish, madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish va turli sharoitlarda muloqot samaradorligini oshirish uchun yoʻl ochamiz.

## FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Izzatullayevna, Xodjayeva Dilafuz, and Marjona Makhmudovna. "INGLIZ TILIDA KIRISH SOZLARINING PRAGMATIK TAHLILI." In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, pp. 130-133. 2023.
2. Jumayeva, Mexri, and Muqaddas Qodirova. "OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI KIRISH SOʻZLARNING LEKSIK VA SINTAKSIS XUSUSIYATLARI." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2, no. 12 (2023): 25-28.
3. Ganieva, U. A., & Mirzaeva, M. G. K. (2022). Types of Digital Banking Services and Increasing Their Popularity. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(6), 1-5.
4. Mikhojiddinova, Jamolitdinova Dilnoza. "The history of the study of terminology in Uzbek linguistics." ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies 8, no. 8 (2019): 50-56.

## **O‘ZBEKISTON SOTSIOLISTIK RESPUBLIKASIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TARIXIDAN (1925-1940 YILLAR)**

**Sagdiyeva Xiromonxon Xalxodjayevna**

Oriental universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich magistratura talabasi

[sagdiyevaxiromonxon@gmail.com](mailto:sagdiyevaxiromonxon@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada 1925-1940 yillarda O‘zbekiston Sovet Sotsiolistik Respublikasida sovet ta‘lim siyosati poydevorining tashkil etilishi, uning g‘oyaviy, huquqiy va iqtisodiy asoslari yoritilgan. O‘sha vaqtlardagi totalitar g‘oya va keskin sinfiy nuqtai nazardan shakllangan xalq ta‘limining sovet modeliga asos solingani, jamiyatning ma‘naviy hayotini bir qolipga tushirishga intilgan bolshevikcha fikrlash, umumta‘lim sohasidagi o‘ziga xosliklarning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishi ta‘kidlangan. Shuningdek, mamlakatning madaniy-ma‘rifiy hayoti, ilm-fan, maorifi haqida ma‘lumotlar berilgan. O‘zbekiston xalq ta‘limining mustamlakachilik va sobiq Sotsialistik davridagi ziddiyatli rivojlanish tarixi, xalq ta‘limidagi muammolar, ularni yechish borasida qilingan ishlar ko‘rsatilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *xalq, ta‘lim, siyosat, maorif, maktab, fan, o‘qituvchi, qurultoy, sovet, mafkura, boshlang‘ich, madaniyat.*

## **FROM THE HISTORY OF EDUCATION IN THE SOCIALIST REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1925-1940 YEARS)**

**Sagdieva Khiromonkhon Khalkhodjaevna**

2nd stage master's student at Oriental University, Faculty of History

### **ABSTRACT**

*This article describes the organization of the Soviet educational policy, ideological, legal and economic foundations in the Soviet Socialist Republic of Uzbekistan in 1925-1940. It was based on the Soviet model of public education, which was formed from the totalitarian idea of those times and a sharp class point of view, the Bolshevik thinking that sought to standardize the spiritual life of society, and the fight against any manifestations of individualism in the field of general education. Also, information is given about the country's cultural and educational life, science and education. Here are shown the history of the conflicting development of Uzbekistan's public education in the colonial and former Socialist era, problems in public education, and the work to solve them.*

**Key words:** *people, education, politics, education, school, science, teacher, congress, Soviet, ideology, initial, culture*

## **KIRISH**

1917—1990-yillarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda kommunistik mafkura ta’lim-tarbiyaning asosi qilib qo’yilishiga qaramay, xalqimizning tafakkuri, ma’naviy darajasi, pedagogik ongi rivojlanib bordi. Sho‘ro siyosatida asosiy e’tibor xalqda o‘z tarixi, milliy madaniyati, milliy qadriyatlaridan, ayniqsa yoshlar qalbini milliy g‘urur, milliy iftixor, o‘z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘usidan mahrum qilishga qaratildi; ta’lim-tarbiyada o‘quvchilarda kommunistik axloqni tarkib toptirish asosiy vazifa qilib qo’yildi.

Sovet davrida O‘zbekistonda ta’lim holati bo‘yicha yozilgan adabiyotlarda mahalliy aholi “savodsiz” hisoblanib, kamsitilgan, yurtimizda ta’limning ming yillardan ziyod vaqt mobaynida mukammal shakllangani va o‘zining betakror an’analariga ega bo‘lgan tizimi e’tibordan chetda qolgan. Sovet mualliflarining asarlarida hukumatning salbiy siyosatlarini berkitish maqsadida o‘ziga xos bo‘lgan ta’limdagi voqeliklarni buzib ko‘rsatish hollari kuzatiladi. Vatanimiz tarixining barcha bosqichlarini ilmiy asosda xolisona o‘rganish va unga obyektiv baho berish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu boradagi ishlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratini, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu- ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”, degan ko‘rsatmasi asos vazifasini bajarmoqda. O‘tmish tarixiga nazar tashlash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston xalq maorifi tadqiq etilayotgan davrga qadar taraqqiyotning uzoq yo‘lini bosib o‘tgan. Uning ildizlari qadim o‘tmishga borib taqaladi. Xalqimiz azaldan yuksak ma’naviyati, ma’rifati va ilmga chanqoqligi bilan ajralib turgan. To‘plangan ma’lumotlar shundan dalolat berdiki, Turkiston milliy aholisining asosiy qismisovet hokimiyati boshlagan ishlarni qo‘llamadi, sababi bu ishlar avval boshidan milliy o‘zlikni bo‘g‘ish, buyruqbozlik hokimiyatini o‘rnatish, ilgari chor Rossiyasi va “milliy o‘lkalar” o‘rtasidagi munosabatlar notengligini davom ettirish, yoppasiga ruslashtirish kabi harakatlarga yo‘naltirilgan edi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatni industrlashtirishni yakunlagan hamda sanoatni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligini sotsialistik rekonstruksiya qilish sohasida yangi vazifalarni ilgari surgan VKP(b) XVI syezdi (1930-yil iyun-iyul) madaniy revolyutsiya, mehnatkashlarning umumiy madaniy darajasini oshirish bundan buyon sotsiolizmni muvaffaqiyatli qurishning eng asosiy sharti ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Syezdi shu asosda mamlakatda majburiy boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish va savodsizlikni bitirishni tugallash haqida qaror qabul qildi. Partiya XVI syezdining qaroriga, SSSR



Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqidagi 1930-yil 14-avgust qaroriga, shuningdek, O'zbekiston Kompartiyasi V syezdining qaroriga muvofiq O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti 1930-yil 15-sentyabrda "Respublikada bolalar va o'smirlar umumiy majburiy boshlang'ich ta'limini joriy etish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1931-yil 1-dekabrda "O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim sistemasi to'g'risida" qabul qilgan qarorida xalq maorifi xodimlariga ta'lim sistemasini tartibga solish, boshlang'ich maktab bilan o'rta maktab o'rtasida ko'rina boshlagan tafovutni tugatish taklif etildi. Bu qarorning chiqarishning sababi shuki, qishloq boshlang'ich maktablarda bolalarni o'qitish ko'pincha ikki-uch yil bilan cheklanib qolar edi, bu esa bolalarni yetti yillik maktablarda o'qishni davom ettirish imkoniyatidan mahrum qilardi.

Sovet sotsiologik tuzum o'rnatilishi bilan yosh avlodni fan asoslari politexnika bilimlari bilan qurollantirish, o'quvchilarni internatsionalizm ruhida, Sovet davlatiga va kommunistik g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib, buni maktablar, bog'chalar ochish orqali amalga oshirish edi. Sovet mustamlakachilari diniy maktablar va jadid maktablari haqida mahalliy millat bolalari va yoshlarini haqiqiy madaniyatining keng, yorug' yo'ldan chetga tortadigan, ularni diniy xurofotlar bilan zaharlaydigan va quruq qiroatxonlikka o'rgatadi degan noto'g'ri va yolg'on vajlarni keltirib o'zbek xalqining ming yillardan beri shakllanib kelayotgan milliy madaniyatini yo'q qilishga urinardi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berdi. Buning uchun uzoq tarixga ega bo'lgan eski milliy ta'lim-tarbiya tizimini tag-tomiri bilan yo'q qilish talab qilinardi. Sotsializm davri maktablarda o'quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din ta'qiqlandi, tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslarida esa ko'proq rus yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishga ahamiyat berildi. Matematika, fizika, ximiya fanlarini o'qitish amaliyot biln bog'lashga e'tibor qaratildi. Siyosiy iqtisod, revolyutsion harakat va sotsializm tarixini o'rganishga keng yo'l ochildi.

Qishloq joylarda 1923/24 o'quv yilidan boshlab 1 bosqich maktab bazasida o'qish muddati uch yil bo'lgan dehqon yoshlar maktabi paydo bo'la boshlagan. Bu maktablarning asosiy maqsadi-qishloq yoshlarini dehqonlar va yaxshi jamoatchilar tayyorlash edi. Ular qishloqdagi asosiy umumiy ma'lumot maktablari tariqasida 1934-yilgacha ishlab turdi. Shahardagi va va sanoat rayonlaridagi barcha maktablarni korxonalariga, qishloq maktablarini kolxoz va sovxozlarga birlashtirib qo'yildi. Maktabning boshlang'ich sinflari uchun ishxonalari, beshinchi va yettinchi

grupalar uchun esa ishlab chiqarish muhiti bilan bog'liq bo'lgan bo'lgan ustaxona va laboratoriyalarga birlashtirildi. Tabiat faniga oid ko'rgazma qurollar, tajriba va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun yasama asboblari o'quvchilarning kuchlari bilan yaratiladi. Tirik tabiat burchagi tashkil qilinadi hamda gullar va g'alla ekinlari ekish yuzasidan tajribalar o'tkaziladi. Biroq maktablarda politexnik ta'limni amalga oshirishda jiddiy kamchiliklar bor edi. Eng yaqin yerdagi ishlab chiqarishni va o'lkani o'rganishni o'quv mashg'ulotlarining asosi qilishga urinish o'quv fanlari mazmunining buzilishiga olib kelardi, maktabni fan asoslarini o'rganishdan ajratib qo'yardi.

Dunyoviy bilimlar umuman orqada edi. O'quvchilar ongini va dunyoqarashini keng va chuqur shakllantirish sovet manfaatiga zid kelardi. Buning ustiga maktablar yomon ahvolda bo'lib, oddiy jihozlari, darsliklari yetishmas, o'qitishning aniq dasturi va uslubi hali ishlab chiqilmagan edi. 1928/29 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston maktablari RSFSR Xalq maorifi komissarligi tuzgan programma asosida ishlay boshladi. Ko'pincha joylarda o'ziga xos mahalliy xususiyatlar hisobga olingan holda programmalarga tuzatishlar kiritilardi, lekin qator hollarda bunday tuzatishlar sababli, ular maktab o'quv planida ko'zda tutilgan asosiy fanlar predmetlari hajmining qisqartirilib yuborilishiga sabab bo'lardi. 1931-yilda boshlang'ich ta'limning butun sistemasi unifikatsiya (yagona tizimga, shaklga, bir xillikka keltirish) qilindi.

O'zbekiston tashkil etilganidan keyin ham hukmron siyosiy partiya rahbariyati va hokimiyat organlari shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilishga yetarli e'tibor bermagan holda, ta'lim sohasi uchun zaruriy mablag'larni keragidan ancha kam ajratgan. Masalan 1927-yilda mazkur soha ehtiyojlariga O'zbekiston davlat byudjetining 9.3 % ajratilgan bo'lsa, ayni vaqtda RSFSRda bu ko'rsatkich 14.4 % ni, Ukrainada 12.8 % ni, Turkmanistonda esa 11.1 % ni tashkil qilgan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda chop etilgan O'zbekiston SSR tarixi haqidagi ko'pgina mualliflarning monografiyalari, maqolalari va ilmiy izlanishlaridan, jadid matbuotlarida nashr etilgan sovet maktablari haqidagi maqolalardan shuni anglash mumkinki, o'sha davrlarda darsliklari bilan ta'minlanish ishi juda yomon ahvolda ekanligi, yangi darsliklari sho'rolar mafkurasiga moslanganligi, yoshlarni sotsiolistik ruhda tarbiyalash, ularni bilimlari emas, balki ko'proq mehnatkash ishchi kuchi qilib tayyorlash maqsadidalgisi yaqqol ko'za tashlangan. 1-bosqich boshlang'ich maktablari uchun yaratilgan darsliklari metodik jihatdan juda ko'p nuqsonlarga ega edi. 2-bosqich maktablari uchun esa darsliklari umuman yo'q edi. "Ayrim darsliklarda ideologik jihatdan zararli materiallari kiritilgan, unda panislomizm hamda panturkizm

g'oyalari targ'ib qilingan, revolyutsiyadan oldingi ijtimoiy munosabatlar buzib ko'rsatilgan, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishini qoralovchi uydirma gaplar qo'shilgan deb darsliklarni qayta ko'rib chiqish va yangi darsliklar yaratish va uni nashr ettirish xalq maorifining eng dolzarb vazifasi qilib qo'yildi". Maktab darsliklarini puxta qarab chiqish va vaqtinchalik bir chora sifatida rus tilida tabiiy fanlar bo'yicha avval tuzilgan eng yaxshi darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish zarurati tug'ildi. Maktablar uchun darsliklar tayyorlash hamda chop etish ishiga rahbarlik qilish maqsadida maxsus o'quv-nashryot komissiyalari tuzildi, ular faoliyati Xalq maorifi komissarligi tomonidan muvofiqlashtirib turildi. Hukumat maktablar tarmog'ini tiklash hamda kengaytirish uchun mablag'lar izlab topar edi. Maktab ahvolini yaxshilash, o'quvchilarning ovqatlanishini uyushtirishga qaratilgan tadbirlarda yer uchastkalarini ajratish, boylarning uy-hovlilarini rekvizitsiya (mol-mulkning qiymatini to'lash sharti bilan, majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olish, aslida mol-mulk qiymatlari to'lanmagan holatlari ko'p uchragan) qilish, sanoat korxonalarining maktablarga otaliq yordamini tashkil etish va hokazolar edi. Maorif xalq komissarligi uchun kadrlar masalasi maktab qurilishidagi bosh muammo edi. Yangi tuzum pedagoglarini tayyorlash, ayniqsa, birinchi navbatda mahalliy maktablar o'qituvchilarini tayyorlash uchun har tomonlama chora-tadbirlar belgilandi. Binobarin, o'qituvchilar tayyorlash butunlay yangicha negizda-qisqa muddatli kurslar orqali yo'lga qo'yildi. Qisqa muddatli kurslar tizimi, eng avvalo bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy ongini shakllantirishga va faqat yangi rejimning mafkuraviy yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirishga qaratilgan edi. Kurslarning dasturlari, xususan, sotsializm va inqilobiy harakat tarixini, siyosiy iqtisod hamda milliyashtirish va ijtimoiylashtirish g'oyalari, bolshevistik partiyaning dasturlari hamda taktikasini o'rgatishni o'z ichiga olgan edi.

O'zbekiston barpo eilgan birinchi yilidayoq xotin-qizlar uchun 21 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochilgan. Bunda 1200 nafar o'zbek ayoli o'qitilgan. U yerni tamomlagan xotin-qizlar turli umumiy ta'lim kurslariga, jumladan xotin-qiz o'qituvchilar kurslariga kirdilar. Bu vaqtda respublikada o'zbek muallimalarining birinchi otryadlari paydo bo'ldi. Ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli, aholining "mehnatkash" tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olish kerak, degan g'oya ilgari surildi. Chunki avvaldan yaxshi ma'lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo'lsa, savolar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun ham madaniyat hodimlari tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo'lgan "mehnatkashlar" hisobiga soddalashtirish, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bu "madaniy inqilob"ning asosiy tezislaridan biri bo'lib, "shaklan milliy, mazmunan

proletar madaniyat”ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g‘oya sovet davlatining barcha o‘n yilliklari davomida yashab keldi. 1930-yillarda uni amalga oshirish borasida qo‘yilgan dastlabki qadam madaniyatning barcha sohalarini uchun kadrlar tayyorlash, yuqorida aytganimizdek, “mehnatkashlar”, ya’ni, “proletar qatlamdan” boshlanganligi ham bejiz emas edi. Buning natijasida respublikada o‘qituvchilar soni 1928/29 o‘quv yilidagi 5,5 ming kishidan 1932/33 o‘quv yilida 19 ming kishiga, 1941-yilda esa 42 ming kishiga yetgan. Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, 1933-yillar boshlarida xalq ta’limi tizimlarida o‘tkazilgan “tozalash” oqibatida ijtimoiy kelib chiqishi nuqtayi nazaridan “ishonchsiz” bo‘lgan minglab bilimdon va tajribali muallimlar haydalib, ular o‘rniga qisqa muddatli kurslarni bitirgan, saviyasi past, lekin ijtimoiy jihatdan “ishonchli” qatlamlardan qo‘shimcha muallimlar tayyorlanib, ular maktablar va madaniyatning boshqa sohalarida ishlash uchun yuborildilar.

Birinchi navbatda qishloq maktablari uchun o‘qituvchi kadrlar muammosi o‘sha vaqtdayoq eng muhim va zarur bo‘lgan, o‘quvchilarni sinfdan-sinfga ko‘chirish koeffitsientiga, ularni maktabda o‘qitish muddatlariga, eng muhimi shuki, o‘qish-o‘qitish sifatiga sifatiga keskin sur‘atda ta’sir etadigan muammolardan biri shaklida asta-sekin namoyon bo‘la boshlagan edi. Barcha ma’lumotlarga ko‘ra, bu qishloqlarda yuqori sinflar o‘qituvchilarining yetishmasligi bilan, shuningdek, ma’lum darajada O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ishlarida (paxtachilik, ipakchilik va boshqalarda) o‘smirlar mehnatidan ko‘p foydalanilishi bilan muayyan darajada bog‘langan edi.

1930-yil 25-iyuldagi qarorda “1930/31 o‘quv yilidan boshlab mamlakatning hamma joyida.... umumiy majburiy boshlang‘ich ta’lim joriy qilinsin” deb ko‘rsatilganidan keyin SSSR Markaziy Ijroya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining 1930-yil 14-avgustda chiqargan qarori bilan qonunlashtirildi. Bu qonun sovet davlat organlariga 1930/31 o‘quv yilidan boshlab mahalliy va davlat byudjetidan maktab ehtiyojlari uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmini ancha oshirishni talab etardi. Sovet hokimiyatining dastlabki 10 yil mobaynida respublikada o‘qituvchilar soni to‘qqiz baravar ko‘paydi. Yetti yillik maktablarning tez o‘sishi o‘qituvchilarni taxminan uch baravarga ko‘paytirishni (283 kishidan 1076 nafarga yetkazishni) talab qilardi. Bu vaqtga kelib qishloq maktablaridagi o‘qituvchilar soni 231,5% ga, yetti yillik maktablarda esa 284,2 % ga o‘sib yetgan edi. Asosan o‘qituvchi qadrlar o‘rta ma’lumotni tugatmagan kishilardan iborat bo‘lganligi uchun ulardan yetarli darajada yuqori malakali kadrlar tayyorlashning imkoni yo‘q edi. O‘qituvchilar soni yildan yilga ko‘paygan bo‘lsada viloyat maktablari o‘qituvchi mutaxassislar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan edi. 1930-yillarda maktablarda ko‘p hollarda maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan, ma’lumoti past, malakasiz kishilar

muallimlik qilardi. 1934-yilga kelib, boshlang'ich maktablarda bu ko'rsatkich 77,3%ga o'sgan, oliy ma'lumotli o'qituvchilar 0,7% ni, o'rta ma'lumotli o'qituvchilar 19,1% ni tashkil qilganlar. O'rta maktablardagi ahvol biroz durust bo'lib, o'qituvchilarning 18% past ma'lumotli, 67% oliy ma'lumotli, 12,8 % o'rta ma'lumotli bo'lgan.

M.Galin, I.Zand, M.Mixaylov va boshqa ko'pgina mualliflarning maqolalari maktab ta'limining yuksak yutuqlarini maqtash bilan to'lib-toshgan bir sharoitda O'zbekistonda o'quv ta'lim sohasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda ekanligini ta'kidlagan va ana shunday raqamlarni keltirgan bir muallif o'z maqolasiga I.P. deb imzo chekkan. Bunday qoniqarsiz ahvolning sababi esa muallifning fikricha, o'qituvchilarning asosiy qismi boshlang'ich maktabning 1-2 sinflarini yoki savodsizlikni tugatish kurslarinigina tugatganligida edi. 1931-yil dekabrda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti "O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim sistemasi to'g'risida" qaror qabul qildi. Unda maktab yoshidagi (8-11 yoshgacha) barcha bolalarni qamrab olish maqsadida majburiy to'rt yillik ta'lim kursi bo'lgan I bosqich boshlang'ich maktabini zarurligi ko'rsatilgan edi. To'rt yillik boshlang'ich politexnika ta'limiga o'tish yo'lidagi bosqich bo'lishi kerak edi. Shu munosabat bilan maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasi jiddiy bo'lib qolgandi. Sobiq maorif institutlari hamda pedtexnikumlarni bitirib, boshlang'ich sinflarning muallimlari bo'lib ishlab kelgan kishilarning ko'plari endi ayrim fan predmetlari bo'yicha dars bera boshladilar. Bu-majburiy ravishda ko'rilgan tadbir, uning ta'lim saviyasi hamda sifatiga muayyan darajada ta'sir etdi.

Said Shermuhammedovning "Ulug' oktyabr ziyosi" (Savodsizlikni tugatishdan umumiy o'rta ta'limgacha) risolasida umumiy boshlang'ich ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avj olgan umumxalq kurashi natijasida maktablar tarmoqlari va ulardagi o'quvchilar soni o'sdi; o'qituvchi kadrlar tayyorlash intensiv ravishda olib borildi. O'qituvchilarning malakasini oshirish va ularga metodik yordam ko'rsatish maqsadida 1930-yilda O'zSSR Xalq maorifi Komissarligi qoshida o'qituvchilar malakasini oshirish Respublika instituti hamda madaniy qurilish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil (Hozirgi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti) tashkil etilganligi yoritib berilgan. Mustaqillik yillaridan keyin olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, buni Q.Ergashevning O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanishi asarida kuzatish mumkin. Unda quyidagilar keltiriladi: O'zbekiston kompartiyasining VI syezdi (1934-yil, yanvar) buyruqbozlik uslubida oliy maktabda pedagog kadrlar tayyorlash ishlari qoniqarsiz ahvolda ekanligi ta'kidlab, ikkinchi besh yillik davrda pedagogika institutlarida o'qituvchilar tayyorlashni keskin ko'paytirish haqida ko'rsatma berdi. Shu asosda pedagogika o'quv yurtlariga



talabalar qabul qilish ko‘paytirildi, bundan tashqari 1935-yilda Toshkentda Nizomiy nomida davlat pedagogika instituti tashkil etildi. O‘qituvchi kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish ishlari ancha jonlantirildi. Bu ishlar 1937-yilda 1 universitet, 18 ta pedagogika va o‘qituvchilar instituti, 43 ta texnikum, 25 ta bir va ikki yillik kurslar tomonidan bajarilmoqda edi. 1936-yilda O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti “O‘qituvchilar malakasini oshirish sistemasi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Unda birinchi bosqich maktablarining to‘liq yetti sinf ma‘lumoti bo‘lmagan o‘qituvchilarga 1937-yilgacha yetti yillik maktabni, 1940-yilning noyabrigacha esa pedtexnikum kursini o‘qib tugatish taklif qilindi. Birinchi bosqich maktablarning yetti sinf ma‘lumoti o‘qituvchilarga, 1938-yilning noyabrigacha pedtexnikumlar kursini, to‘liq oliy ma‘lumiotga ega bo‘lmagan o‘qituvchilarga esa 1937-yilning iyuliga qadar pedinstitutni tugatish shart qilib qo‘yildi.

### **XULOSA**

Sho‘ro hukumati mamlakatda madaniy inqilobni amalga oshirish rejasini ishlab chiqar ekan, xalq maorifini hal qiluvchi soha, deb bildi. Sotsiologik madaniyatni rivojlantirish va keng mehnatkashlar ommasini madaniyat bilan “oshno” qilish uchun, avvalo, xalq maorifi mustahkam zamin, eng muhimi omil bo‘lishi darkor edi. Milliy xususiyati yot kommunisti kta‘limot aqidalariga suyangan sovet siyosiy rahbariyat xalq maorifini rivojlantirish va pedagoglar tayyorlash ishini avval boshidan o‘zbek xalqi milly ongi va obyektiv ehtiyojlariga zid yo‘nalishga solib yubordi. Xalq ta‘limi sotsialistik shaklini mustahkamlash siyosati shunga mos o‘qituvchilar tayyorlash muammosini dolzarb qilib qo‘ydi. “Harbiy kommunizm” sharoitida u asosan qisqa kurslarni keng joriy etish hisobiga hal qilindi. Mutaxassislar tayyorlash darajasida jiddiy nuqsonlar bo‘lgani holda, bu kurslar sovet o‘qituvchilarining jadal sur‘atlarda miqdor jihatdan o‘shishini ta‘minladi. Sovet voqeligida “savodsizlikni tugatish” ishlari to‘laligicha hokim tizimning siyosiy maqsadlariga xizmat qildi. Bu tadbirda ma‘muriy majburlash usullari keng qo‘llanildi. To‘g‘ri? Umumta‘lim maktabining rivojlanishida muayyan siljishlar bo‘ldi, lekin unga to‘liq o‘tish bir necha yilni talab etdi. Xalq ta‘limini mablag‘ bilan ta‘minlanishida “qoldiq tamoyili” ning ta‘siri yaqqol sezildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //uza.uz sayti, 30.09.2020 y

2. KPSS syezdlar, konferensiyalar va Markaziy Komitet plenumlarining rezolyutsiya va qarorlarida. III qism, Toshkent, O‘zdamnashr, 1954, 22-bet. E.Qodirov O‘zbekistonda umumta’lim maktablarining rivojlanish tarixi.
3. O‘zbekiston kommunistik partiyasi syezdlarining rezolyutsiya va qarorlari, O‘zdamnashr, T.,1958,303 b
4. Q.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov., Pedagogika tarixi.,Toshkent: O‘qituvchi., 1996.,-B. 488
5. Konstantinov, N.A., Pedagogika tarixi., Toshkent.: O‘qituvchi, 1976.,-B.520
6. N.Rahmonov. A.Umaraliyev Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari., Toshkent., “O‘qituvchi”.,1984.,-B.204.
7. Ikromov A. Izbranniye trudi V 3-x tomax.- T.,1987. T.1.-B292
8. O‘zbekistonning yangi tarixi 2-kitob.T.2000-y. Sharq nashryoti. 386 b) .
9. O‘zbekiston tarixi 1917-1991-yillar.1-kitob. 1917-1939-yillar, O‘zbekiston nashryoti, T.2019, 341 bet)
10. E.Q.Qodirov O‘zbekiston umumta’lim maktablarining rivojlanish tarixi (1917-1975). O‘qituvchi., Toshkent.,1979.,-B.348
11. Z.Raximbabayeva. Jenščina Uzbekistana na puti k kommunizmu. Tashkent, Gosizdat UzSSR, 1949, 31-bet
12. Ochilov M. O‘zbekiston komsomolining umumiy – majburiy ta’lim uchun kurashi (1930–1941yy) – T., “O‘zdamnashr”, 1958;
13. Galuzo P.Ocherednye zadachi shkolnogo stroitelstvav respublikax Sredney Azii// “Sotsialisticheskiye stroitelstva v Sredney Azii”. 1934.,№2-6,S.26. (Narodnoye obrazovaniya na podyeme. N .Allaberganova T.1979g. “Uzbekistan” rashryoti 40-b)
14. A.P. O shkolnom stroitelstve v respublikax Sredney Azii//Prosveteniye natsionalnostey. 1937.№5.S.45
15. T.d.f.,prof. D.A.Alimova O‘zbekistonda ta’limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar. Toshkent-2017. Adabiyot uchqunlari// 20-30 yillar tarixshunosligida ta’lim va madaniyat:bolshevistik g‘oya va real holat.
16. Q.Ergashev. O‘zbekistonda xalq ta’limining rivojlanish tarixi. T: O‘qituvchi.1998-y.

## **ALIXONTO'RA SOG'UNIYNING ILMIIY MEROSI**

**Pardayeva Sarvinoz Ro'ziqul qizi**

Termiz davlat universiteti 2-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada ikki Turkiston farzandi, muqaddas islom dinining yetuk olimi, tarjimon, shoir, Marshal Ota, Sharqiy Turkiston Jumhuriyatining Birinchi Prezidenti va raisi, tibbiyot olimi Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy merosi haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Dorilfunun, "Tarixi Muhammadiy", "Turkiston qayg'usi", "Shifo-ul-ilal", "Devoni Sog'uniy", mutarjim.*

### **ABSTRACT**

*This article provides information about the scientific heritage of two children of Turkestan, an accomplished scholar of the sacred Islamic religion, translator, poet, Marshal Father, First President and Chairman of the Republic of East Turkestan, medical scientist Alixantora Soguni.*

***Key words:** Dorilfunun, "History of Muhammadi", "Turkistan Sadness", "Shifa-ul-ilal", "Devoni Soguni", translator.*

### **KIRISH**

Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li (taxallusi Sog'uniy) 1885-yil qutlug' Navro'z ayyomi kuni, ya'ni 21-mart kuni, Qirg'izistonning To'qmoq shahrida o'zbek oilasida tavallud topgan. Bu insonning otalari Shokirxonto'ra asli andijonlik bo'lib, naqshbandiya tariqatiga mansub olim bo'lgan. Shokirxonto'ra xalq orasida Shokirxo'ja eshon nomi bilan mashhur edi. Bu inson islom dinining muqaddas shaharlari Makka va Madinaga haj safarlarida ham bo'lganlar. U o'g'illari Olimxonto'ra va Alixonto'rani o'n to'rt yoshida Hajga olib borib ziyorat qildirib va o'qish uchun Makkayu Madinaga qoldirib keldi. O'sha paytda Turkistonda ham diniy ta'lim olish uchun madrasalar yetarli edi. Madinai munavvaradagi dorulfununlardan birida tahsil olgan Alixonto'ra qiroat, tafsir, hadis, fiqh, nahv, balog'at, mantiq, tabobat, tarix, siyrat, jug'rofiya, nazmu nasr va boshqa fanlar bo'yicha ham yetuk mutaxassis bo'lib yetishgan. Alixonto'raning otalari nafaqat diniy bilim olish, shu bilan birga til o'rganish uchun ham o'sha yerda qoldirib kelgan. Ular u yerda 5 yil tahsil olganlar.

Alixonto'ra Sog'uniy juda ham o'tkir so'zli, chuqur islomiy va tarixiy ilmlar, uyg'ur, arab, fors, turk tillarining bilimdoni bo'lgan.

“Tarixi Muhammadiy” asari Alixonto’ra ilmiy-adabiy faoliyatining ko’p yillik mashaqqatli mehnati mahsuli hisoblanadi. Mazkur asarning yozilishi kelajak avlod ichki dunyosi qashshoqlanishining oldini olish, azaliy qadriyatlar qimmatini payg’ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam tarixlari bilan tanishtirish orqali saqlab qolish yo’lida qilingan buyuk jihoddir. Bu asar Toshkentda uy qamog’ida o’tirgan paytlarida yozilgan va vasiyatlariga ko’ra O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1991 yilda farzandlari nashrdan chiqargan. Unda payg’ambarimiz hayoti batafsil bayon etilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Bilmak kerakkim, har bir musulmon bolasi, xohi er kishi, xohi xotun kishi, xohi yosh, xohi qari, mana shu tubandagi to’rt narsaning tarixini bilishi albatta lozimdur.

I. Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom tarixlari.

II. Qur’oni karim tarixi.

III. Dini Islom tarixi.

IV. Ka’batulloh tarixi.

Shuning uchun, men faqir – Alixonto’ra Shokirxonto’ra o’g’li Sog’uniydurmankim, bizlardin keyingi avlod nasllarimizga va ham boshqa turkiy tillik vatandosh, din qarindoshlarimizga mendan yodgor bo’lsin deb yuqoridagi to’rt narsa tarixini har qandoq kishi tushungudek qilib, ochiq turkiy tilida yozdim. Bu kitobga “Tarixi Muhammadiy”, deb ot qo’ydim. Buni o’qiguvchilar faqirni duolarida yod qilib qo’yishlarini umid qilurman”<sup>100</sup>.

Sermazmun hayotining oxirgi 30 yili davomida Alixonto’ra yozib qoldirgan ulkan ilmiy meros ichida “Turkiston qayg’usi”<sup>101</sup> tarixiy asari alohida o’rin egallaydi. Bu asarda u kishining yigitlik va kamolotga yetgan davri xotiralari asosida o’z e’tiqodi, dunyoqarashi, qaysi g’oyalar uchun jonfido bo’lib kurashganlari, nimalarga Vatan ahlini da’vat qilganliklari, suyuqli Vatanimiz tarixi saboqlari, kelajak bo’g’inlar ulardan qanday xulosalar chiqarmoqlari kerakligi, Vatanimiz mustaqilligi muqarrar ravishda qo’lga kelishi bashorati, uni mustahkamlash uchun nimalar qilmoq zarur ekanligi to’g’risida chuqur o’y-fikrlar o’z ifodasini topgan va bayon etilgan.

“Turkiston qayg’usi” asari 1966-1973 yillarda Toshkentda yoziladi. Bu davrda sovet mustabid tuzumi kuch-qudratga to’lgan, o’z siyosatini zo’ravonlik bilan nafaqat mamlakat ichkarisida, balki uning uzoq tashqarisida ham o’tkazib turgan payt edi. Shu sababli ko’pchilik ziyolilarimiz hukmron maslakka qattiq ishonib, kechayu kunduz uning xizmatida bo’ldilar. Qanchadan qancha yuksak qobiliyat egalari,

<sup>100</sup>Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. 1-китоб. - Т.: Шарқ, 2003. - Б.3.

<sup>101</sup> Алихонтўра Соғуний. Туркiston қайғуси. - Т., 2003.

iste'dodli shoir va yozuvchilarimiz bu soxta mafkura kuychilari, tashviqot va targ'ibotchilari edi<sup>102</sup>.

Alixonto'ra Sog'uniiy umri davomida Vatanini ozod va jahondagi ilg'or davlatlar safida ko'rish orzusi bilan yashadi. Ko'p yillar ta'qibda, qamoqda, quvg'inlikda yurgan bo'lsada, mustabid tuzumning qiynoqlariga bardosh berib, qat'iyatli maqsadidan qaytmadi. Faoliyatini, ijodini, kuch-g'ayratini xalqni uyg'otish, ma'rifatli qilish, shu orqali istibdod zanjiridan xalos bo'lishga bag'ishladi.

“Turkiston qayg'usi” kitobida siyosiy-ma'rifiy qarashlarini ifodalab, eng og'ir qiynoq – mustamlakachilikdan xalos bo'lish yo'llarini o'rtaga tashlaydi. O'zbek xalqining betakror madaniyati, mustahkam dini, tili, turmush tarzi, xonliklar davridagi qoloqlik va uning sabablari, Turkistonning Rossiya manfaatlariga tortilishi, Turkiston muxtoriyati, istiqloqlar harakati, bolsheviklar ofati, kommunistlarning milliy siyosati fojialari muallif nigohidan o'tkaziladi. Ko'pgina tarixiy jarayonlarning tahlilini keltirar ekan, shaxs ma'naviyatining mamlakat taqdiridagi hal qiluvchi kuchini ko'rsatishga harakat qiladi<sup>103</sup>.

Alixonto'ra Sog'uniiy O'rta Osiyoni alohida geosiyosiy yaxlitlikda tasavvur qiladi. Ammo Turkiston zaminining Chor Rossiyasi tomonidan ishg'ol qilinganini achinish bilan tahlil etib, Vatanimiz hududida somoniylar, qoraxoniylar, temuriylar singari qudratli davlatlarni barpo etgan sulolalar va siyosiy yetakchilar faoliyatiga ham to'xtalib o'tadi. Bu bilan mamlakatimiz hududi buyuk sulolalarni boshidan o'tkazgani, tarixiy buyuklikka daxldor ekanligini va shunga mos voris bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Milliy-hududiy chegaralanish natijasida hosil bo'lgan yasama “iston”lar ruslarning mustamlakachiligi asorati – mamlakatni parchalash va kuchsizlantirish, yaxlit hududda ro'y bergan tarixiy jarayondan uzib qo'yish deb tushunadi.

Davlatning xorlikka tushib qolmasligi uchun mudofaa qudratini oshirish lozimligini ta'kidlab, bu mudofaa davlatning qurol-yarog'i, ya'ni harbiy salohiyati hamda xalqning ma'naviy salohiyatidan iborat ekanligini uqtirib o'tadi. Bunday mudofaga hozirlik ko'rilmasa, inson huquqlari va manfaatlari oyoq osti qilinadi va millatning kelajagi shubha ostida qoladi. Chunki: “Ongi ochilmagan, bilimsiz bir millat o'z dushmanlari oldida kushxonaga haydalayotgan bir to'p hayvondan hyech qanday ayirmasi yo'qdir. Insonning o'ziga eng yaqin halokatlik dushmani ongsizlik va ilmsizlikdir”<sup>104</sup>. Shu bois millat har qanday sharoitda davlat yaxlitligini saqlash, yetakchi davlatga aylanishi uchun harbiy va ilmiy mudofaaga hozirlik ko'rishi zarur bo'ladi.

<sup>102</sup> Шокиров У. Алихан тура Соғуни. – Т.: Мухаррир, 2013. – С. 12.

<sup>103</sup> Аҳмедов Т. Алихонтўра Соғуний қарашлари давлат салоҳиятининг омили. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)

<sup>104</sup> Алихонтўра Соғуний. Туркiston қайғуси. - Т., 2003. - Б.51.



Bu jarayon Alixonto'ra Sog'uniyni qattiq iztirobga soladi: "Bolsheviklar hokimiyati qurilgan kundan boshlab, diniy marosimlarimizni asosi bilan yo'qotishga kirishganlikdan hozirgi bolalarimizning diniy hissiyotlari yo'q hisobida qolmishdur. Buning ustiga yana o'z ona tillaridan ham ajrar ekanlar, u chog'da diniy va milliy hissiyotlar butunlay yo'qolib, ko'p uzoqlamayoch ruslarga yutilib ketishlari shubhasizdir"<sup>105</sup>.

Bu haqda Alixonto'ra Sog'uniy: "Dinsizlik tufayli o'g'irlik, odob-axloqsizlik, bir-biriga hurmatsizlik, vijdotsizlik ko'paydi. Hozirgi madaniyat davrida diyonat bilan taraqqiyot birga yasholmaydi, degan xato fikr oqillar oldida emas, jahon bo'yicha johillar orasida tarqalmishdur. Haqiqatda esa, din poklikdur. Poklikka qurilgan axloqdur. Dinimizning asli aqldur, quroli ilmdur", - deb yozadi<sup>106</sup>. Demak, dinni asl mohiyati bilan tushunish axloqimizga, odatlarimizga ta'sir etib, shaxsni yomon illatlardan saqlaydi.

Alixonto'raning so'nggi o'ttiz yillik umri Toshkentda o'tdi. Siyosiy ishlardan majburiy ravishda chetlashtirilgan bo'lsa-da, ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faoliyatni sobit qadamlik bilan davom ettirdi.

Alixonto'ra tub ma'nosi bilan aytganda, olim edi. Alixonto'ra faqatgina ajoyib she'ru dostonlar yozibgina qolmay, balki ko'p millionli Sharqiy Turkistonni mazlumlikdan ozod qilish harakatiga sardor ham edi. Bu harakat mag'lubiyat bilan yakunlangach, qonxo'rlar iskanjasiga tushib, Stalinning o'limigacha uy qamog'ida bo'ldi, lekin o'z e'tiqodiga sodiq qoldi. Marksizmni o'ziga tumor qilib olib aldangan ko'plab ziyolilar kabi og'ishmadi.

KGBning doimiy nazoratida bo'lsada, 1960 yilda Buyuk Temur haqida she'r yozib, uni avlodlarga qoldirib ketgan<sup>107</sup>. "Temur tuzuklari tarjimonidan" deb shartli sarlavha qo'yilgan she'r: "*Temurdek jahonda kishi o'tmadi, Aningdek o'g'ilni ona tug'madi*" satrlari bilan boshlanadi. Alixonto'ra jasoratli fikr egasi – birinchi bo'lib Amir Temur haqidagi haqiqatni qo'rqmay ochiq aytgan. Uning qonxo'r emas, insonparvar, odil bo'lganini va johil emas, aksincha, oqil va fozil jahongir bo'lganini dalillar bilan isbotladi.

Alixonto'ra Sog'uniy 1962 yildayoq ulug' sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"ni eski forsiydan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Dastlab "Guliston" oynomasi sahifasida bu kitobning ko'p qismi 1967 yili u kishining jur'atli kirish so'zi bilan bosilib chiqadi.<sup>108</sup>

<sup>105</sup> Ўша манба. - Б.71.

<sup>106</sup> Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. - Т., 2003. - Б. 97.

<sup>107</sup> [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)

<sup>108</sup> Темур тузуклари. //Гулистон журналы, 1967.

“Har bir davlat rahbari, podshosi agar “Temur tuzuklari”dan mukammal xabardor bo’lsa va unga amal qilsa, u eng odil, eng qudratli va yengilmas davlat podshosi bo’lishi muqarrar”, degandi Sog’uniy.

2. Rappaport, T. S. (2017). *Wireless Communications: Principles and Practice (2nd Edition)*. Prentice Hall.
3. Dahlman, E., Parkvall, S., & Skold, J. (2018). *5G NR: The Next Generation Wireless Access Technology*. Academic Press.
4. Zhang, H., Zhang, K., & Song, H. (Eds.). (2020). *5G Core Networks: Powering Digitalization*. Springer.
5. Al-Fuqaha, A., Guizani, M., Mohammadi, M., Aledhari, M., & Ayyash, M. (2015). Internet of Things: A Survey on Enabling Technologies, Protocols, and Applications. *IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 17(4), 2347-2376.
6. Samandarov I.R., Sulaymanova D.B., Manshurov Sh.T., Dushatov N.T., Miratoyev Z.M. *BioGecko A Journal for New Zealand Herpetology* Vol 12 Issue 03, 2230-5807.
7. Manshurov Sh.T. ПРОГРАММИРОВАНИЕ НА C++ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ВАХ И ПРИМЕСНОГО СОСТАВА ПРИ ПЯТИКРАТНОЙ ПЕРЕПЛАВКЕ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КРЕМНИЯ НА СОЛНЕЧНОЙ ПЕЧИ. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, (2), Feb., 2023, 517-529.

8. Manshurov Sh.T., Utabov U., Abdug'aniyeva Yu.Sh. ОТРАБОТКА ДАННЫЙ ТЕМПЕРАТУРЫ НА C++ И СОХРАНИТ В ФАЙЛЕ. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), Feb., 2023, 730-740.
9. Маншуров, Ш. Т. (2022). СПЕКТРАЛЬНОЙ ВОЛЬТОВОЙ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬЮ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКОГО КРЕМНИЯ, ПОЛУЧЕННОГО ПЯТИКРАТНОЙ ПЕРЕПЛАВКОЙ ПОЛУКРИСТАЛЛИЧЕСКОГО КРЕМНИЯ НА СОЛНЕЧНОЙ ПЕЧИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1079-1082.

## **JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI.**

**Sagdullaeva Nilufar Boxodirovna**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi  
Fiskal Instituti 2-bosqich magistri.

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada joriy aktivlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ilmiy asoslangan ta’riflarining tahlili berilgan. Shuningdek, joriy aktivlarni qo‘llanilish sohalari ham keltirilgan. Joriy aktivlarni bug‘alteriya sohasida qo‘llanishining muhim jihatlari ham ilmiy-tahliliy mulohazalar asosida yoritilib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** joriy aktivlar, iqtisodiy kategoriya, iqtisodchi olimlar, ilmiy asoslangan ta’riflar, tahlil, bug‘alteriya, ilmiy-tahliliy mulohazalar.*

### **ABSTRACT**

*This article provides an analysis of scientifically based definitions of current assets as an economic category given by economists. Areas of application of current assets are also listed. Important aspects of the use of current assets in the field of accounting are also highlighted on the basis of scientific and analytical considerations.*

***Key words:** current assets, economic category, economists, scientifically based definitions, analysis, accounting, scientific-analytical considerations.*

### **KIRISH**

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish va mulkiy munosabatlarni erkinlashtirish asosida mamlakat iqtisodiyotini barqaror sur‘atlarda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish jarayoni esa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash ustuvor vazifalardan biri sifatida tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. SHu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida hisob korxonalarining mablag'larini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish va rahbarlik qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining barcha jarayonlarini uzluksiz kuzatib borish zarur. Korxonalar xo'jalik faoliyatida yuz beradigan ayrim hodisalarni kuzatish, o'lchash va ro'yxat liliish uning faoliyatini miqdorlarda aks ettirishdan iboratdir. Bu hisobning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Nufuzli Jahon iqtisodiy forumi reytingiga muvofiq, O'zbekiston 2018-2019 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlarini bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgan. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 58,3 mlrd. dollar dan oshdi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 5,4 foizga o'sdi. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, YaIM indikatorini 2018 yilgi narxlarga nisbatan 18,9%ni tashkil etdi. 2019 yil yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaIM 1741 dollar ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 13,6%ga ko'p.[2]

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Joriy aktivlarga eng likvidli mablag'lar kiradi (lotinchadan - suyuq, oquvchan), chunki ular majburiyatlarni to'lash uchun doimo pul mablag'lariga aylanish siklida bo'ladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik subyektlarida aktivlar iqtisodiy naf keltiruvchi resurs sifatida e'tirof etiladi. Aktivlar xo'jalik subyektlarining faoliyatini kengaytiradi va kelgusida rivojlanish uchun zarur bo'lgan foyda olish imkonini yaratadi. Aktivlar iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, tayyorlash, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida bevosita ishtok etadi.

Iqtisodchi olimlar A.Sotivoliyev, D.Sotivoliyeva, D.Shodibekovalarning fikrlariga "Aktiv - ma'lum bir sanaga pul ko'rsatkichiga korxonaning mablag'lari, ularning tarkibi va joylanishi aks ettiruvchi bug'alteyriya balansining qismi" hisoblanadi.

Iqtisodchi olim I.Ismanovning fikriga ko'ra "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishtok etadi resurslar bugungi buxgalteyriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ularni shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlariga bolinadi. Ishlab chiqarishni amalga oshirishda, mahsulot sifatini yaxshilashda, rakobatbardoshligini oshirishda va ishlab chiqarish jarayonining qo'lamini ko'paytirishda xo'jalik subyektlar faoliyatida uzoq muddatli aktivlar mavqeyini yanada oshirishda xizmat qiladi.[2]

Joriy aktivlar to'g'risida xorijlik iqtisodchi olim V.V.Kovalev quyidagicha fikrlarni bayon etgan: "Aylanma kapital - odatda aktivlar deb nomlanib, bir yildan ortiq bo'lmagan davrda xo'jalik subyektlar qo'llamalarida ishtirok etuvchi mablag'lardir. Aylanma mablag'lar xo'jalik subyektlarining harakatlanuvchi aktivlari



sifatida namoyon bo'ladi va bir ishlab chiqarish jarayonida yoki bir yil davomida ishlatiladigan pul mablag'lari tushuniladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi I.N.Ismanov Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari: Aktivlarning uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini tashkil etadi.[4]

R.D.Dusmuratov bug'alteriya balansi ikkita bo'limdan: aktiv va passivdan iborat bo'lib, balans aktivi o'z navbatida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passivi esa o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlardan iborat. Bug'alteriya hisobini tuzishda rioya qilinishi kerak bo'lgan printsiplar keltirilgan bo'lib, umumiy tarzda moliyaviy hisobotni tuzishda amal qilinishi kerak bo'lgan umumiy talablar bayon qilingan.[5]

Y.Abdullaev, A.Ibrohimov va M.Raximovlarning fikrlariga ko'ra, "Joriy aktivlar tarkibiga xo'jalik subyektining moddiy aylanma mablag'lari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hamda qarshi tomonga bo'lgan debitorlik majburiyatlari kiritiladi" deb tariflangan. Ammo, bu yerda ham "qarshi tomonga bo'lgan debitorlik majburiyati" tushunchasi tahrir etish hamda muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismini qo'shish maqsadga muvofiq.

Xorij iqtisodchi olimi B.Nidlzning ilmiy izlanishlari ishlarida balans xususida quyidagi talqinni keltirishadi: "Balans (balance sheet) – firmaning moliyaviy holatini ma'lum sanada, masalan hisobot davrining oxirida aks ettiradi. Balans firmaning tutib turuvchi sifatida rusurslari – aktivlarining qaysiki manbalari – passiv va xususiy kapitalga tengligini ko'rsatadi". Buxgalteriya balansining aktiv qismi ikkinchi bo'limi joriy aktivlarni aks ettirishga bag'ishlangan bo'lib, u "joriy aktivlar" deb ataladi.[5]

Bug'alteriya balansida joriy aktivlar yettita guruhga ajratilgan:

II. Joriy aktivlar:

1. Tovar-moddiy zaxiralari.
2. Kelgusi davr xarajatlari.
3. Kechiktirilgan xarajatlar.
4. Debitorlar.
5. Pul mablag'lari.
6. Qisqa muddatli investitsiyalar.
7. Boshqa joriy aktivlar

### **TADQIQOT METODIKASI.**

Maqolada sintez-analiz, statistik-tahlil, qiyosiy-nazariya, omilli tahlil, induksiya va deduksiya, nisbiy ko'rsatkich, tasniflash va tizimlashtirish kabi metodlardan

foydalanman. Shuningdek, maqolada olib borilgan iqtisodiy tahlillar natijasini turli ko‘rinishdagi jadvallar, grafiklar hamda sxemalar bilan ko‘rsatib berganman. Natijalar asosida zaruriy xulosalar ham maqolada mujassamdir.


### **TAHLIL VA NATIJALAR.**

Bug‘alteriya hisobining obyektlari asosiy va joriy aktiv, majburiyat, xususiy kapital, zaxiralar, daromad va xarajat (chiqim)lar, foydalar, ularning harakatlari bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilayotgan bug‘alteriya balansining “Aktiv” tomoni xo‘jalik aktivlarini xizmat muddatiga ko‘ra quyidagi ikkita bo‘lim bo‘yicha tizimlashga asoslangan:

I-bo‘lim. “Uzoq muddatli aktivlar”. Ushbu bo‘limda bir yildan ko‘p muddatda oborotda bo‘ladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital investitsiyalar, shuningdek uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati uzaytirilgan xarajatlarning qoldiq summalari ko‘rsatiladi.

II-bo‘lim. “Joriy aktivlar”. Ushbu bo‘limda bir yildan kam muddatda oborotda bo‘ladigan ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari, tayyor mahsulotlar va tovarlar, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va boshqa joriy aktivlarning qoldiq summalari ko‘rsatiladi.



**1-rasm Korxonaning balans aktivining tarkibi.[3]**

Joriy aktivlar o‘z ichiga pul mablag‘lari va korxonaning normal ish yoki buxgalteriya balansi sanasidan bir yil davomida (qaysi biri uzunroq bo‘lishiga bog‘liq holda) pul mablag‘lariga aylantirilishi, sotilishi yoki sarflanishi kutiladigan boshqa aktivlarni oladi. Korxonaning normal ish sikli-tovar va xizmatlar uchun pul xarajatlari (yoki to‘lanadigon schyotlarni tuzish) bilan pul mablag‘lariga aylantirilgan tovar va xizmatlar sanasining o‘rtacha vaqt muddatidir. Joriy aktivlarni turkumlash nisbatan yengil, lekin bu yerda ham muammolar kelib chiqishi mumkin, sababi normal ish sikli va pul mablag‘lariga aylantirish uchun korxonada kutiladigon davr kabi iboralar har xil mulohazalar keltirib chiqaradi. Xalqaro amaliyotda ushbu mablag‘lar turlicha: joriy aktivlar, harakatdagi aktivlar, aylanma aktivlar deb yuritiladi.

Joriy aktivlarni ishlab chiqarishda ishtirok etish xarakteri va unga ta‘sir etish darajasiga ko‘ra, shuningdek, hosil bo‘lish manbalari bo‘yicha tarkiblash mumkin.

Joriy aktivlarning tasniflanishi keltirilgan bo'lib, ular quydagicha tarkib bo'yicha ajratiladi.

I. Likvidlik darajasiga ko'ra:

II. Joriy aktivlarning ishlab chiqarishdagi qatnashish o'rni va darajasiga ko'ra.

III. Joriy aktivlarning me'yorlashtirish darajasiga ko'ra:

IV. Joriy aktivlarni shakllanish manbasiga ko'ra:

V. Joriy aktivlarning to'lovga layoqatligini baholashga tavakkalchilik darajasiga ko'ra esa.

Joriy aktivlar bu pul mablag'lari ko'rinishidagi 12 oy yoki oddiy operatsion sikl mobaynida shu ko'rinishga keltirilishi mumkin bo'lgan aktivlardir. Operatsion sikl deganda moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga tayyorlash va tovarlarni sotishdan olinadigan to'lov muddati o'rtasidagi o'rtacha vaqt birligi tushuniladi. Me'yorlanadigan joriy aktivlar bo'yicha zaxiralar me'yori belgilanadi, masalan, tovar moddiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi yoki savdodagi tovarlar zaxirasi, kassadagi pul mablag'lari qiymati, joriy investitsiyalar va boshqa shu turdagi kapital kiritmalarni keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Joriy aktivlarning me'yori deganda bir korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik hamda moliyaviy faoliyatini bir me'yorda amalga oshirish uchun doimiy zarur bo'lgan joriy aktivlarning minimal rejalashtirilgan miqdorini tushunish lozim bo'ladi. Joriy aktivlar me'yori ularning umumiy miqdorining me'yori yoki alohida joriy aktiv me'yori tushunchalariga ajratilishi mumkin.

Rejalashtirilayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari smetasi joriy aktivlarni me'yorlashtirish uchun asos hisoblanadi. Me'yorni aniqlash maqsadida me'yorlashtiriladigan elementlarning kunlik o'rtacha sarfining pul ko'rinishidagi miqdori olinadi. Ishlab chiqarish zahiralari bo'yicha o'rtacha sarf ishlab chiqarish xarajatlari rejasining tegishli moddalari bo'yicha hisoblanadi. Zahira me'yori biror - bir bazaga nisbatan foiz sifatida yoki pul ifodasida belgilanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarning bu turi bo'yicha belgilangan zaxira va xarajat me'yoridan kelib chiqib, har bir joriy aktivlar zaxiralari me'yorini shakllantirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar summasi aniqlanadi. Alohida joriy aktivlar me'yorlarini jamlash orqali umumiy me'yor aniqlanadi. Shunday qilib, joriy aktivlar me'yori bu korxonaning normal xo'jalik faoliyatini eng kam miqdorda ta'minlash uchun rejalashtirilayotgan tovar moddiy zaxiralarning pul ko'rinishida ifodalanishidir.

Joriy aktivlarning tuzilishini aniqlash uchun eng optimal tasnif - bu investitsiya obyektlari bo'yicha tasnif. Aylanma aktivlarning tuzilishi deganda, ularning alohida obyektlari o'rtasida resurslarning taqsimlanish nisbati tushuniladi. Joriy aktivlarning maqbul tuzilishi deganda, har bir moddaning ulushi korxonaga likvidligini saqlashga

hissa qo'shadigan alohida obyektlar o'rtasida resurslarni taqsimlash tushuniladi. Joriy aktivlarning likvidligi moddiy ne'matlarga xos bo'lgan mulkdir.

Likvidlik ostida moddiy boylik uning tez va sezilarli yo'qotishlarsiz pulga aylanish qobiliyati tushuniladi. Joriy aktivlar - bu korxonaning joriy faoliyatiga xizmat qiladigan va bir ishlab chiqarish va tijorat tsikli davomida to'liq iste'mol qilinadigan mulkiy qiymatlar majmui. Joriy aktivlar kontseptsiyasi ularning iqtisodiy mohiyati, ishlab chiqarish jarayonini ham, aylanish jarayonini ham o'z ichiga olgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi olimlarning fikri asosida bug'alteriya balansi ma'lum sanada moliyaviy holatni aks ettiruvchi hamda aktivlarning majburiyatlar va xususiy kapitalga tengligini ko'rsatuvchi jadval ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Joriy aktivlar korxonada faoliyati uchun qisqa muddatli foydalanish xarakteristikasi hamda davrning barcha bosqichlarida bir vaqtning o'zida qatnashishi bilan tavsiflanadi. Doimiy ishlab chiqarish va tijorat sikli uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning qismi tizimli, vaqtincha qismi esa doimiy deb nomlanadi. Shunga ko'ra, joriy aktivlarning shakllanish manbalari doimiy yoki vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun aylanma mablag'larning manbalarimuayyan korxonada tomonidan joriy (ishlab chiqarish va tijorat) faoliyatida pul mablag'laridan doimiy yoki vaqtincha foydalanishni tavsiflash. Manbalarning umumiy miqdori har doim joriy aktivlarga kiritilgan investitsiyalarga mos keladi.

Joriy aktivlarning shakllanish manbalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning asosiy manbasi sifatida o'z aylanma mablag'larining mavjud xisobi hisoblanadi. Ya'ni, xo'jalik subyekting o'z manbalari birinchi navbatda uzoq muddatli aktivlarini qoplovchi manba bo'lishi hamda qolgan kismgina joriy aktivlarni qoplashga tegishli bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tadqiqotda sohaga doir xorijiy va mahalliy adabiyotlarni o'rganish asosida buxgalteriya balansiga ta'rif ishlab chiqildi. Bug'alteriya balansini tavsiflaydigan jihatlar ochib berildi. Bug'alteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida uzoq muddatli aktivlar moddiy va nomoddiy aktivlarga ajratildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Manba: <https://mineconomy.uz/uz/news/view/3022> - O'zbekiston Respublikasining 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy tendensiyalari
2. I.Ismanov "Uzoq mudatli aktivlarning bug'alteriya hisobi va audit metodologiyasini jamlashtirish masalalari". Toshkent.: 2008.

3. Yuldasheva S. Bug'alteriya hisobi asoslari: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasb-hunar kollejlarning "Axborot-kommunikatsiya tizimlari" mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma - T.: Sharq. 2007.- 18b.
4. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari. Бухгалтерский Учет И Аудит. экономика и финансы 2016.
5. Р.Д.Дусмуратов Бухгалтерия ҳисоби назарияси. -Т.: «Фан ва технология», 2013, 476 бет.
6. Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета /Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл: Пер. с англ./Под ред. Я.В. Соколова. –М.: Финансы и статистика, 2003. – 496с.
7. А.А.Каримов, Ж.Э.Курбанбаев, С.А.Жуманазаров Бухгалтерия ҳисоби 1-қисм: Дарслик; – Т.: Иқтисод-Молия”, 2020. б.



## **HARBIY XIZMATCHI VA HARBIY JAMOANI PSIXOLOGIK O‘RGANISHNING TADQIQOT METODI VA METODIKALARI**

**Tilavov Begzod Abdusamatovich**

Chirchiq OTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi, dotsent

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o‘rganishda keng tarqalgan tadqiqot metodlarini qo‘llashning nazariy jihatlari yoritilgan. Harbiy qism va muassasalardagi psixologik faoliyat harbiy xizmat vazifalarini maromida bajarish maqsadida harbiy xizmatchilar va bo‘linmalar faoliyatida vujudga keladigan turli ruhiy – emotsional muammolar diagnostikasini hamda profilaktikasini bajarish zarurati turli omillar bilan asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** shaxs, guruh, harbiy psixologiya, harbiy jamoa, harbiy psixolog, metodlar.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются теоретические аспекты применения исследовательских методик, распространенных в психологическом изучении военнослужащих и военного коллектива. Необходимость проведения диагностики и профилактики различных психических и эмоциональных проблем, возникающих в деятельности военнослужащих и подразделений, с целью проведения психологических мероприятий в воинской части и учреждениях в ритме выполнения задач военной службы обоснована различными факторами.*

**Ключевые слова:** личность, группа, военная психология, военный коллектив, военный психолог, методы.

### **ABSTRACT**

*The article discusses the theoretical aspects of the application of research techniques common in the psychological study of military personnel and military personnel. The need to diagnose and prevent various mental and emotional problems that arise in the activities of military personnel and units in order to carry out psychological measures in military units and institutions in the rhythm of performing military service tasks is justified by various factors.*

**Key words:** personality, group, military psychology, military team, military psychologist, methods.

## **KIRISH**

Harbiy xizmatchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish-harbiy psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Shuningdek, harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan bo'ysunuvchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favquloddagi holatlarda harbiy xizmatdagi kishilar psixikasining o'zgarishi, bo'linmalarda psixologik muhit masalasi, harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish birlamchi muammo ekanligi va hokazo. Harbiy psixologiya negizida sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, pedagogik psixologiya sohalarining nazariy-amaliy materiallari, umumbashariy qonuniyatlar yotadi.<sup>122</sup>

Harbiy psixolog, professor L.A.Kandibovich fikriga ko'ra, "o'z fe'l-atvorini, xulqini boshqarishni o'rganmoq kerak, insonda hayotning yangi sharoitlarida oqilona harakat qilishga tayyor bo'lishni tarbiyalash lozim". Bu yerda tayyor turishni shakllantirishni professor ikki ma'noda ko'rib chiqmoqda: birinchidan, ruhiy holat sifatida; ikkinchidan, shaxsiy sifatlar majmuasi (kompleksi), ya'ni, hayotiy vaziyatlarning keskin o'zgarishida tayyorlikni ta'minlovchi bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalar sifatida.<sup>123</sup>

Harbiy psixolog kasbining o'ziga xosligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoani psixologik holati bo'yicha aniq va to'laqonli ma'lumot berishdan iborat. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harbiy xizmatchilarni va harbiy jamoani boshqarishda bo'linma komandirlari va harbiy psixologlarning o'zaro hamkorligi yuqori xizmat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.


## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Harbiy xizmatchini va harbiy jamoani psixologik o'rganish ikki xil turdaloqida harbiy xizmatchini (individual) va guruh (jamo) larga ajratgan holda o'rganiladi. Shunga ko'ra, harbiy xizmatchilarning alohida (individual) psixologik o'rganishning predmeti-harbiy xizmatchilarning shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hisoblansa, guruhlariga ajratib o'rganishning predmeti esa-harbiy jamoaning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarni psixologik o'rganish qismlarga ajratib, quyidagi (1-rasm) alohida bosqichlarda o'rganilishini tavsiya etamiz:

<sup>122</sup> E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. Toshkent. «Universitet» 2008 y. 31-bet

<sup>123</sup> O'R. Urunov. Harbiy psixologiya. Darslik. O'R QK Akademiyasi nashri, Toshkent 2018 y. 38 bet



***1-rasm. Harbiy xizmatchilarni psixologik o'rganishning alohida bosqichlari.***

Keyingi yillarda kasbga psixologik tanlash jarayoniga e'tibor oshib bormoqda<sup>124</sup>.

Mazkur jarayonda psixodiagnostik tadbirlar natijalaridan:

1. Psixodiagnostika ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida intensiv ravishda qo'llanilishi mumkin. Psixodiagnostika kasbiy ta'lim-tarbiya oldida turgan qator vazifalar, xususan kasbiy ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarishda amaliy yordam beradi. Shaxs darajasidagi og'ishlar va o'qishda o'zlashtirish darajasining pastligining pedagogik-psixologik jihatlarini o'rganish, ta'limni differensiallashtirish, kasbiy yo'naltirish, individual yondashuvni shakllantirish jarayonida qo'llash mumkin.

2. Psixodiagnostika kasbiy yo'naltirish va kasbga psixologik» tanlashni o'tkazish sohasi mutaxassislari faoliyatining ajralmas qismini tashkil etib, ushbu jarayon xar bir shaxsga uning individual-psixologik, psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb (lavozim)ga tavsiya etish, kasbiy malaka va ko'nikmalarni samarali egallash yo'llarini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi.

Umumiy psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli yo'nalishlari mavjud. Tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil bo'lib, murakkab va psixologik jarayonlarga xos hodisalarni o'z ichiga oladi. Bu psixologik holatlar, hodisalar va jarayonlar qanday metodlar, ya'ni qaysi yo'llar, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvalo metodning o'zi nima, degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Metod lotincha «methados» so'zidan olingan

<sup>124</sup> Порохин С. Профессиональные качества - основа победоносности войск // Ориентир № 9 . 2001. - С. 32., Решетников М.М. Профессиональный отбор в системе образования, промышленности и армии США // Психологический журнал. - 1987. - Т. 8. N 3. - С. 145-153.. Самаров Р. Проблемы психологической готовности военнослужащих к несению воинской службы. Психология фани XXI асрада // Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Т., 2002. - 97-98 б.

bo‘lib, aniq masalalarni hal qilishga qaratilgan voqelikni amaliy yoki nazariy bilish usullari hamda amallarining majmuidan iboratdir.<sup>125</sup>

Bu metodning umumiy ta‘rifidir. Agar uni har bir alohida fanga nisbatan oladigan bo‘lsak, u paytda metod ayni shu fanning predmetini tekshirish, o‘rganish na tushuntirib berish usullarining yig‘indisi ekanligi kelib chiqadi. Demak, har qanday metod ma‘lum prinsiplarga asoslanmog‘i kerak.

Harbiy xizmatchilarni psixologik o‘rganish vaqtida quyidagi metod va metodikalardan foydalanishimiz mumkin:

- *kuzatish (ichki va tashqi);*
- *hujjatlarni o‘rganish (kontent-tahlil) metodi;*
- *so‘roq (suhbat, intervyu) metodlari;*
- *anketa metodi;*
- *testlar;*
- *proyektiv testlar.*

Kuzatish metodi psixologiyaning asosiy va keng qo‘llaniladigan metodlaridan biri bo‘lib, bu metod yordamida psixik jarayonlarni va shaxsning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda, ya‘ni odam u yoki bu faoliyatda qanday bo‘lsa shundayligicha o‘rganiladi.<sup>126</sup>

Kuzatish metodi harbiy psixologiyada o‘ziga xos ijtimoiy sharoitlarda, o‘ziga xos vaziyatlarda va ma‘lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda kuzatuvchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo‘l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchini qiziqtirgan u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo‘llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo‘lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi:

- kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish;
- ma‘lum reja – sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish;
- olingan natijalarning asosliligi va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko‘rish.

<sup>125</sup> N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi o‘quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008 y. 19-bet

<sup>126</sup> N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi o‘quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008 y. 21-bet

Kuzatish kuzatuvchi tomonidan kuzatish obyekti bo‘lmish harbiy xizmatchilar guruhi bilan birga yashab, ularga qo‘shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma‘lumot to‘plansa, bunday kuzatish turini “birgalikdagi kuzatuv” deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik ijtimoiy psixologik U.Uaytning o‘smirlar psixologiyasi, ular guruhidagi ijtimoiy psixologik hodisalarni o‘rganishga qaratilgan mashhur tadqiqotini kiritish mumkin. Boshqa xollarda esa kuzatuvchi o‘z obyektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi “chetdan kuzatuv” yoki “obyektiv kuzatish” deb ataladi. Bu usul xuddi umumiy psixologiyada bo‘lgani kabi tashqi xulq-atvorni qayd qilish natijasida ma‘lumot to‘plashga asoslanadi. Bunday yo‘l bilan ilmiy faktlarni isbot qilish qiyin, lekin baribir, u ham harbiy psixologiyada yordamchi usul sifatida ishlatiladi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy psixologik treninglar sharoitida har bir shaxsning xulq-atvorini kuzatish muhim ma‘lumotlar to‘plashga yordam beradi, chunki bunda kuzatish metodiga xos bo‘lgan eng qimmatli narsa-sharoitlarning tabiiyliligi saqlab qolinadi.

Hujjatlarni o‘rganish metodi. Inson psixikasini tadqiq etish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma‘lumotlar muhim ahamiyatga ega.<sup>127</sup>

Hujjatlarni o‘rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u harbiy faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to‘plangan ma‘lumotlarning ishonchligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.

Materiallarni ma‘naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy tahlil qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada kontent-tahlil deb ataladi.<sup>128</sup> Kontent-tahlilning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma‘lum fikr, g‘oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya‘ni ma‘lum mazmun miqdor ko‘rinishiga keltiradi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X.Lassuell va B.Berelsonlar bo‘lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmuni, uning g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlash maqsadida qo‘llagan edilar. Ular “haqiqiy amerikalik” nomli gazetaning kundalik chiqishlarini kontent-tahlil qilib, ularni fashistik yo‘nalishidagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chiqishini taqiqlashga erishgan edilar.

Kontent-tahlilni qo‘llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari-kategoriyalarni aniqlashdir. Chunki bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e‘tiqodi va dunyoqarashiga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin.

<sup>127</sup> E. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. Toshkent «Universitet» 2008 y. 50 bet.

<sup>128</sup> V.M. Karimova. Ijtimoiy psixologiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. Toshkent – 2007. 31 bet



Masalan, kontent-tahlilning asoschilari Lassuell va Berelsonlar bunday birlik-ramziy birlik yoki simvollar bo‘lishi mumkin, deb hisoblashgan bo‘lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi L.Lovental bunday birlik yaxlit mavzu bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Aslida, bunday birliklar kontent-tahlilda ilmiy taxmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak. Shuning uchun ham ko‘pgina tadqiqotchilarni umumlashtirib, tahlil uchun birliklar quyidagilar bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz:

A) alohida iboralar yoki so‘zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hokazo);

B) yaxlit xat boshi, matnlar, maqolalar va shunga o‘xshashlarda ko‘tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo);

V) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

G) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O‘zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o‘quvchilarning munosabati va shunga o‘xshash).

Yaxshi o‘tkazilgan kontent-tahlil aslida harbiy psixologik tadqiqotlarda juda katta ahamiyatga ega. Kontent-tahlil tadqiqotchidan kattagina o‘quvni talab qiladi, chunki bir tomondan, u yoki bu matnni tushunish mahorati bo‘lishi kerak, ikkinchi tomondan, tadqiqot so‘ngida qo‘lga kiritilgan miqdoriy birliklarni yana qayta sifat formasiga keltirish lozim, ya’ni tushuntirib berish kerak.

So‘roq metodlari. Birorta psixik jarayonning ichki xususiyatlarini aniqlash yuzasidan tekshirilayotgan odamga maxsus berilgan savollarga javob olish usuli so‘roq va suhbat metodi deyiladi.<sup>129</sup>

So‘roq metodlari harbiy psixologik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi, ayniqsa, anketa so‘rovi va intervyu metodlari. Yozma so‘roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina harbiy xizmatchilar fikrini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so‘rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo‘lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to‘planadi.

So‘roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo‘lib, birinchisida oldindan nimalar so‘ralishi qat’iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, kompyuterda dasturi ishlab chiqilib, bir qancha harbiy xizmatchilarda bir xil talablar doirasida so‘roq o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

<sup>129</sup> N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi o‘quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent - «Yangi asr avlodi» 2008 y. 27-bet

Bu metodlarni qo‘llashni qator metodologik qiyinchiliklari mavjud, chunki, bu yerda doim harbiy jamoalarda o‘zaro munosabatlar, o‘zaro ta’sir shakllari mavjud bo‘lib, tadqiqotchining subyektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo‘lmaydi. O‘rganish mobaynida harbiy xizmatchilarning shaxslararo idrok va subyektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay, juda ko‘p harbiy psixologik ma’lumotlarni to‘plashda so‘roq metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmoqda.

Shunday qilib, so‘roq metodlari tadqiqotchi bilan tekshiriluvchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma’lumotlar to‘plash usulidir. Harbiy xizmatchilar tilidan yozma yoki og‘zaki tarzda olingan fikrlar ma’lumotlarning manbai bo‘lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o‘zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat’iy bir yo‘nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo‘lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga tazyiq o‘tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so‘zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Intervyu o‘tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko‘rish kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatning bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada “rolli o‘yinlar” metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o‘tadilar.

Anketa metodi hammaga tanish bo‘lgan usullardan biri. Lekin ko‘pincha anketani o‘tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni to‘g‘ri sharhlash naqadar mushkul ekanligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollar ma’lumotiga ko‘ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo‘linadi.<sup>130</sup>

Anketa metodi hammaga tanish bo‘lgan usullardan biri. Lekin ko‘pincha anketani o‘tkazgan harbiy psixolog uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma’lumotlarni qayta ishlab, sharhlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, anketaga kiritilgan savollarga ko‘ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo‘linadi. Ochiq anketa respondentdan o‘z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari berilgan bo‘lib, tekshiriluvchi o‘ziga ma’qul bo‘lgan, karashlari, fikrlari bilan mos bo‘lgan javobni beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo‘yilgan vazifaga yetarli darajada mas’uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni

---

<sup>130</sup> V.M. Karimova. Ijtimoiy psixologiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. Toshkent – 2007. 32 bet

statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmaslikdir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari, yana qo'shimcha fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. Kirish qismi yoki "respondentga murojaat" deb ataladi. Bu qismda odatda tadqiqot o'tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatilishi (anonim), anketani to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Yo'riqnoma – murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. Asosiy qism. Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan boshlab qiyin savollar berilsa, bu narsa sinaluvchini cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun boshida yengil, xolis savollar berib, tekshiriluvchini qiziqtirib olib, keyin qiyinroq, psixologik savollarga o'tish, oxirida yana "neytralroq" savollar berish maqsadga muvofiq.

3. Yakuniy qism respondentning shaxsiy sifatidagi obyektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra, qo'l bilan tarqatiladigan, ijtimoiy tarmoqlar yoki pochta orqali yuboriladigan, gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan formalarga bo'linadi.

To'plangan ma'lumotlarga, odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuterlar yordamida tahlil qilinadi.

Test (inglizcha. Test-sinash, tekshirish) (psixologiyada)-shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatleri, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart mashqlar. Ijtimoiy amaliyotda test odamning qanday kasb-hunar egallashi mumkinligi, uning kasbga layoqati yoki layoqatsizligini, iste'dodli yoki aqli zaifligini aniqlashda, muayyan hamkorlikdagi faoliyatga shaxslarni saralashda keng qo'llaniladi. Uning yordamida tajribaning ilmiylik darajasi, kafolatligi, tekshiriluvlarning mahorati, qiziqishi, to'plangan amaliy ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik ko'rsatkichi bir necha

mezonlarga asoslanib tahlil qilinadi. Testning nazariy asoslarini ingliz psixologi Fransis Galton (1822-1911) ishlab chiqqan (1883). Test atamasini birinchi marta amerikalik psixolog Jeyms Kettell (1860-1944) qo‘llagan (1890). Fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi T. Simon insonning aqliy o‘sishi va iste’dodi darajalarini o‘lchash imkoniyati borligi g‘oyasini olg‘a surganidan keyin aqliy testlar nazariyasi keng yoyildi. Miqdoriy ma’lumotlarni statistika metodikalari yordamida hisoblab chiqish yuzaga keldi. Amerikalik Lyuis Permen (1877-1955) insonlarning aqliy qobiliyatlarini uzluksiz 50-yil davomida o‘rgangan.<sup>131</sup>

Testlar psixologiyadan harbiy psixologiyaga kirib kelgan usuldir, bu qisqa sinov usuli bo‘lib, ular yordamida u yoki bu harbiy-ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik usul testda tekshiriladi. Testlarni qo‘llashning qulaylik tomoni-bir test yordamida bir obyektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko‘rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo‘lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi obyektga sinalgan bo‘lsa, shunga o‘xshash obyektlardagina qo‘llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma’lumotlar nisbiy fe‘l-atvoriga ega bo‘ladi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, harbiy xizmatchining shaxslararo muloqot tizimidagi o‘rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo‘qligini sinovchi, harbiy xizmatchining aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo‘llanilmoqda. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, testni tuzish, uni obyektlarda sinovdan o‘tkazish, hattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o‘z “kaliti” buladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya’ni kelishuvga ko‘ra ishonchli shaxslargagina berish huquqi bo‘ladi. “Kalitsiz” esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

Test-so‘rov oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o‘lchaydi, savollarga “ha” yoki “yo‘q” tarzida javob berish so‘raladi.

Test-topshiriq harbiy xizmatchilar xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, ular tafakkuridagi ijodiylikni aniqlash uchun ko‘pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o‘zi xohlaganicha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma’lum vaqt va tezlikda bajarilish sur’ati, rasmlarning o‘ziga xos va betakrorligiga qarab harbiy xizmatchi fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga

<sup>131</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Test>

baho berilib, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi-ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni soxtalashtirishi mumkinligidir.

Proyektiv testlar maxsus guruhga ajratiladi. Proyektiv test kishining u yoki bu psixologik sifatini to'ridan-to'g'ri emas, balki bivosita baholaydi. Bunday baholash kishining ko'p ma'noli obyektlarni qanday qabul qilishi va talqin qilishining tahlili natijasida olinadi.<sup>132</sup>

Proyektiv testlar. Bu usullar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko'rinishga ega bo'lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig'i beriladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishga ega bo'lmagan buyumlar, yog'ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtayi nazaridan baho berishi mumkin.

Proyektiv usullarga mashhur "Rorshaxning siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921). Bu dog'lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil bo'yoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog'"ning nimani eslatayotganligini aytish so'raladi. Uning fikridan va so'zlaridan, assotsiatsiyalarga qarab (ularni kontent-tahlil qilib) shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proyektiv usul – bu S.Rozensveygning rasmiy assotsiatsiyalar usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan ishtirokchilar (rasmda) nimalarnidir gapirayotgan holda gavdalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab harbiy xizmatchining yo'nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

Proyektiv testlar sinaluvchining yashirin va anglanilmagan psixologik xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarurati tug'ilganda qo'llaniladi.<sup>133</sup>

<sup>132</sup> Z. Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni" Toshkent — 2011. 37-bet

<sup>133</sup> Z. Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni" Toshkent — 2011. 38-bet



Harbiy jamoani tadqiq etish metod va metodikalari. Harbiy jamoani ijtimoiy psixologik o'rganish bo'linma ofitserlari va harbiy psixolog tashkillashtiriladi va olib boriladi.

Shunday qilib, harbiy psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning bir qismi, xolos. Har bir holatda o'z tadqiqot obyektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzusiga qarab kerakli uslubni tanlash mumkin. Shuning uchun ham metodlar to'plami bilan to'laligicha tanishish uchun maxsus adabiyotlarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Harbiy xizmatchilar va harbiy jamoani psixologik o'rganish bosqichlari ko'rsatilgan, unda har bir bosqichda harbiy xizmatchini va harbiy jamoani o'ziga xosliklari o'rganib boriladi. Psixologik o'rganishlarni bosqichlarga ajratishimiz harbiy qismda faoliyat ko'rsatayotgan harbiy psixologga harbiy xizmatchilarni o'rganishda o'ziga xos qulayliklarni keltiradi:

- Psixologik o'rganishni tizimlashtiradi;
- Harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o'rganishni tartiblashtiradi, ma'lumotlarni yig'ib boradi.
- Harbiy xizmatchi va harbiy jamoa to'g'risida olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda bevosita boshliqlariga tatbiq etadi.

2. Harbiy xizmatchini va harbiy jamoani psixologik o'rganishdagi har bir bosqichda tegishli metod va metodikalardan foydalanish qulayligi, hatto ayrim metod va metodikalarni (misol tariqasida, kuzatuv, suhbat, hujjatlar orqali ma'lumotlar yig'ish) har bir bosqichda qo'llashimiz mumkin.

## **REFERENCES**

1. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. Toshkent. «Universitet» 2008 y. 31, 50-betlar.
2. O'R. Urunov. Harbiy psixologiya. Darslik. O'R QK Akademiyasi nashri, Toshkent 2018 y. 38 bet.
3. Порохин С. Профессиональные качества - основа победоносности войск // Ориентир № 9 . 2001. - С. 32., Решетников М.М. Профессиональный отбор в системе образования, промышленности и армии США // Психологический журнал. - 1987. - Т. 8. N 3. - С. 145-153.. Самаров Р. Проблемы психологической готовности военнослужащих к несению воинской службы. Психология фани

XXI асрда // Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Т., 2002. - 97-98 б.

4. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi o'quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar, o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008 y. 19, 21-betlar.

5. V.M. Karimova. Ijtimoiy psixologiya. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. Toshkent – 2007. 31, 32 betlar.

6. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi o'quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar, o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - «Yangi asr avlodi» 2008 y. 27-bet.

7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Test>.

8. Z. Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni" Toshkent — 2011. 37, 38-betlar.

## **KURSANTLAR MA'NAViy-AXLOQiy KAMOLOTIDA GLOBALLASHUV VA AXBOROT MAKONINING TUTGAN O'RNI**

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kundagi globallashuv va axborot makonining inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylanib borayotganligi, shuningdek, bugungi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlar ma'naviy ongi hamda yoshlar tarbiyasiga ta'siri haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Axloq, tarbiya, ma'naviyat, globallashuv, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, ezgulik va yovuzlik, axborotlashgan jamiyat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описывается тот факт, что сегодняшняя глобализация и информационное пространство становятся неотъемлемой частью жизни человека, а также влияние на духовное сознание курсантов, обучающихся в высших военных учебных заведениях, и на образование молодежи.*

**Ключевые слова:** *Этика, образование, духовность, глобализация, информационная безопасность, кибербезопасность, добро и зло, информационное общество.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the fact that today's globalization and information space are becoming an integral part of human life, as well as the impact on the spiritual consciousness of cadets studying in higher military educational institutions and on the education of young people.*

**Key words:** *Ethics, education, spirituality, globalization, information security, cybersecurity, good and evil, information society.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy kamoloti masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni bilim olish, kasb-hunarga yo'naltirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Juda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, turli qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan asrimizni mutaxassislar ommaviy axborot asri yoki globallashuv asri deb atashadi.

Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, telekommunikatsiya, axborotlashtirish va kiberxavfsizlik sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq internet olamida axborot xurujlarining oldini olish va to'liq xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati cheklangan. Shuningdek, globallashuv jarayoni global miqyosda insoniyat hayotiga jadal kirib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bugungi kunda har qanday davlatning taraqqiyoti va farovonligi nafaqat uning atrofıdagi davlatlar, balki jahon mamlakatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mamlakatni bu jarayondan chetlashtirish ijobiy natija bermasligi kundek ayon.

Bu jarayondan chetda qolish va unga butunlay taslim bo'lish xavfli. Binobarin, globallashuv jarayonidan unumli foydalanish uchun oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlar va navqiron avlod kuchli intellekt va immunitetga ega bo'lishi zarur. Rivojlanishning har qanday mahsuloti ham yaxshilik, ham yomonlik uchun ishlatilishi mumkin.

Albatta, bu ko'proq millatning, undan foydalanayotgan xalqning aql-zakovati va immunitetiga bog'liq. Shunday ekan, globallashuv jarayonidan manfaatli foydalanish uchun aholi, ayniqsa, yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish zarur. Global jarayonlarning o'tkir burchaklaridan biri mafkuraviy ta'sirdir.

## **IBN RUSHDNING E'TIQOD VA AQL UYG'UNLIGI G'OYASINING HOZIRGI DAVRDA MA'NAVYI-MA'RIFIY AHAMIYATI**

**Ikramova Iroda Rixsivayevna**

irodasadoyi@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrası

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada sharq falsafasida ratsionalizmga asoslangan murakkab yo'nalish mashshoiyyuna yo'nalishining ko'zga ko'ringan vakili Ibn Rushdning din va falsafa borasidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu muammoni bugungi kunda Uchinchi renessansni qurishda jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy sohasidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ibn Rushd, mashshoiyyuna, aql, e'tiqod, din va falsafa uyg'unligi, "Ikki haqiqat".*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the views on religion and philosophy of Ibn Rushd, a prominent representative of the Mashshaiyyuna direction, a complex direction based on rationalism in Eastern philosophy. Also, the significance of this problem in the spiritual and educational sphere of society in the construction of the Third Renaissance today is highlighted.*

***Key words:** Ibn Rushd, mashshaiyyuna, harmony of reason, faith, religion and philosophy, "Two truths".*

### **KIRISH**

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimizda ilm, aql-zakovat hamda insonlarning qadriyatiga aylangan islom dini uyg'unligiga murojaat qilinmoqda. Diniylik va dunyoviylik mutanosibligida o'z diniga e'tiqod qilgan holda globallashuv jarayonlariga o'z aql-zakovati bilan kirib bora olish tushunilmoqda.

Aql va e'tiqod o'rtasidagi munosabatlar muammosi falsafada eng dolzarb masala bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. U insonlar dunyoqarashining mohiyatiga, ularning mavjudligining ekzistensial asosiga ta'luqli. Bu ikkisining har biri insonlarning ongi va qalbini zabt etishga, yerdagi va boshqa olamlardagi eng yaxshi turmush tarzini tushuntirishga, baxtli hayot yo'lini ko'rsatishga harakat qiladi.



## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, xususan, aql va din haqida, “Ikki haqiqat” haqidagi qarashlari rus olimlari, Yevropa olimlari tadqiqotlari natijasida keng oʻrganilgan. Mazkur maqolada Ibn Rushdning din va falsafa mutanosibligi haqidagi qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, germevistik va sinergetik metodlardan hamda toʻldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanilgan.

## **NATIJALAR**

Borliq, xususan, insonning mohiyati haqida fikr bildirish borliq va shaxs oʻrtasidagi munosabat masalasini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi. Bunda inson borligʻiga ekzistensial yondashuv muhim sanaladi. “Ikki haqiqat” taʼlimoti nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy toʻqnashuvlarning oldini olishda dolzarb sanaladi. U oʻtmishdan zamonaviy dunyoga koʻchishi davomida turli xil qarashlar, turli xil tendensiyalarni, turli xil yondashuvlarni koʻrib oʻtganligini ham inobatga olinadi. Din, eʼtiqod va falsafa, aql masalasi bugungi globallashtirish jarayonlaridagina emas, balki tarixan oʻzining dolzarbligi, nozik masala ekanligi bilan ajralib turgan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini oʻzida mujassam etgan boʻlib, bunda har bir shaxsning oʻz pozitsiyasi mavjud boʻladi.

## **MUHOKAMA**

Eʼtiqod zamonaviy ilmiy, postmodern va globalistik davrda, “anʼanaviy” deb taʼrif berilgan barcha qadriyatlar universallashtirilib, tenglashtirilganda juda dolzarb hisoblanadi. Eʼtiqodsiz madaniyatning oʻzi ham mavjud boʻlishi mumkin emas, deb yozgan edi P.Florenskiy. Darhaqiqat, eʼtiqodsiz inson ongi ham boʻlishi mumkin emas, mazmun va axloq ham boʻlmaydi, umuman inson hayotining maʼnosi ham boʻlishi mumkin emas.

“Fyodor Dostoyevskiy va Erix Fromm barcha insonlar imonli va ular faqat eʼtiqodining “mavzusi” bilan farq qiladi, deb taʼkidlaganda shuni nazarda tutgan boʻlishlari haqiqatga yaqin. Eʼtiqod dunyoqarash va gnoseologiya nuqtai nazar jihatidan zarur hisoblanadi. Chunki inson bilimi har doim ham barcha narsalarni, hodisalarni tushuntirish uchun yetarli boʻlmaydi. Eʼtiqod esa uni oʻrnini toʻldira olish qobiliyatiga ega. Eʼtiqodsiz dunyoqarash mukammal boʻlolmaydi yoki zamonaviy “maʼrifatparvar” inson har xil xurofotlarga taslim boʻladi. Shu maʼnoda, ular taʼkidlaganidek, dahriylik mumkin emas, chunki inson ishongan narsa u uchun har doim mutlaq boʻlib harakat qiladi” [2;75]. Kim uchundir u Xudo, yana kim uchundir u materiya deb atashimiz mumkin. Tarixdan guvohi boʻlganmizki, insonlar maʼlum bir idealni ham, maʼlum bir ijtimoiy tizimni ham ilohiylashtirib, unga eʼtiqod qilgan.

Transsendent tamoyilga ishonish butparastlikning barcha turlarini yo‘q qiladi, chunki hech qanday yakuniy narsa topinishga loyiq emas, aynan shu e‘tiqod barcha dunyo dinlari va tegishli falsafaning asosini tashkil qiladi. Darhaqiqat, xurofotdan farqli ravishda, e‘tiqod spekulativdir. U nimagadir “qarshi” bo‘lmaydi, balki o‘ta ilmiy bo‘lib, fanni o‘z ichiga olishi mumkin, biroq uni inkor etmaydi” [2;76]. E‘tiqod erkinlik tarafdori va shuning uchun insonning javobgarligini ham e‘tirof etadi, ya‘ni bunda insonning axloqiy tabiatini ham belgilaydi. Xurofotlar esa ko‘p hollarda ilmga qarshi chiqib, ilmiy dalillarga mos kelmaydi, insonning erkinligini yo‘q qilishga intiladi, ya‘ni uni tashqi kuchlarga qaram qiladi. E‘tiqod falsafiy mushohada bilan to‘qnash keladi. Aql va bilim esa hayotning ma‘nosini izlab, topishga intiladi. Bu ruhiy bilimning bevosita asosiy va barqaror usullaridan biri sanaladi.

Mazkur jarayonni biz turli madaniyatlarda, turli dinlarda kuzatamiz. Xususan, islom dinida u vujudga kelishidan boshlab ilmga e‘tibor kuchliligini bilamiz. Buni biz islom dinining payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) fikrlarida ko‘p uchratamiz. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning “Ilmni xatto Xitoyda bo‘lsa ham o‘rgan” hadislarini misol qilib olishimiz mumkin. Natijada ilk islom o‘zining diniy bag‘rikengligi bilan ajralib turdi.

Amerikalik sharqshunos olim F.Rouzental “Bilim tantanasi” asarida shunday deydi: “Ular rasmiy ilmni rad etmaydilar... ammo unga alternativ bo‘lgan ilm avvalgisidan mohiyati kam emasligini isbotlashni istaydilar. Bu davr ilm-fan davri edi... Qur‘ondan boshlab to she‘riyatgacha hammasi maxsus ilmiy fanlar metodikasi bilan sug‘orilgan edi” [3;215]. Ilmiy mushohada va g‘oyalar, qarashlar va ta‘limotlar kurashi islom madaniyati, falsafasining rivojlantiruvchi kuchi bo‘ldi. O‘zaro xilma-xil sohalar ekanligiga qaramasdan aql va bilim prinsipial jihatdan e‘tiqod va imondan ajratilmaslikka harakat qilindi. Bu esa o‘z navbatida islom sivilizatsiyasining gullab-yashnashiga katta xissa qo‘shdi.

Albatta, O‘rta asrlarda bu metodika, metodologiya deb yuritilmagan bo‘lsa ham, lekin aqlga bo‘lgan e‘tibor natijasida barcha sohalarining metodologiyasi ishlab chiqilib bo‘lingan edi. O‘rta asarlarda epistemologiya, ratsional ta‘limotlarning metodologik jihatlari ko‘rib chiqildi. Din va falsafa uyg‘unligiga asoslangan “Ikki haqiqat” konsepsiyasining metodologik jihatlari yoritib bergan Ibn Rushd ijodida falsafa hamda aql alohida tahlil qilinib, uning mohiyati din va e‘tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi.

“Ibn Rushd ijodida aql alohida tahlil qilinib uning mohiyati din va e‘tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi. Bugungi global ma‘naviy tahdidlar avj olgan zaminda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati, yanada muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa dunyoviylikni dahriylik sifatida talqin

qilayotgan diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashda muhim g'oyaviy asos vazifasini o'taydi" [1;247]. Ibn Rushd o'zining "Fasl al-maqāl" asarida din va falsafa haqida so'z yuritshining sababi islom dini shu mintaqa xalqlarining asosiy e'tiqodiga aylanib, ularning butun hayoti mohiyatini belgilab berar edi. Shu sababli xalq uchun diniy e'tiqoddan boshqa e'tiqodga ehtiyoj yo'qdek ko'rinardi. Ibn Rushddan avval faoliyat olib borgan faylasuflar ham mavjud diniy tizimga falsafani olib kirishni tarafdori bo'lganlar. Bu biz yuqorida ko'rib o'tgandek, nafaqat islomda, balki yahudiylik va nasroniylikda ham xuddi shunday maqsad bilan harakat qilganlar. Yangi va eng yangi davrga kelib Yevropada esa "Ikki haqiqat" masalasida e'tiqod, imon bilan aql, ilm-fan, bilim muammolari tahlil qilindi. E'tiqodning ham, bilimning ham turli ko'rinishlari tadqiq etildi.

Bugun globallashuv jarayonlarida ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan makon va zamonda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati yanada ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, dunyoviylikni dahriylik sifatida ko'rayotgan diniy ekstrimistik oqimlarga qarshi kurashda hamda bugungi kunda mamlakatimizda kuchayib borayotgan mutaassiblini oldini olishda nazariy asos bo'ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida bir tomondan siyosiy yetuk yoshlarni tarbiyalash, ikkinchi tomondan esa ular ongi shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni saqlab qolish, ya'ni aqlli, ruhan va ma'nan sog'lom, ijtimoiy faol avlodni kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda diniylik va dunyoviylik konvergentsiyasi masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada ko'plab tadqiqotlar, amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning ko'pchiligi bilan tanishib, ular bu uyg'unlikning nazariy va amaliy asoslarini bugungi kun bilan bog'layotganliklarini guvohi bo'linadi. Xatto, ayrim tadqiqotlarda musulmon dunyosida bu masalada shu davrgacha murosas qiluvchi maxsus tadqiqot bo'lmaganligini e'tirof etuvchi zamonaviy tadqiqotlar ham uchraydi.

O'zbekiston xalqining milliy ongining konseptual asoslaridan biri bu din, ya'ni islom dini hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismi islom diniga e'tiqod qilganligi, yillar davomida bu din xalqning qon-qoniga singib ketganligi sababli yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda ham islom dini, e'tiqodi yetakchilik qiladi. Din serqirra va sermazmun ijtimoiy hodisa bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham e'tiqod, ham axloq va ham huquq bo'lgan qadriyat sanaladi. Shu bilan birga bugungi globallashuv jarayonida O'zbekiston yoshlarining hayotda o'z o'rniga ega bo'lishiga ularning aql-zakovati, bilimi mustahkamligi zarur hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi barkamol shaxsni tarbiyalashda zarur bo'lgan ma'naviy va axloqiy

fazilatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Zero, ma’naviy tarbiyaning zamini bilim bo‘lib, bilim borliqni ideal obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.

## **XULOSA**

Ibn Rushd falsafasi aynan mana shu ruhiy kontekstda shakllangan. U ilmning o‘zi ilohiy ekanligini, hamda aql hamisha zarur ekanligini isbotlaydi. Chunki ilm doimo oqilona e’tiqod bilan birgalikda olib borilsa, jamiyatda inson hayotini tartibga solish imkonini beradi. Bu har qanday kasb, har bir inson intilishlari uchun to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Ibn Rushd qarashlaridagi din va aqlni uyg‘unlashtirish ta’limoti arab-musulmon dunyosini o‘zida qolib ketmadi, bu ta’limot epistemologiyaga asoslanganligi bois Ibn Rushddan keyingi faylasuflar dunyoqarashiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu nafaqat islom dini doirasida, balki ma’lum davr bu ta’limot unutilgan nasroniylik va yahudiylik dinlariga ham qayta ta’sir o‘tkazdi. To‘g‘ri ularning barchalari bu uyg‘unlikni tan olmasalarda, biroq bu ikki sohani yonma-yon qo‘yishga muyassar bo‘ldilar.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ikramova, I. R. (2021). IBN RUSHD FALSAFASIDA "MANGU AQL" TUSHUNCHASINING TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 243-248.
2. Нижников С. А. Вера и знание: проблемы онтологии и гносеологии в историко-философском контексте // Социум и власть. – М., 2018. № 2 (70). – С. 76.
3. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. – М.: Наука, 1978. – С. 215.
4. Jurayev, S. S. O. G. L. (2023). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA “INOYAT”(العناية) TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 43-47.

## **ТИЛШУНОСЛИКДА ДИНШУНОСЛИККА ОИД ТЕРМИНОЛОГИЯНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Феруза Ходжакулова Рустамовна**

Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Чет тиллари” кафедраси катта

ўқитувчиси. Tel: 911642157

gmail: [feruzahodjakulova77@gmail.com](mailto:feruzahodjakulova77@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада лингвист олимларнинг термин тушунчасининг турлича талқинлари ёритилган. Лингвистларнинг термин тушунчасига берган изоҳлари ва талқинларида ўзига ҳос моҳиятни, белгини ёки терминга бўлган талабни фаҳмлаш мумкин. Терминлар одатда бир маънога эгаллиги билан фарқланади. Улар асосан адабиётда ёки фаннинг ва техниканинг қандайдир соҳасига тегишли бўлган матнларда ва нутқда қўлланиладилар. Инглиз тили ва ўзбек тили фаннинг, маданиятнинг, техниканинг турли соҳалари, шу жумладан динишуносликка оид терминлар билан ҳам бойдирлар. Термин тил лугат таркибининг, хусусан ўзбек ва инглиз тилларининг асосий элементларидан бири ҳисобланади. Динишуносликка оид термин, бошқа соҳа терминларга қараганда, бир вақтнинг ўзида ҳамма ерда қўлланиладиган сўзнинг ва терминнинг хусусиятларини ўзида жамлайди. Ҳамма ерда қўлланиладиган сўз каби динишуносликка оид термин дин тушунчасини этнологик ва маданий жиҳат билан маълум замон ва территориал маконда номлайди.*

**Калит сўзлар:** *динишуносликка оид терминлар, лингвистларнинг турли талқини, терминлар лугатлари, этнология ва маданият.*

## **ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОЛОГИИ РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ В ЯЗЫКОЗНАНИИ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описаны различные толкования понятия термина религиоведения лингвистами. В комментариях и толкованиях, данных лингвистами понятию термина, можно понять конкретную сущность, признак или требование термина. Термины религиоведения часто используются взаимозаменяемо. В основном они используются в текстах и речи, связанных с литературой или какой-либо областью науки и техники. Термин является одним из основных элементов языковой лексики, особенно узбекского и английского языков. Термин религиоведения в большей степени,*



чем какой-либо другой полевой термин, сочетает в себе характеристики как слова, так и термина, которые используются одновременно. Термин, относящийся к религиоведению, подобно вездесущему слову, обозначает понятие религии с этнокультурным аспектом в определенном временном и территориальном пространстве.

**Ключевые слова:** термины религиоведения, различные толкования лингвистов, словари терминов, этнология и культура.

## PECULIARITIES OF RELIGIOUS STUDIES TERMINOLOGY IN LINGUISTICS

### ABSTRACT

*This article describes the different interpretations of the concept of the term namely religious terms by linguists. In the comments and interpretations given by linguists to the concept of the term, it is possible to understand the specific essence, sign or demand for the term. The religious terms are often used interchangeably. They are mainly used in texts and speech related to literature or some field of science and technology. The term is one of the main elements of the language vocabulary, especially in Uzbek and English. The term religious studies, more than any other field term, combines the characteristics of both a word and a term that are used simultaneously. The term related to religious studies, like the ubiquitous word, denotes the concept of religion with an ethno-cultural aspect in a certain temporal and territorial space.*

**Key words:** *theological terms, different interpretations of linguists, dictionaries of terms, ethnology and culture.*

### КИРИШ

Лингвистлар тилшуносликдаги “термин” ва “терминология” тушунчаларини лингвистик талқин қилиш масалалари билан XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида шуғуллана бошладилар. “Термин” тушунчаси турли олимлар томонидан турлича талқин қилинади. Ҳар бир талқинда қандайдир моҳиятни, белгини ёки терминга талабни фаҳмлаш (қайд қилиш) мумкин. А.А. Реформатский “терминлар – булар ўзининг алоҳида вазифаси билан чекланган махсус сўзлардир; тушунчаларнинг ва номларнинг аниқ ифодаси сифатида бир хил маъноли бўлишга интилувчи сўзлардир”<sup>134</sup>. Шундай қилиб, терминлар фаннинг қандайдир соҳасига тегишлидир. Терминлар ўзларича мустақил ҳисобланмайдилар, улар, шубҳасиз, бошқа лексик қатламлар

<sup>134</sup> Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики и. – М., 1968. – С. 103-126.

билан фикрни баён қилиш учун хизмат қиладилар. Бироқ улар луғатларда атайлаб кўрсатиладилар ва фаннинг ҳар бир соҳасининг терминлар луғатлари мавжуддир.

Д. С. Лотте эслатиб ўтадики, “терминлар фақат тилда эмас, балки маълум терминологиянинг таркибида мавжуд бўладилар. Агар умумий тилда (ушбу терминологиядан ташқарида) сўз кўп маъноли бўлиши мумкин бўлса, маълум терминологияга тушиб у бир хил маънолиликни қўлга киритади. Термин оддий сўз каби контекстга муҳтож эмас, чунки у маълум терминологиянинг қисмидир, у контекст ўрнида чиқиши мумкин, масалан, техникада реестрларнинг ёки буюртмаларнинг матнларида ажратилган ҳолда қўлланилиши мумкин, бунинг учун тилда битта маъноли бўлиши керак”.<sup>135</sup> Юқорида айтилганларнинг асосида қайд қилиш керакки, терминларнинг фарқ қилувчи белгиларидан бири уларнинг одатда бир маънолилиги ҳисобланади. Улар адабиётда ёки фаннинг ва техниканинг қандайдир соҳасига тегишли бўлган матнларда ва нутқда қўлланиладилар. Инглиз тили ва ўзбек тили фаннинг, маданиятнинг, техниканинг турли соҳалари, шу жумладан диншуносликка оид терминлар билан ҳам бойдирлар. Ҳамма ерда қўлланиладиган тилнинг сўзларида термин тил луғат таркибининг, хусусан ўзбек ва инглиз тилларининг асосий элементларидан бири ҳисобланади. Бу шундан далолат берадики, тилнинг луғат таркибини ўрганиш пайтида терминларнинг ҳар хил ўзига хос хусусиятлари лингвистнинг диққат марказида бўлиши лозим. Ушбу тилнинг ҳар бир термини ишлаб чиқилган пайтдагина фан тили мавжуд бўлади ва ривожланиб боради. Терминларни таърифлаш ва таснифлаш фан тилларига бўлган мажбурий талаблардан биридир. Юқорида айтилганидек, кўп маънолилик – бу терминларга хос бўлмаган элементдир. Аммо ҳозирги ўзбек ва инглиз тилларида битта термин иккита ёки ундан ортиқ маъноларда қўлланилишини қайд қилиш мумкин. Терминларнинг бошқа ўзига хос хусусияти шундаки, агар сўз мустақил маънога эга бўлса ва изоҳланса, термин илмий изоҳни талаб қилади (дефиниция). Шу муносабат билан, таснифлашда терминларнинг барча лексик-семантик белгиси ҳамда соҳага оид тегишлилиги ҳисобга олиниши керак. Синтагматик ва парадагматик муносабатлар ҳам муҳим ҳисобланадилар, яъни тўртта нормаларнинг ҳар бири терминологларнинг диққат марказида туради. Биринчи навбатда, термин дефиниция ёрдамида таснифланади.

<sup>135</sup> Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. – М.: 1961. – 157 с.

## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ**

Кўпчилик олимлар дефиниция учун тушунчанинг ўзи ёки предмет ҳамда ёрдамида тушунча ва предмет баён қилинадиган сўзнинг пропорционалиги мавжуд бўлади, деб ҳисоблайдилар. Бу, дефиниция, имкон қадар, терминнинг моддий-маънавий, ақлий, ташқи ва ички турга оид ҳамда тасвирий ўзига хос хусусиятларини қамраб олиши кераклигини белгилаб беради. Терминларга бошқа талаблар қисқалик ва соддалик ҳисобланади. Ушбу талаблар терминларнинг аниқлиги ҳамда таъсирланувчанлигининг омиллари бўлишлари мумкин. Терминларни ҳосил қилиш учун, сўз яшанинг усуллари ва элементлари – префикслар ва суффикслар, предлоглар ва сўнг кўмакчилар, ёрдамчи сўзлар маънони ва уларнинг қўлланилишини тушуниш кабилар ишлатилишлари мумкин. Шунинг учун, имкони борича содда ва тушунарли терминлар чоп қилинишлари керак. Бу ҳолда бир маънолиликнинг муаммолари, полисемия, синонимия ва терминнинг эквивалентлилик шартлари ҳал қилинишлари мумкин, чунки терминларнинг кўпчилиги ҳамма ерда қўлланиладиган маълум тилнинг асосида вужудга келадилар, уларнинг тартибга солиниши ва ишлаши муҳим ҳисобланади. Шундай қилиб, юқорида биз кўрсатиб ўтган барча талаблар контрастив лингвистикада мавжуд бўлган принципларни ва қонунларни қиёсланаётган тиллардаги диншуносликка оид терминларни сўз яшаш ҳамда структур-семантик таҳлилини тадқиқ қилиш учун тўғри ишлатишга имкон беради. Қайд қилиш керакки, инглиз ва ўзбек тилларидаги таҳлил қилинган диншуносликка оид терминларга кўра, иккала тилларда ҳозирги терминшуносликни аслини олганда терминларнинг лексик ўзига хос хусусиятларини чуқур ўрганмасдан ҳамда умумий ва соҳага оид луғатларни чоп этмасдан туриб ривожлантириш мумкин эмас. Бунинг учун қиёсланаётган тиллардаги терминшуносликни ривожлантириш учун қатъий чораларни қабул қилиш керак. Фақат конкрет планни ҳамда маълум режимни қўллаган ҳолдагина биз иккала тиллардаги терминларни тартибга солишимиз мумкин. Чунки терминлар тил бирликлари сифатида бошқа тил бирликларидан ажралиб турадилар (фарқ қиладилар).

Ҳозирги лингвистик адабиётда терминология таърифининг кўп сони учрайди, бу, шубҳасиз, ушбу муаммога юқори эътибордан далолат беради ҳамда унинг тадқиқотига турлича ёндашувлар ҳақида дарак беради. Яна таъкидлаш зарурки, “терминология” сўзига биргина маънога эга бўлган ва аниқ таъриф мавжуд эмас, шунинг учун биз ўз ишимизда терминлар тизимининг умумий хусусиятларини, яна шунингдек уларни табақалаштиришга имкон берадиган ўша фарқларни аниқлашга ҳаракат қилдик. Ҳақиқатан ҳам, масалан

А.В. Суперанская “терминология” сўзига бир неча таърифларни беради: 1) умумилмий терминларнинг мажмуи ёки ноаниқ тўплами; 2) билимнинг қандайдир маълум соҳаси терминларининг (тушунчаларнинг ҳамда номларининг) мажмуи (қурилиш терминологияси, тиббий терминология ва ҳоказо.); 3) умумилмий терминларнинг ясалиши, таркиби ва ишлаши ҳақидаги таълимот; 4) баъзи бир тилда қўлланиладиган билимнинг маълум соҳасидаги терминларнинг ясалиши, таркиби ва ишлаши ҳамда уларнинг бошқа тиллардаги эквивалентлари ҳақидаги таълимот; 5) умумий терминологик таълимот.<sup>136</sup> Ушбу таърифлардан келиб чиқиб, тахмин қилиш мумкинки, биринчи иккита таъриф билимнинг қандайдир маълум тушунчаларининг тизими билан корреляцияга киришадилар, охирги учталарида эса терминология тушунчаси таълимот тушунчалар тизими ҳақидаги фан билан муносабатдош бўлади. Бундан келиб чиқадики, биз терминологиянинг ушбу таърифларини иккита нуқтаи назардан табақалаштириш имкониятига эгамиз: а) терминологиянинг, тушунчаларнинг ва номларнинг мажмуи; б) терминологияни, тушунчаларни ва номларни яшаш ҳақидаги таълимот.

Махсус адабиётда мавжуд бўлган терминологияга терминларнинг мажмуи сифатида асосий нуқтаи назарларни (қарашларни) қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Биринчи нуқтаи назарнинг тарафдорлари терминология – адабий тил лексикасининг таркибий қисми деб ҳисоблайдилар ҳамда бир қатор терминларнинг адабий тиллардан вужудга келганликлари ва уларни терминлар сафига киритиш мумкинлиги ҳақида сўз юритадилар. Бундай нуқтаи назарга А.А. Реформатский амал қилади, у терминология – бу “ушбу тил лексик тизимининг ичидаги навбатдаги кичик тизим ва бунинг устига энг кўзга кўринадиган ҳамда ҳисоблаб чиқиладиган кичик тизимдир, айниқса, кичик тизим сифатида терминология ўз навбатида тематик белгилари бўйича кичик тизимларга бўлиниб кетадилар”, дейди.<sup>137</sup>

2. Иккинчи нуқтаи назар тарафдорлари терминология миллий тил лексикасининг адабий тил билан оз умумийликка эга бўлган автоном бўлимини ташкил қилади, деб ҳисоблайдилар ва терминологияни баъзан адабий тилнинг

<sup>136</sup> Суперанская, А.В. Подольская, Н.В. Васильева, Н.В. Общая терминология: вопросы теории [Текст] / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. Т.Л. Канделаки: Изд.5 -е. – М.: Либроком, 2009. – 248 с.

<sup>137</sup> Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики и. – М., 1968. – С. 121-122.

нормаларига жавоб бермайдиган ўзининг қонуниятлари билан алоҳида соҳага ажратишни талаб қилиб туриб оладилар.<sup>138</sup>

Айтилганлар диншуносликка оид терминологияга ҳам бутунлай тегишлидир, чунки диннинг қабул қилиниши умуман барча ижтимоий-сиёсий ва фалсафий терминологиянинг ва хусусан диншуносликка оид терминологиянинг ривожланишига туртки берди. Дин лексиканинг бу гуруҳи ривожланиши учун замин яратган ижтимоий ҳаётнинг жиҳатларидан бири бўлди. Диннинг роли фақат диншуносликка оид терминологиянинг шаклланишидагина бўлиб қолмади.

Дин миллий маданиятнинг таркибий қисми ҳисобланади ва диншуносликка оид терминология шу соҳанинг ривожланиши муносабати билан яратилади, сайқалланади ҳамда бир шаклга келади (унификациялаштирилади). В. Барклей қайд қилганидек, тилнинг терминологик тизимида диншуносликка оид терминни специфик лингвистик бирлик сифатида таърифлашда маданий, этнологик ҳамда тарихий жиҳатлар муҳим ҳисобланадилар.<sup>139</sup> Бироқ ҳар қандай термин, шу жумладан диншуносликка оид термин ҳам, биринчи навбатда сўз ҳисобланади. Нутқда ҳамма ерда қўлланиладиган сўзлар ва терминлар параллел ишлайдилар, уларни фарқлаш учун эса махсус мукамал таҳлил зарур. А.А. Реформатский қайд қилган эди: "...Ахир бу – кундалик сўз ва термин - лингвистик жиҳатдан бутун бир муаммодир".<sup>140</sup> Шу сабабли, диншуносликка оид термин билан ҳамма ерда қўлланиладиган сўз ўртасидаги фарқни чуқур тушуниш учун, умуман сўз ва термин каби тушунчаларни таҳлил қилиш зарур. *Китоб, Қуръон, намоз, эътиқод (дин)* каби сўзлар ва бошқалар турли контекстларда уларнинг қўлланилиши ёки ҳамма ерда қўлланиладиган сўзлар сифатида, ёки терминлар сифатида чиқишлари мумкин. Бироқ уларнинг ҳаммасига, сўзлар каби, қуйидаги характеристикалар хосдир: 1) улар маълум шаклдаги ҳамда семантик мазмун билан лингвистик бирликлар ҳисобланадилар (бу уларни бу категорияга эга бўлмаган фонемалардан ва бўғинлардан ажратиб туради); 2) улар (сўз таркибида ҳосил қилинадиган морфемалардан фарқли равишда) нутқда эркин ясалганлар ҳисобланадилар ҳамда тилнинг бошқа конкрет бирликлари билан махсус бирлашувларни талаб қилмайдилар; 3) улар тилнинг минимал бирликлари бўлиб (сўз бирикмаларидан фарқли равишда) нутқда эркин қайта

<sup>138</sup> Меркель, С.Э. Семантико-дистрибутивная верификация терминологического знака (на материале документов немецкого гражданско-процессуального права) [Текст] / С.Э. Меркель : Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Волгоград, 2001. – 187 с.

<sup>139</sup> Barclay W. Analiza semantică a unor termeni din Noul Testament. –Wheaton, Illinois, 1992. – 220 p.

<sup>140</sup> Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики и. – М., 1968. – С. 113.



тикланадилар; 4) улар коммуникацион актда қўлланиладилар. Термин, ўз навбатида, сўз ёки синтагма бўлиши мумкин, ижтимоий фанлар конкрет соҳасининг махсус тушунчаларини ифода этади. Сўзлардан фарқли равишда, бу бирликлар, қоидага кўра, қуйидаги белгиларга эга бўладилар: 1) улар абстракт: аниқ ҳамда моносемик бўладилар; 2) улар матнда ишлаганида синонимларга эга бўлмайдилар; 3) улар кўчма ва эмоционал мазмунга эга бўлмайдилар; 4) улар фаннинг ушбу соҳасининг тизимини ташкил қиладилар ва ҳоказо.

### **ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ**

Шу сабабли терминнинг умумий таърифи учун, шу жумладан ижтимоий фанлар учун, бизнинг фикримизча, И.С. Квитконинг таърифи етарли даражада тўлиқ ҳисобланади, у ҳар хил таърифларга таяниб, уни шундай аниқ ифода қилади: “термин – бу билимнинг (фаннинг, техниканинг) маълум уюшган соҳасининг тушунчаси билан муносабатдош бўлган, бошқа сўзлар ва сўзга оид комплекслар билан тизимли муносабатларга киришадиган ва улар билан ҳар бир алоҳида ҳолда ҳамда маълум вақтда ёпиқ тизимни ҳосил қилувчи, юқори информативлик, бир маънога эгаллик, аниқлик ҳамда экспрессив нейтраллик билан ажралиб турадиган сўзлар ва сўзга оид комплексдир”.<sup>141</sup>

Диншуносликка оид термин, умуман терминларга қараганда, бир вақтнинг ўзида ҳамма ерда қўлланиладиган сўзнинг ва терминнинг хусусиятларини бирга қўшади. Ҳамма ерда қўлланиладиган сўз каби диншуносликка оид термин дин тушунчасини этнологик ва маданий жиҳат билан маълум замон ва территория маконда номлайди (бу уни маълум соҳага, шу жумладан ижтимоий-сиёсий соҳага белгиланган терминдан ажратиб туради). Шунинг учун диншуносликка оид термин қуйидаги белгиларга эга бўлади: 1) махсус (ислом динига оид, христиан динига оид, теологик ва ҳоказо) тушунчаларни номлайди; 2) маданий, этнологик, тарихий ҳамда лингвистик жиҳатларга эга; 3) ишлаш жараёнида номлари келтирилган белгиларнинг иккиталаридан биринчилари полисемия, синонимия, антонимия, эмоционал ва кўчма мазмунга йўл қўядилар; 4) бу терминларнинг ҳаммаси диннинг ҳамда диншунослик илмининг терминлар тизимини ташкил қиладилар.

Шунинг учун ушбу ишда диншуносликка оид термин ҳар қандай диннинг ёки диншунослик илмининг тушунчаси билан муносабатдош сўз ёки сўзга оид комплекс деб таърифланади, улар бошқа сўзлар ёки сўзга оид комплекслар билан тизимли муносабатга киришадилар ва, қоидага кўра, юқори информативлик, бир маънога эгаллик, аниқлик ҳамда экспрессив нейтраллик

<sup>141</sup> Квитко И.С. Термин в научном документе. – Львов: Вища школа, 1976. – 128 с.

билан характерланадиган берк тизимни ташкил қиладилар, бироқ бу терминлар тизими тегишли бўлган ижтимоий ҳодисанинг ўзига хослиги муносабати билан, маълум терминлар учун полисемия, синонимия, антонимия, эмоционал ва кўчма мазмунга йўл қўядилар.

### **ХУЛОСА**

Хулоса қилиб айтганда, диншуносликка оид терминга юқорида берилган бундай таърифлар унинг функционал жиҳатидаги муносабатларнинг иккита типини аниқлаш имконини беради, уларда термин тилнинг бошқа бирликлари билан ёки унга ўхшаш диншуносликка оид терминлар билан, ёки ҳамма ерда қўлланиладиган тилнинг лексемалари билан муносабатга киришади. Биринчи ҳолда сўз диншуносликка оид терминлар тизимининг доирасидаги диний тизим ички муносабатлари (полисемия, синонимия, антонимия) ҳақида, иккинчи ҳолда – тизимлараро диний-умумтил муносабатлари (полисемия, синонимия, антонимия) ҳақида борапти. Шундай қилиб, диншуносликка оид терминларнинг генетик ва лексик-семантик аспектлардаги конкрет таҳлили тилга олинган муносабатларнинг иккала типларини ҳисобга олиб амалга оширилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Квитко И.С. Термин в научном документе. – Львов: Вища школа, 1976. – 128 с
2. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики и. – М., 1968. – С. 113.
3. Меркель, С.Э. Семантико-истрибутивная верификация терминологического знака (на материале документов немецкого гражданско -процессуального права) / С.Э. Меркель : Дис. канд. филол. наук: 10.02.04. – Волгоград, 2001. – 187 с.
4. Barclay W. Analiza semantică a unor termeni din Noul Testament. – Wheaton, Illinois, 1992. – 220 p.
5. Ходжакуллова F.R.(2020). Analysis of terminology of literary criticism in English. Namangan state university. Scientific journal .11issue .2020 year.
6. Ходжакуллова F.R.(2021). Lexical semantic problems in translation. Thematic journal of English language teaching. Vol-5-Issue-1-2021.
7. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. М.: 1961. – 157 с.

8. Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века // Язык и наука конца 20 века. М.: Институт языкознания РАН, 1995. С. 144-238.
9. Левицкий В.В. Семасиология: монография для молодых исследователей. Винница, 2012. – 680 с
10. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика: Пособие для студентов гуманитар. вузов и учащихся лицеев. – 2-е изд., испр. – М.: Аспект Пресс, 2000. – 207 с
11. Петров В.В. Идеи современной феноменологии и герменевтики в лингвистическом представлении знаний // Вопросы языкознания. 1990. № 6. – С.103.
12. Потебня А.А. Слово и миф. – М.: Правда, 1989. – 282 с.
13. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. Москва: Наука, 1978. – 341 с
14. Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – М.-Берлин: Директ-медиа, 2015. – 239 с.
15. Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики – М: Наука, 1973. – 280 с.

## **ЖИНОЙ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИ БОШКА ЖАВОБГАРЛИК ТУРЛАРИДАН ФАРҚИ**

**Норметов Тоҳиржон Хамитович**

Чирчиқ олий танк кўмондонлик муҳандислик билим юрти

Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси, доцент

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада Суд - ҳуқуқ тизими ҳамда жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш соҳасидаги давлат сиёсатининг энг муҳим йўналишларини изоҳқилишининг тарихий аҳамияти, шахсинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлат манфаатлари, инсоният хавфсизлиги каби қадриятларни жиноий тазовулардан қўриқлаш, жиноятчиликка қарши курашиш, яъни жиноий жазоларни либераллаштириш, жиноят, интизомий, маъмурий, фуқароқий-ҳуқуқий ҳуқуқбузарлик масалалари тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ва хал қилиш усуллари ёритилган*

**Калит сўзлар:** қонун, ҳуқуқ, жиноят, жавобгарлик, жазо, суиқасд, изоҳ, процесс, стратегия, интизом, усул, қилмиш, тизим, механизм, шакл, муқаррар, восита.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается историческое значение реформирования важнейших направлений государственной политики в области совершенствования судебной системы и уголовного и уголовно-процессуального законодательства, прав и свобод личности, интересов общества и государства, методы защиты таких ценностей, как безопасность человека от преступной агрессии, борьба с преступностью, т.е. либерализация уголовных наказаний, рассмотрение и разрешение дел об уголовных, дисциплинарных, административных, гражданско-правовых правонарушениях.*

**Ключевые слова:** закон, право, преступление, ответственность, наказания, процесс, покушения, стандарт, технология, стратегия, дисциплина, действие, система, форма, механизм, неизбежное, средство, метод.

*“Жиноятчиликнинг умумий олдини олиш вазифаси жиноят қонунининг беқарор одамларни турли жиноятларни содир қилишидан ушлаб турувчи, тақиқловчи функцияси, шунингдек жиноят содир қилган шахслар учун жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини белгилаш орқали амалга оширилади”.*

**Ш.М.Мирзиёев**

## **КИРИШ**

Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш соҳасидаги давлат сиёсатининг энг муҳим йўналишларини белгилаб берган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси ҳамда 2022- 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг қабул қилиниши суд-ҳуқуқ тизимини ислоҳ қилишнинг тарихий аҳамиятга эга бўлган босқичи бўлди. Ҳаракатлар стратегиясида жиноий жавобгарлик ва жазо тизимини такомиллаштириш борасида қуйидаги талаблар қўйилди:

- жиноий қилмишнинг ижтимоий хавфлилик даражаси ва характерини белгиловчи муқобил кўрсаткичларни жорий этиш орқали жиноятларни таснифлаш тизими ва мезонларини қайтадан кўриб чиқиш.

- жиноят содир этган шахсларга нисбатан жавобгарлик муқаррарлигининг ишончли кафолатини таъминлаш.

- жазолар тизими ва уларни тайинлаш механизмларини қайтадан куриб чиқиш, эскирган ҳамда замонавий талабларга жавоб бермайдиган жазолар шакли ва турларини чиқариб ташлаш.

- жиноят содир этишда айбдор деб топилган шахсларни тарбиялаш, шунингдек, содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олишга қаратилган жазо турлари ва бошқа ҳуқуқий таъсир чораларини жорий этиш.

- рағбатлантирувчи нормаларни, жумладан жазони енгилаштириш ёки шахсни жиноий жавобгарлик ёхуд жазодан озод қилиш шартларини ўрнатувчи нормаларни кенгайтириш.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлат манфаатлари, инсоният хавфсизлиги каби қадриятларни жиноий тажовузлардан қўриқлаш кишилиқ жамиятининг асосий вазифаларидан бири бўлиб келган ва бугунги кунда ҳам жиноятчиликка қарши курашни дунё миқёсида глобал муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 2-моддасида шахс ва унинг ҳуқуқ ҳамда эркинликлари, шунингдек, жамият ва давлат манфаатларини, ўзгалар мулкини, табиий муҳитни, тинчликни, инсоният хавфсизлигини жиноий тажовузлардан қўриқлаш каби ижтимоий муносабатларга қарши қаратилган ҳар қандай ҳаракат (ҳаракатсизлик), яъни қилмиш учун жавобгарлик назарда тутилган.



Ана шу вазифаларни амалга ошириш учун мазкур Кодекс жавобгарликнинг асослари ва принципларини, қандай ижтимоий хавфли қилмишлар жиноят эканлигини аниқлайди, ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсларга нисбатан қўлланилиши мумкин бўлган жазо ва бошқа ҳуқуқий таъсир чораларини белгилайди.

Жиноий жавобгарликни амалга ошириш масаласи ҳам шу куннинг долзарб масалаларидан бўлиб, оғир ва ўта оғир жиноят содир этган хавфли шахсларни жиноий жавобгарликка тортиб, уларга нисбатан жазонинг оғир турини қўллаш орқали жамиятни муҳофаза қилиш, жабрланувчиларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш, бундай қилмишларга нисбатан қатъий чоралар кўриб, уларнинг олдини олиш, бартараф этиш жиноятчиликка қарши курашнинг кечиктириб бўлмайдиган масаласи ҳисобланади. Жиноятчиликка қарши курашишнинг hozirgi, яъни жиноий жазоларни либераллаштириш жараёнида ҳам ғоятда мураккаб глобал муаммолардан бири эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Жиноий жавобгарлик ҳуқуқий жавобгарликнинг махсус тури бўлиб, Жиноят Кодексида тақиқланган қилмиш содир этилган тақдирдагина қўлланиладиган жавобгарликнинг энг оғир туридир.

Жиноят Кодексининг 16-моддаси биринчи қисмида жиноят учун жавобгарликнинг таърифи берилган бўлиб, жиноят учун жавобгарлик жиноят содир этишда айбдор бўлган шахсга нисбатан суд томонидан ҳукм қилиш, жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси қўлланилишида ифодаланадиган жиноят содир этишнинг ҳуқуқий оқибатидир.

Жиноий жавобгарлик шахснинг Жиноят Кодекси билан тақиқланган қилмишни содир қилганлиги учун шахс ва давлат ўртасида вужудга келадиган жиноят-ҳуқуқий муносабатдир.

Жиноят ҳуқуқий муносабатларнинг субъектлари бир томондан давлат бўлса, иккинчи томондан жиноят содир қилган шахсдир. Шахс томонидан жиноят содир қилиниши муносабати билан давлатда жиноят ҳуқуқида назарда тутилган мажбурлов чораларини шахсга нисбатан мажбурий тарзда қўллаш, суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш мажбурияти вужудга келади. Шахсда эса содир қилган жинояти учун жавоб бериш, жиноят ҳуқуқида белгиланган тартибда унга нисбатан қўйилган талабларга жавоб бериш мажбурияти вужудга келади. Жиноий жавобгарлик масаласи фақат жиноят ҳуқуқи доирасида белгиланган асосларга биноан амалга оширилади.

Жамият ўз аъзоларини муайян ҳуқуқлар билан таъминлаш билан бирга, берилган ҳуқуқ ва мажбуриятларини бажариш талабини ҳам қўяди.

Жиноят қонунида жиноятларнинг қатъий рўйхати берилган бўлиб, фақат Жиноят Кодексида тақиқланган қилмишни содир қилганлик учун шахс жиноят қонуни нормалари асосида жавобгарликка тортилади. Шахсни жиноий жавобгарликка тортиш учун қуйидаги асослар бўлиши керак:

а) содир этилган ижтимоий хавфли қилмиш жиноят деб кўрсатилиб, жиноят қонунида тақиқланган бўлиши;

б) жиноят қонунида шундай қилмиш учун жазо ёки бошқача таъсир чорасининг белгиланганлиги;

в) ана шундай ижтимоий хавфли қилмишни содир этишда шахснинг айбли эканлиги.

Жиноий жавобгарликнинг оқибатлари эса қуйидагиларда ифодаланади:

а) шахснинг содир қилган жинояти учун давлат олдида ва бунга ваколатли органлар олдида жавоб бериш мажбуриятининг пайдо бўлиши;

б) содир этилган жиноий қилмишга суд ҳукмида ифодаланган салбий баҳо беришдан иборат;

в) содир этилган жиноий қилмиш учун жазо ёки бошқача таъсир чорасини қўлланиши;

г) жазога ҳукм қилинганлигининг оқибати сифатида шахснинг судланган деб ҳисобланиши.

Жиноят Кодекси Махсус қисмида жиноий қилмишларнинг қатъий рўйхати берилган экан, мазкур Кодексида кўрсатилмаган ҳар қандай қилмиш жиноят ҳисобланмайди ва жиноий жавобгарликни келтириб чиқармайди. Яъни Жиноят Кодексида жиноий қилмишларнинг қатъий рўйхати берилиб, бу қилмишларни содир этишни таҳиҳлайди ва ижтимоий хавфли қилмишларни содир хилмаслик учун огохлантириб туради.

Жиноят Кодекси нормаларининг амалда қўлланиш амалиётини таҳлил қилишдан шундай хулосага келиш мумкинки, жазо қўлланмаган жавобгарлик, (Жиноят Кодексининг 65, 66, 661-моддалари асосида жавобгарликдан озод қилинган бўлса) судланган ҳисобланмайди. Агар шахс Жиноят Кодексининг 70-71-моддалари асосида жазодан озод қилинган бўлса, мажбурлов чораси қўлланганлиги туфайли у судланган ҳисобланади, аммо мажбурлов чораси унга нисбатан татбиқ этилмайди. Шахс Жиноят Кодексининг махсус қисми муайян моддаси билан ҳукм қилиниб жазо тайинланган бўлса, жазони ҳақиқатдан ўтайди ва судланган ҳисобланади.

Жиноят Кодексининг 87-моддасига мувофиқ вояга етмаган шахсга нисбатан тарбиявий хусусиятдаги мажбурлов чоралари (Жиноят Кодекси 88-моддасида назарда тутилган мажбурлов чоралари) ни қўллаб жавобгарликдан

ёки жазодан озод қилинган бўлса, жиноий жазодан бошқа турдаги мажбурлов чораси қўлланганлиги туфайли шахс судланмаган ҳисобланади.

Юқорида айтилганларга асосланиб жиноий жавобгарликнинг қуйидаги турларини келтириш мумкин:

1) давлатнинг жиноий жазо чораси қўлланмаган жавобгарликдан озод қилиш;

2) давлатнинг жиноий жазо туридаги жазо чораси қўлланиб, жазони ўташдан озод қилиш тарзидаги жавобгарлик;

3) жавобгарликка тартиб жиноий жазо тарзидаги жазо қўллаш ва жазони ҳақиқатдан ўташ билан боғиқ бўлган жавобгарлик;

4) жиноий жазо ҳисобланмаган бошқача мажбурлов чорасини қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик.

Кўриниб турибдики, жиноий жавобгарлик жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жиноий жавобгарликдан ва жиноий жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жиноий жавобгарликлардан иборат экан. Шунга кўра жиноий жавобгарлик тушунчаси жиноий жазо тушунчасига нисбатан анча кенг тушунча бўлиб, жиноий жавобгарлик ва жазонинг мақсади ҳам бир хил. Амалдаги Жиноят Кодекси 42-моддасининг иккинчи қисмида жазонинг мақсади айтилган бўлса-да, жазонинг мақсадига жазо тарзидаги мажбурлов чораларини қўлламастан ҳам эришиш мумкин деган қатъий хулосага келинса, жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жавобгарликка тортилади. Жавобгарликдан озод қилиш муайян жазо тури, жазо муддати ёки миқёси билан чегараланмаган. Чунки шахсга жазо тайинланмай жавобгарликдан озод қилиш қўлланган бўлса, содир этилган жиноятнинг ижтимоий хавфи катта бўлмаслиги ёки унча оғир бўлмаган жиноят эканлиги билан боғланган.

Жиноий жавобгарликнинг вақт бўйича чегараси борми? Агар бор бўлса, қачон бошланади ва қачон тугайди? Жиноий жавобгарлик шахснинг содир қилган жинояти учун мажбурлов чорасини қўллашда ифодаланган жавобгар бўлиш мажбуриятдан иборат экан, ана шу мажбурият қачондан бошланади?

Бу борада юридик адабиётларда ягона фикр йўқ. А.А.Пионтковский жиноий жавобгарлик жиноят содир қилинган пайтдан бошланади деб ёзади.<sup>142</sup> Я.М.Браинин эса муайян шахснинг жиноят содир қилганлиги тергов органлари томонидан аниқланган пайтдан бошланади, деб ҳисоблайди.<sup>143</sup>

Жиноий жавобгарликнинг вужудга келиши ва тугагунча бўлган вақт жиноий жавобгарликни амалга ошириш вақти ҳисобланади. Жиноий

<sup>142</sup> Курс советского уголовного права в 6 томах. Общая часть. М., 1970, 9-бет.

<sup>2</sup> Браинин Я.М. Уголовная ответственность и ее основание в Советском уголовном праве, М: 1963, стр. 27.

жавобгарликни амалга ошириш эса, жиноят содир қилганлиги муносабати билан шахсга нисбатан суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш (гумондорни қўлга олиш, унга нисбатан эҳтиёт чорасини қўллаш), ишни судда кўриш, айблов ҳукми чиқариш, жазони ижро этишдан иборат. Судланганлик муддатининг тугаши билан жиноий жавобгарликни амалга ошириш батамом тухтатилади деб ҳисоблайди кўпчилик муаллифлар.

Бизнинг фикримизча, шахс жиноят содир қилиши биланоқ, у қўлга олинган ёки олинмаганлигидан қатъи назар, унда қилмиши учун давлат олдида жавобгар бўлиш, давлатда эса муайян давлат идоралари орқали Жиноят процессуал кодекси нормаларини қўллаш вазифаси пайдо бўлади. Демак, жиноят-ҳуқуқий муносабатлар жиноят содир қилиш пайтидан бошланади ва шунга мувофиқ жавобгар бўлиш мажбурияти ҳам шу пайтдан бошланиб, ҳукм қонуний кучга кириши билан тугайди. Чунки жиноий жазони ўташ ва судланганлик оқибатлари, жиноий жавобгарликнинг оқибатлари ҳисобланади. Чунки жиноий жавобгарлик, жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган ва жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жавобгарликдан иборат. Айнан айблов ҳукмининг қонуний кучга кириши билан шахс судланган ҳисобланади.<sup>144</sup>

Юридик фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат курсатган юрист М.Х.Рустамбоевнинг фикрига қараганда, жиноий жавобгарлик - бу субъектнинг жиноят ҳуқуқи билан таққилланган қилмишни содир этишда ифодаланган ҳуқуқ учун қўлланадиган давлатнинг мажбурлов чорасидир.<sup>145</sup> Жиноий жавобгарлик масаласи шахсни дастлабки терговга жалб қилиш, ишни судда қўриш, айблов ҳукмини чиқариш, шартли ҳукм қилиш ва судланганлик шаклларида амалга оширилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни айтиш лозимки, биронта шахс содир қилган жинояти учун жавобгарликсиз қолмаслиги керак. Жиноий жавобгарлик фақат давлат номидан суд томонидан қўлланадиган жавобгарликдир. Бу дегани, шахсни жиноят содир этишда айблаб давлат номидан фақат суд жавобгарликка тортади. Жавобгарликнинг бошқа турларига эса, маъмурий орган ходимлари, корхона, муассаса раҳбарлари ва шундай ҳуқуқ берилган шахслар тортишлари мумкин. Демак, суддан бошқа бирор мансабдор шахс шахсни жиноят содир этишда айблаб жавобгарликка тортишга ҳақли эмас.

<sup>144</sup>Шундай фикрни 1994 йилда чоп этилган “Уголовная право Российской Федерации. Общая часть” ва 2001 йилда чоп этилган “Уголовная право Российской Федерации. Общая часть” дарслигининг муаллифлари ҳам баён қилганлар.

<sup>145</sup>Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. -Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, “Адолат” нашриёти, 2016. - 40 б.

Жиноий жавобгарлик фақат унинг узигагина хос бўлган белгиларга эга бўлиб, қуйидаги белгилари оркали маъмурий интизомий фуқаровий жавобгарликлардан фарқилади:

1) Қўлланиш асослари буйича: жиноий жавобгарлик қилмишида Жиноят Кодексида назарда тутилган жиноят таркибининг барча белгилари мавжуд бўлсагина қўлланади. Жавобгарликнинг бошқа турлари (интизомий, фуқаровий жавобгарлик) да жиноят муносабати билан келтирилган зарар ёки бошқача ҳуқуқбузарлик учун қўлланади.

2) Қўллашнинг мазмуни буйича: жиноий жавобгарлик содир этилган жиноий қилмиш учун фақат давлат номидан суд томонидан айблов ҳукми чиқариш билан боғлиқ бўлган, Жиноят Кодексида назарда тутилган жиноий жазо ёки бошқача мажбурлов чорасини қўлланиши билан боғлиқ бўлиб, шахснинг ҳуқуқий ҳолатини жиддий чеклашдан иборатдир. Жавобгарликнинг бошқа турларида эса, хатто суд томонидан тайинланган мажбурлов чораси ҳам давлат номидан тайинланмайди. Демак, жиноий жавобгарлик ўз мазмунига кўра жавобгарликнинг энг оғир тури ҳисобланади.

3) Жавобгарликнинг қўлланиш субъекти буйича фарқи: жиноий жавобгарлик фақат суд томонидан тайинланади ва қонуний кучга кирган айблов ҳукмида ифодаланади. Бошқа бирорта орган ёки мансабдор шахс жиноий жавобгарликка тортишга ҳақли эмас.

4) Қўлланиш тартиби буйича фарқи: жиноят процессуал қонунида жиноий жавобгарликка тортишнинг махсус тартиби белгиланган бўлиб, фақат Жиноят процессуал кодексида тергов органлари ва суднинг жиноий жавобгарликка тортиш тўғрисидаги фаолияти тартибга солинади. Бошқа жавобгарлик турлари юзасидан жавобгарликка тортиш тартиби бошқа ҳуқуқий нормалар билан тартибга солинади.

5) Жавобгарликка тортиладиган субъектларнинг доираси буйича фарқи: жиноий жавобгарлик шахсий хусусиятга эга бўлиб, фақат жисмоний шахсларгина жиноий жавобгарликка тортилади. Масалан, корхонадан чиқаётган ифлос сувлар сув ёки атроф муҳитни ифлослантирса ва бунинг учун Жиноят Кодексида назарда тутилган оқибат юз берса, корхона эмас, балки корхонадаги бунинг учун масъул бўлган жисмоний шахслар жавобгарликка тортилади.

Бошқа турдаги жавобгарлик, масалан, фуқаровий жавобгар юридик шахслар бўлиши мумкин<sup>146</sup>.

<sup>146</sup> Бу ҳақда харанг: Курс советского уголовного право в 6 томах. Том III. М. стр 7-18. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть, М., «Юристь», 2001, стр. 70.



Ҳуқуқни бузиш ҳаракатлари турли-туман бўлиб, улар ҳуқуқ соҳасининг турли тармоқлари билан таъқиб қилинади. Ҳуқуқбузарлик жиноий, маъмурий, интизомий, фуқаровий, меҳнат, оила, хўжалик, ер, сув, экологик ва бошқалардан иборат бўлиши мумкин.

Ана шу ҳуқуқбузарликларнинг хусусияти ва улар учун маълум даражада умумий белгиларга қараб, тўртта гуруҳга ажратиб олиш мумкин. Булар: жиноий, маъмурий, интизомий ва фуқаровий ҳуқуқбузарликлардир. Ана шу ҳуқуқбузарликларнинг субъектлари асосан фуқаролар бўлиб, улар ҳуқуқ бузишнинг хусусияти, жавобгарликнинг моҳияти ва мазмуни ҳуқуқий жавобгарликка тортишнинг субъектлари жиҳатидан фарққилади. Ана шу ҳуқуқбузарликлар ичида бир-бирига нисбатан ўхшашроқ бўлгани жиноий ва маъмурий ҳуқуқбузарликлардир. Буларнинг тажовуз қилиш объектлари ҳам кўп ҳолларда бир хил. Жумладан, Жиноят Кодексининг 2-моддасида жиноят қонуни билан қўриқланадиган объектлар кўрсатилган бўлиб, шахсни, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини, жамият ва давлат манфаатларини, мулкни, табиий муҳитни, тинчликни, инсоният хавфсизлигини жиноий тажовуздан қўриқлаш назарда тутилса, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 10-моддасида шахсга, фуқароларнинг ҳуқуқларига ва эркинликларига, мулкчиликка, давлат ва жамоат тартибига, табиий муҳитга тажовуз қилувчи ғайриқонуний айбли қилмишлар назарда тутилади.

Содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг жуда оз қисмини жиноий қилмишлар ташкил қилса-да, жиноий қилмиш ўзининг ижтимоий хавфлилиги жиҳатидан бошқа барча ҳуқуқбузарликлардан фарққилади. Лекин жиноий ва маъмурий ҳуқуқбузарликлар бир-бирига жуда ўхшаш бўлиб, уларнинг таркибини талқин қилишда ҳам деярли фарқлар йўқ. Жиноий ва маъмурий тартибда таъқиб қилинадиган тажовузларда, тажовузнинг объекти, объектив томони, субъекти ва субъектив томонларини таҳлил қилиш масалалари ҳам бир хилдир. Демак, маъмурий қилмиш билан жиноий қилмиш, ўзларининг ижтимоий хавфлилиги даражаси билангина фарққилади. Бу фарқнинг чегараси Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс ва ЖиноятКодекси билан белгилаб қўйилган. Бу фарққилмишнинг ижтимоий хавфлилиги билан белгиланади.

Жазо миқдори ва муддати қилмишнинг ижтимоий хавфлилиги даражасини белгиловчи мезон ҳисобланади.

Қилмишни жиноят деб ҳисоблаш масаласини жиноят қонунига асосланган ҳолда фақат суд хал қилса, маъмурий ҳуқуқбузарлик деб ҳисоблаш масаласини маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонунга асосланган ҳолда маъмурий

ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ваколатига эга бўлган мансабдор шахслар хал қилади.

Фақат Жиноят Кодексида назарда тутилган ва жиноий жазо белгиланган қилмишлар жиноят ҳисобланса, маъмурий ҳуқуқбузарлик Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, Қорақалпоғистон Республикаси қонунлари, Қорақалпоғистон Республикаси Жужорғи Кенгесининг ва Вазирлар Кенгашининг қарорлари, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қарорларини бузишдан иборат бўлиши мумкин.

**Интизомий ҳуқуқбузарлик** - давлат ва хизмат вазифасини бажариш интизомини бузиш ҳаракатларидан иборат. Интизомий ҳуқуқбузарлик қилинган деб ҳисоблаш масаласи интизомни бузган шахс ишлаётган корхона, муассаса, ташкилот раҳбари ва ҳарбий қисмларда қисм қўмондонлари томонидан хал қилинади.

**Фуқаровий ҳуқуқбузарликлар** мулкӣ, шахсий ва бошқа номулкий муносабатларни бузишдан иборатдир.

Фуқаровий ҳуқуқбузарлик содир этилганда, асосан етказилган зарарни ундириш ва хужалик ҳуқуқи соҳаси бузилган бўлса, жарима тўғрисидаги санкциялар қўлланиши мумкин.

Кўпгина ҳуқуқшунос олимлар жиноий қилмишнинг бошқа ҳуқуқбузарликлардан фарқини урта мезондан иборат белги билан ифодалайдилар. Булар:

- 1) объекти жиҳатидан;
- 2) қилмишнинг хусусияти ва ижтимоий хавфлилик даражасига кўра;
- 3) ҳуқуқбузарликнинг турига қараб ажратадилар.

Объектига кўра фарқи шундаки, жиноятнинг умумий объекти бошқа ҳуқуқбузарликнинг объектига нисбатан кенгроқ бўлиб, бунга давлатнинг хавфсизлиги асослари, инсон ҳаёти, соғлиги ва хоказолар бўлиб, фақат жиноят қонунининг ўзи билан кўрикланадиган объектларни қамраб олади.

Ижтимоий хавфлилик даражасига қараб фарқи шундаки, жиноий қилмишнинг хусусияти етказилган зарарнинг миқдори, мотиви ва мақсади, жиноятни амалга ошириш усуллари ва хоказолар бўлади.

## **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Юқоридагилардан келиб чиқиб таъкидламоқчиманки, жиноий жавобгарлик тушунчасини қуйидагича таърифлаш лозим: жиноий жавобгарлик - жиноят содир қилган шахс томонидан қонунда белгиланган тақик бузилганлигига, шахсингқилмишига давлатнинг жавоб хатти-ҳаракати бўлиб, у айбдорни жиноий тақиб этиш орқали, шу жумладан унинг ижобий хулқ-атворини, жиноят-ҳуқуқий рағбатлантириш мақсадида ҳамда суднинг хукм чиқариш ёхуд қонунда назарда тутилган бошқа мажбурлов чораларни қўллашида намоён бўлади. Зеро, бу хулоса жиноят ҳуқуқидаги жавобгарлик ва ундан озод қилиш билан боғлиқ барча институтларни ҳам қамраб олганлиги билан эътиборга лойиқдир.

## **REFERENCES**

1. Курс советского уголовного права в 6 томах. Общая часть. М., 1970, 9-бет.
2. Браинин Я.М. Уголовная ответственность и ее основание в Советском уголовном праве, М: 1963, стр. 27.
3. Шундай фикрни 1994 йилда чоп этилган “Уголовная право Российской Федерации. Общая часть” ва 2001 йилда чоп этилган “Уголовная право Российской Федерации. Общая часть” дарслигининг муаллифлари ҳам баён қилганлар.
4. Рустамбоев М.Х. Узбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар. Умумий қисм. -Тошкент: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, ”Адолат” нашриёти, 2016. - 40 б.
5. Денисов Ю. А. Общая теория правонарушения и ответственность. Л., 1983, с. 21.; Кузнецова Н.Ф. Понятие преступления. Советское уголовное право. Общая часть; МГУ. 1988, -С.54.

## **БУГУНГИ КУНДА ЁШЛАРНИНГ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖИХАТЛАРИ**

**Раматов Ж.С**

Тошкент давлат транспорт университети

“Ижтимоий фанлар” кафедраси мудири

**Жуманиёзова Н.С.**

Тошкент давлат транспорт университети

“Ижтимоий фанлар” кафедраси в.б.доценти

**Ҳасанов М.**

Тошкент давлат транспорт университети

“Ижтимоий фанлар” кафедраси

ўқитувчиси.

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада бугунги кундаги ёшларнинг маданий қиёфасини ўрганишнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари таҳлил қилинган. Ёшларни замонавий маданий қиёфаси ва умуминсоний қадриятлар ҳамоҳанглиги асосида урф-одат ва анъаналар замонавий шаклга келганлиги илмий далиллар билан кўрсатилган. Ёшлар маданий қиёфаси ва умуминсоний қадриятларни ўрганишнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари илмий асосда таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** Умуминсоний қадриятлар, ёшлар, маданий қиёфа, валеологик маданият, қадрият, миллий маданий анъана, ижтимоийлашув.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the socio-philosophical aspect of studying the cultural image of today's youth. It has been shown by scientific evidence that the harmony between the modern cultural image of Yohslap and the general tradition has become a modern form of customs and traditions. The socio-philosophical aspect of the study of youth culture and general culture has been analyzed on a scientific basis.*

***Keywords:** General culture, youth, cultural image, valeological culture, value, national cultural tradition, socialization.*

### **КИРИШ**

Янги Ўзбекистоннинг демократик тамойиллар асосида фуқаролик жамияти қуришда ҳам ёшларимизнинг замонавий маданий қиёфасини яратиш муҳим аҳамиятга эга. Чунки замонавий маданий қиёфаси учун ҳар бир инсондан масъулият муҳим фаолият тамойилларидан бири бўлиши лозим. Шу маънода, замонавий маданий қиёфа тушунчасини умуминсоний қадриятлар

тизими доирасида ўрганиш муҳим илмий методологик ёндашувлардан бўлиб қолмоқда.

Ёшларнинг маданий қиёфасини ижтимоий-фалсафий жиҳатдан умуминсоний қадриятларга муносабатни баҳолашда экологик ва валеологик маданиятни ривожлантириш дастлабки таъсир омили ҳисобланади. «Табиий қадриятларга муносабат кишилиқ жамиятининг энг муҳим муаммолари жумласига киради. Бу масалани тўғри ҳал этиш эса одамларнинг ҳаётини яхшилашга, маданий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади. Зеро, табиат яхлит тизим сифатида ўзига нисбатан оқилона муносабатни талаб қилади. Табиий муҳит инқирозга юз тутгудек бўлса, ижтимоий-иқтисодий ўсишни, барқарор сиёсий муҳитни таъминлаб бўлмайди. Фақат табиат билан уйғунлашган ҳаётгина диалектик тараққиётга олиб боради»[1].

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Дарҳақиқат, табиатдаги инсон билан боғлиқ бўлган диалектик алоқадорлик доимий ва синергетик мазмунда давом этиб боради. Биосфера ва ноосферанинг диалектик боғлиқлигини ҳам зарурий омил сифатида кўришимиз мумкин.

«Валеологик маданият – бу соғлом турмуш маданияти асослари бўйича билим ва кўникмага эга бўлиб, ҳаёт ва фаолиятга талаб даражасида тайёрланишдир»[2].

Ёшлар фаолияти ва турмуш тарзида валеологик маданиятга эришиш бугун глобаллашув шароитида умуминсоний қадриятлар қаторига кўтаришмоқда.

«Валеологик маданият Ғарб илм-фанида назарий асосланган бўлсада, лекин унинг ўқ илдизлари қадим даврлардан маънавий меросимиз бўлган манбаларимизда таъкидланган. Шу жиҳатдан Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино каби олимлар, Аҳмад Яссавий, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур кабиларнинг ахлоқий покликка доир таълимотлари, Аҳмад Дониш, Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдурауф Фитратнинг ҳаётий мақсад муддаолари ва ижтимоий фаолликка оид ҳозирги кунда ёшларда валеологик маданиятни шакллантириш учун асос вазифасини бажармоқда»[3].

Демографик нуқтаи-назардан қараганда, мамлакатимиздаги ёшлар йиллар ўтиб давлат ислоҳотларини амалга оширувчи асосий кучга айланади. Табиийки, улар бугун қайси ғоя руҳида тарбия топса, фаолиятини ҳам шу ғоя асосида олиб борадилар. Таъкидлаш жоизки, ўсиб келаётган ёш авлод тарихий маданий мерос асосида тарбия топса, мамлакат келажаги буюк бўлиши муқаррардир.

Бу биринчидан, мамлакатнинг келажаги билан боғлиқ муаммо бўлганлиги учун ҳам масалага алоҳида эътибор қаратиш даркор.



Иккинчидан, ёшларнинг замонавий маданий қиёфасида миллий-маънавий қадриятлар осонликча ўз ифодасини топавермайди. Унга бошқа халқлар, маданиятлар билан боғлиқ қадриятлар ҳам ўзининг таъсирини кўрсатиб, ўзига хос ишонч ва эътиқод туйғуларини уйғотиши мумкин. Носоғлом, эзгуликка йўналтирилмаган ғоя ва мафкура билан боғлиқ қадриятларни фарқлашлари учун ҳам ёшларнинг ҳаётга бўлган муносабатлари миллий қадриятларга мос тарзда шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарурияти мавжуд.

Масалан, аждодимиз Амур Темурнинг «Темур тузук»ларидаги ҳар бир тузукларида ўзига хос қадриятлар тизими мужассамлашган ва умуминсоний даражада бўлган. «Ўн биринчи тузик. – фарзандлар, қариндошлар, ёру биродарлар, қўшнилар ва мен билан бир вақтлар дўстлик қилган барча одамларни давлату неъмат мартабасига эришганимдан унутмадим, (молу мулк ва нахт пул билан) ҳақларини адо этдим. Ўз фарзандларим, қавму қариндошларимдан қариндошлик меҳрини узмадим. Улардан нораво иш ўтган бўлса, дарҳол (қўл-оёғини) боғлаб ўлдиришга буюрмадим. Ҳар кимни (туриш-турмушнинг пасту баландларида) турли йўллар билан синаб, билиб олдим ва уларга шунга яраша муомала қилдим. Ҳаётнинг кўп иссиқ-совуғини кўриб, улардан сабоқ олиб, тажрибамни оширдим. Шунинг учун дўсту душман билан келишиб яшадим»[4].

Учинчидан, бугунги глобаллашув жараёни ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларига ўзининг таъсирини кўрсатмоқда. Ёшларнинг бу жараёнлардан холи эмаслигини ҳисобга олиш лозим. Бу бир томондан умумий, табиий жараён. Чунки ҳозирги ахборотлашган жамият муҳитидан ёшлар турли таъсир омиллари орқали хабардор бўлаяпти. Лекин, уларнинг маданий қиёфа даражаси қадриятларга нисбатан турли хил бўлиши мумкин. Айрим ёшларда халқнинг миллий-маънавий қадриятларига зид хатти-ҳаракат, носоғлом ғоялар, қадриятларга мойиллик ҳам пайдо бўлиши мумкин. Шу боис Ўзбекистон Ёшлар иттифоқининг жойлардаги бўлимлари ҳамда иш фаолиятида глобаллашувнинг ёш авлод маданий қиёфасига салбий таъсирини олдини олиш йўлларини ўрганишга катта эҳтиёж мавжуд. «Ижтимоий тарбия жараёни талабаларнинг ижтимоий фазилатларини шакллантириш, унинг атроф-теварак, жамият, одамлар ҳамда ўзига нисбатан муносабатлари доирасини вужудга келтириш ва кенгайтиришга қаратилган. Олий таълимда талабалар иштирок этадиган ижтимоий муносабатлар тизими қанчалик кенг, хилма- хил ва чуқур бўлса уларнинг маънавияти шунчалик бой бўлади»[5].

Тўртинчидан, ёшларнинг фаоллигини бошқариш демократик тамойилларга тўғри келмайди. Фикр эркинлиги ва хилма-хиллиги шароитида, айниқса, уни

ҳисобга олишда бошқарув кадрларидан алоҳида қобилият, раҳбарлик маҳорати, билим, демократик дунёқараш талаб этилади. Бунинг учун ёшларнинг ижтимоий ҳаёт тарзини кўпроқ ўрганиш лозим. Шу нуқтаи назардан, аввало, ёшларнинг кадриятларга муносабати ҳам тўғри шаклланган бўлиши керак. Бу уларнинг фаолияти орқали миллий кадриятларнинг тўғри шаклланишида муҳим ўрин тутди. Демак, миллий ва умуминсоний кадриятлар бошқарув жараёнлари билан ҳам боғлиқ деб айтиш мумкин.

Жамиятнинг янгиланиши ва модернизация жараёнлари миллий-маънавий кадриятларни асраш ва янада барқарор воқеликка айлантириш заруриятини кўрсатмоқда. Ёшлар билан ишлашда масъул бўлган ҳар бир мутасадди раҳбардан тегишли хулоса, амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишни, уни ҳаётга татбиқ этиб боришни тақозо этмоқда. Бунда ёшларнинг миллий ва умумбашарий кадриятларга муносабати амалий фаолиятдаги фаоллиги орқали қандай намоён бўлиши уларнинг замонавий маданий қиёфаси билан узвий боғлиқдир. Ёшлар замонавий маданий қиёфаси кенг қамровли ижтимоий ҳодиса сифатида институционал ёндашувни тақозо этадиган муҳим стратегик масаладир. Мазкур масалага мактабгача таълим ташкилотлари, мактаблар, Олий ўқув юртлари, нодавлат ноижорат ташкилотлар, хусусан, Ёшлар Иттифоқи маҳалла жамоатчилиқ структуралари мақсадли ёндашишлари лозим.

Ўзини ўзи бошқариш органларининг ёшлар маданий қиёфасини шакллантиришдаги ўрнини кучайтиришда қуйидаги таклифларни амалга ошириш юқори самараларга эришишда муҳим ўрин тутди, жумладан:

- барча фуқаролар йиғинлари ҳудудида истиқомат қилувчи нотинч, муаммоли оилаларнинг, айниқса, ота-онасидан маҳрум бўлган ва боқувчисини йўқотган оилаларда тарбияланаётган фарзандлар учун яратилган шароитларни ўрганиб бориш, таҳлил этиш ва соғлом муҳитни тарғиб этиш юзасидан марказларни ташкил этиш;

- боқувчисини йўқотган кам таъминланган оилада тарбия топаётган қаровсиз қолган вояга етмаган болаларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш, уларни ёт ғоялар таъсирига тушиб қолишининг олдини олиш мақсадида иш ва ўқишга жойлаштириш масалаларида амалий ёрдам кўрсатиб бориш;

- салбий оқибатларга олиб келувчи ва келтириб чиқарувчи сабабларини ўрганиш ва таҳлил этиш, маҳаллаларда аҳоли ўртасида яхши қўшничилик, меҳр-оқибат муносабатларига хос бўлган ота-онасидан маҳрум бўлган болаларни қариндош-уруғлари қарамоғи ҳимоясига олиш каби ибратли миллий урф-одатларимизни тарғиб қилиш;

- ёшлар ўртасида баъзи ҳолларда учраб турадиган турли қийинчиликлар, оилавий муаммолар туфайли юзага келадиган руҳий тушкунлик ва бошқа нохуш ҳолатларда руҳий кўмак беришга ихтисослашган психологик (руҳшунослик) хизматларни, болаларнинг ҳуқуқлари паймол бўлганда муурожаат этадиган махсус «Ҳуқуқий маслаҳатхона»ларни ташкил этиш, ҳудудда фаолият юритаётган ҳуқуқшуносларни жамоатчилик асосида маҳаллаларга бириктириш ҳамда уларнинг фаолияти юзасидан мониторинг ташкил этиш;

- барча фуқаролар йиғинлари ҳудудида истиқомат қилувчи боқувчисини йўқотган чин етим болаларнинг рўйхатини тузиб чиқиш орқали мониторингни амалга ошириш;

- ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантиришга оид қонунлар билан ёшларни таништириш;

- маҳаллаларда ичкиликбозликка, гиёҳвандликка ружу қўйганлар, оилалар турмуш даражасини баҳолаш ва девиант хулқ атвор белгиларини бартараф этиш;

- ҳар бир ўқув ва таълим муассасалари ҳамда маҳаллалар қошида болаларнинг миллий хунармандчиликка бўлган қизиқишларини орттириш ва бўш вақтларида бандлигини таъминлаш мақсадида бепул касб-хунар ўрганиш марказлари ташкил этиш;

- салбий кўрсаткичлари юқори бўлган ҳудудларда ёшларнинг бандлик даражасини ўрганиб чиқиш ва таҳлил қилиш, натижалари юзасидан ёшлар учун имтиёзли бўлган турли тўғараклар ва иш ўринлари яратиш;

- тарбияси оғир болалар учун таътил даврида уларнинг бандлигини таъминлаш ва улар билан тарбиявий ишлар олиб бориш мақсадида оромгоҳлар ташкил этиш ҳамда уларни касб-хунарга йўналтириш.

Ёшларни ижтимоий жабҳаларга тортиш уларда сиёсий маданиятини ошириш кўзланган мақсадга етказиш омилидир. Ёшлар сиёсий фаоллашувининг моҳияти уларнинг иқтисод, сиёсат соҳасидаги фаол кучи, янги сифатий ҳолати билан белгиланади. Мазкур амалиёт ҳам жамият, ҳам ёшларни ўзига жалб этади. Мамлакатимизда бу масалага эътибор берилаётган бўлсада унинг назоратини кучайтириш лозим бўлади.

Инсон қадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш Янги Ўзбекистон тараққиётига эришишнинг асосий мақсадидир. Бу эса ёшларнинг кенг қатлам сифатида қадриятларга муносабатига, таълимнинг мазмунига ва зарурий ижтимоийлашувида намоён бўлади. Таълимнинг ижтимоийлашуви энг аввало ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш жараёнида шаклланади. Шу

боис, умуминсоний кадриятлар барча замонларда мамлакатларнинг ҳаётида алоҳида ўринга эга ва шундай бўлиб қолмоқда. Умуминсоний кадриятлар ижтимоий жараёнлар маҳсули ва эҳтиёжнинг натижасида вужудга келадиган ва дунёқрашидаги ўзгаришни талаб этадиган ҳодисадир. Умуминсоний кадриятларни англаш даражаси инсоннинг ақлига боғлиқ бўлади.

Юқорида кўрдикки, ёшларнинг сиёсий мавжудотга айланишида ижтимоийлашув ҳал қилувчи босқич вазифасини бажаради. Шу ўринда, назаримизда инсонни ижтимоийлашувга ундовчи ёки омилларни аниқлаштиришимиз лозим. Чунки, бунинг натижасида ижтимоийлашувнинг асл моҳиятини англашимиз мумкин бўлади. Фикримизча, инсонни «энг олий бойлиги» дан яъни табиий эркинликларидан «воз кечиб» жамиятдаги мавжуд меъёрларни қабул қилишга ундовчи биринчи омил бу-ўзининг табиий ноқулайликларни (жисмоний ожизлиги, ўз эҳтиёжларини яқка ҳолда қондира олмаслиги ва бошқалар) бартараф қилишга интилишдир. Иккинчи омил бу-ўз эркинликларини жамиятдаги мавжуд меъёрлар орқали кафолатлаб олишга урунишдир. Аслида, бизнингча ижтимоийлашув жамият ва инсон ўртасида ўзаро мулоқот воситасида, жамият эса унинг эркинликларини меъёрлар орқали кафолатлайди.

Турли ёшдаги ёшлар ҳаётга қарашлари ва ҳаётий кадриятларни идрок этишлари билан, ҳатто ёш фарқлари нисбатан кичик бўлган гуруҳларда ҳам фарқланади. Масалан, бугунги кунда 25 ёшдан ошган ёшлар ва мактаб ёшидаги ёшларнинг дунёқараши, она Ватанга бўлган эътиқоди, кадриятларини тарғиб этиш каби хусусиятлар ҳақида турлича қарашлари мавжуд. Бунинг асосий сабаби - замонавий цивилизация тушунчаси ва кадриятларнинг глобал муносабатларга нисбатан ўзгариши. Ёшлар ўз даврининг энг машҳур ва қизиқарли тушунчаларини ўзлаштиришга ҳаракат қиладилар, ўз муҳити ҳақидаги тасаввурларга тақлид қиладилар.

Асосий кадриятларнинг устунлиги табиий ҳодисадир. Моҳиятан улар маълум даражада ижтимоий ва обрўли эҳтиёжлар асосини шакллантириш омиллари сифатида эътироф этилади. Ёшларнинг асосий кадриятларининг аҳамиятини таҳлил қилиш (эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда) ёшларнинг ижтимоий онгида умумий инсоний кадриятлар: саломатлик, моддий таъминот, авлодлар қарамлиги ва ўзига ишонч устунлик қилишини кўрсатди. Якуний кадрият ориентацияси – бу ўтиш давридаги ёшлар учун муҳим бўлган асосий хусусиятларнинг типидир. Оила ва ота-она кадриятлари ўртасидаги кўрсаткичлар (иккинчиси устунлик қилади) ёш авлоднинг кичик ижтимоий тажрибаси, ёш авлоднинг ёш хусусиятлари, шунингдек, анъанавий умумий

авлод кадриятларининг устунлиги билан изоҳланади. Ёшларнинг ота-оналари олдида етарлича масъулиятли эканини билиши ёшларнинг маънавий-ҳуқуқий соҳада келажаги буюк эканидан далолат беради. Бу салоҳиятни рўёбга чиқариш даражасини ҳаёт кўрсатади.

Ёшлар онгида ушбу кадриятнинг алоҳида долзарблиги шуни кўрсатадики, ёшларнинг асосий кадриятларида уларнинг ҳозирги ва келажакдаги молиявий аҳволи уларга боғлиқ деган фикр мавжуд. Ушбу қийматнинг ўзгариш йўналиши истеъмолчига йўналтирилганлиги билан тавсифланади. Миллий маданий анъана ва кадриятларимизни асраб-авайлаш ва янада ривожлантириш масъулияти ана шу ёшлар зиммасига тушади. Ёшларнинг маданий ўзига хослигини ва унинг сифат даражасини аниқлаш Янги Ўзбекистоннинг ижтимоий-давлат тараққиёт даражасини, миллий менталитетнинг мустақамлигини, шунингдек, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги ўрнини белгилайди. Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, ёшларнинг маданий тартиби алоҳида ҳодиса сифатида шаклланишини кўрамиз. Шу муносабат билан биз учун қизиқарли савол, Бу ёшларнинг маданий ўзини-ўзи англаши, маънавий-маданий кадриятларни ўзлаштириши масаласидир. Ижтимоий лойиҳаларни муваффақиятли амалга ошириш ва инқироздан чиқиш, жамият барқарорлиги ва яхлитлигини сақлашда аҳолининг маданий ривожланишининг аҳамияти ёшларнинг маданий кадриятлари, йўналишлари ва маданий идеаллари масалаларининг долзарблигини оширади. Модернизация жараёни, коммуникатив тафаккурнинг жамият ҳаётига кириб бориши маданий ўзини ўзи белгилаш масаласини кўтаради. Шу муносабат билан ёшларнинг маънавий маданиятини шакллантириш борасидаги тарбиявий ишлар янада мураккаблашиб бормоқда. Бу маданият фалсафаси ва маданий антропология учун ижтимоий муносабатлар ва унинг маданий шаклидаги инсон мазмунини аниқлашнинг долзарблигини оширади. Яъни, ахлоқнинг маънавий кадриятлар орқали ижтимоийлашуви сиёсатнинг ахлоқий кадриятлар билан уйғунлашуви жараёнини белгилайди.

Ёшларнинг кадриятларга муносабатларини инобатга оладиган бўлсак, кадрлар салоҳияти қуйидагиларда намоён бўлади:

- ақлий салоҳият, узлуксиз таълим доирасида орттирилган қобилиятларни ўз ичига олади;

- ижтимоий салоҳият, самарали ижтимоийлашувни таъминлайдиган мулоқотга киришиш қобилиятини ўз ичига олади;

- профессионал тажриба билан боғлиқ салоҳият, касб малакаси билан боғлиқ тажрибани умумлаштириш кўникмаларини ўз ичига олади;



- психологик-физиологик салоҳият[6].

Ёшлар замонавий маданий қиёфаси ва умуминсоний қадриятлар ҳамоҳанглиги асосида урф-одат ва анъаналар замонавий шаклга келади. Миллий анъана, урф-одатлар – миллий дунёқараш манбаи ҳамдир. Азалдан ҳар бир авлод ўз ота-оналаридан дунёқарашни ўзлаштириб, ўз дунёқарашига айлантириб ва шу асосда фарзандлари дунёқарашини шакллантириб, мерос тарзида узатиб келади. Ҳозирги замонда юз бераётган глобаллашув жараёни ва уни одамларнинг онги ва кайфиятига бўлган таъсири комил инсонни тарбиялаш билан боғлиқ масалаларга янгича ёндашишни тақозо этмоқда.

## **ХУЛОСА**

Миллий анъана, маросим ва одатлар ўз моҳияти билан инсон руҳига, маънавияти, мафқурасига бевосита, норасмий, амалий таъсир кўрсатиши билан алоҳида тарбиявий аҳамиятга эга. Тараққиётнинг янги манзиллари белгилаб олинганида янги анъаналар ҳам пайдо бўла боради. Бугунги илмий-технологик тараққиёт бизга ўз талаблари, жумладан, вақт ва маблағни бекорга совурмасликни, турмушимизни бугун – кечагидан, эртага – бугунгидан яхшироқ қилишга қаратишни талаб қилмоқда.

Агарда биз буни инкор қилиб, дабдабага ружу қўйсақ, исрофгарчилик қилсақ, болаларимизга билим ўрнига пул беришни маъқул кўрсақ, янглишамиз. Чунки маърифатли миллатлар ўз фарзандларини билим билан қуроқлантириб, жуда тез ривожланмоқда. Улардан ўтиб кетишимиз учун ана шу мақсадимизга хизмат қилувчи анъаналаримизни тиклашимиз, янгиларини яратишимиз керак. Қисқача айтганда, ўзлигига таянган миллат ёшлари замонавий маданий қиёфага эга бўлишлари зарур.

## **REFERENCES**

1. Хусанбаева, Ю., & Саъдуллаева, Д. (2023). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 48-51.
2. Салимсакова, Н. С., & Хусанбаева, Ю. Б. (2021). СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, (SI-1).
3. Назарбоева, Б. А., & Хусанбаева, Ю. Б. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИДА ЁШЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТИНИНГ ЎРНИ. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 4(4).

4. Хошимова, Г. Ф., & Хусанбаева, Ю. Б. (2020). ВЗАИМОСВЯЗЬ ВИРТУАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО МИРА НА ФОНЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 3(4).
5. Kurultaevich, I. K., Zairjanovich, Y. S., Abdullayevna, S. D., Botirovich, T. B., & Anatolievna, T. M. (2023). Specifics Of Teaching Foreign Language Speaking To Students At A Non-Linguistic Institute (Iper) In The Distance Learning Format. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 549-559.
6. Sadikova, D. A. (2023). TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE MODERN STUDY OUTLOOK: TEACHING DICTIONARIES. *World of Scientific news in Science*, 1(2), 104-115.
7. Saparbaevna, R. R., Allanazarovna, E. R., & Nawbahar, O. (2020). Physiological Ergogenic Medicines: Modern Trends Of Application In The Training Of Athletes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
8. Reymbaeva Roza, Ernazarova Raya, Joldasbaeva Gulchexra, & Allamberganova Laura. (2023). HANDBALL EFFICIENCY IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 721–725. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1774>
9. Roza, R., Talgat, K., Raya, E., & Aynura, P. (2023). THE CONTENT AND FORMS OF SUPPORT FOR PROFESSIONAL SELF-DETERMINATION OF STUDENT TEACHERS. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 273-279.
10. Saparbaevna, R. R., Erejepovich, K. D., Allanazarovna, E. R., & Sabitovna, P. A. (2022). Organization Of Rational Nutrition of Athletes in Training and Competitive Activities. *Specialusis Ugdymas*, 2(43), 3566-3568.
11. Saparbaevna, R. R., & Allanazarovna, E. R. (2020). Aspects Of Studying Snakes In The Fauna Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 3765-3771.

**GENRIX BYOLL IJODIDA AYOL OBRAZI TRANSFORMATSIYASI  
MASALASI: KATERINA BLUMNING “YO’QOTILGAN SHA’NI” ASARI  
MISOLIDA**

**Xasanova Musallam Muminovna**

O’zMU katta o’qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada XX asr nemis adabiyotining ko’zga ko’ringan namoyondasi, Nobel mukofoti sovrindori Genrix Byoll ijodida ayol obrazi va ushbu obrazning transformatsiya jarayoni masalalari tahlil qilingan. G.Byoll asarlari markaziy mavzulari urush va uning inson taqdirida tutgan o’rni, urushdan keying jamiyatda qadriyatlar va mazkur ijtimoiy muhitda ayol hayoti, uning hatti-harakatlaridagi o’zgarishlar hisoblanadi. Ayniqsa, “Katerina Blumning yo’qotilgan sha’ni” romanida Katerina misolida ijodkor shaxs dunyoqarashi va xulq-atvori o’zgarishiga tashqi omillarning nechog’liq yuqori ta’sir eta olsihini ochib bergan. Maqola aynan mazkur roman tahlili asosida Genrix Byoll asarlarida ayol obrazlari o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.*

**Kalit so’zlar.** *Ayol obrazi, nemis adabiyoti, XX asr jahon adabiyoti, urush, shaxs transformatsiyasi, tashqi ta’sir, Genrix Byoll.*

**ABSTRACT**

*This article analyzes the issues of the female image and the process of transformation of this image in the work of the outstanding figure of German literature of the XX century, Nobel Prize winner Heinrich Bjoll. G.The central themes of Bell’s works are the war and its role in human destiny, values in post-war society and the life of a woman in this social environment, changes in her behavior. In particular, in the novel “The lost honor of Katerina Blum ” using the example of Katerina, the author showed how strongly external factors can influence a change in a person’s worldview and behavior. Based on the analysis of this novel, the article reveals the features of female images in the works of Henry Bioll.*

**Keywords.** *Female image, German literature, world literature of the XX century, war, personality transformation, external influence, Henry Buell.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируются вопросы женского образа и процесса трансформации этого образа в творчестве выдающегося деятеля немецкой литературы XX века, лауреата Нобелевской премии Генриха Бьоля. G.Центральными темами произведений Бьоля являются война и ее роль в судьбе человека, ценности в послевоенном обществе и жизнь женщины в этой социальной среде, изменения в ее поведении. В частности, в романе*

*“Утраченная честь Катерины Блюм ” на примере Катерины автор показал, насколько сильно внешние факторы могут влиять на изменение мировоззрения и поведения человека. В статье именно на основе анализа данного романа раскрываются особенности женских образов в произведениях Генри Бьюлля.*

**Ключевые слова.** Женский образ, немецкая литература, мировая литература XX века, война, трансформация личности, внешнее влияние, Генри Бьюлл.

## **KIRISH**

XX asr jahon adabiyoti asosan xalqaro munosabatlarda sodir bo'lgan eng muhim ikki voqealik, ya'ni ikki jahon urushlari va ularning oqibatlarini ochib berishga qaratildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur jahon urushlarida asosiy ishtirokchi davlat hisoblangan Germaniya ijodiy qatlamlarida ham urushning salbiy oqibatlari va uning inson taqdirini buzib yuborish, jamiyatda ishonchsizlik, o'zaro gumon tuyg'ularini kuchayishi, dushmanchilik kayfiyatining yuqori bo'lishi va begunoh gunohkorlarning ko'payishiga sababchi bo'lishini ko'plab nasr va nazm ustalari o'z asarlarida yoritib berishga harakat qildilar. Aynan urush va unda keying yillarda inson hayotini hijoya qilishda ayol obrazlaridan mohirona foydalana olgan ijodkor Genrix Byolldir. G. Bellning merosi juda katta. U romanlar, hikoyalar, pyesalar, radio pyesalar, satiralar, she'rlar yozgan, tarjimalar bilan shug'ullangan, publitsist, adabiy tanqidchi, sharhlovchi sifatida ishtirok etgan. Ammo aynan romanlar dunyoga mashhurlik keltirdi, uning XX asrning eng yirik yozuvchilari orasida alohida o'rnini aniqladi, ularda yozuvchi iste'dodi eng katta kuch bilan namoyon bo'ldi. G. Byoll adolatsiz urush haqida gapirishni, o'zi boshdan kechirgan voqealar haqida batafsil va aniq aytib berishni o'z burchi deb bildi. Urush mavzusiga murojaat qilib, yozuvchi nafaqat o'lim va xarobalarni, vayronagarchilik va qotilliklarning ma'nosizligini tasvirlab berdi, balki harbiy o'tmish fojiasi, aybni anglash va qutqarish imkoniyati uchun javobgarlik muammosiga murojaat qildi<sup>147</sup>.

Uning “Katerina Blumning yo'qotilgan sha'ni” asaridagi Katerina obrazida ayol obrazi transformatsiyasi orqali urushdan keyingi inqirozli davrda dushmanchilik kayfiyati va ishonchsizlik qay darajada shaxsni ozgartirishi mumkinligini yaqqol namoyon qilib berilgan. Aynisa OAVning urushdan keying davrdagi faoliyati yangicha talqin qilingan.

<sup>147</sup> Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов г. Бёлля// жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. с. 232

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mazkur asarda XX asr 70 – yillarida Germaniyada terroristik harakat bilan shug'ullangan “Qizil armiya fraksiyasi” partiyasining faoliyati ham ochib berilgan bo'lib, har qanday kuch ishlatish faqat nohush oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida xulosalar berilgan. 1970-yillarda Germaniya siyosatida "qizil armiya fraksiyasi" (RAF) chap terror tashkiloti faoliyati tufayli vahima paydo bo'lgan edi<sup>148</sup>. Uning qurbonlari ko'pincha yuqori martabali amaldorlar va siyosiy huquqshunoslar bo'lgan. Ammo mazkur tashkilotga aloqasi bor yoki yo'q shaxslar ham ko'p hollarda noxolis jurnalistik surishtiruvlar natijasida yolg'on ayblangan holatlar ham kuzatilib turgan. Mazkur asarning eng asosiy qahramonlari Katerina va mahalliy gazeta muhbiridir. Ikki obrazning tanish bo'lmasada o'zaro hayotlariga ta'siri masalasi juda ta'sirchan uslubda hikoya qilinadi. Tabloid jurnal aslida jurnalistik amaliyoti munozarali nemis gazetasi "Bild-Zeitung" usullariga o'xshaydi, bu haqida muallifning o'zi ham ko'p bora takidlab o'tgan edi. Romanning muqaddimasida Geynrix Byoll bunday o'xshashlikni “qasddan yoki tasodifiy emas, balki muqarrar”<sup>149</sup> deb ataydi. Byoll, shuningdek, 1972 yilda nashr etilgan ochiq xat yozib, “Bild-Zeitung” dagi “Qizil armiya fraksiyasi” faoliyatini ko'rib chiqish va baholashni, xususan “yalang'och fashizm” deb atagan edi<sup>150</sup>.

Hikoya zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalarining ishini fosh qilish va qoralashga bag'ishlangan – zero OAV vakillari kezi kelganda voqea hodisalar talqinini mohirona o'zgartiradilar, so'zlarni kontekstdan chiqarib tashlaydilar, mavjud bo'lmagan, sensatsion omillarga ishora qiladilar va begunoh aybdorlarni o'quvchilarga taklif qiladilar - va bu orqali nafaqat obro' - e'tibor, mavqe, balki odamlarning hayoti ham barbod bo'lishiga sababchi bo'lib qoladilar. Aslida esa bularning bari o'quvchilarning qisqa muddatli qiziqishlarini qodirish uchun va sensansiya ortidan qilingan ishlardir. Shuning uchun, bu yerda rol o'ynaydigan gazeta shunchaki gazeta deb ataladi. Muallif asarda voqealarda atayin quruq, muxbir tilida ifoda qilishga intiladi. Asar o'quvchilari ham o'zlarini o'sha mudxish gazeta o'quvchilari o'nida his qilishlari va Katerina Blunga gazeta muhbiri ko'zlari bilan qrashlari uchun. Katarina Blum oddiy ayol, u ko'p yillar davomida bir nechta ishlarda og'ir mehnatda ishlagan, shu bilan birga o'z sohasida professionalizmga erishish uchun kurslarni tugatgan - u bayramlar va yubileylarning ideal tashkilotchisi, professional uy bekasi va mehribon inson. U tanishlari orasida obro'ga ega-va ushbu ayol qahramon ehtiyotkor, mag'rur va odoblidir. Ammo do'stining ziyofatida qatnashish va u yerda bir qarashda Lyudvig ismli shaxsni sevib qolishi keyinchalik

<sup>148</sup> Цитата из письма Бёлля Архивировано. 15 июня 2006 года. в хронологии RAF за 1972 год

<sup>149</sup> Остудина Т. А. 1969: О стиле Г. Бёлля // Вестник Ленингр. ун-та: История, язык, литература. 8, с.107

<sup>150</sup> Рудницкий М. Л. 1980: Генрих Бёлль // История литературы ФРГ / И. М. Фрадкин (ред.). М., с. 298



tom ma'noda uning hayotini jahannamga aylantiradi- Lyudvig go'yoki bank qaroqchisi va qotil. Gazeta o'quvchilari ushbu fikrlarga ergashadilar va endi ishionchli sanalga Katerina tinimsiz so'roqlar va tergov, jurnalistlar bosimi ostida qoladi. Bir necha kun ichida qahramon obro'sini yo'qotadi, ishidan ayriladi, do'stlari undan voz kechadilar. Boshqa yo'lni ko'rmay, qahramon gazetaning yetakchi muxbirini otib tashlaydi-lekin hech narsa o'zgarmaydi, uning o'rnini darhol boshqasi egallaydi, zero bu tizim yengilmasdir. Katerina Lyudvigga aloqasi bo'lmagan begunoh fuqaro sifatida ommaviy axborot vositalarining qurboniga aylanadi, uning hayotiga tajovuz va kuzatuvlar ko'payadi.

### **XULOSA**

Begunoh, odobli, bosiq va aqlli Katerina obrazi tashqi bosim, dalilsiz ayblovlar natijasida qotilga aylanadi. Uning transformatsiyasi bir tomondan ayol shaxsiyati faqatgina bo'ysunish, itoatkorlik, odob va andisha ramzi emas, balki kurashuvchanlik, muammoga yechim izlashga bel bog'lagan mard qahramoblarda ham namoyon bo'lishini sibotlasa, boshqa tomondan tizim qurboni sifatida ochib berilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Beckert M. 1970: Untersuchungen am Erzählwerk Heinrich Bölls. Themen - Gestalten -Aspekte. Erlangen.
2. Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов Г. Бёлля// жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. С.232-239.
3. Фрадкин И. Генрих Бёлль - писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. - М.: «Художественная литература», 1989. -Т. I. - С. 5-28.
4. Остудина Т. А. 1969: О стиле Г. Бёлля // Вестник Ленингр. ун-та: История, язык, литература. 8, 99-108.
5. Рудницкий М. Л. 1980: Генрих Бёлль // История литературы ФРГ / И. М. Фрадкин (ред.). М., 295-325.

## РОЛЬ СЕТИ ИНТЕРНЕТ В ПУТИ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРОЯВЛЕНИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЯ ЭКСТРЕМИСТСКИХ И ТЕРРОРИСТИЧЕСКИХ ТЕЧЕНИЙ

**Атажанов Ахтам Юсупович**

Старший преподаватель Кафедры гуманитарных дисциплин  
Чирчикского высшего командного инженерного училища

### АННОТАЦИЯ

*Молодежь как социодемографическая группа является активным коммуникантом информационного поля, но сегодня информационное поле становится неуправляемым. Свободный доступ к сети Интернет делает молодежь потенциальной жертвой радикальных идеологий, экстремизма и терроризма. В статье приводятся пути практического проявления и распространения экстремистских и террористических течений в сети Интернет.*

**Ключевые слова:** демография, радикальные идеологии, экстремизм, терроризм, сеть Интернет.

### АННОТАЦИЯ

*Ёшлар ижтимоий-демографик гуруҳ сифатида ахборот соҳасининг фаол мулоқотчисидир, бироқ бугунги кунда ахборот соҳаси бошқариб бўлмайдиган ҳолга айланиб бормоқда. Интернетдан эркин фойдаланиш ёшларни радикал мафкуралар, экстремизм ва терроризмнинг салоҳиятли қурбонига айлантиради. Мақолада экстремистик ва террористик оқимларнинг интернет тармоғида амалий намоён бўлиши ва тарқалиши йўллари келтирилган.*

**Калит сўзлар:** демография, радикал мафкуралар, экстремизм, терроризм, интернет тармоғи.

### ВВЕДЕНИЕ

С развитием научно-технического прогресса интернет становится неотъемлемой частью жизни каждого человека.

На сегодняшний день почти 35 процентов населения земного шара (более 2 миллиардов 400 миллионов человек) имеют доступ к Интернету. Эксперты говорят, что к 2025 году этот показатель составит 65 процентов<sup>151</sup>.

<sup>151</sup>Григорьева, Л. И. Религии «Нового века» и современное государство / Л. И. Григорьева. – Красноярск. 2002.

Согласно исследованиям, 70-75% информации в Интернете считается вредоносным для людей. К сожалению, этот показатель с каждым годом увеличивается. Крайне печально то, что большинство людей не могут отличить, что данная информация состоит из лжи и измышлений, что они направлены на отравление человеческого разума, и считают их правдой.

К числу деструктивных идей, направленных на порабощение человеческого сознания на идеологических полигонах, можно отнести религиозный экстремизм, терроризм, миссионерство, «массовую культуру» и различные информационные атаки. В конце XIX века и в начале XX века среди мировых политиков на вопрос «Кто будет править миром» отвечали примерно так: «Кому принадлежит железная дорога». Сегодня не будет преувеличением, если ответом на этот вопрос будет «Кому принадлежит информация»<sup>2</sup>.

Терроризм, который изначально был организован с целью уничтожения представителей политической власти или создания паники среди гражданского населения, со временем изменил свой облик и стал глобальным, маскируя религию, и вызывает озабоченность всего мира. По сути, террористические организации являются марионетками, которые могут играть свою роль в геополитических играх, организованных представителями «третьей руки» в политике.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Самый эффективный способ повлиять на человека — это повлиять на его убеждения. По этой причине в мире действуют более 800 религиозно-экстремистских организаций под прикрытием религии. Сегодня эти разрушительные силы овладевают человеческим разумом и широко используют СМИ и Интернет для достижения своих злонамеренных целей. По оценкам экспертов, существует более 100 000 сайтов, пропагандирующих различные формы экстремизма<sup>152</sup>.

Например, предоставляя в Интернете неприятные анализы будущего, различных неприятных событий, происходящих в мире, они воздействуют на сознание человека и внушают ему мысль о том, что «этот мир полон несправедливости и угнетения, нет смысла в том, чтобы жить в нем, и единственный способ избавиться от него — смерть». Для этой цели существуют тысячи сайтов, которые вызывают последствия убийства других людей под лозунгом «спасения других от этого угнетающего мира». Воздействие этих сайтов, созданных определенными силами для достижения

<sup>152</sup>Карр Н. Бездушность Веб 2.0 // Компьютерра. 2005. 21 ноября.

конкретных целей, можно объяснить обществом, где господствуют идеи индивидуализма, исчезновением общечеловеческих ценностей, слабостью института семьи, отсутствия сочувствия боли других, постановкой личных интересов выше других.

Среди религиозно-экстремистских организаций различные миссионерские секты также используют Интернет для захвата человеческого сознания. Они притворяются невинными и стремятся помочь людям, а на деле истинной целью является совершенно другое.

Также существует множество сайтов и каналов, осуществляющих миссионерскую деятельность в Интернете и СМИ.

Миссионерская и проповедническая деятельность ведется непрерывно, особенно на тысячах спутниковых каналов. К их числу можно отнести такие протестантские каналы, как «СНЛ», «Схурсх Сханнел», «ТВН» и «Год ТВ». Также сегодня набирает обороты деятельность сект, основанных на зле, которые полностью противоречат гуманизму<sup>153</sup>.

Примером таких сект является организация «Церковь Сатаны», основанная Антоном Лавеем в 1966 году. Через официальные сайты этих сатанистов и интернет-страницы различных групп, следующих за ними, даются учения, пропагандирующие зло, насилие и поощряющие поклонение Сатане против любой религии и добрых идей.

Просмотр и распространение порнографических материалов, пропаганда супружеской измены и проституции, схождение с ума от рок-музыки — такие действия, ведущие к гибели человечества, являются ежедневными ритуалами и «молитвами» членов организации. Возмутительно, что организации, занимающиеся такими гнусными вещами, принимаются и регистрируются как «религия» под видом «демократии» некоторыми странами, выдающими себя за защитников прав человека во всем мире.

В связи с этим стоит отметить, что социальные сети в настоящее время широко используются различными группами и течениями для пропаганды религиозного экстремизма и фанатизма, распространения недовольства в обществе. В процессе ведения беседы в Интернете некоторые молодые люди, не имеющие понятия, неверно истолковывают понятия «земля неверия», «хиджрат», «джихад», «мученичество», «халифат», они втянуты в различные войны и конфликты.

Фанатики, озлобленные, лишены самостоятельного мышления, превратились в зомби религиозно-экстремистскими и террористическими течениями, играющими под дудку различных сил. Сегодня общеизвестно, что

<sup>153</sup>Карр Н. Бездушность Веб 2.0 // Компьютерра. 2005. 21 ноября.

они используют боевиков, слепо выполняющих любые приказы своих лидеров, для разжигания различных конфликтов и нестабильности в мирных регионах.

Принимая во внимание тот факт, что Интернет не знает границ, а заблокировать пространственные каналы, транслируемые со спутника, невозможно, в целях защиты населения, особенно молодежи, от деструктивных идей необходимо создать моральный иммунитет в их против таких чуждых идей, через Интернет и СМИ делать обоснованные возражения этим группам, важно давать, доносить до молодежи чисто религиозное учение, воспитывать ее в духе патриотизма, верности Родине.

Сегодня необходимо осознать и помнить всегда то, что внешние факторы, негативно влияют на развитие общества, что СМИ стали мощным инструментом манипулятивного воздействия на общественное сознание и активно используются в информационном поле разных стран для достижения их политические цели, и что эта опасность не миновала и нашу страну.

Одним из главных требований современной эпохи глобализации является сознательное реагирование на информацию зарубежных СМИ, подход и анализ ее с точки зрения нашей национальной безопасности.

Воспитывать молодежь в духе наших национальных учений и ценностей, уважения к предкам, жить болью народа, считать семью священной, питать их надеждой на будущее – актуальная задача сегодняшнего дня. В борьбе с религиозным экстремизмом, международным терроризмом и чуждыми идеями мы все должны чувствовать свой долг, осознавать и помнить, что мы в ответе за будущее нашей страны.

Мир зол для тех, кто ищет зла,  
мир чужд тому, кто ищет чужеродности.

Кто что-то ищет, тот обязательно найдет.

Мир есть мудрость для того, кто ищет мудрости.

Эти мудрые слова, сказанные несколько столетий назад, сегодня как будто говорят об Интернете, оплетающем мир, как паутина.

На самом деле Интернет — это, образно говоря, один большой рынок. На этом рынке есть всё, кроме человеческой жизни. Точно так же, как покупатель ищет на рынке, пользователь Интернета обязательно найдёт то, что он искал.

Интернет, который был основан американским правительством в военных целях в 60-х годах прошлого века, сегодня служит важным фактором развития науки и развития человека.

В наше время очень сложно представить нашу жизнь без Интернета. Глобальная сеть отлично облегчает общение и обмен информацией между



людьми, проживающими в разных уголках мира. Сегодня узнавать новости, покупать и продавать, получать образование можно через Интернет. Итак, возможностей «паутины» много и они все глубже и глубже проникают в нашу жизнь. Такие возможности Интернета являются причиной увеличения числа его пользователей.

Согласно статистике, наибольшее количество пользователей Интернета в мире составляют молодые люди в возрасте от 18 до 30 лет. Потому что люди в этом возрасте очень интересуются новой информацией.

Ни для кого не секрет, что число пользователей Интернета в Узбекистане растет день ото дня и в настоящее время превышает 10 миллионов человек. Как вы знаете, было бы справедливо признать многие положительные стороны Интернета для человека<sup>154</sup>. С ростом популярности Интернета мы можем наблюдать быстрый рост мошеннического бизнеса. Отравление сознания молодежи путем распространения религиозных материалов и вербовка на различные религиозные течения. Кража конфиденциальных документов, продажа государственной тайны, торговля людьми и реклама наркотиков стали очень популярны в Интернете. В большинстве случаев дети и подростки в поисках признания, внимания или дружбы часто попадают на удочки торговцам людьми в социальных сетях.

Идиологические угрозы и информационные атаки, направленные на овладение сознанием молодежи, растут каждым днём в Интернете, меньше не становятся. В частности, широкое распространение получают такие виды, как манипулирование общественным сознанием, разрушение национальных и духовных ценностей, пропаганда совершенно чуждых менталитету чуждых ценностей, разрушение и изменение исторической памяти людей, кибертерроризм. Эта проблема побуждает каждого здравомыслящего человека быть более осознанным.

Именно поэтому в приветствии Президента прессе и работникам средств массовой информации он сказал: “Хочу снова и снова повторить, что нам не нравится способ возведения какой-то стены в мире информации, завернуть себя в скорлупу и столкнуться с ограничениями. В то же время, если принять во внимание события, происходящие сегодня вокруг нас, в дальних и ближних регионах, злые силы, направленные на введение в заблуждение молодежи, еще не сформировавшей свое сознание и жизненные взгляды, также пытаются

---

<sup>154</sup> Лученко К.В. Религиозный сегмент Инета. Основные характеристики // Журналистика в 2004 году. СМИ в многополярном мире. Сборник материалов научно-практической конференции. Часть I . – М.: Факультет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005, с.201-203

использовать возможности Интернет в своих интересах, и мы не должны игнорировать негативные последствия таких усилий”.

По информации, количество страниц, пропагандирующих духовно-нравственную деградацию в Интернете, сегодня составляет несколько сотен миллионов. Еще одна информация, которая призывает людей быть начеку, заключается в том, что более 7000 веб-страниц подрывного характера в глобальной системе действуют в злонамеренных целях<sup>155</sup>.

Высока и роль религиозного фактора в завоевании сердец и умов людей с использованием огромного потенциала Интернета. Потому что Интернет считается одним из самых эффективных инструментов для искажения религиозных представлений и привлечения людей, особенно молодёжи, сознание которых еще не полностью сформировано и чьи религиозные знания очень скупы.

Здесь следует отметить, что есть и другие причины, по которым экстремистские и террористические группы используют Интернет. Включая,

- возможность легкого подключения к интернет-системе;
- невозможность юридически контролировать деятельность в Интернете;
- возможность распространения информации из любой точки мира;
- неограниченная аудитория и высокая скорость передачи информации;
- обеспечение конфиденциальности информаторов;
- Такие удобства, как размещение информации в гармонии текста, изображения и звука, не преминут привлечь террористов<sup>156</sup>.

Если мы обратим внимание на сайты самых ярых фанатов экстремистских течений, то увидим, что они религиозно оправдывают действия деструктивных людей, а себя выдают за защитников религии, провозглашая себя «султаном мученичества» и изображая их как святые, которые беспрепятственно войдут в рай.

Представители религиозно-экстремистского движения подчеркивают толкование понятий «богохульство», «джихад», «хиджрат», «шахид», которые требуют очень деликатного и чуткого подхода, опираясь на фетвы различных неграмотных людей, но в очень действенный способ. Например, экстремистские движения, пытающиеся маскировать ислам и работать от его имени, интерпретируют его так: «Джихад — это священная война мусульман против немусульман». Такая интерпретация является причиной формирования

<sup>155</sup> Интернет и религиозные коммуникации // Медиаскоп <http://www.mediascope.ru/node/32>, 7 июля 2015 г . №0420800082\0003

<sup>156</sup> Campbell H. A. Who's got the power? the question of religious authority and the Internet. J. of computer-mediated communication. 2007. 12 (3), 1043–1062.

представления о том, что наша религия основана на зле, насилии, войне, кровопролитии, борьбе с людьми других религий.

Согласно религиозной истине, существует три вида джихада: борьба с похотью, с дьяволом и со злом, и их содержание достаточно разъяснено в надежных источниках. Но на религиозно-экстремистских сайтах различные «хранители» пытаются придать этому понятию несвойственный смысл. Ахмад ибн Таймия, один из фанатичных ученых Средневековья, в одной из своих фетв выступал за то, что «необходимо объявить джихад тому правителю, который не управляет государством по шариату». Саид Кутб, лидер «Братьев-мусульман», в своей книге «Знаки на пути» использовал понятие «джихад» в смысле борьбы с неверующими, даже с мусульманами, которые не согласны с его интерпретацией<sup>157</sup>.

Согласно фетвам религиоведов, правильно понявших суть джихада, только лидер мусульман или глава государства, населенного мусульманами, имеет право объявлять джихад по согласованию с учеными высокого уровня этой страны. Действия безграмотных людей, совершенно несведущих в религиозных науках, но давших себе такие блестящие имена, как «солдаты-халифы», «воины Аллаха», «султан моджахедов» и именующие их Джихадом, есть не что иное, как нашествие.

По этому поводу ученые ряда исламских стран также объявили фетвы, запрещающие террористические акты. В нем говорится: «Такой поступок не оправдывается шариатом и не считается джихадом на пути Аллаха». В этой фетве говорится, что «захват самолетов и захват заложников противоречат шариату».

В то время, когда в Интернете все чаще звучат призывы к людям покинуть свою страну и эмигрировать в очаги конфликтов, ученые Королевства Саудовская Аравия в других своих фетвах призывают мусульман не выезжать за границу для участия в джихаде. Согласно ему: запрещается определять место, где проходит джихад, а также запрещается эмигрировать туда для участия в боевых действиях.

Сегодняшняя действительность показывает, что сайты, принадлежащие к экстремистским течениям, используют метод тенденциозного толкования исламских идей для ведения пропаганды против государства, подрыва устоев общества, мира и безопасности в стране, существующей системы и системы управления. В том числе и в вопросе защиты Отечества.

<sup>157</sup> Емельяненко В. Д. Интернет и ценностно-мировоззренческие основания морали // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2013. № 9 (35). С. 58-62.

Известно, что в религии Ислам защита Родины возведена на уровень фарзи айн для каждого верующего. Подчеркивается, что предательство и оставление страны беззащитной во время войны – тяжкий грех. Тем не менее, тот факт, что представители религиозно-экстремистского движения объявляют людей, которые служат в государственной армии и погибают в армии за защиту страны, грешниками, чтобы лишить молодых людей статуса гражданства, погасить их патриотических чувств, показывает, что их идеи полностью противоречат учению чистого ислама.

Diskussiya jarayonida talabalar mantiqiy dalillash va o'rtaga qo'yilgan muammoga nisbatan o'z shaxsiy nuqtai nazarlarini bayon qilish malakalarini hosil qiladilar. Bunda talabalar o'z fikrlarini madaniy nutq nuqtai nazaridan bayon qilish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Ular nutqning ilmiy uslubi uchun xarakterli "birinchidan", "ikkinchidan", "shubhasiz" kabi kirish so'zlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiq, chunki bunday so'zlar axborotlarni yetkazishda fikrning mantiqiylikini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarga fikrini o'z suhbatdoshiga yetkazishda etika me'yorlariga rioya qilish malakalarini ham singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'z fikrini isbotlash uchun dallillar keltirishda suhbatdoshiga nisbatan bosiqlik, xotirjamlik va muomalilik bilan yondashsa, fikrning aniqligi va ta'sirchanligini yetarli darajada ta'minlagan bo'ladi. Bunda quyidagi nutqiy modellardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: "Sizning fikringizga qo'shilishim mumkin, ammo shunday faktlar borki...", "Fikringizning ko'p jihatlariga qo'shilaman, ammo yana shuni ta'kidlaymanki, ..." , yoki "Afsuski, e'tiroz bildirishga majburman, chunki ..." "Siz ... jihatlarini nazardan chetda qoldiriyapsiz" va b. Suhbatdoshining fikriga nisbatan o'z munosabatini bayon qilishda shaxsiy baho berish bilan bog'liq quyidagi iboralarni ishlatmagan ma'qul deb o'ylaymiz: Menga ... haqidagi fikrlaringiz juda yoqdi", "Menga ... haqidagi fikrlaringiz umuman yoqmadi". Talabalar suhbatdoshiga nisbatan o'z fikrini ifodalashda quyidagi kirish so'z va birikmalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq: bizning nazarimizda, bizning o'ylashimizcha, ehtimoldan holi emas, lozim topamiz.



Nutqni aniq, ishonchli, ta'sirchan bo'lishi faqatgina dalilashni qanday bo'lishiga bog'liq emas, balki nutqning ritmi, chastotasi, talaffuz xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Nutqni irod etishda aniq, hotirjam, tovushni zo'riqtirmasdan bir maromda va mazmunan boy qilib gapirishga harakat qilish lozim. Nutqni to'g'ri shakllantirish uchun har bir nutq tovushi, bo'g'in va so'z yetarli darajada aniq eshitalishi lozim.

Demak, dalillash – bir kishining asoslangan nuqtai nazarini boshqa bir kishi tomonidan yetarli darajada tushunishi va qabul qilish(yoki qabul qilmaslik)ga yo'naltirilgan mantiqiy-kommunikativ jarayon. Dalil esa – so'zlovchining o'z nuqtayi nazarini asoslash uchun keltiradigan isbot, holat, ma'lumot, misol.

### **XULOSA**

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Talabalarda ilmiy nutq malakalarini hosil qilish uchun ularni asosiy umumilmiy va kasbiy tushunchalarni o'rganishga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirish uchun maxsus ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

2. Mashg'ulotlarda talabalar ilmiy-pedagogik faoliyatlariga tegishli dalil va isbotlarni bayon qilishlari uchun kerakli bo'lgan nutqiy modellar ustida muntazam ravishda ishlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirib borishlari lozim.

3. Talabalarda tegishli dalillarni tanlash va qo'llashda nafaqat ilmiy, balki ijodiy yondashuv malakalarini ham hosil qilish, bunda ularning nutqiy imkoniyatlarini obrazli sinonimlarni qo'llashga o'rgatish orqali kengaytirish maqsadga muvofiq.

### **REFERENCES**

1. Aroseva T.E. i dr. Nauchnyiy stil rechi: tehlicheskiy profil. — M.: Russkiy yazyik. Kursyi, 2010.
2. Gilmutdinova N.A. Logika i teoriya argumentatsii: Ucheb. posobie. — Ulyanovsk: Izd-vo UIGTU, 2006.
3. Dubinskaya Y.V. i dr. Russkiy yazyik buduschemu injeneru. — M.: Flinta; Nauka, 2007.
4. Farobiy Abu Nasr. Fozil kishilar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993. -224 b.
5. O'zbek tilining izohli lugati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 1-tom, T. 2008.

## ARAB TILIDA ZAMONNING IFODALANISHI

Mamayusupov Juraxon Mamadali o'gli

Oriental universiteti Lingvistika (arab tili) fakulteti

2-kurs magistranti

Tel:+99894 204 78 91

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada arab tilida zamonning ifodalanishi bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, zamon tushunchasini ifodalash bo'yicha mavjud bo'lgan turli xil talqinlar qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** arab tili, zamon, payt, vaqt, davr, mavsum, muddat, o'tkinchi.

### ABSTRACT

*This article presents opinions on the expression of time in Arabic. Also, various interpretations of the concept of time are analyzed from a comparative point of view.*

**Key words:** Arabic language, time, moment, time, period, season, term, transitory.

### KIRISH

Arab tilida “zamon, davr vaqti”, “vaqt, payt, on”, “mavsum, payt” ma'nolarida asosan وقت o'rta Ovrupo vaqti , اضافي sport. qo'shimcha vaqt, العمل في أوقات الدوام yoki ish, xizmat vaqtida, صرف الوقت vaqt o'tkazmoq , صباحا tong payti edi.

arab tilida vaqt bilan bog'liq ish-harakatni belgilovchi fe'llarga e'tibor beradigan bo'lsak, ular quyidagilar.

I وقت (u) vaqt belgilamoq;

II 1 (وقت) vaqtni aniqlamoq, belgilamoq; 2) vaqtni taqsimlamoq; 3) vaqtni tayinlamoq; ثَوَاقْت bir vaqtning o'zida bo'lib o'tmoq. Mazkur o'zakdan “vaqt” tushunchasi bilan bog'liq bir qator so'zlar yasaladi. E'tibor beraylik:

- أَوْيَقَّة ... ات.ko'p -vaqt so'zining kichraytirilgani, vaqtcha.

- تَوَاقْت vaqtni hisoblash, hisoblab chiqish, aniqlash

في الساعة العاشرة من وقت المدينة المنورة Madina vaqti bilan soat o'nda

- الوقت الافرنجي -vaqtning arabiy o'lchovi, في القاهرة -Qohira vaqti bilan,

vaqtning ovrupocha o'lchovi, القوات المحلي - mahalliy vaqt, -وقت الصلوات - namoz (ibodat)

vaqti jadvali, 2) vaqt xizmati: الوقت علامات gram.tinish belgilari

متوآقت - sinxron ravishda bo'lib o'tadigan;

- موقت ko'p. موقت belgilangan vaqt

<sup>181</sup> Ан-На'им. Арабча-ўзбекча луғат. – Т.: “Халқ мероси нашриёти”, 2003. 926-927 бетлар.



birliklarni ko‘rishimiz mumkin.

- ko‘p. (احيان ) vaqtlar, paytlar, احيان كثيرة tez-tez, - bir necha martalab, بافي بعض الاحيان ba‘zan, goho, gohida, goh-gohda;
- تحين (qulay fursatni, imkoniyatni) kutish

Arab tilida IV bob “(qayerdadadir) uzoq vaqt qolib ketmoq”, “uzoq davom etmoq, surunkali bo‘lmoq (kasallik haqida)” fe‘li ham vaqt bilan bog‘liq ma‘noni anglatadi. Bu fe‘l o‘zagidan bir qator so‘zlar yasaladi.

- 1) zamon vaqt, davr; yaqin vaqtgacha, yaqingacha; zaman قريب yaqin vaqtgacha, yaqingacha; zaman غاير الزمان allaqachon; zaman من زمان allaqachonlardan beri, hamma davrlarda, doimo; zaman كمنه اهل kimningdir zamondoshlari; 2) mavsum, fasl, davr, sezon; 3) gram. Zamon; 1) vaqtincha; 2) bu dunyoga oid; 1) زمانية payt (zamon) kelishini kutish; 2) zaman, vaqt; 2) gram. zaman<sup>184</sup> 1) زمان vaqt orasi, fursat, vaqt ichi, vaqt qismi; 1) زمان vaqt (payt) da chegaralangan, vaqtincha, muvaqqat; 2) زمان belgilangan vaqtda portlaydigan bomba; 2) xronologiyaga oid, xronologik (hodisa-voqealarning vaqt jihatdan ketma-ketligi); 1) زمان uzoq vaqt (surunkali) davom etadigan.

Arab tilida quyidagi so‘zlar ham muayyan vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘nolarni anglatadi.

- ko‘p. اناء vaqt; اطراف النهار اناء to‘xtovsiz, tinimsiz, kecha-yu Kunduz.
- 1) nazar, qarash; 2) on, vaqt, payt;
- ko‘p. لمحات 1) nazar, qarash; 2) on, payt, vaqt;
- 1) lahza, zum, on, ko‘z ochib yumguncha; طرفة
- ko‘p. برهات qisqa vaqt, ko‘z ochib yumguncha, o‘tkan vaqt, lahza, on, fursat, dam, nafas;
- 1) bir z fursatda, qisqa vaqt Ichida; برهه من الزمان
- 185 istagan paytda; برهه في كل برهه
- lahza, on, ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan vaqt; لحظة
- bir lahzada; في لحظة
- oxirgi lahzada (onda); لحظة في اخر
- o‘sha lahzada; لحظتند
- qulay fursat, qulay vaqt; shans; 1) فرص qulay fursat (on, moment); 2) ishdagi tanaffus payti (vaqti); ta‘til, kanikul.<sup>186</sup> ko‘p. فرصة سانحة
- 1) on, fursat, an, ya‘ni bu so‘z hozir ma‘nosida ishlatiladi.

<sup>184</sup> Ан-На‘им Арабча-ўзбекча луғат. Т.; “Халқ мероси” нашриёти. , 2003. 346 бет.

<sup>185</sup> Ан-На‘им Арабча-ўзбекча луғат.Т.; “Халқ мероси” нашриёти., 2003. 743 - бет.

<sup>186</sup> Ан-На‘им Арабча-ўзбекча луғат. - Т.; “Халқ мероси” нашриёти. , 2003. 616 - бет.

Voqea - hodisaning kechgan zamoni, odatda, fe'llarda aks etadi. Fe'llarning zamon kategoriyasida harakat vaqti, uning so'zlanayotgan paytga nisbatan uch zamonda (o'tgan, hozirgi va kelasi zamonda) ekanligi anglashilib turadi. Fe'llar masdar shaklidagina zamoni bildirmaydi. Arab tilida fe'lning o'tgan zamoni boshqa tillar kabi ish-harakatining tugallanganligi, o'tgan zamonda bo'lib o'tganligini bildiradi.

Masalan: ذهب- ketmoq, 3 دخل- kirmoq, خرج- chiqmoq, علم- bilmoq, نَظَّف- pokiza bo'lmoq, حَسَن – yaxshi bo'lmoq va h.k.

Arab tilida fe'lning hozirgi – kelasi zamoni hozirgi zamonda, kelasi zamonda, ba'zan esa o'tgan zamonda amalga oshadigan tugallanmagan ish-harakatni bildiradi, shuningdek u har doim amalga oshadigan ish-harakatni ham ifodalashi mumkin.<sup>187</sup>

Masalan: ينزل- tushyapti, يشرب- ichyapti, يخرج – chiqyapti va hk.

Gapdagi fe'ldan voqea – hodisaning zamoni anglashilib turadi. Harakat zamonsiz bo'lmaydi. Biroq, so'zlovchi nutqidan harakat zamonining aniq bir muddati anglashilmasligi mumkin. Bunday hollarda nutqda payt ravishlaridan foydalaniladi.<sup>188</sup> Payt ravishlari voqea-hodisaning kechgan zamoniga aniqlik kiritadi. Masalan, keldi deyilganda bironing o'tgan zamonda kelganligi tushuniladi.

Agar kecha keldi deyilsa, harakatning kechgan zamoni aniqlashadi: bugun yoki o'tgan kuni emas, aynan kecha kelgani anglashiladi. Masalan:

وصل المعلم الى المدرسة قبل الظهر O'qituvchi peshindan oldin maktabga yetib keldi. Ushbu jumlada وصل fe'li va قبل الظهر (peshindan oldin) payt ravishi voqea – hodisani o'tkan zamonda sodir bo'lganligini bildirib kelyapti.

Keyingi misolni hozirgi kelasi zamonda beramiz. Masalan:

الطالب الان يقرأ الكتاب العربي Talaba hozir arabcha kitobni o'qiyapti. Ushbu jumlada

يا'ni o'qiyapti va الان ya'ni hozir payt ravishi voqea - hodisani hozirgi zamonga tegishli ekanligini bildirib kelmoqda.

Vaqt aniqligini fe'lning turli shakllari bilan ham ifoda etish mumkin. Hozirgi arab tilida zamoni yanada konkretlashtirish uchun qo'shma fe'llardan, xususan كان fe'li ishtirok etadigan qo'shma fe'llardan keng foydalaniladi. Bunday qo'shma fe'llar quyidagi zamon ma'nolarini bildiradi: كان fe'li o'tgan zamonda va yetakchi fe'l hozirgikelasi zamonda kelganida, ish-harakatning o'tgan zamonda uzoq davom etganligi yoki o'tgan zamonda bir necha bor takrorlanganligi bildiriladi.

Masalan:

قبل سنتين كنت أدرس في الجامعة - Ikki yil avval men universitetda o'qir edim.

<sup>187</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997. 126 -127 бетлар.

<sup>188</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997, 126 -127 бетлар.



في تلك الفترة كنا نلعب الشطرنج كل يوم O'sha kezlarda har kuni shaxmat o'ynar edik.

2. fe'li ham, yetakchi fe'l ham o'tgan zamonda bo'lganida, ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligi yoki o'tgan zamondagi boshqa bir ish-harakatdan oldin sodir bo'lganligi ifodalanadi. Bunda yetakchi fe'l oldidan yuklamasi ham kelishi mumkin. Masalan:

في أوائل الشهر كان طلاب الصف الأول قد دفعوا جميعا متحاناتهم

- Birinchi kurs talabalari o'yning boshlarida barcha imtihonlarini topshirib bo'lgan edilar.

كانت زينب سافرت إليها مساء أمس

- Kecha kechqurun Zaynab yurtiga jo'nab ketib bo'lgan edi.

fe'li hozirgi-kelasi zamonda, yetakchi fe'l esa yuklamasi bilan o'tgan zamonda kelganida, ish-harakatning kelasi zamonda biror ish-harakatdan yoki paytdan ilgari sodir bo'lajagini bildiradi.

Masalan: بعد عدة سنوات تكونو قد تخرجتم من الجامعة

ya'ni ma'nosi "Bir necha yildan keyin universitetni tugatib bo'lgan bo'lasizlar".

Masalan, *kelgan edi* deyilganda o'sha kimsaning "bir zamonlar kelganligini" tushunamiz. Tilshunoslikda, bunday fe'l shaklini "uzoq o'tgan zamon" deyiladi. Arab tilida Uchta zamonning ichki bo'linishlari shuning singari yo'llar bilan hosil qilinadi.

"Vaqt o'lchovlari" deyilganda aniq vaqt birligini, davriylikni tushunamiz. Vaqt o'lchovi annashu davriylikning atamasidir. Tilda ushbu vazifani otlar bajaradi. Vaqt o'lchovining aniqligini ifodalashda sonlardan foydalaniladi. Masalan, oy deganda "o'ttiz kunlik muddat"ni tushunamiz. Agar biroy yoki ikki oy deyilsa, vaqtning aniq bir muddati anglashiladi. Vaqtning aniqligini ifodalashda istalgan dona sonidan foydalanish mumkin. Biroq bu masalada kasr sonlarning vazifasi cheklangan. Masalan, yarim sonini olaylik, uni asr, yil, oy, kun, soatga, hatto daqiqaga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin.<sup>189</sup>

*Yarim* deganda, odatda, o'sha vaqt birligining teng yarmi tushuniladi. Endi chorakni hamma vaqt birligiga nisbatan qo'llay olmaymiz. Masalan, chorak asr deymiz. Yilning choragi deyilganda "yilning to'rt dan biri-uch oyi" hozirgi arab tasavvurlarida "fasl" tushuniladi. Shuningdek, chorak soat deyishimiz mumkin, biroq chorak oy, chorak kun tushunchasi yo'q.

Ba'zan ko'rsatish olmoshlari, sifat doshlar ham vaqt aniqligini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Masalan, o'sha yil, o'tgan oy, kelasi yil deganimizda aniq bir muddat anglashiladi. Bu hodisalarning bari qadimgi arab tiliga ham zamonaviy arab tiliga ham xos.

Vaqt o'lchovlarining darajalari bor. Arablarda eng katta vaqt o'lchovi "asr" (yuz

<sup>189</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006 - 2008. 448 – 449 бетлар

yil)dir. Undan quyi daraja–“yil”. Bulardan keyin“fasl”, “oy”, “kun” va shu tartibda maydalashib boradi.

### **Arab tilida davriy vaqt talqini.**

1. Davriy vaqt nomlarining arab va o‘zbek tilarida berilishi Arab tilida “asr, yuz yillik, davr” ma’nosini كَقْرُنْ ko’p: اقرون so’zi ifodalaydi.

Masalan : اقرون الوسطى “o’rta asrlar”.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida asr so‘ziga quyidagicha izoh berilgan:

Asr 1. Yuz yillik davr, yuz yil. Yigirmanchi asr. O‘tgan asrning so‘nggi kuzi Qorabuloqqa ochiq chehra bilan keldi. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. Bu daraxtlar bir necha asr umr ko‘rgan. Oybek, Nur qidirib<sup>190</sup>.

O‘zbek tilida Quyosh botish chog‘idan bir soatcha oldingi payt va shu paytda o‘qiladigan namoz ham asr deyiladi. Kechki soat to‘rtlar, asrdan bir oz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi. Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar. Arab tilida ham kunning aynan shu payti عصر ko’p. عصور “asr payti”, “kun o‘tmasdan keying payt” so‘zi orqali ifodalanadi. العصر العصران “asr namozi”, صلاة العصر “tun va kun”. Arab tilida bu so‘z yuqoridagi قرن so‘ziga sinonim tarzda “asr, davr” ma’nolarida ham qo‘llaniladi, ya’ni عصر ko’p: عصور , اعصار , عصر o‘rta asrlar - العصر الوسطى - tosh asri - العصر الحخاري yoki عصر الحخارة - Ummaviylar davri - عصر بنى امية - atom va kosmos asri - عصر الذرة و الفضاء - yigitlik (yoshlik) yillar va hokazo - في عصر الشباب

Bu o‘zakdan vaqt va davr bilan bog‘liq bir qator so‘zlar yasaladi.

Masalan:

عصرية – 1) asrga molik; zamonaviylik; 2) zamon ruhiga mos firklash tarzi; modernizm; 3) asr vaqti.

عصري - asriy, asrga mos; zamonaviy; eng yangi;

معاصر - hozirgi zamonga oid; 2) zamondosh ;

Bu o‘zakka ح harfi qo‘shilib , yuqoridagi mazmundagi fe‘llar ham yasaladi. عاصر “zamonaviylashtirmoq ; modernizatsiya qilmoq”; تعاصر “asr vaqtida ovqatlanmoq”; عصرية “asr vaqti (kun o‘rtasi bilan kechki payt orasidagi vaqt)”.

Arab tilida دهر ko’p: ادهر ; ادهور so’zi ham juda uzoq vaqt bilan bog‘liq bir qator ma’nolarni anglatadi.

1) dahr, davr, asr; geol. davr; الانسان asri; الدهر الاول paleozoy davri;

الدهر الثاني mezozoy davri; الدهر الثالث uchlamchi davr; الدهر الرابع to‘rtlamchi davr;

ما كذب دهر ا الدهر الى دهر الداهرين yoki دهرها hech qachon yolg‘on gapirmagan umrbod, bir umrga على مدى الدهور asrlar osha, abadiy.

<sup>190</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 108 – 109 бетлар.

Arab tilida davr , asrga nisbatan qisqaroq vaqtni ifodalovchi “Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati , o’n ikki calendar oyiga teng vaqt, shunday vaqtga teng o’lchov - yil<sup>191</sup> so’zi سَنَةٌ ko’p. سنوات , سنون yoki عام ko’p. so’zi bilan ifodalanadi, سنة دراسية yoki عام مدرسي o’quv yili; سنة شمسية quyosh yili; hijriy (musulmonlar yil سنة هجرية ; milodiy yili - سنة ميلادية ; qamariy yil سنة قمرية hisobi boyicha) yil; راس السنة - yil boshi yoki , yangi yil; سنة كبيسة kabisa yili; سنوي yoki عامي yillik yoki yilga oid.<sup>192</sup>

**فصل** - so’zining ma’nolari:

1) bo’lim, qism, bob (kitobning); 2) aloqani uzish (biror narsa bilan nimadir o’rtasida 3 (و... بين); yil vaqti, mavsum; 4) sinf, sinf xonasi; 5) teatr. parda; sahna;<sup>193</sup>

**فصل ( u )** 1) bo’lmoq (nimadandir) ajratmoq, bo’laklamoq; ( عن ) (kimnidir, nimanidir) bir-biridan ajratib (bo’lib) yubormoq 2 ) (بين) (xizmatdan) bo’shatmoq, (biror nimadan) chiqarmoq ; ( من ) din. (nimadandir, masalan, dindan) chetlatmoq xristianlarda); فصل من الخدمة xizmatdan bo’shatmoq (chetlatmoq) فصل الولد عن الرضاع bolani ko’krakdan ajratmoq 3) (nimanidir) hal qilmoq, (nima haqdadir) qaror chiqarmoq; 4) (في) bahosini aytmoq, narx belgilamoq bar. (فصول) (kimningdir oldidan) ketmoq, chiqmoq (عن); (qaerdandir) jo’nab ketmoq (عن); jo’namoq. . yo’lga tushmoq (masalan karvon haqida);

## XULOSA

So’nggi yillarda O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan aloqalarining o’sishi va jamiyatimizda kechayotgan integrallashuv jarayoni jamiyatning barcha jabhalarida tarjimaga bo’lgan ehtiyojni keskin oshirib yubordi.

Shuning uchun ham sharq tillari fakultetini bitiruvchilarini ko’p hollarda davlatimizning turli xil mahkamalarida, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgan korxonalarda, xalqaro turizm bilan shug’ullanayotgan tashkilotlarda umuman olganda tarjimonga ehtiyoj sezilayotgan turli tashkilotlarda ishlashga taklif qilinayotgan holatlarni ko’plab uchratish mumkin. Bu esa o’z navbatida talabalarimizda tarjimonlik ko’nikma va malakalarini shakllantirish davr talabi ekanligini ko’rsatmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат. -Т.; “Халқ мероси” нашриёти, 2003.

<sup>191</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 – 2008, 267-268 бетлар.

<sup>192</sup> Ан-На’им. – Т.: “Халқ мероси нашриёти”, 2003, 396, 575 бетлар.

<sup>193</sup> Ан-На’им . Арабча- ўзбекча луғат. – Т.: “Халқ мероси нашриёти”, 2003. 644 - 645 бет.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008.
3. Иброхимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” , 1997 .
4. Б. З. Халидов. Учебник арабского языка – Т.: “O‘qituvchi” , 1981 . -

## **ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO‘NALISHLARI**

**Axmedova Aynura Quanishbay qizi**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi

aynuraaxmedova345@gamil.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada antroposentrik paradigma, uning mohiyati, sohalari, uning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi, rivojlanish tarixi, taraqqiyoti haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** antroposentrik paradigma, zamonaviy lingvistik sohalar, matn, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvistik semantika, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье говорится об антропоцентрической парадигме, ее сущности, областях, ее вхождении в узбекское языкознание, истории ее развития и ее прогрессе.*

**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, современные лингвистические поля, текст, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, лингвистическая семантика, прагмалингвистика, психолингвистика, социолингвистика, компьютерная лингвистика.

### **ABSTRACT**

*This article talks about the anthropocentric paradigm, its essence, fields, its entry into Uzbek linguistics, the history of its development, and its progress.*

**Key words:** anthropocentric paradigm, modern linguistic fields, text, linguoculturology, cognitive linguistics, linguistic semantics, pragmalinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, computer linguistics.

### **KIRISH.**

XXI asrda tilshunoslik jadal suratlarda rivojlanib, o‘z oldiga yangi muammolarni qo‘ydi. Ana shunday muammolardan biri til tizimini antroposentrik paradigma asosida tadqiq etishdir. [9] Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmadan keyin paydo bo‘lgan antroposentrik paradigma tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy holati, ruhiyati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog‘liq holda o‘rganishga kirishdi, ya’ni tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini birinchi planga qo‘ydi.



## **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Keyingi yillarda antroposentrik tilshunoslikning turli yo‘nalishlari ajralib chiqdi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvopoetika, assosiativ tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi kabi bugungi antroposentrik tilshunoslikning yo‘nalishlarida shaxs omili masalasi tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi haqida olim Sh.Safarov quyidagicha ta’kidlagandilar: “Fanlar, sohalar integratsiyasi – zamon talabi. Hozirgi kunda “yakka otning changi chiqmas”ligi aniq bo‘lib qoldi. Tilshunoslik ham o‘z yondoshlari bilan juftlashmoqda...”. [7] Darhaqiqat, bugungi kunda eng yangi – biolingvistika, areal lingvistika kabi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi tilshunoslikning deyarli barcha ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan sohalar ham tilshunoslik va sotsiologiya, tilshunoslik va psixologiya, tilshunoslik va kognitologiya, tilshunoslik va etnografiya, tilshunoslik va kulturologiya v.h.k. sohalarining o‘zaro aloqadorligidan kelib chiqqan. Ta’kidlanganidek, bu yo‘nalishlarda ham inson, inson nutqi va idroki tadqiqot markazida turadi.

Ushbu yangi sohalar jahon tilshunosligidan o‘zbek tilshunosligiga kirib kelganidan so‘ng yaqin XXI asr boshlaridan boshlab til sistemasini shaxs bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar yaratildi. Bugungi kunda ham bu borada ilmiy ishlar, dissertatsiya, monografiyalar yaratilmoqda. Mazkur paradigma muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlardan bittasi “Matnning antroposentrik tadqiqi” (D. Xudoyberganova) nomli monografiyadir. Bunda antroposentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlari: kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya va psixolingvistikaga oid ma’lumotlar va bilimlar asosida o‘zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, lingvokulturologik, psixolingvistik xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, o‘zbek tilidagi konseptning matn orqali ifodalanishi, kognitiv metaforalar, matn yaratilishida geshtaltning o‘rni, shaxsning diskursiv faoliyati, shaxs va matn referensiyasi, matn va kommunikativ strategiya, matn persepsiyasi, matn persepsiyasida retseptning roli, til va assosiativ tafakkur aloqasi, president birliklar tushunchasi va ularning matn yaratilishidagi o‘rni, o‘zbek tilining president birliklari, o‘zbek tilida o‘xshatish, metafora, jonlantirish asosidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari kabi qator masalalar tadqiq etilgan.[4]

Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarni birinchilardan va keng miqyosda o‘rgangan olimlardan bittasi Shahriyor Safarovdir.

Olimning “Kognitiv tilshunoslik”, “Pragmalingvistika”, “Semantika” kabi bir nechta monografiyalari nashr etilgan. Xususan, “Kognitiv tilshunoslik”

monografiyasi nomidan ko‘rinib turganidek, zamonaviy lingvistik saholaridan kognitiv tilshunoslik haqida. Unda kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi, vazifasi, yo‘nalishi, konseptning voqeanishi, uning tafakkur bilan aloqasi, kognitiv tilshunoslikning ssenariy, freym, geshtalt, skript kabi asosiy tushunchalari, ularning inson nutqi va idrokidagi o‘rni, voqelikni idrok etish va bilish – kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari kabi qator masalalar haqida so‘z yuritilgan. “Semantika” nomli katta ilmiy asari esa lingvistik semantika (ma’no), uning o‘rganilish tarixi, semantikaning turlari, tushuncha va ma’no, konsept va ma’no munosabati, semantikaning semiotika (lisoniy belgilar haqidagi fan) bilan o‘zaro aloqasi, semantika semiotikaning sintaktika va pragmatika kabi tarkibiy qismi ekanligi va boshqa bir qancha antroposentrik paradigma muammolariga bag‘ishlangan.

### **MUHOKAMA.**

Shular bilan birgalikda, antroposentrik paradigma, uning mohiyati, umumiy tavsifi, o‘rganilish muammolari, o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi haqida so‘z yuritilgan, birinchilardan bo‘lib yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarga A.Nurmonovning “Mustaqillik davrida o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti” asarini, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab” maqolasini kiritish mumkin. Shuningdek, keyingi yillarda sotsiolingvistikaga (til va jamiyat munosabati) oid ko‘plab monografiya, qo‘llanma, dissertatsiya, maqolalar ham chop etildi. Jumladan, Sh.Usmanova v.b. larning “Sotsiolingvistika” nomli o‘quv qo‘llanmasi va A.Berdialiyevning “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi” nomli darslik-qo‘llanmasida til va jamiyatning o‘zaro munosabati, tilning ijtimoiy vazifalari, kommunikatsiya, kummunikativ vaziyat, til siyosati, til me‘yori, variativlik va uning turlari, muloqot vositalari: adabiy til, dialekt, sotsiolekt, sleng, argo, jargon, koyne, sotsiolingvistikaning yo‘nalishlari, metodlari, billingvizm, interferensiya haqida keng ma’lumotlar berilgan. Antroposentrik paradigma o‘zbek tilshunosligiga kirib kelgan yangi yo‘nalish bo‘lishiga qaramasdan oxirgi yillarda bu haqda ilmiy kitoblar ko‘paydi. Antoposentrik yo‘nalishning alohida sohalari – lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kompyuter lingvistikasi bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy adabiyotlar paydo bo‘ldi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Ayniqsa, bugungi kunda kompyuter lingvistikasi jadallik bilan rivojlanmoqda, chunki hozirgi texnika asrida insonlar uchun kompyuter va mobil vositalar asosiy aloqa quroliga aylanib bo‘ldi. Ayni paytda o‘zbek va boshqa dunyo tilshunosligida til korpuslari, elektron lug‘atlar, lingvistik mobil ilovalar, mukammal tezaurus lug‘atlar yaratish ustida bir qancha samarali ishlar qilinmoqda. Bundan tashqari,

aksiolingvistika, biolingvistika, neyrolingvistika, areal lingvistika kabi eng yangi sohalar ham kirib keldi va ushbu yo‘nalishlar ham har tomonlama tadqiq qilinmoqda.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, matn dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo‘lsa, XXI asrda unga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. [9] Demak, antroposentrik paradigmaning kirib kelishi bilan, inson roli, uning nutq paydo bo‘lishi va idrokidagi o‘rni belgilandi, tadqiq qilindi. Sekin-asta uning alohida sohaları ajralib chiqdi va ular o‘zlarining mustaqil tadqiqot obyektlariga ega bo‘ldi. Jahon tilshunosligida boshlangan bu ishlar XXI asrdan o‘zbek tilshunosligiga ham kirib keldi, o‘zbek tilidagi matnlar antroposentrik tamoyillar asosida tahlil qilindi, o‘rganildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Berdialiyev A. O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. – Toshkent, 2019.
2. Hakimov M. O‘zbek pragmalolingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Lutfullayev D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017.
4. Qurbonova M, Yo‘ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 10.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Safarov Sh. Pragmalolingvistika. – Toshkent:
7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 8.
8. Usmanova Sh va boshq. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2013
9. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 3,4.
10. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020.
11. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2014.

## **MUMTOZLILIGINI SAQLAB QOLGAN- FORS TILI**

**Nozima Tulkunovna Xodiyeva**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Eron- afg'on filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Toshkent, O'zbekiston  
[nozixodiyeva@inbox.ru](mailto:nozixodiyeva@inbox.ru)

**Xabibova Muxabbat**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Eron- afg'on filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Toshkent, O'zbekiston  
[habibovamuxabbat9@gmail.com](mailto:habibovamuxabbat9@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Fors zamini insoniyat tamadduni beshiklaridan biri sanaladi. Fors tili ham ushbu tamaddun namunalaridan biri hisoblanadi. Qudratli va musiqaviy fors tili asrlar davomida turli tanazzuldan juda balandda turgan.*

**Kalit so'zlar:** *qadimgi fors tili, mumtoz fors tili va hozirgi zamon fors tili.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Персидская земля считается одной из колыбелей тамаддуна человечества. Персидский язык также является одним из примеров этого тамаддуна. Могучий и музыкальный персидский язык на протяжении веков переживал различные упадки.*

**Ключевые слова:** *древнеперсидский язык, классический персидский язык и современный персидский язык.*

### **ABSTRACT**

*The land of Persian is one of the cradles of human civilization. Persian is also one of these civilam samples. The Almighty and Music Persian is highly leveled from various recession over the cturies.*

**Key words:** *Ancient Persian language traditional Persian and Persian in nowadays.*

### **KIRISH**

Fors tili dunyoda eng yaxshi asralgan tillardan bo'lib, asrlar davomida o'z jozibasi va musiqaviyligini saqlab qola olgan edi. Shunday tarixiy haqiqat borki, davlatlar, imperiyalarni ushab turadigan mustahkam ustunlari, suyanadigan tog'lari bo'ladi. Buni Eron misolida ko'radigan bo'lsak, imperiyalarning manguligini saqlaydigan ustunlar misoli tog'lar kabi ulug'vor bu Fors tili edi.

Insoniyat erasidan oldingi 7000 yil avval barpo bo‘lgan Eron xalqlariga faylasuf Gegel “forslar-birinchi tarixiy odamlar ” deb baho bergan edi.

Kultura jurnalining yozishicha: “Tilning o‘zgarishi biologik rivojlanishga o‘xshaydi. Keng diqqat - e’tibor va ajdoddan ajdodga o‘tishi bilan ro‘y beradi..”

Jurnalda tillar taraqqiyotini biologik o‘zgarishga o‘hshatilishi..behtiyor mening yodimga “tillar taqdiri inson taqdiriga o‘hshaydi ..ular tug‘iladilar, o‘zgarishga uchraydilar va o‘ladilar..” degan kalimani yodimga tushiradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mutaxassislar e’tirofiga ko‘ra bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e’tirof etiladi. 2005 yilda tuzilgan YuNESKO ro‘yxati 6 912ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi (2 269tasi) Osiyo va 30,3 foizi (2 092tasi) Afrika qit’asiga to‘g‘ri keladi.

Masalan, o‘tgan ming yillikda dunyo tillarining 500tasi o‘lik tilga aylangan bo‘lsa, so‘nggi yuz yillikda esa 1000ta til tarix qa’riga singib ketdi.

Tillarning taraqqiyoti va tanazzulida quyidagi holatlar alohida ajralib turadi:  
1) tillarning o‘lik tilga aylanishi (etrusk tili, shumer tili, sanskrit tili, qadimiy Xorazm tili, so‘g‘d tili)

2) tillarning boshqa tilga aylanishi (grek tili, yahudiy tili, arman tillari);

3) tillarning bo‘linib ketishi (german tillari);

4) tillarning qo‘shilishi natijasida yangi tillar vujudga kelishi (o‘zbek, turkman tillari);

5) tillarning «tirilishi» (ivrit tili).

Ammo, qudratli va musiqaviy fors tili asrlar davomida bunday tanazzuldan juda balanda turgan. Tilning saqlanishi, asralishi bu millatning, Eron davlatining yorqin kelajagidan dalolat beradi.

Eron tillari genetik jihatdan hind tillariga eng yaqin tillar hisoblanadi. Bular orasida qadimgi eron tili- qadimgi fors, ovesto, skif tillari, o‘rta fors-mumtoz fors tili(pahlaviy), so‘ngi eron tillari- fors, pashtu, dari, tojik tillaridir.

“Kolcher” jurnalida fors tilida so‘zlovchilar Eron, Afg‘oniston va Tojikiston hududlarigacha kengaygani hamda insoniyat tarixidan kechgan asrlar jarayonida nisbatan kamroq o‘zgarishlarga duch kelgani yoziladi. Bu poeziya tilida so‘zlovchilar ko‘payib borgani sababli fors tili taqdiri boshqalardan farq qiladi.

Qadimiy sharq tillari: moniy, avesto va portiy tilidagi yozuvlarda fors tilining shirinligi, musiqaviyligiga ishora etilgan. Uzoq o‘tmishdan boshlab so‘zlashuv va muloqotda berilgan ushbu hususiyat keyinchalik eronliklar va xorijiy eronshunoslar tomonidan faqat fors tili haqida qo‘llaniladi.



Fors tili tarixi ham Eroning koʻhna sarzaminidek qadimiy umr va ming yillik tarixga egadir. Fors tili hind –evropa tillar guruhiga kiradi. Fors tilining hind tili bilan ega boʻlgan mushtarakliklari sababli hind tili hind va eron tillarining guruhini tashkil etganligidadir.

1872 yil sentyabr oyining oʻrtalarida Berlinda boʻlib oʻtgan uch kunlik uchrashuvi yakunida Evropa tilshunoslari va yozuvchilari fors tilini toʻrtta klassik tillardan biri deb eʼlon qildilar yunon, lotin va sanskrit. Sammitda hind-evropa tillari muhokama qilindi.

Ushbu uchrashuv fors tilini klassik boʻlish nuqtai nazaridan (yunon tilidan keyin) ikkinchi raqamga aylantirdi. Bu jihatdan fors tili lotin tilidan bir asr va ingliz tilidan 12 asr oldinda.

Xuddi shu yigʻilishda Avesto tili fors tilida sʻozlashmaydigan boʻlagi deb elon qilindi va Avestaning ildizlari Sharqiy Xurosondan (hozirgi Afgʻonistonning shimoliy qismi, Tojikiston va Faruddan) kelib chiqqanligi va shu sababli bu yerlarda Zarotustraning tugʻilganligi aytiladi va u yerdan Ozarbayjonga ketgan.

Taʼrifda til, birinchidan, qadimiy boʻlsa, ikkinchidan, boy adabiyotga ega boʻlsa, uchinchidan, hayotining soʻnggi ming yilligida kichik oʻzgarishlarni amalga oshirgan boʻlsa, til klassik deb nomlanadi.

Binobarin, til oʻzgarishlarga asoslanadi. Vaqt oʻtishi bilan biron bir til oʻzgarishsiz boʻlmaydi, lekin u qanchalik oz oʻzgargan boʻlsa, shunchalik mumtoz va kuchli boʻladi. Eroniyalar va forslarning tili bu Firdavsiy va Hofiz ijod etgan til bilan bir xildir: Xuddi shu soʻzlar, iboralar va grammatika. Bugungi fors tilida suhbat quradiganlar Shekspir oʻqiladigan ingliz tiliga qaraganda osonlik bilan 900-chi yillarga tegishli boʻlgan yozuvlarni oʻqishlari mumkin”.

Sizga maʼlumki, ingliz tilida soʻzlovchi bugungi avlod Shekspir tilini toʻla anglamasligi mumkin, negaki, zamonaviy isteʼmolchilar uchun bir qadar qulay ingliz biznes tili paydo boʻlgan.

17 sentyabr 1872 yilida Berlinda boʻlib oʻtgan konferentsiyada tilshunoslar va yozuvchilar oʻrta asrlarda fors adabiyoti boshqa xalqlar adabiyotining etakchisi boʻlganligini va oʻsha asrlarda fors tilida ijod etgan koʻpgina shoir, yozuvchi va mutafakkirlar (donishmandlar ,faylasuflar) yetishganliklarini tan oldilar. Oʻsha davr mutafakkirlarining fikrlari va aytgan soʻzlari ibratli va abadiydir. 1922 va 1936 yillardagi uchrashuvlarda qadimiy va klassik hind-evropa tillari orasida fors tili (ikkinchi oʻrin) maqomida ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

Fors tilining mumtozligi birinchidan - adabiy va adabiy nuqtai nazardan juda boy boʻlishligida, ikkinchidan, uning hayotining ming yildan oshiq vaqt davomida soʻzlarida ozgina oʻzgarishlar yuz berganligidadir.

Albatta, biron bir til vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlardan omon qolmaydi, ammo qancha oz o‘zgarishlar bo‘lsa, shunchalik mumtoz til va barqarorroq bo‘ladi.

Usmoniylar davrida Usmonli imperiyasining forsiy tili bo‘lgan, Birinchi jahon urushidan oldin hozirgi Turkiya va Suriyaning katta qismini qamrab olgan. Mamlakat aholisi o‘z farzandlariga beradigan ko‘plab forscha ismlar bor va ular hatto forscha ekanligini bilmasliklari ham mumkin.

Buyuk Britaniya mustamlakasiga qadar fors tili ham Hindiston yarim orolining rasmiy tili bol‘gan va Bedil, Dehlaviy bu davrdagi fors tilida ijod etgan siymolardan hisoblanadi.

Pokistonda ham fors tilining mavqei yuqori bo‘lgan. Iqbol Lohuriy o‘zining fors tilidagi ijodlari bilan mashhur bo‘lgan. Pokiston milliy gimni ham fors tilida kuylangan.

Fors tili 3 mamlakatda: Eron, Afg'oniston va Tojikistonning rasmiy tilidir va bu til ko‘plab mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Pokiston va yangi mustaqil bo‘lgan Markaziy Osiyo respublikalarida juda muhim rol o‘ynaydi.

Fors va yunon tillarini taqqoslash fors tilining qanchalik muhimligi va dinamikligi va barqarorligini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. X.Махамадалиев, X.Алимова, Г.Агзамова. Форс тили,-Тошкент-2010.
2. Гульфам А. Грамматические основы персидского языка,- Тегеран: САМТ,2006.
3. .Е.Э.Бертельс. Грамматика персидского языка., Ленинград-1926.
4. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка,-М.:Восточная литература, 2001.
5. دکتر محمد مشکور جواد. دستورنامه. تهران. 1352
6. مریم اولیایی. الهه ناز، جلد 1 تهران 1387
7. <https://th-th.facebook.com/nurzamon.uz/posts/2943514899306629/>

**ИЖТИМОЙИ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН  
НОФИЛОЛОГИК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРДА ТАЛАБАЛАР  
МУСТАҚИЛ ИШЛАРИНИ МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ВОСИТАСИДА  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ**

**Ширинова Феруза Атхамовна,**  
Ўзбекистон Халқаро Ислом Академияси  
“Чет тиллари” кафедраси катта ўқитувчиси, PhD  
Тел: 99 305 77 73  
[feruzashirinoval2@gmail.com](mailto:feruzashirinoval2@gmail.com)

**АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада ижтимоий-гуманитар фанлардаги нофилологик олий таълим йўналиши талабаларининг инглиз тили фанидан мустақил ишлашларини ривожлантиришида масофавий муҳитнинг роли ва ундан самарали фойдаланиш мақсадида педагогик-дидактик лойиҳалаш технологиясини такомиллаштирилгани ҳақида ёритилди. Шу билан бирга таълим тизимини ислоҳ қилиш, уни такомиллаштириш ва сифат даражасини оширишнинг устувор вазифалардан бири сифатида белгиланиши кадрлар савиясини ошириш, таълим тизимида янги илмий зоялар, замонавий ёндашувлар ва услубларни экспериментал жорий этиш ва улардаги муаммоларни бартараф этиш акс эттирилган.*

***Таянч сўз ва тушунчалар:** масофавий таълим, мустақил ўқув-билув фаолият, педагогик-дидактик лойиҳалаш, касбий-соҳавий контент, рақамли иқтисодиёт.*

**ПРЕИМУЩЕСТВА И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ  
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ  
НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНОГО  
ПРОФИЛЯ ПОСРЕДСТВОМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещено совершенствование технологии педагогического и дидактического проектирования с целью эффективного использования инструмента дистанционного обучения в развитии самостоятельной учебной деятельности студентов по предметам английского языка нефилологического вуза по социальным и гуманитарным наукам. При этом одна из приоритетных задач реформирования системы образования, ее совершенствования и повышения уровня качества находит*

*свое отражение в повышении уровня кадров, экспериментальном внедрении в систему образования новых научных идей, современных подходов и методов, устранение своих проблем.*

**Ключевые слова и понятия:** *дистанционное обучение, самостоятельная учебная деятельность, педагогико-дидактическое проектирование, профессиональный контент, цифровая экономика.*

## **ADVANTAGES AND POSSIBILITIES OF DEVELOPING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS FOCUSED ON SOCIAL AND HUMANITIES THROUGH DISTANCE EDUCATION**

### **ABSTRACT**

*In this article, the role of remote environment in the development of independent work of students of non-philological higher education in socio-humanities and the improvement of pedagogical and didactic design technology for the purpose of its effective use was highlighted. At the same time, one of the priority tasks of reforming the educational system, improving it and increasing the quality level is reflected in the improvement of personnel level, the experimental introduction of new scientific ideas, modern approaches and methods to the educational system, and the elimination of their problems.*

**Key words and concepts:** *distance education, independent educational activity, pedagogical and didactic design, professional content, digital economy.*

### **КИРИШ**

Республикамизда таълим тизимини ислоҳ қилиш, уни такомиллаштириш ва сифат даражасини оширишнинг устувор вазифалардан бири сифатида белгиланиши кадрлар савиясини ошириш, таълим тизимида янги илмий ғоялар, замонавий ёндашувлар ва услубларни экспериментал жорий этиш учун мураккаблик даражаси юқори бўлган, чуқурлаштирилган дастурлар асосида ўқитишни йўлга қўйиш, ўзгариб бораётган меҳнат бозори талабига мос мутахассисларни тайёрлаш, инновацион рақамли иқтисодиётда фаол иштирок этадиган ва ўз турмуш даражасини, аҳоли фаровонлигини таъминлай оладиган ижтимоий кўникмага эга бўлган малакали етук инсон даражасига етказишни тақозо этмоқда.

Бугунги реал вазият бизни ривожланган мамлакатлар йўлидан боришимиз ва уларга тезроқ етиб олишимизга ундаяпти. Бу таълим соҳасида айнан электрон ахборот тизимини фаоллаштиришни, жаҳоннинг етакчи таълим

муассасаларининг тажрибаларидан фойдаланиб, илғор замонавий ахборот-коммуникация, интернет ҳамда рақамли технологиялар соҳасидаги билимларни чуқур эгаллашни тақозо қилади. Демак, жамиятимизнинг барча қатламларида инновацион технологияларни қўллаш борасидаги саводхонликни узлуксиз равишда ошириб бориш бугунги кунда нафақат эҳтиёж, балки заруратга айланди.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Рақамли иқтисодиёт (Digital Economy) - бу рақамли коммуникациялар, инфорацион технологиялар ёрдамида олиб бориладиган иқтисодиёт бўлиб, унда замонавий илмий ёндашувлар ва инновациялар устувор аҳамиятга эга, илмий сиғимкорлик юқори бўлган тармоқларнинг рақамли топиши кўзда тутилади. Ушбу атама дастлаб 1995 йилда Массачусет университетининг информатика соҳаси мутахассиси Николас Негропonte томонидан “атомлар ҳаракатидан битлар ҳаракатига ўтиш метафораси” мазмунида қўллаган эди. Бугунги кунда ушбу атама бутун дунёда сиёсатчилар, иқтисодчилар, журналистлар, бизнесменлар фаолиятида ҳам қўлланмоқда [1].

Рақамли иқтисодиётнинг таълим соҳасига кириб келиши ўз-ўзидан рақамли таълим нима, у нима учун кераклиги ва у қандай амалга оширилади деган саволларни ўртага қўйди. Рақамли таълим – ХХI аср талаби бўлиб, ўтган асрлардан мослашиб келганимиз анъанавий таълимдаги китоб, қоғоз-қаламдан янги асрнинг рақамли технологиялари ва сунъий интеллект кабиларга ўтишни англатади. Анъанавий ҳисобланган қоғоз ва қаламларимизни ўрнини бугунги кунда ақлли технологиялар қаторига кирувчи smart телефонлар, планшетлар, турли ҳажмдаги компьютерлар эгаллади ва таълимни рақамлаштириш замон талабига айланди. Замонавий ёшлар бугунги кунда ўз ҳаётини ушбу техника воситаларисиз тасаввур қила олмайди. Таълимни рақамлаштиришнинг мақсади ҳам глобал оламдаги тезкор ўзгаришлар, жадал ўсиб бораётган инновациялар оқими билан мослашиб суза оладиган, интеллектул (ақлий қобилияти) юқори бўлган билимли ёшларни тайёрлашни талаб қилмоқда.

Кўринадики, халқаро амалиётга юзланадиган бўлсак, рақамли иқтисодиёт ҳаётнинг ҳар бир жабҳасига, хусусан, соғлиқни сақлаш, фан-таълим, қурилиш, энергетика, қишлоқ ва сув хўжалиги, транспорт, геология, кадастр, архив ва бошқа соҳаларга жадал кириб бормоқда ва уларнинг ҳар бирида ўзининг юқори самараларини бермоқда. Жаҳон тажрибасида рақамли иқтисодиётга ўтишнинг жадал суръатларда ривожланаётганлигини:

–фан-техника тараққиётининг жадаллашиши натижасида оммавий равишда олий таълимга эга бўлиш зарурати юзага келгани;



- замонавий ишлаб чиқаришлар ва хизмат соҳаларида иш билан банд ходимларнинг ўз билим ва малакаларини мунтазам янгилаб боришга эҳтиёжлари туфайли таълимда узлуксизлик хусусияти юзага келаётганлиги;
- ахборот-коммуникация технологиялари тараққий этиши натижасида масофадан туриб таълим олиш имкониятларининг кенгайиб бораётгани;
- энг нуфузли дарсликлар, қўлланмалар, ўз соҳасининг машхур олимлари ва мутахассислари маърузаларининг рақамлаштирилиши натижасида билимларни мустақил эгаллаш имкониятлари юзага келгани;
- таълим олишда худудий ва вақт тўсиқларининг бартараф этилиши, яъни ҳатто хориждаги нуфузли университетларда ҳам масофадан туриб таълим олиш, фанларни мустақил ўрганишни шахсий кун тартиби асосида амалга ошириш имкониятларининг юзага келаётганлиги кабилар билан изоҳланади [2].

Бу мамлакатимизда таълим тизими билан рақамли иқтисодиёт ўртасида интеграция жараёнини жадал амалга ошириш ва тизимни рақамлаштириш учун таълимда мослашувчанлик тизимига ўтиш, талабалар ва ўқитувчилар орасида масофадан туриб таълим бериш тизимини оммалаштириш бевосита масофадан ўқитишнинг асосий элементлари тадрижий такомил билан узвий боғлиқлигини кўрсатади [3]. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиш тизими ҳам ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига эга [4]. Манбаларда “масофавий таълим” тушунчасига қуйидагича таърифлар берилганини кўриш мумкин:

- муайян нуқтадан ахборот-коммуникация воситалари (видео, аудио, компьютер, мультимедиа, радио, телевидение ва б.) ёрдамида таълим хизматларини кўрсатиш, таълимий маҳсулотларни тарқатиш ва етказиб беришда анъанавий ҳамда инновацион шакл, метод, воситаларга асосланган ҳолда таълим ресурсларидан фойдаланишга йўналтирилган таълим [5];
- энг яхши анъанавий ва инновацион методлар, ўқитиш воситалари ва формаларини ўз ичига олган сиртки ва кундузги таълим сингари ахборот ва телекоммуникация технологияларига асосланган таълим формаси;
- янги ахборот технологиялари, телекоммуникация технологиялари ва техник воситаларига асосланган таълим тизими бўлиб, таълим олувчига маълум стандартлар ва таълим қонун-қоидалари асосида ўқув шарт-шароитлари ва ўқитувчи билан мулоқотни таъминлаб бериб, ўқувчидан кўпроқ мустақил равишда шуғулланишни талаб қилувчи тизим. Бунда ўқиш жараёни таълим олувчини қайси вақтда ва қайси жойда бўлишига боғлиқ эмас;

– масофадан туриб ўқув ахборотларини алмашувчи воситаларга асосланган, ўқитувчи махсус ахборот муҳит ёрдамида, аҳолининг барча қатламлари ва чет эллик таълим олувчиларга таълим хизматларини кўрсатувчи таълим мажмуи.

Масофавий таълим таълим масканларига қатнаш харажатларини ва вақтни тежайди, бу вақт ичида талабалар бошқа манбалардан қўшимча янги билимларни ўзлаштириш имконига эга бўлдилар ва барча ўқув манбаларидан интернет орқали фойдаланиш ва ҳаммага бир-бири билан ёки ўқитувчи билан мулоқотга кириш учун шарт-шароит яратиб беради.

Масофадан туриб педагог билан қилинган мулоқот одатда педагог ва талабаларнинг ўрталарида содир бўлади, талабалар томонидан бажариб юборилган вазифалар натижалари фақат талабанинг шахсий кабинетига тушади. Айнан шу ҳолат талабалардаги тортинчоқликни ва кўпчилик олдида паст баҳоланиб қолишдан қўрқув ҳиссини енгишга ёдам беради. Бирор бир камчилик ёки педагог томонидан билдирилган фикр ва мулоҳазалардан талабанинг ўзигина хабардор бўлади, у ўзи устида янада кўпроқ ишлаб, камчиликларини йўқотиш учун шарт-шароит яратилади. Масофавий таълимнинг ўзига ҳос тамойиллари ҳам мавжуд бўлиб, ушбу тамойиллар ўз ичига қатор мақсадли вазифаларни ҳам юклайди.

Дарҳақиқат, масофавий таълим тизимининг қулайликлари ва афзалликларини дунё тан олиб турган бугунги вазиятда, ундан унумли фойдалана олиш, унинг барча имкониятларини ўрганиб чиқиш ва амалиётга тадбиқ қилиш бугунги кундаги инновацион педагогларнинг масъулиятли вазифаси ҳисобланади.

## **ХУЛОСА**

Хулоса қилиб айтганда, масофавий таълимнинг самарадорлиги ўқув материалларининг тўғри тақдим этилишига ҳам боғлиқ бўлиб, бироқ бугунги кунгача масофавий таълим технологиялари ёрдамида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишни педагогик-дидактик лойиҳалаш масаласи назарий жиҳатдан ҳам етарлича асосланмаганлиги, хусусан, нофилологик йўналишларда талабаларнинг соҳавий чет тилидан мустақил ишларини масофавий бошқариш, уларни қабул қилиш ва баҳолаш шакллари ишлаб чиқилмагани бугунги куннинг долзарб ва муаммоли масалаларидан биридир.

Талабаларнинг мустақил ишлари ўқув жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, талабалар ўқитувчининг бевосита иштирокисиз ёки билвосита бошқарувида индивидуал бажарадиган иши ҳисобланади. Ахборот-коммуникацион технологиялар ва интернетнинг юксак даражада тараққий этиши ўқитувчи ва талабалар учун ўзига ҳос инновацион муҳит яратмоқда, айнан шу глобал

ахборотлашув муҳотида талабалардаги мустақил ўқув-билув фаолиятини назорат қилишга ўтиш ва уларни мустақил изланувчиликка ундаш давр талабига айланиб бормоқда. Таъкидлаш керакки, жаҳоннинг барча мамлакатлари олий таълим муассасаларида талабаларнинг мустақил ишларига алоҳида эътибор қаратилса-да, бироқ мустақил ишларни ташкил этиш шакллари ва самарадорлиги борасидаги муаммолар ҳали ҳам тўлиқ ечимини топган эмас.

### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Жумаев Н. Рақамли иқтисодиёт нега керак ва у нима беради. // Ж. Рақамли иқтисодиётда замонавий илмий ёндашувлар ва инновациялар. – Т., 2020.–№2. – Б. 76-79.
2. Исломов А.А. Рақамли иқтисодиётда таълим тизимининг ўрни / Ж. Олий таълим:Муаммо ва ечимлари.– Т., 2020.– №1. – Б. 99.
3. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфулов Д., Тўраев А. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т., 2015.– Б.179.
4. Bayne S., Ross J. The pedagogy of the Massive Open online Course. // J. The Higher education academy.– UK., 2013. – №9. – P. 238
5. Гозман Л.Я., Шестопап Е.Б. Дистанционное обучения на пороге XXI века. / Монография.,– Россия.,1999.

Investitsiya faoliyatida adolatli va teng muomala standarti hozirgi kunda investitsiya shartnomalarida va davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalarda (ya'ni BIT) investitsiyani himoya qilish, kafolat va imtiyozlar berish va nizolarni hal etish kabi huquq va majburiyatlarda ifodalanmoqda (ingliz tilida qisqacha: legal consistency, stability and predictability). Ushbu adolatli va teng muomala standarti, ya'ni FET – Fair and Equitable Treatment, dastlab, Xalqaro savdo tashkilotining Gavana Xartiyasi shartnomasida 1948-yilda va Bogota Iqtisodiy kelishuvi shartnomasida 1948-yilda, shuningdek, Qo'shma Shtatlardagi do'stlik, tijorat va navigatsiya kabi ilk xalqaro iqtisodiy shartnomalarda vujudga kelgan. FET standartidan dastlabki foydalanish 1959-yilda Hermann Abs va Lord Shoucross tomonidan taklif qilingan hamda bu chet elda investitsiyalar to'g'risidagi konvensiya loyihasining 1-moddasiga to'g'ri keladi: *“Har bir tomon har doim boshqa tomonlar fuqarolarining mulkiga nisbatan adolatli va teng munosabatni ta'minlaydi. Bunday mulk boshqa tomonlarning hududlarida eng doimiy himoya va xavfsizlik bilan ta'minlanadi va ularni boshqarish, foydalanish va foydalanish hech qanday tarzda asossiz yoki kamsituvchi choralar bilan buzilmasligi kerak”* (Abs va Shawcross, 1960). Hozirgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, asosan BIT arbitraj nizolarida ko'p uchramoqda. Bundan yaqqol shuni anglash mumkinki, adolatli va teng muomalada bo'lishda taraflarga investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlar yaratish va ular uchun himoya muhitini yaratib berish muhim omil hisoblanadi. Har bir investor bilan tuziladigan investitsiya shartnomalari va davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BIT) yuqorida qayd etilgan FET standartini o'z ichiga olgan holda tuzilishi kerak. Har bir davlat va investor bilan tuziladigan shartnoma turlicha bo'ladi hamda bunga sabab shuki, har bir investor turli miqdorda, turli maqsadda investitsiya kiritadi. Investitsiya miqdori, investorning loyihasi qanday sohaga qaratilgani va bu sohaga investitsiya kiritish ehtiyoji mavjudmi, olinishi kutiladigan daromad miqdori qanday, qanday foyda va



kamchiliklari bo'lishi va boshqa barcha obyektiv va subyektiv sabablarga qarab investitsiya shartnomasi va ikki tomonlama investitsiya bitimlari tuziladi. Mana shu BIT va investitsiya shartnomasida taraflar uchun belgilab qo'yiladigan huquq va majburiyatlar umume'tirof etiladigan xalqaro prinsiplarga va investitsiya sohasidagi xalqaro kelishuvlarda mustahkamlangan standartlarga FET, ya'ni Adolatli va teng muomalada bo'lish rejimi singdirilgan bo'lishi lozim. Bunda shartnomada ko'rsatilgan bandlar investor uchun qila oladiganidan ko'p majburiyat yuklashi adolatli bo'lmaydi va bunda investorga foyda kelmasligi ham mumkin. Har bir tuziladigan kelishuv har xil bo'lganligi uchun FET standartlari har bir kelishuvda har xil ko'rinishda sharhlanadi.

Adolat va tenglik o'zaro bog'liq bo'lib, adolat bor joyda tenglik hukm suradi deyish mumkin. Misol uchun, bir investorning puli 2000 \$ va ikkinchisidiki 5000 \$. Ikkalasiga tenglik qilib 2 yil uchun soliq imtiyozi berilsa, ikkinchi investor ko'p pul kiritmasam bo'larkan degan va shu kabi, boshqa ko'proq investitsiya kiritgan investorlar ham adolat yo'q deb hisoblab puliga kuymaslik uchun 2000 \$ kiritaveradi. Adolat bilan 2000 \$ kiritadiganlarga 1,5 yil soliq imtiyoz va 5000 \$ kiritadiganlarga 3 yil soliq imtiyozi berish bu - bir xil pul investitsiya qiladiganlar orasida tenglik va investorlar ichida adolatning qaror topishidir. Bunday tizim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi 3594-sonli "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishnirag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalar qonunda belgilab qo'yilgan miqdorda to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun konsepsiyasida ta'kidlanishicha, O'zbekistonda investorlar uchun soliq og'irligini pasaytirishga va soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq siyosati va soliq-tarif boshqaruvi islohotlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, "Investorlar bilan ishlashda, ayniqsa, joylarda, investorlarning tashabbuslari barcha darajadagi hokimliklar tomonidan lozim darajada qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining

izchilligiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga to'sqinlik qilmoqda", deyiladi unda.

O'zbekiston ishtirokida xalqaro investitsiyalarda adolatli va teng huquqlilik bilan bog'liq bo'lgan bir necha holatlar haqida so'z yuritsak. E'tiborga molik holatlardan biri - O'zbekistonda neft qidirish va qazib olish litsenziyasini bekor qilish bo'yicha nizo bo'lgan Caratube International Oil Company LLP Qozog'istonga qarshi arbitrajdir. Tribunal hukumatning harakatlari Energiya Xartiyasi Shartnomasi doirasida adolatli va adolatli muomala standartini buzgan deb topib, investor foydasiga qaror qildi. Yana bir ish, Oxus Gold plc O'zbekiston Respublikasiga qarshi bo'lib, unda investor O'zbekiston o'zining tog'-kon aktivlarini kompensatsiyasiz eksprofilyatsiya qilganini da'vo qilgan. Ushbu shartnoma (BIT) dastlab Buyuk Britaniya va O'zbekiston o'rtasida 1993-yilda tomonlar o'rtasida imzolangan. Investor tomonidan 1250,50 mln miqdorda kompensatsiya da'vo qilingan, ammo Tribunal tomonidan 10,30 mln miqdorda kompensatsiya berilgan. Bu nizoning ahamiyat qaratish lozim bo'lgan tomoni shundaki, unda adolatli va teng muomala standarti, shu jumladan adolat talablarini rad etish haqidagi da'vo ham mavjud bo'lgan. Shu sababli ham, tribunal ishni investor foydasiga topdi va katta miqdorda tovon to'lash to'g'risida qaror chiqardi. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda ko'plab xalqaro investitsiya shartnomalarni imzolash hamda investorlar uchun ishonchli, adolat hamda teng muomala rejimi hukm surgan muhitni yaratib berish uchun ko'plab chuqur islohotlar qilinishi, qonunlarni amalda to'g'ri qo'llanilishini ta'minlashi lozim.

## **XULOSA**

FETning keng ta'siri va da'vogar investorlar orasida mashhurligiga qaramay, bunday da'voda muvaffaqiyat qozonish oson bolmaydi. Shuning uchun ham xalqaro investitsiya huquqi hukumat aralashuviga qarshi kuchli qurol ekanligi haqidagi keng tarqalgan da'volar amalda afsuski, har doim ham to'g'ri chiqavermaydi. Haqiqatan, FET mezbon davlatning juda yomon munosabatiga nisbatan himoya vositasidir. Bu soliq vig'ish yoki kundalik byurokratiya kabi hukumat bilan yuzaga keladigan har kunlik munosabatlar emas. FETning buzilishini aniqlash usuli bir necha o'n yilliklar davomida investitsion arbitraj yurisprudensiyasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, u yuqorida qayd etib o'tkanimizdek hukumat amaldorlarining qat'iy qo'pol munosabatida yuzaga chiqadi. FET keng ko'lamli xatti-harakatlarni qamrab olish qobiliyatini hisobga olgan holda IAlar ichida mavjud eng keng tarqalgan himoya standartidir. O'zining eng asosiy darajasida FET prinsipi biz tushunadigan jarayonning mohiyatini oz ichiga oladi - hukumatlar qoidalar, sud va ma'muriy qarorlarni qo'llash nuqtayi nazaridan ochiq va izchil bo'lishi kerak. Bu ko'pincha

xalqaro minimal himoya standartiga to'g'ri keladi deb ishoniladi, bu odatdagi xalqaro huquqqa muvofiq, qabul qiluvchi davlatlar hukumatlari tomonidan shartnomaning aniqroq qoidalarida ko'zda tutilmagan holatlarda xorijiy investorlarga berilishi kutilmoqda. FETning buzilishini ko'rsatish qiyin, chunki u zararli xatti-harakatlar uchun yuqori chegarani belgilaydi. Ammo yillar davomida arbitraj sudlari ushbu atamaning keng qamrovli tushunchasiga asoslandi va bu ko'plab zamonaviy IIAlarni vanada aniqroq ta'riflashga olib keldi. Unda ko'pincha investor-davlat nizolarida uchraydigan muayyan xatti-harakatlar shakllarining assortimenti keng e'tirof etilgan. FSP xalqaro investitsiya shartnomalarida yaxshi o'rnatilgan himoyaning biroz torroq shakli bolib, u an'anaviy ravishda investorlarni aktivlariga yetkazilgan moddiy zarardan himoyalaydi. Boshqa yurisdiksiyaga o'tishni rejalashtirayotgan ko'p millatli korxonalar uchun mahalliy investorlar bilan bir qatorda unga teng munosabada bo'lishini bilish yetarli bo'lmayligi mumkin. Chunki teng munosabat ba'zan zararli bo'ladi. Bu, ayniqsa, qonun ustuvorligining kuchli an'alariga ega bo'lmagan mamlakatlarda ko'p uchraydi. Xuddi shunday, oddiy xalqaro huquq tomonidan taqdim etilgan himoya shunchaki noaniq va ahamiyatsiz bo'lishi mumkin, chunki investor o'z vaqt va resurs majburiyatlari hukumatlar tomonidan asossiz aralashuvga duchor bo'lmayligidan qo'rqishini yengib o'tishi mumkin. Xalqaro investitsiya huquqi ushbu dilemmaga qo'shimcha himoya standartlarini yaratish va ishlab chiqish orqali javob berdi. Bu qoidalar biroz noaniq bo'lsa ham, mezbon davlatning xorijiy investorlarga nisbatan munosabati bo'yicha mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu standartga ko'ra, mezbon hukumatlar investorlarning mulkiga zarar yetkazmasliklari kerak va tegishli darajadagi politsiya yoki harbiy himoyani ta'minlash orqali uchinchi tomon buning oldini olishi kutiladi. Mezbon davlatlarning investorni har qanday jismoniy tazyiqlardan himoya qilish davlatning qudratidan past darajada bo'lsa, standart bo'yicha javobgarlikka tortilishi kerak. FSPning so'nggi namunalarida u nafaqat jismoniy zarardan xavfsizlikni, balki huquqiy xavfsizlikni ham qamrab olishi kerakligi taklif etiladi. FET mezbon davlatlarni, jumladan O'zbekistonni barqaror huquqiy muhit, shu jumladan, fuqarolik va jinoiy sudlarning faol ishlashi hamda adolatli murojaat qilish va foydalanish huquqini taminlashga, adolat va tenglik rejimini amaliyotda ta'sirini kuchaytirishga chaqiradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi 3594-sonli "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 25.12.2019-yildagi 598-sonli Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son.
3. FAIR AND EQUITABLE TREATMENT UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II [https://unctad.org/en/Docs/unctaddiaeia2011d5\\_en.pdf](https://unctad.org/en/Docs/unctaddiaeia2011d5_en.pdf)
4. Handbook on Obligations in International Investment Treaties, APEC Committee on Trade and Investment (CTI).
5. OECD (2004), “Fair and Equitable Treatment Standard in International Investment Law”, OECD Working Papers on International Investment, 2004/03, OECD Publishing.
6. Xalqaro investitsiya huquqiga kirish: Devid Kollins (David Collins), Narziyev Otabek Sa`diyevich. – T,: TDYU nashriyoti, 2023. 456 b.
7. [7.https://investmentpolicy.unctad.org/investment-dispute-settlement/cases/441/oxus-gold-v-uzbekistan](https://investmentpolicy.unctad.org/investment-dispute-settlement/cases/441/oxus-gold-v-uzbekistan)
8. Kurtz, The Merits and Limits of Comparativism: National Treatment in International Investment Law and the WTO (n 102). See also UPS v Canada, Separate Statement of Dean Ronald A. Cass (n 206), para 17.
9. CPI, Inc. v Mexico, (n 98), para 120.
10. А.А. Рогозина, Некоторые особенности применения оговорок о наибольшем благоприятствовании в международном инвестиционном праве// Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – 2017. – № 2. – 268 с.
11. UNCTAD Series on issues in international investment agreements, National treatment. – 1999. – 37 p

## **ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИНИ ЎТАШ ИНСТИТУТИ**

**РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович**

ТДЮУ мустақи изланувчиси

E-mail: [z.raxmanov95@gmail.com](mailto:z.raxmanov95@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу илмий мақолада давлат фуқаролик хизматини ўташ тушунчаси, унинг аҳамияти ва долзарблиги кўриб чиқилган ҳамда давлат фуқаролик хизмати ўташнинг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** давлат фуқаролик хизматини ўташ, давлат фуқаролик хизматини ўташ тизими, меритократия тамойили, карьера модели.*

## **ИНСТИТУТ ПРОХОЖДЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ**

**РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович**

Старший преподаватель Центра повышения квалификации юристов  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

E-mail: [z.raxmanov95@gmail.com](mailto:z.raxmanov95@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной научной статье рассмотрены понятие, значение и актуальность государственной гражданской службы, а также анализированы специфические аспекты государственной гражданской службы.*

***Ключевые слова:** прохождения государственной гражданской службы, система государственной гражданской службы, принцип меритократии, карьерная модель.*

### **КИРИШ**

Олимларнинг давлат хизматининг бир тури бўлган давлат фуқаролик хизмати ва давлат фуқаролик хизматини ўташ тушунчаларига оид фикр ва мулоҳазалари кам учрайди. Бироқ умумий маънодаги давлат хизматини ўташ институти ҳақида фикр ва мулоҳазалар талайгина. Давлат хизматини ўташ институти – бошқарув аппаратига ходимларни танлашдан, хизмат бўйича ҳаракатланишни амалга оширишдан, давлат хизматидан бўшатиш услубларини ўрнатиш ва амалга оширишдан бошланади [1].

Давлат хизмати институтининг эволюцияси узок тарихга эга бўлиб, давлат хизматининг замонавий қиёфасини, ҳуқуқий мақомининг хусусиятларини, давлат хизматчиларини ишга қабул қилиш мақсад ва вазифаларини ва уларнинг меҳнатига ҳақ тўлашни белгилайди [2]. Ҳозирги кунда давлат хизмати



институтига давлат хизматчиларини ўзларига юкланган функцияларни ҳамда давлат органи раҳбарияти томонидан қабул қилинадиган қарорларни ижросини амалга оширишга қаратилган фаолияти сифатида қаралмоқда.

Бундан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, давлат хизмати жараёнлари ва уларни тартибга солувчи нормалар бирлашган ҳолда давлат хизмати институтини ташкил қилади. Бироқ, давлат хизмати ҳуқуқий институти қайси ҳуқуқ соҳасига тегишлилиги масаласи ҳозирги кунга қадар мунозарали. Айрим олимлар давлат хизматини маъмурий ҳуқуқнинг ажралмас қисми сифатида тушунсалар, айримлари эса давлат хизмати жараёнида юзага келадиган муносабатлар маъмурий-ҳуқуқий меъёрлар билан тартибга солинганлиги сабабли алоҳида маъмурий-ҳуқуқий институт ҳисоблашади.

Фикримизча, олимлар давлат хизматини институт сифатида изоҳлайдиган бўлса, давлат фуқаролик хизматини ўташни ҳам алоҳида ҳуқуқий институт сифатида урганиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Ҳуқуқий институт – бу маълум бир доирадаги муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқий нормалар йиғиндисидан иборат бўлиб, ҳуқуқ соҳасининг тақибий элементи ҳисобланади. Демакки, давлат фуқаролик хизмати ҳам маълум доирадаги муносабатларни тартибга соланди, давлат фуқаролик хизматини ўташ эса жараён ҳисобланади, бу соҳани тартибга солиш алоҳида қонун билан амалга оширилади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Ҳуқуқшунос олимлар томонидан давлат фуқаролик хизматини ўташ тушунчаси бўйича билдирилган фикр ва мулоҳазаларга эътибор қаратадиган бўлсак ҳам давлат фуқаролик хизматини ўташни соҳага оид институт сифатида қабул қилиш мумкин деб ўйлаймиз.

Хусусан, олим **В.В.Черепанов** “давлат хизматини ўташ – хизмат ўташнинг асосий мазмуни, босқичлари, тартиб ва жараёнларини белгилаб берувчи ҳуқуқий, ташкилий ва ижтимоий чора-тадбирлар тизими ҳисобланади” деган фикрни билдирган [2]. **Й.М. Козловнинг** фикрича, “Давлат хизматини ўташ – давлат хизматчилари учун узоқ давом этувчи жараён бўлиб, бу хизматчиларнинг хизматга қабул қилиш вақтидан бошлаб, то хизматдан бўшашгача бўлган кетма-кет алмашинувини ифода этади”.

Миллий олимларимиз давлат хизматини ўташни давлат хизматчисининг ҳуқуқий ҳолатига таъсир кўрсатувчи юридик фактлар ва ҳокимият субъектлари индивидуал актларининг тизими, шунингдек, давлат лавозимини эгаллаб турган шахснинг хизмат ҳолатининг ўсиши [3], дея тариф беришган. **Э.Т.Ҳожиев** “Давлат хизматини ўташ - давлат маъмуриятида мансабларнинг давлат хизматчилари томонидан кетма-кетликда алмашинувини,

хизматчиларнинг давлат-хизмат ҳукуқий муносабатлари ўзгаришини ўз ичига олади” деган фикрни билдирган [4].

Шунингдек, давлат хизматини ўташ - бу давлат хизматининг асосий элементи бўлиб, ходимларни давлат хизматига қабул қилиш, давлат хизматчиларининг аттестацияси, уларнинг хизмат бўйича ҳаракатланиши, хизматчилар фаолиятини тартибга солиш ва уларнинг жавобгарлиги, шунингдек, давлат-хизмати муносабатларининг бекор бўлиши асосларини ўз ичига олувчи жараёнлар деган фикрлар ҳам билдирилган [5].

Фикримизча, **давлат фуқаролик хизматини ўташ** - махсус реестрга киритилган давлат фуқаролик хизматчиси томонидан давлат хизматига кириш, хизмат бўйича ҳаракатланиш ва давлат хизматини тугатиш босқичидан иборат бўлган профессионал фаолиятдир.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуннинг 7 боби “Давлат фуқаролик хизматини ўташ тартиби” деб номланиб, давлат фуқаролик хизматини ўташ тартибининг умумий қоидаларини ўз ичига олади. Демак, давлат фуқаролик хизматини ўташ ўзига хос тизимга эга эканлиги билан ажралиб туради. Хусусан, давлат фуқаролик хизматини ўташда хизмат бўйича кўтарилиш (ҳаракатланиш) муҳим аҳамият касб этади.

Бизнинг фикримизча давлат фуқаролик хизматини ўташ жараёнини бир неча босқичларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Хусусан:

- давлат фуқаролик хизматига қабул қилиш;
- малака даражалари ва махсус унвонлар бериш;
- давлат фуқаролик хизматчисини бошқа лавозимга ўтказиш
- давлат хизматчиларини аттестациядан ўтказиш ва уларнинг малакасини ошириш;
- давлат хизматчисини рағбатлантириш;
- давлат хизматининг тугатилиши

Айрим мутахассислар давлат хизматини ўташнинг асосий белгиси *давлат лавозимини эгаллаш* деб ҳисоблайди[7]. Бу фикрга қўшиламыз ҳақиқатдан ҳам давлат органи ёки ташкилотдаги бирорта лавозимни эгаллаш фуқаронинг мансаб ҳуқуқлари, мажбуриятлари, чекловлар ва ҳуқуқий жавобгарликнинг субъектига айланганидан далолат беради.

Давлат фуқаролик хизматини ўташнинг якуний босқичи *давлат хизматининг тугатилиши* ҳисобланади. Давлат хизматининг тугатилиши амалдаги қонунчилик томонидан назарда тутилган асосларга биноан, давлат хизматчисини ишдан бўшаши (бўшатилиши) билан боғлиқ жараён ҳисобланади.

Давлат хизмати тугатилиши жараёнининг мазмун-моҳияти шундаки, унда давлат хизматчилари ва давлат органлари фаолият юритаётган давлат ташкилотлари шу жараён билан боғлиқ бўлган бир қатор юридик ҳаракатларни бажарадилар. Давлат хизмати тугатилишининг ташаббускори сифатида ўз хоҳишига биноан бўшаётган давлат хизматчиси ёки қонунчиликда кўзда тутилган сабабларга кўра хизматчи билан давлат-хизмат муносабатларини бекор қилаётган давлат органи (маъсул мансабдор шахс) ҳам бўлиши мумкин. Мазкур жараён Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексига назарда тутилган нормаларга биноан тартибга солинади.

Юқорида айтилган қонунинг 50-моддасида давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятини тугатиш учун қуйидагилар асос бўлиши белгиланган:

- меҳнат тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ меҳнат шартномасининг бекор қилинганлиги;

- Ўзбекистон Республикаси фуқаролигининг давлат фуқаролик хизматчиси томонидан йўқотилганлиги;

- давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятини давом эттириш имкониятини истисно этувчи жазога тортилганлигига доир суд ҳукмининг қонуний кучга кирганлиги, шунингдек унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаш тўғрисидаги суднинг ажрими;

- давлат фуқаролик хизматчисининг давлат фуқаролик хизмати лавозимини эгаллаши учун аҳамиятга эга бўлган ёлғон ахборот тақдим этилганлиги;

- давлат фуқаролик хизматчиси томонидан коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этилганлиги;

- давлат фуқаролик хизматини ўташ билан боғлиқ чекловларга давлат фуқаролик хизматчиси томонидан риоя этилмаганлиги.

Бугунги кунда Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизматини ўташнинг янича тизим шаклланиб бормоқда. Мазкур тизимнинг шаклланиши Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этилиши билан боғлиқ бўлмоқда.

Хулоса қиладиган бўлсак, давлат фуқаролик хизматини ўташни ҳам алоҳида ҳуқуқий институт сифатида ўрганиш мақсадга мувофиқ, чунки давлат фуқаролик хизмати маълум доирадаги муносабатларни тартибга солиди, давлат фуқаролик хизматини ўташ жараёни эса алоҳида қонун билан белгиланади.

## **REFERENCES:**

1. Аппарат управления государства. Ч.2. –М. 1997. С. 205.

2. Воронин А.Н., Надирова Р.Р. Институт государственной службы: право на государственную службу и механизм реализации // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2022. №12-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institut-gosudarstvennoy-sluzhby-pravo-na-gosudarstvennuyu-sluzhbu-i-mehanizm-realizatsii>
3. Черепанов В.В. Основы государственной службы и кадровой политики. – М., 2012. – С.167.
4. Мирбобоев Б., Хусанов О., Бегматов А. Ўзбекистонда давлат хизматини ташкил этишнинг ташкилий-хуқуқий масалалари. “Akademiya” нашриёти, Тошкент, 2005 йил. Б.84. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at// Mualiflar: M. Abdullayev, M. Abdullayeva va boshq.; R. Ro‘ziyev va Q. Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri/ - Т.: “Sharq”, 2009. // [https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Mustaqillik%20\(izohli%20ilmiy-ommabop%20lug'at\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Mustaqillik%20(izohli%20ilmiy-ommabop%20lug'at).pdf)
5. Давлат хизмати: Ўқув қўлланма / Хожиев Э.Т., Исмаилова Г.С., Рахимова М.А. – Т.: Baktria press, 2015.
6. Davlat xizmati. [Matn]: darslik. / Yusupov S.B., Isayeva F.B. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 160 b.
7. Давлат хизмати: Ўқув қўлланма / Хожиев Э.Т., Исмаилова Г.С., Рахимова М.А. – Т.: Baktria press, 2015.

## **QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Ismoilov Asadbek**

Farg‘ona Politexnika Instituti talabasi

Ilmiy rahbar: **Uzganbayeva Dilnoza Toxtasin**

Farg‘ona politexnika instituti assistenti

Email: dilnoza.uzganbayeva@ferpi.uz

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada hozirgi qishloq xo‘jaligidagi mahsulotlarni sifati va xavfsizligini taminlash va ularni eksport miqdorini ko‘tarish bilan bog‘liq mumalolarni yechish masalalari yoritilgan. Poliz ekinlari meva va sabzavotlarini asosiy tashqi bozorlari eksport yo‘nalishlari va tarkibi tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida hozirgi davrda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tavarlarining sifat va xavfsizligini nazorat qilishni yangi yo‘nalishlari topish bilan bog‘liq takliflar berib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qishloq xo‘jaligidagi mahsulotlar xavfsizligi, meva va sabzavotlar eksporti, importi, ISO 22000 standarti.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещены вопросы, связанные с обеспечением качества и безопасности сельскохозяйственной продукции и увеличением объемов ее экспорта. Проанализированы основные зарубежные рынки фруктов и овощей сельскохозяйственных культур, а также проанализирована структура и направления экспорта. Узбекистан В настоящее время в республике высказаны предложения по поиску новых способов контроля качества и безопасности сельскохозяйственной и пищевой продукции.*

**Ключевые слова:** *Безопасность сельскохозяйственной продукции, экспорт и импорт фруктов и овощей, стандарт ISO 22000.*

### **ABSTRACT**

*This article highlights issues related to ensuring the quality and safety of agricultural products and increasing the volume of their exports. The main foreign markets for fruits and vegetables of agricultural crops are analyzed, and the structure and directions of exports are analyzed. Uzbekistan Currently, proposals have been made in the republic to search new ways to control the quality and safety of agricultural and food products.*

**Key words:** *Safety of agricultural products, export and import of fruits and vegetables, ISO 22000 standard.*



## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda Agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va xavsizligini nazorat qilishni taminlash eksport haridorlarini oshirish bo'yicha bajarilayotgan keng ko'lamli ishlar ,va ko'plab yillar davomida agrar ya'ni qishloq xo'jaligi yo'nalishni boshidan isloh qilish .yangi zamonaviy texnika texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan qonun loyhalar o'z natijasini bermoqda .Va shun yangi texnologiyalardan foydalanish natijasda mahsulotlarni unmdorligini oshirishga va serhosil navlarni yetishtirishga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi Ozbekiston sharoitda agrar sohani qishloq ho'jaligini rivojlantirish va mahsulotlarni eksport sifatiga javob berishi uchun keng ko'lamli ishlar yaratilmoqda.Ayniqsa chol va tog'li hududlardan unumli foydalanish maqsadida keng sharoitlar yaratmoqda.Qishloq xojaligida eksport salohiyatni va haridorlarni jalb qilishda sanitariya xavsizligiga juda katta etibor bermoqda.yana etibor qaratish zarur bo'lgan eng muhim jihatlaridan biri shundaki jahon standardlariga va uning talablariga javob berishi hisoblanadi.

So'ngi yillarda bu yo'nalishda ham sezilarli darajada o'zgartirishlar yangiliklar kiritilmoqda .Ko'plab yillar davomida qishloq xojaligi tizmini rekanstruksiya qilish va har hil agrar kasaliklarni hashoratlarin yoq qilish va toza tabiiy mahsulotni eksport qilish uchun yangi sharoitlar qonunlar ishlab chiqildi.Olimlarimiz ham shu soha boyicha yangi ilmiy tadqiqotlar ishlarni ham amalga oshirmoqda. Hozirgi dunyo miqiyosda keng etibor qaratilga soha agrar soha bolib unda dunyodagi barcha mahsulotlarni ISO dan otkazish belgilab berilgan, Ko'plab dehqonlar, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksporti bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga GLOBALG.A.P, Organic, HACCP kabi xalqaro sertifikatlarining berilishi noan'anaviy bozorlar, jumladan, Yevropa davlatlariga yo'l ochmoqda. Xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritish ko'pchilik o'ylaganidek tez va oson kechadigan jarayon emas, balki buning uchun yillab vaqt kerak bo'ladi.[1]Hozirgi kunda eksport qilingan meva sabzavotlarni dunyoning barcha davlatlari joylaridan amalga oshirilmoqda.Oxirgi davrda mahsulotlarni MDH davlatlaridan tashqari katta bozorlarda ya'ni Xitoy, Germaniya,Turkiya Janubiy Kareya,Yaponiya Hindiston,Boltiqbo'yi davlatlariga eksport qilish yo'lga qo'yildi.Davlatimizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda mahsulot sifatini oshirishni ,qadoqlash jarayonlarini zamonaviy texnologiyalarning ishlatilishi hisobiga dunyo bo'yicha milliy mahsulotimiz ,ayniqsa anor ,qovun gilos uzum va ayniqsa quritilgan mevalarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda.

## **MAVZU BO'YICHA BOSHQA OLIMLAR ILMYIY ASARLARINING TAHLILI.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Buxoro davlat universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti hamda Respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokida tashkil etildi. Yalpi majlis yig'ilishi 17-dekabr kuni soat 14:00 da videokonferensiya zalida onlayn-masofaviy shaklda bo'lib o'tdi. Anjumanni Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor O.X.Xamidov kirish so'zi bilan ochib berdi. Shuningdek, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari doktori, Sh.M.Bobomurodov, O'zRFA akademigi, q.x.f.d., O'zMU Tuproqshunoslik kafedrasida professori J.S.Sattorov, Timiryazev nomidagi Rossiya Agrar universiteti Dexqonchilik va tajriba ishlari metodikasi kafedrasida mudiri, b.f.d., professor M.A.Mazirov, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori[2], tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va uning natijasida agrar sohasidagi ozgarishlarga erishildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Joriy yilning yanvar-noyabr oylaridan chet elga meva va sabzavotlarni eksport qilgan davlatlar orasida Farg'ona viloyati birinchi o'rinni egalladi-289.3 ming tonna. Davlat statistika qo'mitasi dastlabki bergan malumotlariga ko'ra, undan keyingi o'rinlarda n mos ravishda 217ming tonna va 180.1ming tonna meva va sabzavotlar eksport jonatilgan Toshkent viloyati va Samarqand viloyati joy oldi. Hozirgi ko'rsatkichlar qolgan hududlar bo'yicha quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

1-jadval

O'zbekistonda filoyatlar miqiyosidagi eksport ko'rsatkichlari.

Surxondaryo viloyati	157 ming tonna
Xorazm viloyati	144 ming tonna
Namangan viloyati	141,5 ming tonna;
Andijon viloyati	106,8 ming tonna
Toshkent shahri	89,1 ming tonna
Jizzax viloyati	77,1 ming tonna
Buxoro viloyati	67,6 ming tonna;
Qashqadaryo viloyat	49,3 ming tonna
Sirdaryo viloyati	45,4 ming tonna
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23,7 ming tonna;
Navoiy viloyat	10,6 ming tonna

Hozirgi davrda davlatimizda qishloq xo'jaligidagi mahsulotlarni koplav va xar xil turdagi navlari yetishtirilmoqda. Saqlash va u mahsulotni qayta ishlash va uni eksport qilishga va fermerlarni bilimini oshirishga keng ishlar amalga oshirilmoqda.

Agro bank tomonida fermerlarni o'qitish va unlarni bilm konikmalarni oshirish yo'lida ham katta yutuqlarga erishildi. Lekin bu loyhalar va imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilgani yo'q.yurtimizning cheka hududlarida shra kasaligini avj olishi va mahsulotlarni sifatsizligiga duch kelganini ham ko'rishimiz mumkun. Hozirgi davrdagi fermerlarning eng asosiy maqsadi ISO sertifikatini olish bo'lmoqda va holanki ISO sertifikatini olishga ossonlikcha erishilmaydi va bu uzoq vaqtni talab qiladi. ISO serifikatni olish natijasida dehqonalr va fermerlar o'zlari yetishtirgan mahsulotini bemalol va to'siqlarsiz chet davlatlariga eksport amalyotini o'tkazishlari mumkun.O'zbekistonda ham agrar sohani yanada rivojlantirish uchun yangi texnika texnologiyalarni taqbiq etilmoqda.Bunda tomchilab sug'orish tizmini yanada takomillashtirish natijasda mevali darahklar va sabzavotlarni hozildorligiga erishildi.Bosh yotgan terlarni tadbirkorlarga 50 yilgacha foyisiz tolov tariqasda berishi oqibatida bosh yerlardan samarali foydalanish ga erishildi.

2-Jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar quyidagilaridan iborat:

1.Xodimlarni malakasini doimiy ravishda oshirib borish va ularni tajribalarini ilg'or xorijiy davlatlarda malakasini oshirish va tajriba almashish borasida ishlarni amalga oshirish;
2.Texnik reglament qabul qilish choralarni kuchaytirish va amalda tadbqiq etishni jadallashtirish;
3.Regional va halqaro tashkilotlar bilan uzviy va doimiy hamkorlik qilish hamda ular bilan o'zaro aktual ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish;
4.Muvofiqlikni baholash idoralariga bo'lgan talabni kuchaytirish.

## **XULOSA**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sharoitda yetishtirilayotgan eksportga mos qishloq xo'jaligi,sabzavot va mevalarni sifat va havfsizligini taminlash ,raqobatbardoshligini oshirish va ISO talablariga moslashtirish muammo va yechimlari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirb o'tilgan.Hozirgi kunda davlatimizda eksportga mo'ljallangan ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekin va sabzavotlari yetishtirishni yangicha usullari ishlab chiqilmoqda. Va yetishtirilayotgan mahsulotlarni xavfsizligini taminlash uni bosha bir chet davlatga eksport qilayotganda uning yaroqlik mudatlarini nazorat qilish uni sifat jihatdan yomon ahvolga kelmasligi uchun chora tadbirlar ko'rish ko'zda tutilgan.Va jahon bozorlariga sifatli va raqobatbardosh meva va sabzavotlarni ishlab chiqarishda mevaning so'rt darajasini unmdorligini oshirish zarur.Mahsulotni unmdorligini oshirish uchun talabga javob beradigon tuproqlardan foydalanish yetishtrilayotgan mahsulotlarni doyimiy tarzda sifat nazoratidan o'tkazib turish zarur hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli – O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori.
3. Muminov Najmiddin Shamsiddinovich, Odinaev Mirzamad Isaevich, Abdirayimov Azizbek Ro‘ziqul O‘g‘li, Rajabov Sardor Jumaboy O‘g‘li, (2021). Problems Of Quality Assurance And Export Potential Of Grapes. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 3(06), 38-44.
4. Н.Муминов, М.Одинаев, А.Абдирайимов Характеристика и оценка качества винограда 2021. 97-98.
5. Хакимов, Д. В., & Мирзаев, О. А. (2017). Задачи метрологического обеспечения в повышении качества агропромышленной продукции. In *Современное экологическое состояние природной среды и научнопрактические аспекты рационального природопользования* (pp. 1657-1660).
6. Хакимов Д.В. и др. Улучшения потенциала национальной инфраструктуры качества и проблемы экспорта плодоовощной продукции //Итоги и перспективы развития агропромышленного комплекса. – 2018. – С. 502-508.
7. Odinayev, M., Buriev, K., Sultonov, K., & Eralieva, S. (2021). Analysis of mechanical properties, biochemical composition and technological parameters of grape (*Vitis*) raisin varieties in conditions of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 284, p. 03023). EDP Sciences.
8. Хакимов, Д. В.У., Мамажонов, А.А., & Саттаров, М.О. (2020). Управление внутренним аудитом в соответствии с международными стандартами. *Universum: экономика и юриспруденция*, (4 (69)), 4-12

UDK 811.512.133

## **BALANDLIK SHAKLINI IFODALOVCHI OROGRAFIK TERMINLAR VA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA ORONIMLARINING YASALISHI**

**Begimov Odil To'xtamishovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori

[begimovodil@mail.ru](mailto:begimovodil@mail.ru)

**Shodmonova Nigora Irgashyevna**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*O'zbekistonning Janubiy hududlarida oronimlarining tadqiqi, ularning yasashida balandlik tushunchasi bilan bog'liq orografik terminlar muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi. Maqolada oronimlar yasashida xarakterli bo'lgan shunday indikatorlarning tarixiy-lisoniy xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** oronim, oronimiya, indikator, termin, tog', adir, cho'qqi, balandlik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Изучение оронимов южных регионов Узбекистана показало значение орографических терминов, связанных с понятием высоты, в их формировании. В статье описаны историко-лингвистические особенности таких показателей, характерных для образования фонем.*

***Ключевые слова:** ороним, оронимия, показатель, термин, гора, холм, вершина, высота.*

### **ABSTRACT**

The study of oronims in the southern regions of Uzbekistan showed the importance of orographic terms related to the concept of height in their formation. The article describes the historical-linguistic features of such indicators, which are characteristic for the formation of phonemes.

**Key words:** oronim, oronymy, indicator, term, mountain, hill, peak, height..

### **KIRISH**

Ma'lumki, oronimlar reliefning musbat (qabariq) va manfiy (botiq) shaklini ifodalovchi geografik obyektlarning atoqli oti hisoblanadi. Bunday atoqli otlar,



asosan, shu turlarga tegishli tushunchalarni ifodalaydigan terminlar vositasida yasaladi. Biz bu maqolada relefning musbat shakli, ya'ni balandlik tushunchasi bilan bog'liq terminlarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning oronimlar yasalishidagi ishtiroki masalasini Janubiy O'zbekiston materiallari asosida ko'rib chiqamiz. Ular ishtirokida yasalgan oronimlar asosan yer sathidan baland bo'lgan geografik obyektlarga tegishli. Nom ijodkorlari bo'lgan mahaliy aholi atroflaridagi yoki o'zlari munosabatda bo'lgan orografik obyektlarning hajmi, shakli, ko'rinishi, balandlik darajasi, miqdor belgilari va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi turli terminlarni yaratishgan. Keyinchalik shu terminlar orografik obyektlarning xususiyatlarini ifodalovchi indikator sifatida oronimlarning shakllanishida xizmat qilgan.

Ma'lumki, balandlik tushunchasi bilan bog'liq har qanday orografik termin oronimik indikator bo'lolmaydi. Biz maqolada oronimlar va ulardan kelib chiqqan boshqa turdagi joy nomlari tarkibida indikator bo'lib kelish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z va atamalar ustida to'xtalamiz.

### **TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI**

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda amal qiladigan tarixiylik tendentsiyasiga asoslanadi, ya'ni barcha hodisalar tarixiy-ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi. Shuningdek, toponimlarning lingvistik tadqiqida jamoa va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida qiyosiy-tarixiy, qayta tiklash, tuzilish va shakllanishga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

**Adir.** Orografik termin sifatida tog' etagidagi cho'l va chala cho'l qirlarni ifodalaydi. Respublikamizning tog'oldi hududlarida ko'p uchraydi. Jumladan, Janubiy O'zbekistonda Qoratepa adiri, Miroqi adiri, Yakkabog' adiri, G'uzor adirlari mavjud. XI asrlar turkiy tilida aziz so'zi ham adir ma'nosida qo'llanilgan. Jumladan, Maxmud Koshg'ariy lug'atida aziz – "baland yer va boshqa baland narsalar" ma'nosida kelishi ko'rsatilgan. U aziz tog' birikmasi tarkibida kelib, "oshib o'tish mumkin bo'lmagan tog'" ma'nosini berishi ko'rsatilgan [9: I, 88]. T. Nafasov ham aziz va adir so'zlari o'zakdosh ekanligini ta'kidlagan, ular tarkibidagi z va d

tovushlaridagi farqlar talaffuz xususiyatlaridan kelib chiqqanligini, soʻz oxiridagi r~z tovushlari coʻz yasovchilik vazifasining bajarishini koʻrsatgan [14:10].

**Ayri.** Bu soʻz orografik xarakterdagi termin hisoblanib, u ayri ~ ayriq – “ayrilgan, ajralgan; oʻrkachga oʻxshash balandlik, orasi kichik oʻyiq bilan ajralib turgan, yonma-yon joylashgan koʻp kichik tepalardan iborat boʻlgan balandlik” tushunchalarini ifodalaydi. Shu tushuncha asosida orografik obʼektlarning nomini yasalishiga xizmat qiladi: Qoraayri (Do., balandlik), Oqayri (Do., Qm., balandlik), Ogʻayri (Qm., q-q).

**Bayir//boyir.** Bu soʻz orografik atama sifatida bir qancha turkiy tillarda uchraydi. Bu soʻz bayir ~ boyir ~ bayыр ~ bair shakllarida qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, turk, turkman, ozarbayjon, nugʻay, gagauz, qirim-tatar tillarida turli fonetik variantlarda uchraydi. U bu tillarda turli maʼno xususiyatlariga ega: tepa; doʻnglik; balandlik; togʻ yonbagʻri, qiyalik; tekislik, yalanglik; haydalmagan yer. Jumladan, turkman tilida bayыр – doʻnglik, balandlik; qozoq tilida bayыр – qumli choʻllarda shamol natijasida hosil boʻlgan botiq joy [8:47]. Eski oʻzbek tilida boyir – kichik tepa, tekislikdagi hajmi kichik balandlik maʼnolariga ega boʻlgan. Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida shu maʼnoda qoʻllangan [13:I,309]. Bu soʻz orografik indikator sifatida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan: Qorabayir (Shs., tepa) – unchalik baland boʻlmagan tepa. Turkmanistonda Qizilboyir, Qiziljaboyir, Qorabayir, Birinboyir, Yelboyir, Yetimboyir, Darvozaboyir degan balandliklar bor. Shuningdek, bu soʻz toponimlar tarkibida aniqlovchi komponent boʻlib ham keladi: Boyirgaza (Chr., gaza), Bayirkoʻl ( Yab., koʻl).

**Boʻktar.** Bu oronimik indikator hisoblanib, baʼzi turkiy tillari, jumladan, qirgiz tili, shuningdek, oʻzbek tilining baʼzi bir qancha shevalari (masalan, Zomin, Gʻallaorol tumanlari)da “togʻ etagi” tushunchasini ifodalaydi. Bu soʻz Mahmud Koshgʻariyning «Devonul lugʻatit turk» asarida ham qayd etilgan. Maxmud Koshgʻoriy uni boʻktir – “togʻ oldi, togʻdagi tepalik joy” shaklida qoʻllagan [9 : I, 424]. Qirgʻiz tilida bekter, oʻzbekchada boʻktar – “tepalik” (asosan togʻ oldi hududida). Demak, bu soʻz oʻz maʼno xususiyatiga koʻra “adir” soʻziga mos keladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Boʻktaryoʻl (Zomin) toponimi - “togʻ oldi hududidan, adirlikdan oʻtgan yoʻl” maʼnosiga ega. Bu termin qozoq tilida ham shu maʼnoda qoʻllanadi. G. Konkashpaev Amonbukter toponimini keltirgan [126 : 189].

**Boʻrlik.** XII - XIII asrlar turkiy tilida – tepalik, qir; chakalak, toʻqay. «Hibatul-haqoyiq»da ham shu maʼnoda qoʻllangan [12:260]. Boʻllik (Chr. adir, balandlik) oronimi shu indikator asosida kelib chiqqan.

**Dumaloq.** Bu soʻz orografik atama sifatida “uchi konussimon, girdi silliq choshtepa shaklida boʻlgan balandlikning bir turini ifodalaydi. U anglatgan

tushunchasi bilan bog‘liq orografik ob‘ektlarning nomlarini yasalishiga xizmat qiladi. Jumladan, Janubiy O‘zbekistonning Qoradumaloq, Oqdumoloq (Do., balandliklar) oronimlari tarkibida oronimik indikator sifatida kelgan.

**Do‘ng.** Bu so‘z orografik termin sifatida “cho‘qqisimon balandlik, yer sathidan ko‘tarilgan balandlik” tushunchalarini ifodalaydi. Bu so‘z qadimgi turkiy va mo‘g‘ul tillaridagi qara~xara – “balandlik, do‘nglik” ma’nosidagi so‘zga sinonim. Bu termin do‘ng ~ to‘ng shakllarida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan: Qorado‘ng (Nsh., joy), Boydo‘ng (Chr., tepa).

**Sirt.** Bu so‘z turkiy tillarga tegishli bo‘lib, M. Koshg‘ariy asarida keltirilishicha, XI asrlarda qipchoqcha “kichik tepa, kichik vodiy” ma’nolarini bildirgan [9: I, 328]. Orografik xarakterdagi termin sifatida oronimlar va boshqa turdagi ob‘ektlar nomlari tarkibida uchraydi: Belassirt (Do., balandlik), Qorasirt (Do., tog‘).

**Tal//tall.** Bu so‘z kelib chiqishiga ko‘ra arab tiliga tegishli bo‘lib, o‘zbek tiliga “tepa, tepalik” ma’nosini beradi [19:II,310]. Janubiy O‘zbekiston oronimiyasida keng tarqalgan. Jumladan, Tallaktog‘ (Sho., tog‘), Tallipaxsa (Msh. balandlik), Tallisor (Qr., tepa), Tillatepa (aslida Tallitepa, Do.), Taliqiztepa( Qr.), Talliqo‘rg‘ontepa (Qr.). Bu so‘z XIV – XVI asrlar “Vaqfnoma” larida joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi [21].

**Tepa//tuva.** Bu so‘z termin sifatida usti gumbaz shaklidagi, yonbag‘irlari qiya, do‘ng, baland bo‘lgan orografik ob‘ekt turini ifodalaydi. Nisbiy balandligi 200 m dan oshmaydi. Janubiy O‘zbekiston ayrim shevalarida teva, to‘ba, tuva [196]; xorazm shevasida toba, dapa shakllarida qo‘llanadi [16:15]. Bu indikator boshqa turkiy tillarda ham shu ma’noda qo‘llanadi. Jumladan, oltoy tilida tobe, boshqird tilida tuba, turkman tilida depe, qoraqalpoq tilida tobe shakllariga ega. Joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi: Barintepa, Barsag‘ontepa, Bozortepa, Yetimtepa, Bag‘ishto‘ba, Tevat va h.k.

**Taram.** Bu so‘z orografik termin sifatida cho‘qqi, qoya singari uchli balandliklarning tizmasimon yoki qirga o‘xshash bir qismining yonma-yon kelishi bilan bog‘liq tushunchani ifodalaydi. U mahalliy xarakterdagi oronimik indikator sifatida Janubiy O‘zbekiston oronimlarining yasalishiga xizmat qiladi: To‘g‘iztaram (qoya, balandlik).

**Uva.** Bu so‘z orografik xarakterdagi termin bo‘lib, Quyi Qashqadaryo shevasida uva - “tekis joydagi, cho‘ldagi kichik do‘nglik, yassi balandlik” ma’nolarini beradi. Uva ~ uba ~ o‘ba – kelib chiqishiga ko‘ra turkiy tillarga xos so‘z. Tatar tilida uba – “kichik balandlik, baland joy; boshqirdlarda – “tepa; qaracha-balqar, qaraim, no‘g‘ay tillarida oba – “tosh uyumi”; “tepa, tepalik” ma’nolariga ega [18:114]. Genezisi mo‘g‘ul va tungus-manjur tillaridagi obo ~ ovo (tepa, do‘nglik, balandlik, yolg‘iz

tepalik; tosh uyumi, tosh to‘da) so‘zi bilan bog‘liq. Bu termin ornimik indikator sifatida Uvaliq (yaylov) oronimida saqlangan. Shuningdek, bu indikatorni Uvada (Chr., q-q.) toponimida ham ko‘rish mumkin. Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra uva+da shaklida bo‘lgan bu nomning ikkinchi komponentini T. Nafasov –da < o:ta ~ o:da (do‘nglik, balandlik; suv ichidagi baland joy, orol) shaklida o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi [14:186].

**Shiram.** Bu so‘z mahalliy xarakterdagi orografik termin hisoblanib, “tog‘ bag‘ridan quyi tomon davom etgan cho‘ziq balandlik, uzun qir, tizma” tushunchalarini ifodalaydi. U asosan Janubiy O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston qo‘ng‘irotlari nutqida uchraydi. Dehqonobod tumanining tog‘li hududlar aholisi nutqida “bir tomoni tik jarlik bo‘lib, boshqa tomonlari yassiroq yoki qiyalik bo‘lgan cho‘ziq balandlik” tushunchasini ham ifodalaydi [14:19]. Bu so‘z oronimik indikator sifatida joy nomlari yasalishiga xizmat qiladi. Jumladan, Shiram (Do., balandlik, tizma), Shiran (Qm., tepa), Asqarshiram (Do., balandlik), Mullashiram, Bo‘lakshiram, Qizilshiram, Uzunshiram (Do., balandliklar) oronimlari misolida buni ko‘rish mumkin.

**Shoti.** O‘zbek tilining ayrim shevalarida narvon ma‘nosidagi so‘z bilan shakldosh bo‘lgan bu orografik termin “yolg‘iz yo‘li bo‘lgan katta balandlik, cho‘qqi” ma‘nolariga ega. U shu ma‘nosi asosida oronimlar tarkibida indikator sifatida qo‘llanadi: Tuyashoti (Do., balandlik).

**Qashqa.** Bu so‘z yasama bo‘lib, tarkibiy jihatdan qash+qa qisimlariga bo‘linadi. U umumturkiy tillarga tegishli qadimgi so‘z hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilda qash – tepa, balandlik [11:412]; XI asr turkiy tilida har narsaning cheti, yoqasi, yoni, qirg‘oq ma‘nosiga ega bo‘lgan [9:III, 166; 70:431]. XIII asr yodgorliklarida – tog‘ cho‘qqisi, balandlik, tizma tog‘ [10:160] ma‘nolarini bildirgan. L.Z. Budagov lug‘atida chig‘atoy tilida qash – “balandlik, tepa, tog‘ tizmasi, do‘nglik” [2:II,15]; V.V. Radlov lug‘atida qash – “o‘simta, qavariq joy; balandlik, tepa, ko‘tarma; baland qirg‘oq; yon, chet” [15:II, 386] kabi ma‘nolarga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Oltoy tillarida qash – qirg‘oq, biron narsani cheti; tepa, balandlik; uch, etak [3:133, 136]; tog‘ cho‘qqisi [5:194]; xakas tilida xas – qirg‘oq; balandlik, do‘nglik; biron narsaning cheti, qirg‘og‘i [20:278] ma‘nolarini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, bu so‘z umumiy jihatdan ikki xil ma‘noga ega: 1) balandlik (tepa, cho‘qqi, tog‘ tizmasi); 2) qirg‘oq ( biron narsa yoki balandlikning cheti, yoni). Bu so‘zning ma‘nolaridan ko‘rish mumkinki, u orografik xarakterdagi termin hisoblanadi. U shu ma‘no xususiyatlari asosida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan. Masalan, Qashqatepa (G‘z., tepa), Qashqaqum (Do., joy), Qashqatau (Qozog‘iston, tog‘), Qashqaashu (Qirg‘iziston, dovon) kabi.

**Qir.** Bu soʻz orografik termin hisoblanib, usti yassi yoki salgina gumbazsimon balandliklar, tepaliklar, platolar, yassi past togʻlar tushunchasini ifodalaydi. Masalan, Oʻrta Rossiya qirlari, Volgaboʻyi qirlari. Qoraqum va Qizilqumdagi qoldiq plotalar, usta yassi past togʻlar ham «qir» deyiladi. Qirlar baland tekistliklar, togʻlarning oqar suvlar, shamol yemirilishidan, tektonik koʻtarilishidan hosil boʻladi [4:149]. Maxmud Koshgʻariy bu soʻzni ikki xil maʼnoda izohlaydi: qir - 1) “toʻgʻon, suv toʻplanadigan joy; 2) “qir, yassi togʻ” [9:I, 314]. U oronimik indikator sifatida orografik va boshqa turdagi obʼektlar nomlarini yasashga xizmat qilgan. Masalan, u Asqarqir (Yab., qir), Boʻlakqir (Ks., qir), Darvozaqir (Mb., balandlik), Oqqir (Ks., qir) kabi oronimlar tarkibida uchraydi. Xorazm toponimiyasida bu indikator “tekis maydon, ekin qilmaydigan katta dala, qoʻy boqiladigan tekislik, oʻtloq” maʼnolarini beradi [6: 66].

**Baroz.** Kelib chiqishiga koʻra eroniy tillarga tegishli bu soʻz «baland joy» maʼnosiga ega. Bu soʻz Avestoda keltirilgan Xar-Barazayti atamasi tarkibida uchraydi. U “baland xara” deb tarjima qilingan [1: 347]. Shundan bilish mumkinki, orografik xarakterga ega boʻlgan bu atama juda qadimgi tarixga ega. Tojikistonda bu soʻzdan yasalgan toponimlar uchraydi: Barozgo «baland joy» [17 : 69]. Bu atama osetincha barz «toʻda, balandlik, qoʻrgʻon, koʻplik»; bar «togʻ bagʻri», qadimgi armancha bardzravandon «yassitogʻlik» atamalariga mos keladi [7:189]. Orografik termin sifatida oronimlar yasashga xizmat qilgan. Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida bu termindan bir qator toponimlar yasalgan: Toʻpchiboybaroz, Kattabaro, Kichikbaroz va b. [7:189]. Buzovut [Chr., q-q.) toponimi tarkibida ham shu termin saqlangan. Bu nom soʻgʻdcha barz+ovut komponentlaridan shakllangan. Eroniy va turkiy tillarda burz ~ borz ~ barz “baland, yuqori” variantlarida qoʻllangan. –ovut ~ -ovat ~ -ut – soʻgʻdcha avat “joy” soʻzidan shakllangan [14:45]. Bu nom dastlab oronim sifatida vujudga kelib, keyinchalik oykonimga oʻtgan.

## **XULOSA**

Yuqorida keltirilgan tahlillardan quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi:

1. Relefning musbat shaklini ifodalaydigan orografik terminlar shu shakldagi oronimlarning shakllanishida muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

2. Relefning musbat shakliga tegishli oronimlarning yasashida shu turdagi har qanday orografik termin ham ishtirok etmaydi. Unda faqat qandaydir xususiyatiga ega boʻlgan, nom ijodkorlari boʻlgan aholining hayotiy ehtiyojlari, yashash tarzi bilan bogʻliq boʻlgan, oʻzaro munosabat natijasida ularning koʻproq eʼtiborini tortgan orografik obyektlarni ifodalaydigan terminlar oronimlar tarkibida muhim indikator sifatida qatnashadi.



3. Relefning musbat shakliga tegishli orografik terminlar kelib chiqishiga ko'ra qadimgi turkiy va eroniy tillarga tegishli lug'viy birliklardan shakllangan. Bu xususiyat mazkur hududda qadimdan yashab kelayotgan shu tillar vakllari tomonidan yaratilganligini ko'rsatadi.

#### **REFERENCES:**

1. Avesto (Tarixiy-adabiy yodgorlik). Toshkent: "SHarq" nashriyoti, 2001.
2. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati (tuzuvchilar: Qorayev S., G'ulomov P., Rahimbekov R.). T., 1979.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'ati turk . : UzSSR fan. Akad. T.: Fan, T. I , 1960, - 449 b.; T. II, 1961, - 427 b.; T. III, 1963, - 466 b.
4. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. I – VI, T., 1983 - 85.
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimiyalarining izohli lug'ati . –T.: O'qituvchi, 1988.-290 b.
6. Rajabov O'.H. Topnimik indikatorlarning funktsional-semantik hususiyatlari. Nomzod. diss. avtoreferati. Toshkent, 2009. –S. 19.
7. Rozenfeld A. Z.. Toponimika Vandja v kn.: «Toponimika Vostoka», M., 1962. -S. 66 - 72.
8. Farxangi zaboni tojiki, I-II, M., 1969. -950 s.

## **QUYOSH GELIOQURILMALARNING GEOMETRIK O'LCAMLARIGA BO'LGAN TALABLAR**

**Ibragimov Utkir Nurmamat o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti., (PhD),

Qarshi, O'zbekiston.

[utkir.ibragimov.92@mail.ru](mailto:utkir.ibragimov.92@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ko'zguli geliostatlarining va quyosh batareyalarining foydali ish jarayoni, geometrik va optik xarakteristikalari, geometrik o'lchamlari – yuza tekisligi, konstruksiya egiluvchanligi, umumiy og'irligi va tebranishlarga bardoshligi kabi va boshqa ko'rsatkichlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar.** GeliQurilmalarning konstruksiyalari, ko'zguli geliostatlar, geometrik o'lchamlar, yuza tekisligi, o'lchash sxemalar, geodezik usullar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье освещены полезный рабочий процесс, геометрические и оптические характеристики, геометрические размеры - плоскостность поверхности, гибкость конструкции, общий вес и виброустойчивость и другие параметры зеркальных гелиостатов и солнечных элементов.*

***Ключевые слова.** Конструкции солнечных устройств, зеркальные гелиостаты, геометрические размеры, плоскость поверхности, схемы измерений, геодезические методы.*

### **ABSTRACT**

*In this article, useful working process, geometric and optical characteristics, geometric dimensions - surface flatness, structural flexibility, total weight and vibration resistance, etc., of mirrored heliostats and solar cells are highlighted.*

***Keywords.** Designs of solar devices, mirror heliostats, geometric dimensions, surface plane, measurement schemes, geodetic methods.*

### **KIRISH**

Muqobil energiya so'nggi paytlarda jahon iqtisodiyotidagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Yuqori samarali qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va ularni joriy qilish O'zbekiston uchun ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan, ayniqsa, quyosh energiyasidan foydalanish borasida boy tajriba to'plandi. Serquyosh o'lkamizda yilning 320 kundan ko'prog'ida quyosh charaqlab turadi. Quyosh energiyasining yillik salohiyati esa neft ekvivalentida 51 milliard tonnadan oshadi.

Quyosh har bir sekundda sohadigan nurli energiyasi  $91 \cdot 10^{14}$  t neft to'liq yonganida ajratiladigan energiyaga tengdir [2].

Yer sirtiga tushadigan quyosh nurlari o'zining intensivligi bilan xarakterlanadi va ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Quyosh nurlariga nisbatan perpendikulyar joylashgan tiniq yuzaga tushadigan to'g'ri radiatsiya;

2. Atmosfera, bulut va atrof muhit va boshqalardan sochilgan radiatsiya[2].

Davlatimiz rahbarining 2023 -yil 16-fevralda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texno-logiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57– sonli qarorida [1] energiya tejaydigan tizimlarni joriy etish, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bizga ma'lumki, quyosh energiyasidan ratsional foydalanish usullaridan biri quyosh nuri energiyani yarim o'tkazgichli foto batareyalar yordamida elektr energiyasiga aylantirishdir.

Kun davomida optik tizim geometriyasining o'zgarishi quyosh batareyalari va quyosh elektr stansiyasi ishning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Gelioqurilmalar - ko'zguli geliostatlar va quyosh batareyalari asosan ochiq havoda ishlatiladi. Shuning uchun ularning barcha elementlarini himoyalashga, shuningdek ularning konstruksiyaning qattiqligi va mustahkamligiga yuqori talablar qo'yiladi.

Quyosh nurlarini qaytaruvchi ko'zguli geliostatlarning va quyosh batareyalarining foydali ish jarayoni, geometrik va optik xarakteristikalari bilan, shuningdek ularning geometrik o'lchamlari – yuza tekisligi, konstruksiya egiluvchanligi, umumiy og'irligi va tebranishlarga bardoshligi kabi va boshqa ko'rsatkichlar bilan tasniflash mumkin. Aytilgan xususiyatlarning u yoki bu yig'indisini aniqlovchi gelioqurilmalarga bo'lgan talablar asosiylari quyidagilardir:

gelioqurilmalar yer uchastkasini yetarlicha to'ldirilishi kerak;

gelioqurilmalar ko'zgu yuzasining samarali maydonini yo'qotmaslik uchun bir-birini to'smasligi va bir biriga soya qilmasligi kerak;

gelioqurilmalar yuzasi (fatsetlar) quyosh nurlarini qaytarish yoki yutish qobiliyatga ega bo'lishi kerak, u nurning tushish burchagiga bog'liq.

Gelioqurilmalarning konstruksiyalari, ularni yig'ish (montaj qilish) va ish jarayonida tebranishga hamda deformatsiyaga chidamli konstruksiyaga ega bo'lishi kerak.

Gelioqurilmalar tizimida, qaytgan nurlar oqimi bo'yicha optik tizimning umumiy issiqlik quvvati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q = E_o \cdot R_3 \cdot F_3 \cdot K_3 \cos w$$

Bu yerda:  $E_o$ - to'g'ri quyosh radiatsiyasi (yer sathiga perpendikulyar yuzaga tushuvchi nurning zichligi) kkal/m<sup>2</sup> yoki Vt/m<sup>2</sup>;

$R_3$  –gelioqurilmalar yuzasining quyosh nurlarini qaytarish yoki yutish qobiliyati;

$F_3$  – gelioqurilmalar optik yuzasining umumiy maydoni, m<sup>2</sup>;

$K_3$  - gelioqurilmalar optik yuzasining changlanish va berkilish oqibatida quvvatning yo'qolishni hisobga oluvchi koeffitsent.

$\cos w$  - gelioqurilmalar optik yuzani qo'llashning intergal koeffitsenti.



**1 – rasm.**

Ko'zguli geliostat tushayotgan quyosh nurlari oqimini kun davomida ushlab olish va quyosh nurini issiqlik energiyasiga aylantirish uchun nurlar qabul qilgich - nurlar to'planuvchi minoraga yo'naltiruvchi optik tizim, ya'ni uning metal ramasi yuzasi qismiga o'rnatilgan ko'zgullar (fatsetlar) dan iborat maxsus qurilmadir (1 – rasm).

1-jadvalda keltirildi:

**1 – jadval.**

<b>Geometrik xatoliklarning ko'rinishi</b>	<b>Geometrik xatoliklarning turlari</b>	<b>Xatoliklar cheki qiymati</b>	<b>Xatoliklarning kelib chiqish manbalari</b>
Statistik	Ko'zgu yuzasining gorizontal tekislikga nisbatan o'zgarishi	2-3 minut	Yuza shaffofligi- dagi kamchiliklar
Statistik	Ko'zgu (fatset)ni o'rnatishdagi xatolik	2 minut	O'rnatish uskunasi xatoligi
Statistik	Geliostat ramasi o'qlarining	1-2 minut	Geliostat ramasining

	o'zaro perpendikulyar emasligi		gorizontal va vertikal xarakati paytida
Dinamik	Gelioqurilma markazining loyihadan o'zgarishi	±50 sm	O'rnatish jarayonidagi xatolik
Dinamik	Gelioqurilma metal ramasining deformatsiyasi	1 minut	Rama qattiqligi talabi
Dinamik	Ko'zgu (fatset) deformatsiyasi	1 minut	Loyiha talabi
Dinamik	Shamol yoki tebranish tasiri	3 minut	Loyiha talabi

Ko'zguli geliostatlarining va quyosh batareyalarining foydali ish jarayonini ularning geometrik o'lchamlari – yuza tekisligi, konstruksiya egiluvchanligi, umumiy og'irligi va tebranishlarga bardoshligi kabi ko'rsatkichlar bilan tasniflash mumkin.

Gelioqurilmalarning tushayotgan quyosh nurlari oqimini kun davomida ushlab olishidagi va ma'lum nuqtaga yo'naltirishdagi geometrik hamda optik xarakteristikalariga ta'sir etuvchi geometrik omillar va ularga qo'yilgan talablar Ko'zgu yuzasining gorizontal tekislikka nisbatan o'zgarishi geliostatlar va quyosh batareyalari yuzasini nazorat qilish uchun yaratilgan mavjud o'lchash usullari tahlil qilindi. O'lchash sxemalari ko'rsatildi, baholandi va ularning, geliostatning ishchi rejimida fatsetlarni nazorat qilish imkonining-mavjudligi yoki yo'qligi bayon qilindi.

Geliostatlar va quyosh batareyalari tashqi kuchlar tasirida o'z geometrik xolatini o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib, geliostatlarning ishi mohiyatini hisobga oluvchi maxsus geodezik usullarni yaratish va takomillashtirish talab etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57 sonli qarori.
2. Xayriddinov B.YE., Xolmirzayev N.S. Sattorov A.S. Quyosh energiyasidan foydalanishning fizik asoslari o'quv qo'llanma, T.Fan, 2010. 280 bet.
3. U.N.Ibragimov "Gelioqurilmalarning geometrik o'lchamlarini tekshirish usullarini takomillashtirish" nomli monografiya. Qarshi.: Intellekt, 2023-yil.
4. U.N.Ibragimov, M.M.Aralov. Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali. 2022/12/12



5. Masofadan zondlash materiallaridan foydalanib qishloq xo'jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023
6. K.N.Xo'jakeldiyev, J.O.Mirzayev, U.N.Ibragimov. O'lchov natijalarini qayta ishlash usullarini tanlash. RESEARCH AND EDUCATION. 2022/4/30
7. Z.M.Qilichev, J.O.Mirzayev, U.N.Ibragimov. Geodezik o'lchashlarda tenglashtirish usullarini tanlash. 2022/11/1

## **MAGNIT SUYUQLIKLAR VA ULARNING AHAMIYATI**

**Raxmatullayeva Feruzaxon Ulug'bek qizi,**

**Valixo'jayev O.U.**

Farg'ona davlat universiteti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada magnit suyuqliklar berilgan bo'lib, suyuqlikka kuchli magnit xossani unga eritilgan mayda magnit zarralar, mayda magnitlar berishi mumkin. Bu fikr muhim bo'lsada, yangilikka dastlabki qadam bo'ladi xolos. Ammo bu magnit zarralarga qo'yiladigan talablarni aniqlashga va bu zarralarni olishga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.*

***Kalit so'zlar:** Magnit qipiq, ferromagnit va ferrimagnit xossalar, energiya, magnit tormoz, demferlovchi qurilma, aylanuvchi o'qlar atrofini berkitish, magnit suyuqliklar.*

### **ABSTRACT**

*Magnetic liquids are presented in the article, small magnetic particles and small magnets dissolved in it can give a strong magnetic property to the liquid. Although this idea is important, it is only the first step towards innovation. But this has increased the need to determine the requirements for magnetic particles and obtain them.*

***Key words:** Magnetic flake, ferromagnetic and ferrimagnetic properties, energy, magnetic brake, damping device, sealing around rotating shafts, magnetic fluids.*

### **KIRISH**

Kuchli magnit xossalar – ferromagnit yoki ferrimagnit xossalar faqat qattiq jismlarda kuzatilishi mumkin. Suyuqlik paramagnitdan iborat bo'lsa, uning zarralari magnit momentga ega bo'lsa, suyuqlikda tashqi magnit maydon ta'sirida tashqi maydondan  $10^3 \div 10^4$  marta kuchsiz bo'lgan magnitlashuv vujudga keladi. Bunday magnitlashuvni laboratoriya asboblari gina sezishi mumkin.

Suyuqlikka kuchli magnit xossani unga eritilgan mayda magnit zarralar, mayda magnitlar berishi mumkin. Bu fikr muhim bo'lsada, yangilikka dastlabki qadam bo'ladi xolos. Gap shundaki, har qanday suyuqlikda magnitlangan qipiqni eritishga harakat qilsangiz, tez orada qipiqning elementlari bir-biriga yopishib qolganini, suyuqlikda turmay cho'kib qolganini ko'rasiz. Bu sohada Rossiya va Amerikada olib borilgan ilmiy izlanishlar eritiladigan magnit qipiqqa qo'yiladigan talablarni aniqlashga, so'ngra bunday qipiqni tayyorlanishiga olib keldi.

Magnit qipiq zarralari suyuqlikda muallaq turishi uchun (cho'kib qolmasligi uchun) ularni o'lchamlari tor intervalda,  $10\text{ nm}$  ga yaqin o'lchamlarga ega bo'lishi

kerak, bir-biriga tortishib, yopishib qolmasligi uchun ularni sirti nomagnit material bilan qoplangan bo'lishi kerak ekan.

10 nm - bu atom o'lchamlaridan faqat ikki tartibga katta bo'lgan zarra degani, nanotexnologiya mahsuloti degani. Bunday o'lchamdagi zarralar suyuqlik molekulalarining issiqlik harakatining ta'sirida Brown harakatida bo'ladi va cho'kib qolmaydi. Bunday talabni qo'yish oson, bajarish qiyin. Amerikada bunday zarralarni magnit materialni maxsus tegirmonda deyarli 1.5 oy davomida maydalab, hosil bo'lgan undan kerakli o'lchamdagi zarralarni ajratib olib, magnit suyuqliklar tayyorlashgan. Rossiyalik olimlar kerakli o'lchamdagi zarralarni kimyoviy ravishda o'stirib, kerakli o'lchamda jarayonni to'xtatib, hosil qilishgan.

Magnit suyuqliklardagi erituvchi suyuqlik kerosin, suv, turli moylar, glitserin va b. Ularda magnit qipiq eritilganda ular odatda qora rangdagi, nisbatan quyuc holatga keladi. Izlanishlar natijasida ko'p oylar davomida magnit tashkil etuvchisi cho'kib qolmaydigan bir jinsli suyuqliklar yaratilgan.

Magnit suyuqliklar qanday xossalarga ega va nima uchun qo'llanishi mumkin?

◆ Tashqi magnit maydon bo'lmaganda magnit suyuqlik magnitlanmaydi, odatdagi suyuqliklar kabi xossalarga ega. Uni masalan qoshiq bilan aralashtirish, aylantirish mumkin.

◆ Asta sekin tashqi magnit maydonni kuchaytirilsa, suyuqlikdagi magnit zarralarning maydon bo'ylab tartiblashuvi vujudga keladi, suyuqlikda ichki ishqalanish oshib borib, kuchli magnit maydonda suyuqlikni amorf jismlardek qotib qolishini kuzatish mumkin. Maxsus magnit suyuqliklarda ichki ishqalanishni magnit maydon ta'sirida 100 marta oshishiga erishilgan. Demak magnit suyuqlik xossalarini magnit maydon yordamida oson boshqarish mumkin ekan. Bundan foydalanib magnit suyuqliklar asosida quyidagi ixtirolar qilingan:

1. Magnit tormoz. Avtomobil g'ildiragiga boradiga o'qqa disk o'rnatiladi. Disk magnit suyuqlikni ichida aylanadi va magnit maydon yo'qligida ortiqcha qarshilikka ega emas. Elektromagnitga tok ulab magnit maydon hosil qilinsa, disk va magnit suyuqlik orasida kuchli ishqalanish kuchi hosil bo'ladi;

2. Magnit stseplenie. Avtomobil transmissiyasida bir-biriga yaqin ikki disk joylashtiriladi, ular magnit suyuqlikda harakatlanadi. Magnit maydon yo'qligida disklar o'zaro erkin harakatlanib, motor g'ildirakdan uzilgan bo'ladi. Magnit maydon yoqilishi bilan disklar orasida kuchli ishqalanish vujudga kelib, g'ildirak motorga ulanadi;

3. Demferlovchi qurilma. Kosmik kemani ulkan quyosh elementlari, yoki o'lchov asbobini strelkasini tebranishlarini so'ndirish uchun ularni bir elementini magnit maydondagi magnit suyuqlikka joylashtiriladi. Yasalgan demferlardan biri


o‘zidan 60 marta katta massali jism tebranishlarini so‘ndirish logarifmik dekrementi 0.5-0.7 oraliqda bo‘lgan;

4. Aylanuvchi o‘qlar atrofini berkitish. Texnologik qurilmalarda aylanuvchi o‘qlar qurilma devoridan o‘tib, bunda birinchi hajmdagi gaz yoki suyuqlik ikkinchi hajmga o‘tmasligi kerak. Bu moddalar zaharli yoki yonuvchi bo‘lganida ularni o‘tmasligi uchun talablar ayniqsa kuchli bo‘ladi. Aylanuvchi o‘q bilan devor orasiga magnit suyuqlik joylashtirib, devorni ikki yoniga, o‘qni atrofiga doimiy magnitlar joylashtirilsa, magnit suyuqlik teshikni berkitib, zararli moddalar yo‘lini to‘sadi. Jumladan devorni bir yonida vakuumni saqlash imkoniyatini yaratadi. Bir vaqtni o‘zida suyuqlik moylovchi vazifani ham bajaradi.

◆ Doimiy magnit maydonlar magnit suyuqlik ichki ishqalanishini orttirgan holda, o‘zgaruvchan magnit maydonlarda maydon chastotasi va amplitudasini tanlab, ichki ishqalanishni kuchli kamaytirish mumkinligi ko‘rsatilgan.


◆ Magnit maydon yordamida magnit suyuqlikni harakatga keltirish mumkin. 1-rasmda kuchsiz aylanuvchi magnit maydon harakatga keltirgan magnit suyuqlik tasvirlangan.

**1-rasm.** Kuchsiz aylanuvchi magnit maydondagi magnit suyuqlik tasviri



◆ Magnit suyuqlikka ta’sir etuvchi magnit kuchlar og‘irlik kuchidan ortiq bo‘lib, suyuqlik sirtini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Magnit maydon yordamida hosil qilingan 2-rasmdagi shakllarni amaliy ahamiyati ko‘rinmasada, estetik ahamiyati bo‘lishi mumkin.

**2-rasm.** Magnit suyuqlikka ta’sir etuvchi magnit kuchlar suyuqlik sirtini o‘zgartirishi



◆ Magnit suyuqliklar ferromagnetik yoki ferrimagnetik moddalar kabi magnit maydonni minglab marta kuchaytiradi. Bundan esa transformator o‘zagida foydalanish mumkin. Ixtirolardan birida uch fazali transformator o‘zaklarida bo‘sh kanallar qoldirilgan. Maxsus nasos bu kanallarga magnit suyuqlikni kiritishi mumkin. Kanallardagi suyuqlik miqdori esa transformator o‘zaklaridagi magnit oqimni o‘zgartirib, chiquvchi kuchlanishni asta – sekin o‘zgartirish imkoniyatini yaratadi.

◆ Odatda moddaning solishtirma og‘irligi zichlik va erkin tushish tezlanishiga bog‘liq:  $\rho g$ . Magnit suyuqlikka yana magnit maydon ta’sir etadi va uni solishtirma og‘irligini kamaytirish yoki oshirish mumkin. Magnit maydon yordamida magnit suyuqlikning solishtirma og‘irligini asta sekin o‘zgartirish mumkin. Suyuqlikni solishtirma og‘irligi oshgan sari avval suyuqlikdagi engil jismlar, so‘ngra og‘ir jismlar suyuqlik sirtiga chiqadi. Bunday yo‘l bilan mineral hom ashyodan kerakli tashkil etuvchilarni ajratib olish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

◆ Tajribalardan birida magnit suyuqlikni bir yoniga doimiy magnit qo‘yiladi, boshqa yoniga esa isitgich. Isigan suyuqlikning magnit qabul qiluvchanligi kichrayib, magnit sovuq suyuqlikni kuchliroq torta boshlaydi va suyuqlik harakatga keladi. Temperaturalar farqi bor ekan, suyuqlikni harakati davom etaveradi. Kosmik fazoda isitgich sifatida Quyosh nurlaridan foydalanib, Shunday mexanik energiya manbaini hosil qilish mumkin. Bu jarayon uchun maxsus tayyorlangan suyuqlikning magnit qabul qiluvchanligi temperaturalar farqiga sezgir bo‘lsa, qurilmani effektivligi katta bo‘ladi.

◆ O‘zgaruvchan magnit maydondagi tajribalardan ma’lum bo‘ladiki, ayrim hollarda suyuqlikdagi magnit zarralarning magnit momenti doimiy bo‘lmay, yo‘nalishi o‘zgarishi mumkin ekan. Ilmiy qiziqish manbai bo‘lgan bu hodisa, kelajakda foydali jarayonlarda qo‘llanishi mumkin.

Shunday qilib magnit suyuqliklar turli texnik qurilmalar ishini elektr va magnit maydonlar bilan boshqarish imkoniyatini yaratadi. Kelajakda yana ko‘plab inson uchun foydali ixtirolar uchun asos bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Тешабоев А., Зайнабидинов С., Эрматов Ш.А. Каттик жисм физикаси. Тошкент, 2011.
2. Атакулов, С. Б., Зайнолобидинова, С. М., Набиев, Г. А., & Отаджонов, С. М. (2011). К теории аномальных фотоэлектрических и фотомагнитных эффектов в полупроводниковых пленках. *Узбекский физический журнал*, 13(4), 255-260.



3. Зайнолобидинова, С., & Рахимова, Л.(2022). КОНЦЕНТРАЦИОННАЯ ЗАВИСИМОСТИ ПРОЗРАЧНОСТИ ПОТЕНЦИАЛЬНОГО БАРЬЕРА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 910-915.
4. Egamberdiyevich, O. K., Malikovna, Z. S., Ugli, X. M. B., & Abdusattor-Ugli, E. E. (2021). Used for effect interpretation abnormal photo voltage. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 783-786.
5. Atakulov, S. B., Zaynolobidinova, S. M., Otajonov, S. M., & Tukhtamatov, O. A. (2011). The penetrability of potential barrier on grain boundaries in semiconductor polycrystals. *Uzbekiston Fizika Zhurnali*, 13(5), 334-340.
6. Зайнолобидинова, С. М. (2022). СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ПОЛИКРИСТАЛЛОВ И ЭЛЕКТРОННОЕ СТРОЕНИЕ МЕЖКРИСТАЛЛИТНЫХ ГРАНИЦ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 544-548.
7. Зайнолобидинова, С. М., & Тўйчиева, М. К. (2022). ПОЛИКРИСТАЛЛ СТРУКТУРАЛИ МАТЕРИАЛЛАРДА ЧЕГАРА СОҶАЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОНЛАРИНИНГ КЎЧИРИЛИШИГА ТАЪСИРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 372-374.

## **EXPERIMENTAL CONFIRMATION OF THE VALIDITY OF THE DE-BROGLIE'S HYPOTHESIS**

**Rakhmatullayeva Feruzakhon Ulugbek kizi,**

**Valikhujayev O.U.**

Fergana state university

### **ABSTRACT**

*This article focuses on the importance and experience of physical process, which is the main important part of physics. The topic of experimental confirmation of the validity of de Broglie's hypothesis has been covered, and it should be noted that it is most important to take into account the simultaneous manifestation of two different properties of the wave in atomic physics.*

**Key words:** *interference, diffraction, polarization, dispersion, refraction and retraction, wave and particle property, photon, velocity, energy, light pressure, photoelectric effect, momentum, wavelength.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье основное внимание уделяется важности и опыту физических процессов, которые являются основной важной частью физики. Тема экспериментального подтверждения справедливости гипотезы де Бройля освещена, и следует отметить, что наиболее важно учитывать одновременное проявление двух различных свойств волны в атомной физике.*

**Ключевые слова:** *интерференция, дифракция, поляризация, дисперсия, отражение и втягивание, свойства волны и частицы, фотон, скорость, энергия, световое давление, фотоэффект, импульс, длина волны.*

### **INTRODUCTION**

From the course of atom physics and optics we know that photon has a wave-particle duality properties:

\*Phenomenas such as interference, diffraction, polarization, dispersion, refraction and retraction of light are explained by the wave property of light.

\*Phenomenas such as light pressure and photoelectric effect are explained by the partical property of light.

All these phenomenas were learned by as in different branches of physics, but in 1924 french physician Lui de Broglie in his doctoral dissertation work sayed the next:

“If photon as a particle has wave and particle properties in same time, why other elementar particles (such as electron, proton and etc.) cannot have these both properties in same time.”

We know that

$$E = h \nu$$

according to wave property

and

$$E = m c^2$$

according to particle

property

$$E = h \nu = h \frac{c}{\lambda}; E = m c^2 = m c \cdot c = P \cdot c$$

If we equate energies of microobject according to both properties we have next:

$$h \frac{c}{\lambda} = P \cdot c \Rightarrow \lambda = \frac{h}{P}$$

from the last we can conclude that any microobject which have momentum (or which is in motion) will have wave property with the de Broglie's wavelength.

$$\lambda_{d.B} = \frac{h}{mV} \quad (1)$$

Formula of calculating the de Broglie's wavelength of microobject, where m is the mass of object at rest, V is the velocity of object (  $V \ll c$  ).

$$\lambda_{d.B} = \frac{h}{\frac{m_0 V}{\sqrt{1 - \frac{V^2}{c^2}}}}$$

Formula of calculating the de Broglie's wavelength of microobject, where m is the mass of object at rest, V is the velocity of object (  $V < c$  ) and this formula is working in relativistic approximation.

**QUESTION № 1:**

Find the de Broglie's wavelength of yourself when you are walking with speed 5 km/h.

**SOLUTION № 1:** we will work with formula (1) because of  $V \ll c$

$$\lambda_{d.B} = \frac{h}{m_{el} V_{el}} = \frac{6.62 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}}{88 \text{ kg} \cdot \frac{5 \text{ m}}{3.6 \text{ s}}} = 5 \cdot 10^{-36} \text{ m}$$

From result we can see that the de Broglie's wavelength of me is much less than subatomic scales. So that's why we cannot see the wave properties of me, that is such phenomenas as interferention, diffraction or polarization.

**QUESTION № 2:**

Find the de Broglie's wavelength of electron which is passing the electric field with accelerating voltage equal to 150V.

**SOLUTION № 2:**

From the course of elector and magnetism we know that accelerating voltage around  $10^2$  V does not accelerate the electron up to c. That's why in solution of this problem we will use the formula (1)

$$\lambda_{d.B} = \frac{h}{P} = \frac{h}{\sqrt{2m_0 E_k}}$$

Where  $\sqrt{2m_0 E_k} = \sqrt{2m_0 \frac{m_0 V^2}{2}} = \sqrt{m_0^2 V^2} = m_0 V = P$

In another case we know that work of electric field is equal to the difference of kinetic energy

$$A_{E.F} = \Delta E_{kin}$$


$q = (\varphi_1 - \varphi_2) = E_{kin} - E_{kin}^{(0)}$ , where  $q=|e|$  and  $\varphi_1 - \varphi_2 = U_{acc}$ . So finally

$$\lambda_{d.B} = \frac{h}{\sqrt{2m_0 |e| U_{acc}}} = \frac{6.62 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}}{\sqrt{2 \cdot 9.1 \cdot 10^{-31} \text{ kg} \cdot 1.6 \cdot 10^{-19} \text{ C} \cdot 100 \text{ V}}} \approx 1 \cdot 10^{-10} \text{ m}$$

From the result we can see that the de Broglie's wavelength of electron is around the subatomic scales. Which means that electron as a wave can be interference or diffracted with other electrons with same property.

These theoretical ideas were finally proved in 1927 by American scientist Clinton Joseph Devisson and Lester Helbert Jermer. In last question we have solved and found the wavelength of electron which was accelerated in electric field with voltage 150V and we know that wavelength around  $\Delta A (1 \cdot 10^{-10} \text{ m} )$  is same with X-ray illumination. So to see the wave properties of electron we must pass electrons through the stracture with dimension around  $1\text{\AA}$  and we know that as a sample we can use any crystal structure of solid Davisson and Jermer investigated the reflection of electron beam from the surface of monocrystall of Nickel:

First of all let's analyze the reflection of X-ray illumination from the surface of monocrystall:



d- distance between neighbour atoms or the constant of crystal lattice;  
 $\varphi$ - angle of shift.

From the condition of INTERFERENSION MAXIMUM PHENOMENA, these waves reinforce each other if

$$\Delta = 2n \frac{\lambda}{2}$$



Where  $\Delta$  –difference of path of X-ray, n- natural numbers (whole and positive numbers),  $\lambda$ - wavelength of X-ray illumination. From picture we can see that

$$\Delta = 2 \cdot (d \cdot \sin \varphi)$$

So finally we have that  $2d \sin \varphi = n \lambda$

Wolf-Bregg's condition for refraction of beam of X-rays in event INTERFERENSION MAXIMUM.

Devisson and Jermer applied Wolf-Bregg's condition to the beam of electrons in event of refraction and interferension of electrons:



From experiment we can see that beam of electron getting to NICKEL CRYSTAL and the energy of electrons can be controlled by accelerated voltage. If electrons have a wave property then in condition of Wolf-Bregg they will reflected from periodical structure, where d is the distance between frontal surface of NICKEL CRYSTAL. Let's write the condition of Wolf-Bregg:

$$2d \sin \varphi = n \lambda \tag{1}$$

and from Lui de Broglie hypothesis we have calculated the wavelength of electrons which were accelerated by  $U_{acc}$  (see question 2).



$$\lambda = \frac{h}{\sqrt{2 \cdot e \cdot U}} \quad (2)$$

So in next we have that

$$2d \sin \varphi = \frac{n h}{\sqrt{2 \cdot e \cdot U}}$$

Then

$$\sqrt{U} = \frac{n h}{\sqrt{2 \cdot e} \cdot 2d \sin \varphi} \quad (3)$$

Let's return to experiment of Devisson and Jermer. The beginning and the end of laboratory are connected to the INSTALLATION BODY, that's why we can consider that the circuit is closed. In this circuit the direction of current is opposite to the motion of electrons. If electrons satisfy the Wolf-Bregg's condition they will be reflected from frontal surfaces of NICKEL CRYSTAL and go to the collector. In this case galvanometer's indication will be different from zero. If electrons do not satisfy Wolf-Bregg's condition they will go through NICKEL CRYSTAL and will not be reflected from frontal surfaces. That's why the galvanometer's indication will show zero.

Formula (3) is the condition of Wolf-Bregg for reflection of electrons, where  $n$  is equal to 1, 2, 3, ... . Let's be the

$$\frac{n h}{\sqrt{2 \cdot e} \cdot 2d \sin \varphi} = \text{const} = L,$$

Then we have  $\sqrt{U} = n \cdot L$  or  $\sqrt{U_1} = L$ ;  $\sqrt{U_2} = 2L$ ;  $\sqrt{U_3} = 3L$  and etc.

We must assume that in these values of acceleration voltage electrons beam are reflected from the frontal surface of NICKEL CRYSTAL and get to collector and on the other hand in different values of  $U$  as  $\sqrt{U_1}$ ,  $\sqrt{U_2}$  and  $\sqrt{U_3}$  the current in circuit will have different maximums.

**CONCLUSION:** If for electron beam the condition  $\sqrt{U} = n \cdot L$  is working, then the electron beam reflects from NICKEL CRYSTAL and gets to the collector where we can see that the current in circuit by galvanometer; if for electron beam condition  $\sqrt{U} = n \cdot L$  is working or  $\sqrt{U} \neq n \cdot L$ , the electron beam path through the NICKEL CRYSTAL and the indication of galvanometer will be equal to zero.

In both cases of conclusion we have proved that an electron in motion has a wave property. For this experimental work Devisson and Jermer had been awarded the Noble Prize.

*Problem № 1:* Find the wavelength of proton and electron with kinetic energy 1keV.

*Answer:*  $\lambda_{d.B}^{(el)} = 39 \text{ pm}$  ;  $\lambda_{d.B}^{(pr)} = 0.91 \text{ pm}$

*Problem № 2:* in experiment of Devisson and Jermer narrow beam of electrons fall at a glancing angle equal to  $30^\circ$  to the surface of ALUMINIUM CRYSTAL with the distance between frontal surfaces is equal to 0.2 nm. When the value of accelerated voltage is equal to  $U_0$  and the next maximum of current is observed in acceleration voltage equal to  $2.25 U_0$ . Find the voltage  $U_0$ .

*Problem № 3:* In Tomson-Tortokovski's experiment the flow of electrons drop to the polycrystal with kinetic energy 10keV. If the distance between polycrystal and screen equals to 10 cm and the radius of the interferension ring in screen with numeration 3 is equal to 1.6 cm find the distance between frontal surfaces of atoms.

## REFERENCES

1. Quantum Physics Eric D'Hoker Department of Physics and Astronomy, University of California, Los Angeles, CA 90095, USA 15 September 2012
2. QUANTUM LANGUAGE AND THE MIGRATION OF SCIENTIFIC CONCEPTS JENNIFER BURWELL The MIT Press Cambridge, Massachusetts London, England © 2018 Massachusetts Institute of Technology
3. Bollen, M.H.J., Method of critical distances for stochastic assessment of voltage sags, IEE Proceedings— Generation, Transmission and Distribution, 145, 1, 70–76, Jan. 1998.
4. A. Brown, S. Johnston, K. Kelly Using service-oriented architecture and component-based development to build web service application. Rational Software Corporation(2002). <http://www3.software.ibm.com/ibmdl/pub/software/rational/web/whitepapers/2003/TP032.pdf>
5. S. Bocionek, S. Brandt, J. Cseh, B. Haskell, D. Rucker, D. Thomas Built for success – the new clinical and financial IT solutions from health services electromedica 69 (2001), 76-8
6. S. Bocionek PACS 2000+ from networks to workflow and beyond In W. Hrubby (ed.), Digital (r)evolution in radiology, 1st edition Springer, Vienna 2000.
7. A. Ahmad, P. Teater, T.D. Bentley, L. Kuehn, R.R. Kumar, A. Thomas, H.S. Mekhjian Key attributes of a successful physician order entry system implementation in a multi-hospital environment J. Am. Med. Inform. Assoc. 9 (2002), 16-2

## C# SHARP DASTURLASH TILI ORQALI FUNKSIYALAR VA METODLAR MAVZUSIGA OID MASALALARNI KO`RIB CHIQISH

**Ubaydullayeva Diloromxon**

Namangan davlat universiteti “Amaliy matematika va raqamli texnologiyalar”  
kafedrasida o‘qituvchisi

[diloromubaydullayeva2010@gmail.com](mailto:diloromubaydullayeva2010@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada C# sharp dasturlash tilida funksiyalar va metodlar mavzusi haqida ma'lumot, mavzular yuzasidan masalalarni C# sharp muhitida ishlanishlari keltirilgan.*

**Kalit soʻzlar :** *Funksiya, Metod tushunchasi, Metod yaratish usullari, return operatori, murojaat modifikatorlari, protsedura, void operatoti, public, identifikatorlar.*

### ABSTRACT

*This article provides information on the topic of functions and methods in the C# sharp programming language, and the processing of issues related to the topic in the C# sharp environment.*

**Keywords :** *Function, Method concept, Method creation methods, return operator, reference modifiers, procedure, void operator, public, identifiers.*

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье представлена информация о функциях и методах языка программирования C# Sharp, а также об обработке проблем, связанных с этой темой, в среде C# Sharp.*

**Ключевые слова :** *Функция, концепция метода, методы создания метода, оператор возврата, модификаторы ссылки, процедура, оператор void, общедоступность, идентификаторы.*

Biz biroz yirikroq dastur yozish mobaynida juda ko'p bir xil bo'lgan vazifani qayta va qayta yozayotgandek bo'lamiz. Bu xuddi kuni bilan paxta terayotgan kishining ishiga o'xshaydi qaniydi bitta robot bo'lsayu unga bir marta paxta terishni o'rgatib qo'ysak keyin har safar aytganingda paxtani terib qo'ysa deb orzu qiladi paxta teruvchi , albatta terimchining bu orzusini amalga oshirish qiyin . Lekin sizning ishingizni (ya'ni kodlashda bir vazifani qayta yozishni) yengillashtirishning yo'li bor , bu yerda bizga Funksiyalar yordamga keladi.

Bir marta kod yozib uni dasturning istalgan joyida istalgancha ishlatish imkonini beruvchi operatorlar guruhi Funksiya deyiladi. Bu huddi yuqoridagi misolimizga

o'xshash bir marta qanday qilishni o'rgat va xoxlagan vaqting xoxlagan joyingda ishlat. Funksiya dasturchining kodini sezilarni darajada qisqartiradi va bu orqali dastur kodini o'qish osonlashadi va qotira hajmidan ham yutiladi.

C# tilida funksiyadan foydalanish. Dasturlashda funksiyalar ikki toifaga bo'linadi.

Qiymat qaytaruvchi.

Qiymat qaytarmaydigan.

Qiymat qaytaruvchi funksiyaning tuzilishi quydagicha:

```
<qaytaruvchi qiymat turi> <funksiya nomi> (<parametrlar>)
```

```
{
```

```
//funksiya tanasi
```

```
//return <qaytariladigan qiymat>
```

Bularning barchasiga alohida to'xtalib o'tamiz

1. - bu funksiya qaytaradigan qiymat bo'lib turli xil ma'lumot turlaridan foydalanishimiz mumkin masalan int, float string kabilar.

2. - funksiyaning nomi yani uni chaqiradigan ism deyishimiz ham mumkin unga ism tanlayotganda lotin alifbosidagi katta va kichik harflar , raqamlar va tagchiziq ('\_') foydalangan holda , raqamdan boshlamasdan va c# tilidagi kalit so'zlardan foydalanmagan holda xoxlagan ismni berishimiz mumkin.

3. (<parametrlar>) – bu funksiya yakuniy qiymatni yaratish uchun foydalanadigan yordamchilar deyishimiz mumkin ushbu yordamchilar sifatida esa turli xil malumot tipidagi o'zgaruvchilar keladi . yordamchilar sifatida 0 tadan xoxlagancha o'zgaruvchilar bo'lishi mumkin ular quyidagicha yoziladi (int a, float b, int c) .

4. // funksiya tanasi - ushbu qism funksiyaning asosiy qismi hisoblaning qaytariladigan yakuniy qiymatgacha bo'lgan barcha ishlar shu yerda qilinadi va figurali qavs ('{') bilan boshlanadi ushbu qismda parametr sifatida kiritilgan o'zgaruvchilar ham ishlatiladi.

5. // return - ushbu amal biz funksiyaning qaytaradigan qiymatini aniqlaydi. ning turi funksiyada elon qilingan dastlabki qiymat bilan bir xil bo'lishi shart.yani funksiya int turida bo'lsa biz return dan keyin ham int turidagi o'zgaruvchi bo'ladi. Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi deganlaridek biz C# tilida Funksiya ga oddiygana ikki sonda kattasini topuvchi funksiya orqali misol keltiramiz

### **Qiymat qaytarmaydigan funksiyalar**

Agar biz funksiyalarni xizmatchi inson deb bilsak qiymat qaytaradigan va qaytarmaydigan funksiyalarni shunday tarflashimiz mumkin . Deylik xizmatchiga

qanchadir pul(ya'ni parametr) berib do'konga jo'natamiz va bizga aytgan narsamizni (qaytaradigan qiymat) ni olib keladi bu qiymat qaytaradigan funksiyaga misol bo'ladi . boshqa xizmatchiga esa pul(ya'ni parametr) berib unga hovlidagi qandaydir ishlarni aytamiz va u aytgan ishlaringizni qildi lekin sizga hech narsa qaytarib kelmadi bu qiymat qaytarmaydigan funksiyaga misol bo'la oladi. Qisqa qilib aytganda qiymat qaytarmaydigan funksiyaning qaytaruvchi qiymati bo'lmaydi va u qandaydir vazifani bajargan bo'ladi.

```
<void> <funksiya nomi> (<parametrlar>)
```

```
{
```

```
//funksiya tanasi
```

```
}
```

### **Funksiyaga oid masalalar ishlashga na'munalar.**

1- Uchburchak bo'lish sharti.

```
using System;
```

```
public class Program
```

```
{
```

```
static string uchburchak(double A, double B, double C)
```

```
{
```

```
if(A+B>C && B+C>A && A+C>B)
```

```
return " Uchburchak bo'ladi";
```

```
else return " Uchburchak bo'lmaydi ";
```

```
}
```

```
static void uchburchak2(double A, double B, double C, ref string S)
```

```
{
```

```
if(A+B>C && B+C>A && A+C>B)
```

```
S=" Uchburchak bo'ladi";
```

```
else S= " Uchburchak bo'lmaydi ";
```

```
}
```

```
public static void Main()
```

```
{
```

```
double A,B,C;
```

```
string S="";
```

```
A=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
B=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
C=double.Parse(Console.ReadLine());
```



```

    Console.WriteLine(uchburchak(A,B,C));
    uchburchak2(A,B,C,ref S);
    Console.WriteLine(S);
    }

```

```

}

```

Javobi:

2

5

4

Uchburchak bo'ladi

Uchburchak bo'ladi

2. Ihtiyoriy uchta sonning 3-darajasini hisoblovchi funksiya tuzing.  
using System;

```

public class Program

```

```

{

```

```

    static void uchburchak2( ref double A, ref double B,ref double C )

```

```

    {

```

```

        A=Math.Pow(A,3);

```

```

        B=Math.Pow(B,3);

```

```

        C=Math.Pow(C,3);

```

```

    }

```

```

    public static void Main()

```

```

    {

```

```

        double A,B,C;

```

```

        A=double.Parse(Console.ReadLine());

```

```

        B=double.Parse(Console.ReadLine());

```

```

        C=double.Parse(Console.ReadLine());

```

```

        uchburchak2(ref A, ref B,ref C);

```

```

        Console.WriteLine("A={0} B={1} C={2}" , A,B,C);

```

```

    }

```

```

}

```

Javobi:

5

7

9

A=125 B=343 C=72

3. Ikkita sonning o`rta arifmetigi va o`rta geometrigini hisoblovchi MEAN funksiyasini tuzing. MEAN funksiyasi orqali A,B,C,D sonlaridan (A,B) (A,C) (A,D) juftliklarining o`rta arifmetigi va o`rta geometrigini hisoblang.

using System;

```
public class Program
```

```
{
```

```
    static void MEAN(double a, double b, out double K, out double P)
```

```
    {
```

```
        K = (a + b) / 2;
```

```
        P = Math.Sqrt(a * b);
```

```
    }
```

```
    public static void Main()
```

```
    {
```

```
        double A, B, C, D;
```

```
        double a, b;
```

```
        A=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
        B=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
        C=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
        D=double.Parse(Console.ReadLine());
```

```
        MEAN(A, B,out a,out b);
```

```
        Console.WriteLine("{0} {1}",a,b);
```

```
        MEAN(A, C, out a, out b);
```

```
        Console.WriteLine("{0} {1}", a, b);
```

```
        MEAN(A, D, out a, out b);
```

```
        Console.WriteLine("{0} {1}", a, b);
```

```
    }
```

```
}
```

4

5

7

6

4.5 4.47213595499958

5.5 5.29150262212918

5 4.89897948556636

### Metod va protsedura tushunchalari

Dasturlashda shunday xolatlarga duch kelinadiki, qandaydir dastur qismini dasturda bir necha marta ishlatishga to'g'ri keladi. Bunday xolatlarda dasturning sodda va ixcham ko'rinishga keltirish uchun ko'p foydalaniluvchi dasturiy kodni alohida dastur qilib, ya'ni protsedura yoki Metod ko'rinishidagi qism dastur sifatida ifodalab olinadi. So'ngra lozim bo'lganda shu qism dasturga murojaat qilib kerakli natijaga erishiladi.

Protsedura-bu ma'lum vazifani bajarishga mo'ljallangan qism dasturdir. Protseduraga asosiy dastur tanasidan murojaat qilish mumkin. Agar protsedura unga taqdim qilinuvchi o'zgaruvchilar asosida qandaydir vazifani bajarishga mo'ljallangan bo'lsa bunday protseduralar parametrli protseduralar deb ataladi.

Metod – protseduraga o'xshash qism dastur. Farqi, Metod uning tanasidagi qism dastur bajarilgandan so'ng muayyan bir qiymatni qaytarishga mo'ljallanganligi va Metodni u qiymat qaytarganligi sababli ifodalar tarkibida qo'llash mumkinligidir.

C# da method, procedure, function kabi kalit so'zlar yo'q. C# da har qanday protsedurani Metod ko'rinishida yozish mumkin, shuning uchun protsedura tushunchasi chiqarib tashlangan. Faqat, agar Metod qiymat qaytarmasligi va xuddi protsedura kabi vazifa bajarishi lozim bo'lsa, u holda Metodni e'lon qilishda void xizmatchi so'zidan foydalaniladi.

### C# da Metodlar yaratish

C# da Metodni e'lon qilinishi sintaksisi quyidagicha:

```
[modifikator][static] [void] <Qaytariluvchi qiymat tipi> <Metod nomi>  
<([argumentlar])>  
{  
  // Metod tanasi  
}
```

bu yerda :

**modifikator** – Metodning foydalanish mumkin bo'lgan ta'sir doirasini belgilab public, private, protected, internal kalit so'zlari bo'lishi mumkin. Bu to'g'rida keyinroq to'xtalamiz;

Modifikator va Metod nomi orasida **static** kalit so'zi bo'lishi mumkin. Ushbu kalit so'z Metodning statik ekanligini bildiradi. Statik Metodlar u joylashgan sinf

yuklanishi bilan avtomatik tarzda xotiraga yuklanadi doimiy tarzda xotirada joylashib o'tiradi;

**void** – agar Metod protsedura sifatida qo'llanilsa, ushbu kalit so'zi qo'yiladi;

**Qaytariluvchi qiymat tipi** – bu Metod qaytaruvchi qiymatning tipidir;

**Metod nomi** – Metodni dastur va ifodalar ichida qo'llash uchun unga berilgan nom, ya'ni murojaat qilish nomi;

**argumentlar** – Metod tanasida hisoblashda kerak bo'ladigan kattalik(parametr)lar. Agar argument sifatida aniq bir o'zgarmas qiymat uzatilishi lozim bo'lsa, shu qiymat tipi va ana shu qiymatni Metod tanasiga olib kiruvchi o'zgaruvchi nomi yoziladi. Agar bunda argumentlar bir nechta bo'lsa, ular o'zaro vergul bilan ajratib yoziladi. Masalan:

```
public static int func1(double a, double b, int r, string s)
{
// Metod tanasi
}
```

Bu yerda func1-Metodga murojaat qilish nomi. a, b, r, s lar esa Metod tanasida hisoblash uchun zaruriy parametrlar. Ushbu parametrlar sifatida avval initsializatsiya qilingan o'zgaruvchi, o'zgarmas yoki konkret biror qiymat qo'yish mumkin. Bu tariqa qo'llanilgan parametrlardan Metod tanasida biror qiymatni hisoblash uchun foydalanish mumkin, lekin aynan ushbu parametrlarning qiymatini Metod tanasida o'zgartirish mumkin emas.

Agar Metod o'zini qaytaruvchi qiymatidan tashqari yana qandaydir boshqa bir qiymatni qaytarishi, ya'ni Metod bir martalik murojaat qilishda bir nechta qiymatni qaytarishi zarur bo'lsa, buning uchun qiymatni Metod tanasidan olib chiqib ketishi uchun ham parametrlardan foydalaniladi. Faqat ushbu parametrlardan avval ref kalit so'zini qo'llash lozim.

**Metodlarga oid masalalar ishlashga na'munalar.**

1. . s va t haqiqiy sonlar berilgan. Hisoblansin

$$f(t, -2s, 1.17) + f(2.2, t, s-t)$$

Bu yerda  $f(a, b, c) = \frac{2a - b - \sin c}{5 + |a - b - c|}$ .

using System;

```
public class Program
```

```
{
    public static double funk1(double a, double b, double c)
    {
```

```

        return (2 * a - b - Math.Sin(c) / (5 + Math.Abs(a - b - c)));
    }
    public static void Main()
    {
        double t, s, K = 0;
        t = double.Parse(Console.ReadLine());
        s = double.Parse(Console.ReadLine());
        K = funk1(t, -2 * s, 1.17) + funk1(2.2, t, s - t);

        Console.WriteLine(K);

    }
}

```

Javobi:

5

4

17.4690368443056

2.  $s$  va  $t$  haqiqiy sonlar berilgan bo'lsin. Hisoblansin  
 $[g(1.2, s) + g(t, s) - g(2s-1, st)] / g(2t, 3s)$

Bu yerda  $g(a, b) = \frac{2a^2 + 3b}{a^2 + 2ab + 3b^2 + 5a^2b^3 + e^a - e^b}$ .

using System;

```

public class Program
{
    public static double funk2(double a, double b)
    {
        return ((2*a*a+3*b)/(a*a+2*a*b+3*b*b+5*a*a*b*b*b+Math.Exp(a)-
Math.Exp(b)));
    }
    public static void Main()
    {
        double a, b, t, s, K = 0;
        t = double.Parse(Console.ReadLine());
        s = double.Parse(Console.ReadLine());
        K=(funk2(1.2,s)+funk2(t,s)-funk2(2*s-1,s*t))/funk2(2*t,3*s);

        Console.WriteLine(K);
    }
}

```



}

}

Javobi:

5

6

-4654.76253241082

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://docs.dot-net.uz/>
2. <https://uzbekdevs.uz/>
3. Halimova Dildora Hamidovna “C # dasturlash tilida sinflar ierarxiyasini tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma”. Buxoro,2015-yil.
4. R.Qabulov, Sh.Nazirov “C va C ++ tili “.Toshkent-2013.
5. O.I.Jalolov, Sh.M.Sharipov “C # dasturlash tilida fayllar bilan ishlash” . Buxoro-2014 .
6. Н.А.Тюкачев , В.Т.Хлебостроев “С # Основы программирования”. Москва -2018.
7. “Microsoft Visual Studio dasturi C# dasturlash tili”.

## **EXTENSION AND APPLICATION OF NEWTON'S METHOD IN NONLINEAR OSCILLATION THEORY**

**Mamatova Mahliyo Adhamovna**

Teacher at the Department of Physics, Fergana State University,

**Mamirjonova Gulnoza Shokirjon qizi**

Master, Fergana State University

We all know that because the nonlinear oscillation is very important in theory and application, it is a main subject studied by mathematicians and mechanics. The analytic method in the study of nonlinear oscillation is most important.

*The article reveals the features of organizing independent work of students in higher educational institutions, the importance of developing their creative abilities, and directing them to scientific work. Information is provided on the content, forms and methods of organizing students' independent work. The role of independent work in deepening and expanding students' theoretical knowledge, skills in using specialized literature, and developing independent thinking is shown.*

**Keywords.** knowledge, knowledge, independent work, creativity, worldview, scientific activity, consistency, presentation

## **КИРИШ**

Мамлакатни барқарор ривожлантириш юқори малакали, креатив ва тизимли фикрлайдиган, мустақил қарор қабул қила оладиган кадрлар тайёрлаш, уларнинг интеллектуал қобилиятларини намоён этиши ва маънавий баркамол шахс сифатида шаклланиши учун зарур шарт-шароит яратиш олий таълимни ривожлантиришнинг стратегик вазифалари ҳисобланади. Бу вазифалар таълим сифатини ошириш, таълим жараёнини халқаро талабларга мослаштириш, ўқув ишларини бозор эҳтиёжидан келиб чиқиб ташкил этиш, олий таълим муассасаларида ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб этишни тақозо этади. Шу нуқтаи назардан талабаларни илмий ишга йўналтирувчи мустақил ишларни ташкил этиш долзарб масалалардан саналади.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги вазифалар белгилаб олинди:

- Мустақил ишларнинг мазмуни ва кўринишлари таҳлил қилиш;
- Олий ўқув юртларда мустақил ишларни ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатларини кўрсатиш;
- Мустақил ишларни талабаларни илмий тадқиот ишига йўналтирувчи жараён эканлигини асослашдан иборат.

**Тадқиқотнинг назарий ва амалий аҳамияти.** Олий ўқув юртларида талабалар мустақил ишини ташкил қилиш масалалари бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар учун назарий-методологик манба сифатида фойдаланиш мумкин.

**Методлар.** Талабалар мустақил ишларни ташкил қилиш масалаларини ўрганишда мантикийлик, анализ ва синтез, умумлаштириш, таққослаш каби усуллардан фойдаланилган.

**Илмий муаммони қўйилиш.** Талабалар илмий ишини, мустақил ишини ташкил қилиш бўйича замонавий олимлари томонидан кўплаб тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, МДХ мамлакатларида В.П.Беспалько, С.Е. Каменецкий, Н.С.Пурьшева, Н.Е.Важеевская, П.И.Пидкасистый, Ф. К. Савина, Б.Н. Гузанов, Л.К. Наумовалар талабалар илмий фаолияти, мустақил таълимни ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатларини кўрсатиб ўтишган <sup>205</sup>

<sup>205</sup>. Беспалько В. П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). — М.: Издательств-во Московского психолого-социологического института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2002. 3. Каменецкий С. Е., Пурьшева Н. С., Важеев-ская Н. Е. Теория и методика обучения физике в школе: общие вопросы. — М.: Академия, 2000. 4. Пидкасистый П. И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов. — М.: Педагогическое общество России, 2005. Самостоятельная работа студентов в условиях многоуровневого педагогического образования / сост. Ф. К. Савина. — Волгоград: Перемена, 1993. , Гузанов, Борис Николаевич. Г93 Организация самостоятельной работы студентов вуза в условиях реализации многоуровневой модели обучения: монография / Б. Н. Гузанов, Н. В. Морозова. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.- пед. ун-та, 2014. 158 с. Наумова Л. К. Организация самостоятельной работы магистрантов: направление «Педагогика»: диссертация ... кандидата педагогических наук / Л. К. Наумова. Санкт-Петербург, 2006. 169 с

Ўзбекистонда О.А.Кўйсинов, Н.А.Муслимов, Ш.И.Йўлдашев, Д.Р.Каримова, Н.О.Жўраева, Г.М.Мусаханова, Р.Р.Хусаинов, Г.Н.Ибрагимова, Н.Суёнов, С.А Болтабоевлар таълим муассасаларида кредит-модуль тизимида талабаларнинг мустақил таълимни ташкил этиш ва назорат қилишга қаратилган бўлиб, уларнинг мустақил фикрлашларини шакллантириш усул ва услубларини кўрсатиб ўтишган<sup>206</sup>.

Илмий тадқиқот методологияси масалалари ўзбек файласуф олимлари Н Ўзбек олимларидан Н.А.Шермухамедова, З.Давронов, З.Муҳамедова, И. Саифназаровлар илмий тадқиқот ва билиш жараёни уйғунлиги, илмий ижод, инновация ва новацияларнинг ўзаро алоқадорлиги, олимнинг ижтимоий масъулияти муаммоларини тадқиқ этишган. И С.Аллаярова, Н. Қаюмовалар талабалар илмий тадқиқот ишини ташкил этишга доир илмий изланишлар олиб боришган.<sup>207</sup>

Инновацион таълим, хемис тизими шароитида талабаларда мустақил таълимни ташкил этиш муаммолари етарлича таҳлил этилмаган. Ушбу мақолада олий таълимда талабалар мустақил ишини ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятларига эътибор қаратилади.

## **АСОСИЙ ҚИСМ.**

Олий таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўз-ўзини ривожлантириш, ўз-ўзини тарбиялаш, тадбиркорлик ва инновацияларга қодир мутахассиснинг ижодий шахсини шакллантиришдир. Ушбу мақсадга эришишда мустақил иш муҳим рол ўйнайди. Талабалар мустақил ишининг асосий вазифаси

<sup>206</sup> О.А.Кўйсинов, Н.А.Муслимов. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография. — Т.: «Фан», 2009. — 92 б. 2. О.А.Кўйсинов. Касб таълими йўналиши бакалавр ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий-методик асослари: Дис. ... пед. фан. ном. — Т.: ТДПУ, 2008. — 160 б. 3. Ш.И.Йўлдашев. Талабаларнинг мустақил таълимнинг замонавий ўқув жараёнида аҳамияти ва ўрни // Услубий қўлланма. — Т.: ЎЗМУ, 2022. — 41 б. 4. Д.Р.Каримова. Кредит-модуль тизимида мустақил таълим // Услубий қўлланма. — Тошкент: ООО «Complex Print», 2021. 126 бет. 5. Н.О.Жўраева. Таълим жараёнида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш бўйича айрим кўрсатмалар//Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2021.№3. — 172 б. 6. Г.М.Мусаханова. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. 2020. №6. — 222-224 б. 7. Р.Р.Хусаинов. Олий таълимда фанларни ўқитиш сифатини оширишда мустақил таълимнинг роли // Замонавий таълим. 2016. №4. — 25-32 б. 8. Г.Н.Ибрагимова. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш // Замонавий таълим. 2017.№4. — Б. 30-35. 9. Н.Суёнов. Му . Болтабоев С.А. Бўлғуси касб таълим талабларида ахборотдан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш технологияси. Монография. - Т.: Низомий ТДПУ, 2016. 5. Муслимов Н.А., Кўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография. Т.: «Фан», 2009.

<sup>207</sup>Н.Шермухамедова. Илмий тадқиқот методологияси. Тошкент 2021.И. Саифназаров Г.В.Никитченко, Қосимов Б.У. Илмий ижод методологияси. Ўқув қўлланмаси – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. З.Давронов Илмий ижод методологияси. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2007. -16 б. З.Муҳамедова. Таълим фалсафаси. –Тошкент: ТошМИ, 2004. – Б.14-15.С. Аллаярова . Талабаларнинг илмий тадқиқот фаолиятига таъсир этувчи омиллар. Таълим, фан ва инновация. 2020 йил №4сон,-11-15 б.Н.Қаюмова. Олий таълим муассаслари талабаларини илмий тадиқоқт ишига йўналтириш муаммолари ва уларнинг ечимлари. Замонавий таълим. 2018 №11 Б.9.

фундаментал билимларни, касбий кўникмаларни, ижодий ва илмий-тадқиқот фаолиятидаги тажрибани ўзлаштиришдир. Талабаларнинг мустақил иши ўқув жараёнининг асосий таркибий қисми бўлиб, у компетенцияларни шакллантириш, муаммони ҳал қилишнинг энг яхши усулларини танлаш ва интерфаол ёндашувга асосланган усулни амалга ошириш учун фанлараро алоқалардан фойдаланишга асосланади.

Мустақил таълим талабаларда тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиради. Ўз тадқиқотларини тенгдошлари билан муҳокама қилиш орқали танқидий фикрлаш кўникмалари ҳам ривожланади. Талабалар фанга тегишли билимларни 40-50 фоизини бевосита мустақил ўрганиш орқали ўзлаштиради. Мустақил таълим ўқувчиларга табақалаштирилган топшириқлар бериш имконини ҳам беради. Мустақил иш-бу топшириққа мувофиқ ва ўқитувчининг услубий раҳбарлиги билан, лекин унинг бевосита иштирокисиз амалга ошириладиган талабаларнинг режалаштирилган иши. У ўқитувчи томонидан ташкил этилган, белгиланган дидактик мақсадга махсус белгиланган вақтда эришишга қаратилган талабаларнинг ҳар қандай фаолияти: билимларни излаш, уларни тушуниш, мустаҳкамлаш, кўникма ва малакаларни шакллантириш ва ривожлантириш, билимларни умумлаштириш ва тизимлаштиришни қамраб олади.

Талабаларнинг мустақил ишларининг уларнинг билим фаолиятидаги ўрни ниҳоятда катта, шунинг учун ўқитувчилар унга катта эътибор беришлари бежиз эмас. Мустақил иш, кўплаб олимларнинг фикрига кўра, талабаларнинг назарий ва амалий билимларни ўзлаштиришга онгли муносабатини тарбиялайди, интенсив интеллектуал меҳнат одатини сингдиради. Мустақил ишнинг асосий кўникмалари ва қобилиятлари ўрта мактабда шаклланиши керак. Бироқ, амалиёт барча мактабларда ҳам бу масалага эътибор қаратилмаганини кўрсатмоқда. Кўпчилик талабалар мактабдан кейин олий таълимда ўқишнинг янги шароитларига кириб, дарҳол уларга мослашмайдилар, улар мустақил иш усулларини танлашда адашадилар. Буни биз ўқиш жараёнида кузатишимиз мумкин. Керакли ўқув маълумотларини қабул қилиш, тушуниш, қайта ишлаш, талқин қилиш ва аниқлаш улар учун қийинчилик туғдиради, бу эса талабаларнинг мустақил ишлашга психологик тайёргарлиги йўқлигидан далолат беради. Бу ўқитувчиларга мустақил таълимни талабаларга тўғри тушунтириш, унинг мақсад ва вазифаларини белгилаш масъулиятини ҳам юклайди.

Мустақил иш қуйидаги мақсадларда олиб борилади: талабаларнинг назарий билимлари ва амалий кўникмаларини тизимлаштириш ва



мустаҳкамлаш; назарий билимларни чуқурлаштириш ва кенгайтириш; норматив, ҳуқуқий, маълумотнома ҳужжатлари ва махсус адабиётлардан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш; талабаларнинг билим қобилиятлари ва фаоллигини ривожлантириш; ижодий ташаббус, мустақиллик, масъулият ва ташкилотчилик; амалий касбий фаолиятни ҳал қилиш кўникмаларини эгаллаш; мустақил фикрлашни шакллантириш, ўзини ўзи ривожлантириш, ўзини такомиллаштириш ва ўзини ўзи англаш; лойиҳа, тадқиқот кўникмаларини ривожлантириш.

Белгиланган мақсадлар кўникмаларни луғатлар ва маълумотномалар билан ишлаш; аудио ва видео ёзувлардан фойдаланиш; электрон ва ахборот ресурслари ва интернет ресурслари билан ишлаш; меъёрий ҳужжатлар билан танишиш; компьютер дастурларининг хусусиятлари ва функцияларини ўрганиш; матнни ёзиб олиш; луғат тузиш; тақдимотлар яратиш; билимларни мустаҳкамлаш, тизимлаштириш ва кўникмаларни шакллантириш; ўқув материални таҳлил қилиш (маъруза ёзувлари, дарслик, бошланғич манба, қўшимча адабиётлар) вазифалар орқали амалга ошириб борилади.

Мустақил иш келажакдаги мутахассиснинг когнитив фаолиятини ривожлантириш учун шакл, усул, восита ва шарт сифатида ишлайди. Талабанинг мустақил ишининг мазмуни ва ҳажми давлат таълим стандарти талаблари, мутахассислик (ўқув соҳаси) ўқув дастурлари ва аниқ фанлар дастурлари билан белгиланади. Мустақил ишнинг куйидаги асосий услубий тамойиллари мавжуд: -мақсадга мувофиқлик, изчиллик, тизимлилик, изчиллик, самарадорлик, фойдалилик; янги билимларни ўзлаштириш, уларни умумлаштириш ва тизимлаштириш мақсадида илгари олинган билимларни чуқурлаштириш ва такрорлаш; ўрганилаётган фанлар бўйича амалий кўникмаларни, шунингдек, бўлажак мутахассислик бўйича касбий кўникмаларни шакллантириш; олинган билимларни, кўникмаларни амалда қўллаш.

Мустақил иш бу талабаларга билимларни излаш, эгаллаш ва ўзлаштиришнинг мураккаб кўп қиррали индивидуал ижодий жараёни. Дунёқараш нуқтаи назаридан, ушбу турдаги когнитив фаолиятнинг замонавий таълим ва касбий фаолиятидаги ўрни тушунилади, услубий жиҳатдан мустақил иш асосланиши керак бўлган тамойиллар асосланади. Методика мустақил ишни амалга оширишнинг ўзига хос шакллари ва усулларини очиб беради ва услубий тавсиялар муайян педагогик вазиятда мустақил иш усулларидан фойдаланиш бўйича амалий маслаҳатларни ўз ичига олади. Методология ва услубий

тавсияларни биргаликда кўриб чиқиш одатий ҳолдир, чунки улар бир хил жараён - натижаларга эришишнинг амалий усуллари дир .

Мустақил ишнинг моҳияти, мазмуни ва функцияларини ҳар томонлама тушуниш, энг муҳими, ундан ўқув жараёнида самарали фойдаланиш учун билимларни эгаллашнинг ушбу шаклининг барча жиҳатларини ҳисобга олиш керак. Бу олий таълимнинг муҳим муаммоларидан бири бўлиб, унда талабаларнинг шахсий иқтидори ва сифат хусусиятларини ривожлантириш тақозо этилади. Талаба мустақил ишининг табиати ва сифати, уни талабалар томонидан тушунишга ғоявий, услубий ёндашувлар маълум даражада ҳар бир ўқитувчига ва кафедрага боғлиқ. Шунинг учун талабаларнинг мустақил ишларини кўриб чиқиш ўқитувчи ва кафедранинг уни ташкил этиш ва амалга оширишдаги ролини аниқлаштириш шароитида амалга оширилиши керак. Ўқитувчи ҳукмронлик қилмаслиги ва ўз нуқтаи назарини талабага юклаганлиги керак. Унинг роли тавсиялар, мустақил иш жараёнида талабалардан келиб чиқадиган саволларга жавоблар, индивидуал топшириқларнинг вақти ва сифатини назорат қилишдан иборат бўлиши керак.

Талаба, шунингдек, кафедра (ўқитувчи) унга мустақил ишда қандай ёрдам кўрсатиши, ушбу иш устидан назорат ва у бўйича ҳисобот қандай амалга оширилиши ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиши керак. Талаба тизимли, деярли ҳар куни, мустақил равишда билим излашда нима қилиш кераклигини ва буни қандай қилиш кераклигини аниқ тушуниши керак. Ушбу жараён мустақил ишни муваффақиятли ташкил этиш ва тўғри ташкил этилишига боғлиқ. Имконсиз вазифаларни бермаслик керак, улар аста-секин мураккаблашиши лозим.

Мустақил ишнинг уч даражаси репродуктив, самарали ва ижодий мавжуд бўлиб уларни босқичма босқич бажариш тақозо этилади. Янги билимларни ўзлаштириш, чуқурлаштириш ва такрорлаш, илгари олинган билимлар, танланган даражаларнинг ҳар бирида уларни умумлаштириш ва тизимлаштириш учун мустақил ишнинг турли шакллари тақдим этилади.

Биринчи босқичда вазифалар, мисоллар, вазиятларни (ишнинг репродуктив табиати) ҳал қилиш тавсия этилиши керак. Иккинчи босқичда алоҳида фрагментларни тайёрлаш ва ишбилармонлик ўйинида маълум бир ролни бажариш, иллюстратив материалларни ишлаб чиқиш, ўз ичига олади. Учинчи босқич даража тадқиқот вазифаларини мустақил шакллантириш, тадқиқот усуллари танлаш, назарий ва экспериментал тадқиқотлар ўтказиш кўникмаларини шакллантиришни таъминлайди.

Биринчи босқичда турли манбалардан таълим маълумотларини идрок этиш, матнли хулосани тайёрлаш, билимларни репродуктив такрорлаш каби иш турларини ўз ичига олиши керак. Иккинчи босқич талабанинг ўрганилган материални тушуниши натижалари асосида хулоса тайёрлаш, ўқилган китоб (мақола) режасини тузиш, библиографик рўйхатни тузиш, кўчирма ва иқтибослар шаклида илмий маълумотларни тўплаш қобилиятини назарда тутати ва ҳоказо. Ушбу кўникмаларга эга бўлган талабаларга ўқув материални таснифлаш, технологик ва бошқа схемалар, диаграммалар, графикалар, картограммалар, жадваллар, чизмалар шаклида тақдим этиш тавсия этилиши керак. Ушбу босқичдаги индивидуал вазифалар қуйидагилар бўлиши мумкин: ўқитувчи томонидан таклиф қилинган саволларга оғзаки ва ёзма жавобларни тайёрлаш, ўрганилган материал бўйича саволлар тузиш, тематик луғат тайёрлаш, ўқув материални билишни талаб қиладиган кроссвордларни ечиш ва тузиш, курсдошларнинг ёзма ишларини кўриб чиқиш ва баҳолаш. Учинчи босқичда вазифалар янада мураккаблашади: тезислар, шарҳлар, маълумотномалар, рефератлар, маърузалар тайёрлаш, илмий ва ўқув адабиётларини кўриб чиқиш ва ҳк.

Албатта юқорида таъкидлаганимиздек мустақил иш мазмуни талабаларнинг мустақил иши уларнинг мутахассислигидан ва фанлар мазмунидан келиб чиқиб ўзига хос хусусиятларга эга. Масалан, Ўзбекистон Миллий университети фалсафа йўналиши талабаларига мустақил таълим сифатида фанлар мазмунидан келиб чиққан ҳолда мутафаккирларнинг асарлари бўйича эсселар ёзиш, маданият фалсафаси фанидан эса ҳар бир талабанинг ўзи туғилган шаҳар, вилоят маданиятига оид тақдимот, видеороликлар тайёрлаш, нафосат фалсафаси фани доирасида тасвирий санъат кўргазмаларида иштирок этиш, риторика фанидан ёзувчи, шоирлар адабий кечаларида иштирок этиш каби вазифалари берилишини мисол келтириш мумкин. Бу талабаларни асл манбалар билан ишлаш, мустақил фикрлаш, ўз нутқини такомиллаштириш, санъат асарларини герменевтик таҳлил қилиш, вилоятлар этномаданияти ҳақида кенгроқ билимга эга бўлишига ёрдам беради.

Талаба ва педагог мустақил таълим уларнинг манфаати учун олиб борилишини тушуниши керак. Талаба бажараётган мустақил иш педагог учун эмас, балки ўзи учун, унинг келажакдаги муваффақиятини таъминлашининг асосий омили эканлигини тушуниши керак. Талаба олаётган билим натижасига ўзи масъуллигини англаши зарур.<sup>208</sup>

<sup>208</sup> Р.Р.Хусаинов. Олий таълимда фанларни ўқитиш сифатини оширишда мустақил таълимнинг роли // Замонавий таълим. 2016. №4. — 25-32 б.

Мустақил ишни мониторинг қилиш ва баҳолаш тизимли ва асосли бўлиши керак ва ўқитувчи, кафедра мудирлари ва вақти-вақти билан ўқув бўлими томонидан амалга оширилиши керак. Баҳолаш мезонлари ўқитувчи томонидан белгиланади ва талабалар эътиборига етказилади. Талабанинг мустақил иши натижаларини баҳолаш мезонлари қуйидагилар бўлиши мумкин;

- талабанинг ўқув материални ўзлаштириш даражаси;
- талабанинг амалий топшириқларни бажаришда назарий билимлардан фойдаланиш қобилияти;
- тақдимотининг асослилиги ва равшанлиги;
- материалнинг дизайни стандартлар талабларига мувофиқ;
- фанни ўрганишнинг мақсад ва вазифаларига мувофиқ компетенцияни шакллантириш даражаси

Ўқитувчи томонидан берилган мустақил таълим бўйича индивидуал топшириқлар бажарилиши ва интизомни баҳолашда ҳисобга олиниши керак. Бажарилган вазифа бўлмаса ёки муддатлар бузилган тақдирда ўқитувчи баҳони пасайтириш ҳуқуқига эга. Ушбу жиҳат фан дастурида кўрсатилиши керак.

Бугунги кунда олий таълим тизимида мустақил таълим соатлари улушини камлиги, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шаклланмаганлиги, ўқув жараёнида талабаларда ташкилотчилик қобилияти, компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш замон талабига мос келмаслиги асосий муаммолар қаторига киради. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришда хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятларини йўлга қўйиш лозим.<sup>209</sup>

Талабаларнинг илмий-тадқиқот ишлари уларни юзага келатган назарий ва амалий муаммоларни оқилона ва самарали ҳал эта оладиган ижодкор шахслар сифатида шакллантиришга хизмат қилади. Бўлажак мутахассисларда тадқиқотчилик кўникмаларининг бўлиши-юқори малакали кадрларга қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири эканлигини таъкидлаб ўтиш лозим. Чунки, бирор бир соҳада тадқиқотчи кадрлар фаолият юритмас экан, бу соҳада янгиликлар, ривожланишлар, самарадорлик кўрсаткичлари ҳақида гап бўлиши мумкин эмас<sup>210</sup>.

Хулоса қилганда,

<sup>209</sup> Г.М.Мусаханова. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. 2020. №6. — 222-224 б. 7.

<sup>210</sup> Healey, M. (2005). Linking research and teaching to benefit student learning. *Journal of Geography in Higher Education*, 29 (2), 183-201

Биринчидан, талабалар томонидан бажариладиган мустақил ишлар талабанинг етарли ваколатини намойиш этиши;

Иккинчидан, ижодий характерга эга бўлиши, талабанинг мустақиллиги ва когнитив фаоллиги даражасини намоён этиши;

Учинчидан, ўқув, илмий ва (ёки) амалий йўналиш ва аҳамиятга эга бўлиши;

Тўртинчидан, талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қилиш лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 августдаги “Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4433-сонли Қарори
2. Самостоятельная работа студентов в условиях многоуровневого педагогического образования / сост. Ф. К. Савина. — Волгоград: Перемена, 1993.
3. Наумова Л. К. Организация самостоятельной работы магистрантов: направление «Педагогика»: диссертация ... кандидата педагогических наук / Л. К. Наумова. Санкт-Петербург, 2006. 169 с
4. Г.М.Мусаханова. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. 2020. №6. — 222-224 б. 7.
5. Р.Р.Хусаинов. Олий таълимда фанларни ўқитиш сифатини оширишда мустақил таълимнинг роли // Замонавий таълим. 2016. №4. — 25-32 б.
6. Healey, M. (2005). Linking research and teaching to benefit student learning. *Journal of Geography in Higher Education*, 29 (2), 183-201



## **MIRZO G‘OLIB MAKTUBLARI –URDU NASRINING NODIR NAMUNASI**

**Shokirova Shahnoza Ortiq qizi**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

1-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti

Tel: +998991077920

**Ilmiy rahbar: fil.f.n., dots. Abdurahmonova M.**

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola Mirzo G‘olib maktublarining urdu nasrchiligidagi ahamiyatiga bag‘ishlanadi. Mirzo G‘olib xatlarining to‘plamlari va ularning nashrlari haqida ma‘lumot beriladi. Maktublarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi va misollar yordamida tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** epistolary janr, insho san‘ati, اردوے معلى, adresat, sajli nasr, qofiyali nasr.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the significance of Mirza Ghalib’s letters in urdu prose. Collections of Mirza Ghalib’s letters and their publications are provided. Specific features of letters are studied and analyzed using examples.*

***Key words:** epistolary genre, essay art, اردوے معلى, adresse, poetic prose, rhyming prose.*

### **KIRISH**

Mirzo Asadulloxon G‘olib nomi urdu adabiyotida va xususan, urdu she‘riyatida biror ta‘rifga muhtoj emas. G‘olib she‘riyatdan tashqari maktubnavislik mahorati bilan ham tanilgan.

Qadimdan yozishmalar insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham davlatlar o‘rtasidagi aloqalarda ham muhim ahamiyatga ega. O‘rta asrlarga kelib Sharq mamlakatlarida yozishmalar rivojlanib, insho san‘ati vujudga keldi. Munshaot sharq she‘riyatidagi janr bo‘lib, yozuvchining nazmda yoki nasrda yozilgan maktublari to‘plami hisoblanadi. Munshaot janri “ Epistolary janr” deb ham ataladi. Epistolary janr asosan arab va fors adabiyotida takomillashib bordi. Fors tilining tasirida urdu adabiyotiga ham kirib keldi. Mirzo G‘olib maktublari orqali ushbu janrda nafaqat katta o‘zgarish qildi, balki unda yangi uslub va ifoda shakllariga ham asos soldi.

Dastlab Mirzo G‘olib ko‘p xat yozmadi, lekin keyinchalik maktubnavislik uning uchun qiziqarli mashg‘ulotga va urdu nasrini rivojlantirish vositasiga aylandi. Uning

xatlari urdu nasrida yangi yo`nalishni yuzaga keltirdi. G`olib kabi maktub bitish hech kimga muyassar bo`lmadi.<sup>211</sup>

G`olibdan oldin ham urdu adabiyotida nasriy asarlar mavjud edi, ammo ular teologiyaga oid sun`iy usuldagi qissalar edi. G`olibning urdu nasridagi shuhratining asosi uning maktublari bo`lsa-da, dastlab u o`z maktublarini nashr etishga loyiq ko`rmagan. Biroq uning do`stlari, shogirdlari va muxlislari shoirning maktublarini adabiy nasrning oliy namunasi deb hisoblagani bois, ularni nashr etish, asrash va kitobxonlarga yetkazish zarur deb bilar edi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

G`olib xatlarini jamlashni birinchilardan bo`lib Mavlavi Muhish Parshad taklif qilgan. Bu borada u juda ko`p mahnat qildi va jon jahdi bilan ishladi. U sahih xatlarni to`plab 1941-yilda 1-jildini nashr etdi. Uning vafotidan so`ng esa G`ulom Rasul Mehr 2-jildini tayyorlab Lahorda chop ettirdi.

Shu bilan birga G`olibning asl xatlari nusxasi turli jurnallarda ham chop etib borilgan. Jumladan اردوے معلیٰ (Urdu-ye Mualla) da Sayyid G`ulom Husayn Qadr Bilgiramiy nomiga bitilgan bir necha xatlarini birinchi marotaba 1907-yilda aligarxda nashr ettirgan. Lekin bu xatlarning matnida bir qancha xatolar bo`lgan. “Muraqqaye G`alib” da Prithvi Chandar Rampur navoblari nomiga va boshqa bir qancha odamlarga yozilgan xatlari nusxasi chop ettirilgan<sup>212</sup>. Bu davrda G`olib xatlarining ko`plab nashrlari va ularning fotoprinti qilingan edi<sup>213</sup>.

Mirzo G`olib xatlarining to`plamlari

**مہرِ غالب (G`olib muhri)**

1861-62 yillarda Mirzo G`olibning Abdug`ofur Sarvarga yozgan bir necha xatlarining to`plami Sarvar va Mumtoz Ali Xon tomonidan tuzilgan. Ular G`olibdan ijozat olishga urinmadi ham va to`plamga “مہرِ غالب” (G`olib muhri) deb nom qo`yildi. Biroq ushbu to`plam qaysidir sabablarga ko`ra nashr etilmay qoldi.

**انتخابِ غالب (G`olib saylanmasi)**

Bu to`plam 1866-yil bir ingliz zobitining iltimosiga ko`ra shaxsan G`olibning o`zi tomonidan tuzilgan. Unda 12 xat va 49 ta she`r jamlangan bo`lib, asosan inglizlarga urduni o`rgatishga mo`ljallangan

**عودِ ہندی (Hind ifori)**

1861 yildan taniqli shoir G`ulom G`avs Bexabar G`olibning ruxsati bilan maktublarni to`play boshladi. G`olib bu vaqtda xatlari chop etilishi kerakligini anglab yetgan edi. Ammo bu to`plamning chop etilishi kechikkanligi sababli Mumtoz Ali

<sup>211</sup> خوجہ الطاف حسین حالی. یادگار غالب. - نئی دہلی: مکتبہ جمیعہ لمیٹڈ، ۲۰۱۱. - ۱۱۱ ص.

<sup>212</sup> حکیم عبد الحمید. مطالعات کلام غالب. - نئی دہلی: غالب اکیڈمی، ۲۰۱۰. - ۲۹۳ ص.

<sup>213</sup> رشید حسن ہاں. عملائے غالب. - کراچی: ادارہ یادگار غالب، ۲۰۰۰. - ۱۸۰ ص.

Xondan uni nashr etishni soʻradi. Mumtoz Ali Xon “مہرِ غالب” (Gʻolib muhri) matnini ham toʻplamga qoʻshdi va shu tariqa 1868-yil oktabr oyida nashr etildi. Bu Gʻolibning ilk maktublar toʻplami boʻlib, kitobxonlar tomonidan yaxshi qabul qilindi.

اردوے معلی (Aʻlo urdu)

Bu Gʻolibning ikkinchi toʻliq toʻplami boʻlib, 470 ta maktubdan iborat. Ushbu toʻplam Gʻolib vafotidan soʻng nashr etilgan. Uning bir qancha nashrlari chop etildi, xususan, Murtazo Husayn Fozil tomonidan 1969-yilda ham nashr etilgan.

مکاتیبِ غالب (Gʻolib maktublari)

Imtiyoz Ali Xon Arshiy Rampurit Gʻolibning Rampur valiysiga yoʻllagan 117 maktubini ilmiy izohlar bilan birga chop etdi. Bu toʻplam ilk bor 1937 yilda Mumbayda ommaga taqdim etildi.

ادبی خطوطِ غالب (Gʻolibning adabiy maktublari)

Mirzo Muhammad Askariy Gʻolibning adabiy masalalar yuzasidan bahs-munozaralarga oid maktublarini jamlagan, Lakhnaodagi Nizomiy matbuotxonasi esa kitobni nashr etgan.

خطوطِ غالب (Gʻolib xatlari)

Tadqiqotchil Maolvi Mahesh Parshad Gʻolibning chop etilgan yoki chop etilmagan barcha maktublarini toʻplashni va ularning ishonchli, tanqidiy nashrini chop etishni oʻyladi. Uning birinchi qismini 1941-yilda Allohobodda nashr etdi. Biroq Mahesh Parshad vafot etgandan soʻng uning ikkinchi jildi qoʻlyozmasi yoʻqolgan. Shu tariqa bu toʻplamning faqat birgina jildi chop etilgan.

نادراتِ غالب (Gʻolibning noyob xatlari 1949)

Miran Dehlaviy Gʻolibning nashr qilinmagan 74 ta xatlar toʻplamini tuzdi. Ammo keyinchalik bu toʻplam Miran sohibning nabirasi Afaq Husayn tomonidan soʻzboshi qoʻshilgan holda 1949-yil Karachida nashr etildi. Ushbu toʻplamda Gʻolibning 92 shogirdining hayoti haqida maʼlumot mavjud.

خطوطِ غالب (Gʻolib xatlari 1951)

Gʻulom Rasul Mehr Gʻolibning maktublarini ikki jildda nashr ettirdi. Lekin unda “مکاتیبِ غالب” va “نادراتِ غالب”da bosilgan maktublar mavjud emas edi. Uning bir nashrini Panjob universiteti 1969-yilda nashr etdi.

غالب کے خطوط (Gʻolibning xatlari 1984-2000)

Xaliq Anjum Gʻolibning barcha maktublarini besh jildga jamlab, qimmatbaho toʻplamni tuzdi. U bu toʻplamni matnning tanqidiy tamoyillari asosida 1984-2000 yillar davomida nashr ettirib bordi. Birinchi toʻrt jildda xatlar adresatlarga koʻra tartiblangan. Beshinchi jildda esa barcha xatlar xronologik tarzda taqdim etilgan. Bu nafaqat Gʻolib maktublarining eng toʻliq toʻplami, balki eng ishonchlisi hamdir.

Bundan tashqari G`olibning bir necha soxta xatlar to`plami ham nashr etilgan<sup>214</sup>.

### Maktublarining xususiyatlari

Mirzo G`olib xatlarining o`ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo`ladi:

#### Salom-alikning qisqa va soddaligi

Mirzo G`olib davridan oldin va uning davrida ham maktubot janriga fors tili kuchli ta`sir ko`rsatgan edi. Xatboshi uchun fors tilidagi qiyin so`z va so`z birikmalari qo`llanar edi. Mirzo G`olib ham dastlab zamondoshlari kabi uzun va murakkab so`zlardan foydalangan. Uning fors tilidagi oldingi maktublari chigal va tushunarsiz sarlavhalarga ega edi. Ammo u urdu tilida xat yozishni boshlaganidan so`ng muxtasarlikni tanladi. Murojaat qilish uchun mulozamat o`rniga hurmat va samimiyatni ixtiyor qildi. Maktublarini maktubi ilayh (adresat) bilan munosabatiga qarab boshladi. Uning maktublarida salomlashish va murojaatning uch jihati ko`rinadi. Birinchisi, xolis suhbat uslubi. Bu borada u xatlarini juda qisqa sarlavhalar bilan boshlagan.

Masalan, برادر oddiygina birodar, بهائی og`ayni, جناب janob so`zlari bilan. Ikkinchisi, oqsoqollar, amaldorlar va noyiblar nomiga yozilgan xatlarida ularning mavqeini hisobga olgan holda odob bilan murojaat qilgan. Masalan منشی قبلہ qibla munshi sahib, باندپاروار bandaparvar kabi. Uchinchisi shogirdlari, ixlosmandlari va musofirlar uchun samimiy so`zlardan foydalangan. Masalan, نور چشم ko`zimning nuri, راحت جان jonim rohati, jigarim kabi.

#### Xatning boshlanishi

Oldingi davrlarda va hozir ham salomlashuv va murojaat so`zlaridan so`ng adresatning hol-ahvoli so`ralishi bilan birga xat yozuvchi (adresant) ham o`zining holati haqida xabar bergan.

Uning xatlaridan ma`lum bo`ladiki, u go`yo adresat bilan o`tirib allaqachon salomlashishga va hol-ahvol so`rashga ulgurgan va asosiy masaladan gap boshlagan bo`ladi. Masalan o`zining jiyani Mirzo Abbosga yozgan maktubi quyidagicha boshlanadi:

"بهائی مرزا عباس بہادر! میں حیران ہوں کہ سرکار کے کام کو کیونکر انجام دیتے ہو اور مضامین قانونی کو کیونکر سمجھ لیتے ہو اور مقدمات کے فیصلے کیونکر کرتے ہو۔"

"Birodar Mirzo Abbos Bahodir! Hayronman, siz hukumat ishini qanday bajarasiz va huquqiy masalalarni qanday tushunasiz va ishlarni qanday hal qilasiz".

#### Tasvirlash usuli

<sup>214</sup> ڈاکٹر رؤف پاریکھ خطوط غالب، غالب کی اردو نثرنگاری کی شہرت کا تاج محل میگزین قرطاس ادب فروری، 2022

Mirzo G`olib xatlarida biror voqea-hodisani tasvirlamoqchi bo`lsa, uni juda chiroyli uslubda bayon qilar edi. Uning xatlarida o`ziga xos tarzda lavhalar uchraydi Masalan, u bir xatida yomg`ir mavsumini quyidagicha bayon qiladi:

"برسات کا حال نہ پوچھو خدا کا قہر ہے۔ قاسم جان کی گلی سعادت خان کی نہر ہے۔ میں جس مکان میں رہتا ہوں 'عالمیگ کے گڑے کی طرف کا دروازہ گر گیا، مسجد کی طرف کے دالان کا جو دروازہ تھا، گر گیا۔ سیڑھیانگرا چاہتی ہیں، صبح کے بیٹھنے کا حجرہ جھک رہا ہے چھتیں چھلنی ہو گئی ہیں، مینہ گھڑی بھر برسے تو چھت گھنٹہ بھر برسے ہے۔"

"Barsat haqida so`rama, xudoning qudrati. Qosimjonning ko`chasi, Saodatxonning arig`idir. Men yashayotgan uyda Olim Beg ombori tomonidagi eshik qulab tushdi. Masjid tomondagi ayvonning eshigi ham qulab tushdi. Zinalar yiqilay deb turibdi. Saharda o`tiradigan hujram qiyshayib, tomlari yorildi. Agar yomg`ir soatlab yog`sa, hujraning tomi ham soatlab to`kiladi".

### **Soddalik va ravonlik**

Mirzo G`olib maktublarining asosiy xususiyati ularning soddaligida va bu soddalik o`ziga xos jozibaga ega. Mirzo G`olib satrlarida samimiylik ham bor. Uning uslubi sun`iylik va soxtalikdan xoli. U xatlarini adresatning fe`l-atvori, tafakkuri va saviyasini inobatga olgan holda bitgan. Mirzo G`olib odatda oddiy muloqot tilini ma`qul ko`rgan. Biron jiddiy mavzudan gap ochilganda forsiy va arabiy istiloh va birikmalarni qo`llagan.

### **Suhbat uslubi:**

Mirzo G`olib maktublarida adresatga xuddi u bilan yuzma-yuz o`tirib gaplashayotgandek murojaat qiladi. Boshqacha aytganda, uning maktublarida suhbat uslubi yuzaga chiqadi. Shu tariqa G`olib o`z maktublarida suhbat bo`layotgan davrani yaratadi. G`olib maktubni muloqotga aylantirganini takidlaydi<sup>215</sup>. Jumladan Ali Beg nomiga yozgan xatida quyidagi satrlar uchraydi.

"مرزا صاحب میں نے وہ انداز تحریر ایجاد کیا ہے کہ مراسلے کو مکالمہ بنا دیا ہے۔ ہزار کوس سے بزبان قلم باتین کیا کرو، ہجر میں وصال کے مزے لیا کرو"

"Mirzo sohib! Men shunday uslub yaratdimki, maktubni muloqotga aylantirdim. Ming chaqirimdan qalam tili ila suhbat qil va hijronda visol ta`mini bil".

### **Hazil-mutoyiba, sho`xlik**

G`olib maktublarida zakovat, sho`xlik ham uchraydi. U xushchaqchqlikni hayotda muhim deb hisoblaydi. U g`am-qayg`ulariga ham hazil-mutoyiba bilan qarashga o`rgangan. Nafaqat o`zgalarni, balki o`zini ham kulgi, hazil ostiga oladi. Uning do`stlari bilan erkin suhbat hazil-mutoyibaga boydir. Shu sababdan mavlono

<sup>215</sup> فاروقی الرحمن شمس خطوط غالب پر اور ایک نظر اردو۔ سبز اوراق



Xoliy Mirzo G`olibni “حيوان ظريف” (Zakovat egasi) deb ataydi. Masalan, G`olib o`zining bir xatida ro`zasini quyidagich ta`riflaydi:

”دھوپ بہت تیز ہے۔ روزبرکھتا ہوں، مگر روزے کو بہلا تا رہتا ہوں۔ کبھی پانی پی لیا، کبھی حقہ پی لیا۔

یہاں کے لوگ عجیب فہم رکھتے ہیں۔ میں تو روزہ بہلا تا ہوں اور یہ صاحب کہتے ہیں کہ تو روزہ نہیں رکھتا۔ یہ نہیں سمجھتے کہ روزہ نہ رکھنا اور چیز ہے اور بہلانا اور بات ہے۔“

”Quyosh nuri kuydiryapti. Ro`za tutyapman, lekin ro`zani ovutyapman . Ba`zan suv ichib , bazan chilim chekib. Bu yerdagi odamlar ajabtovur tasavvurga ega. Men ro`zani ovutdim, bu sohib esa sen ro`za tutmading deydi. Tushunmaydiki, ro`zani tutmaslik boshqa va uni ovutish boshqa.

### **Batafsil bayon etish**

Mirzo G`olib o`z xatida biror voqea yoki masalani bayon qilsa, uning mayda tafsilotini ham aytib o`tadi. Bazan gapdan gap chiqarib davom etadi. Biror mavzudan gap boshlasa, uning tarkibiy qismlarini ham aytib o`tadi. Masalan, bir xatida quyidagi tafsilot uchraydi:

دوشنبہ کادن ، 20 دسمبر کی صبح کا وقت ہے انگیٹھی رکھی ہوئی ہے، آگ تاپ رہا ہوں اور خط لکھ رہا ہوں

Dushanba kuni, 20-dekabrning tongi. O`choq qo`yilgan, olov yoqyapman va xat yozyapman...

### **Sajli va qofiyali nasr**

Oldingi nasrda sajli va qofiyali birikmalar urf bo`lgan. Mirzo Asadullaxon G`olib ham ba`zan qofiyali birikmalarni qo`llagan, lekin sertakalluf va qiyin so`zlardan ko`p foydalanmagan. Xatlarda qalbaki qofiyalarni qo`llamagan sun`iylik bo`lmagan. Masalan:

A. حضرت مدح کو ایک موقع ضرور ہے، مجھ کو آپ کا حکمجالانا منظور ہے۔

”Hazrat Madhga bir joy zarurdir, menga hukmingizni bajo etmoq manzurdir”.

B. لو اب میری کہانی سنو! میری سرگذشت میری زبانی سنو!

”Umid endi mening hikoyamni eshit, mening hikoyamni mendan eshit”.

Mirzo G`olibning maktublari o`ziga xos uslubi, sodda-jo`nligi, adabiy fikrlari va zukko uslubi tufayli ommaga shu qadar maqbul bo`ldiki, qariyb ikki asrdan buyon maktublarining to`plamlari qayta-qayta chop etib kelinmoqda.

G`olib xatlarining dastlabki to`plamlarida matnshunoslik qoidalariga rioya qilinmagan va ko`plab xatolarga yo`l qo`yilgan edi. Shu sababdan Doktor Xaliq Anjum G`olib xatlarining tanqidiy matnini tayyorlashga kirishdi. U G`olibning urdu tilida yozgan barcha xatlarini bir to`plamda jamladi. Matnning tanqidiy nashrini tayyorlashda matnshunoslar doim muallifning maqsad va g`oyasini, uning

kechinmalarini yodda tutib, unga putur yetkazmagan holda yozadi. Bu esa mehnat va mashaqqat talab etadi. Bunday zalvorli ishni Xaliq Anjum G‘olib xatlarining 4 jildli tanqidiy to‘plamini tuzish orqali bajardi.

## XULOSA

Mirzo G‘olib maktublari o‘ziga xos uslubi, tasvirning chiroyli, qisqa va lo‘ndaligi bilan urdu adabiyotida alohida o‘ringa ega. Uning xatlari shunchalik jonli va chiroyli tilda yozilganki, kitobxon xuddi G‘olib bilan yonma-yon o‘tirib suhbat qurayotganday bo‘ladi. Xatning boshlanishi qisqa, uzundan-uzoq salomlashuv, holahvol so‘rashlardan holi, sodda va samimiy bayon qilingan. G‘olib qisqagina muqaddimadan so‘ng darhol muddaoga o‘tadi. U adresatning ahvoli bilan yuzaki tanishmaydi. Ba‘zan u adresatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilib, gapni boshlaydi. G‘olib maktublarining ushbu strukturasi an‘anaviy xat yozish uslubidan farq qiladi. Xatlarida o‘ziga xos aniqlik va batafsillik namoyon bo‘ladi. Mirzo G‘olib xatto kichik narsalarni ham aniq va batafsil izohlaydi. Sodda va tushunarli tilda bayon qiladi. Maktublaridagi maqol, ibora, saj va qofiyaning qo‘llanishi ham muallifning mahoratini ko‘rsatib turadi. Xatto ayrim xatlarida ilm-fanga, tilshunoslikka oid fikr-mulohazalari ham mavjud. Shu sababdan uning xatlari noyob tarixiy manba va urdu nasrchiligining oliy namunasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ebadet Brelvi. Ghalib and a study of Ghalib. - Lahore. Writer’s Academy, 1969. 484s.
2. Bijnori, *Mahāsin-e Kalām-e Ghalib*, Special Centenary Edition. - Karachi: Fakhri Printing Press, 1969. -S 6.
3. Mufti Anvarul Haq. *Divān-e Ghalib Jadīd al ma’rufba Nuskhah-e Hamidiyyah*. – Agra, 1921.
4. خوجه الطاف حسين حالى. يادگار غالب. – نئی دہلی: مکتبہ جمیعہ لمیٹڈ، ۲۰۱۱. – ۱۱۱ ص.
5. حکیم عبد الحمید مطالعات کلام غالب. – نئی دہلی: غالب اکیڈمی، ۲۰۱۰. – ۲۹۳ ص.
6. رشید حسن ہاں. عملائے غالب. – کراچی: ادارہ یادگار غالب، ۲۰۰۰. – ۱۸۰ ص.
7. خطوطِ غالب، غالب کی اُردو نثرنگاری کی شہرت کا میگزینز قرطاس ادب فروری، 16 2022، ڈاکٹر رؤف تاج محل
8. فاروقی شمس الرحمن خطوطِ غالب پر اور ایک نظر اردو - سبز اوراق

## **KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AMALGA OSHISH BOSQICHLARI**

**Xasanova Dilbar Karimdjonovna**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Chet tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD  
[khasanovadilbar88@gmail.com](mailto:khasanovadilbar88@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqli jihatlari, afzalliklari va uning fanga kirib kelishi yoritiladi. Uning rivojlanish bosqichlari, olimlarning fikrlari hamda muallif fikri bilan izohlanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ta'lim berish xarakteristikasining uch komponenti misollar bilan yoritiladi. Kasb-hunarga yo'naltirilgan ta'lim muassalarida aynan ushbu yondashuv asosida mashg'ulotlar olib borilganining sabablari keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, yondashuv, uslub, gumanitar fanlar, bilim, ko'nikma, bilish.

### **ABSTRACT**

*This article highlights the different aspects and advantages of the competence approach from other approaches and its introduction into science. The stages of its development are explained by the opinions of scientists and the opinion of the author. Three components of the characteristics of education based on the competence approach are illustrated with examples. The reasons why trainings are conducted in vocational educational institutions based on this approach are given.*

**Key words:** competence, approach, method, humanities, knowledge, skill, knowledge.

### **KIRISH**

Kompetensiyaviy yondashuvning fanga kirib kelishining asosiy sababi uning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish va shu o'rganilgan bilim va shakllangan til ko'nikmasini notanish vaziyatlarda qo'llay olish bilan baholanadi. Bu yondashuv asosan yoshi katta til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular o'zlari o'zlashtirayotgan ko'nikmalar amaliy yordami tegishini tushunishlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki[7], bu yondashuv ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlarida immigrantlarga bir vaqtning o'zida ham ingliz tilini o'qitish ham hayotiy tajriba orttirish maqsadida rivojlantirilgan bo'lib, uning asosi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri bexaviorizmga borib taqaladi. Bouden

ning ta'kidlashicha, 1950 yillarga borib AQSH da ommalashgan bu metod Benjamin Blum singari olimlar tomonidan ham tadbqiq etilgan. 1979 yilda Grant va boshqalar ushbu yondashuvga "zamonaviy jamiyatdagi kasbning istiqboli uchun kerakli kriteriya tahlilidan kelib chiqib, o'quv dasturlar ishlab chiqadigan va shu me'yorlar asosida talabalarni o'qitishga qaratilgan ta'lim shakli" deya ta'rif bergan.[8] Bu ta'rifdan biz kompetentlik keng tushuncha ekanini va uni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar nazariy jihatdan, ko'lami va ilmiy yo'nalishlari bo'yicha turlicha bo'lishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Biz tadqiqotlar jarayonida bo'lajak dinshunoslarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan Gumanitar fanlar ta'lim sohasi Davlar ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablarini asos qilib oldik. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2909 - sonli qarori bilan tasdiqlangan "2017 - 2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Dasturi" [9] asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompetensiya kasb turidan kelib chiqqan holda, fan doirasi, bilim va ko'nikma klasteriga taalluqli bo'lgan sohaga xos tushunchadir. Kompetensiyalarning yana bir guruxini Kouvenxoun "umumiy" deb nomlaydi, chunki ular barcha soha vakillari uchun zaruriy va yangi kasbiy sifatlarni shakllantirishda kerakli deb topgan. Shu sabab olim kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ta'lim berish xarakteristikasini quyidagicha izoxlaydi:

a) kasbiy sifatlarni egallashga qaratilganligi;

b) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ustuvor hisoblanganligi;

v) uning konstruktivizm teoriyasiga asoslanganligi[55]; (XIX asrda Colonel Francis Parker tomonidan AQSH da tatbqiq etilib, XX asrda rus sosiologi L.Vigotskiy, shved psixologi Jean Piaget, amerikalik faylasuf va pedagog Dewey lar tomonidan amaldagi shaxsga yo'naltirib o'qitish tamoyilini konstruktivizm shaklida ta'limga olib kirdi.)

g) pedagogning "kognitiv gid" [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] vazifasini bajarishi, darsni ijobiy va mazmunli tashkil qilish uchun pedagog dars jarayonida asosiy o'rinda emas, balki talabalarga instruksiya beruvchi bo'lib emas, ular bajarishi lozim mashg'ulotlarni nazorat qilib turuvchi, to'g'ri yo'lga yo'naltirib turuvchi, talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida dars olib boruvchi shaxs sifatida gavgdalanadi;

biz yuqorida keltirilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ta'lim berishning tasnifidan kelib chiqib, xarakteristikasiga quyidagi ikki kompetentni qo'shishni ma'qul deb topdik:

a) faqat ma'lum bir fanning emas, balki kasbga doir umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

b) baholash kompetensiyalarini tekshirib ko'rishga tayanuvchi ekanligi;[1,2]

Zero, aksariyat hollarda kasb-hunarga yo'naltirilgan ta'lim muassalarida aynan ushbu yondashuv asosida darslar olib borilgan. 1980-yillarga borib ushbu yondashuv Yevropa va 1990-yillarda esa Avstriyada kasbiy salohiyatni baholaydigan yondashuv sifatida qabul qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv o'z rivojlanish davrida amaliyotga asoslangan o'qish (performance-based learning), kriteriyalar asosida o'rganish (criterion-referenced learning), layoqatga yo'naltirib o'qitish (capabilities-driven instructions) kabi turli xil atamalar bilan nomlanib kelingan. Bunga sabab esa fan haqida *bilim* va uni kontekstda ishlata olishni ko'rsatib turuvchi aniq xulosaning yo'qligi edi. Smis va Petersonning ta'kidlashicha, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchining bilimdan ko'ra vaziyatga qarab olingan bilimni amaliy qo'llay olishidir[4].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. B.Xodjaevning ta'kidlashicha, "... mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi"[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Olimning ta'kidlashicha, "...kompetent yondashuv ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) –«Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim –Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya –Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi." Bizningcha ham bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olishgina kompetentlik shakllanganligining isbotidir. Didaktikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lgan "*natija*" ga erishish uchun o'rganish bilimga, bilim malakaga, malaka kompetensiyaga aylanishi talab etiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xosligi shundan iboratki, til o'rganuvchilarning talabi va extiyoji ustuvor etib belgilanadi. Uning talabidan kelib chiqib grammatika va leksika tanlanadi. Til o'rganuvchining kontekstdan kelib chiqib



yondashuvi, tarjima esa faqatgina aloqa vositasi sifatida ishlatilishini talab qiladigan bu yondashuv asosan autentik materiallar hamda amaliy mashqlar bilan olib boriladi. Kommunikativ yondashuv singari kompetensiyaviy yondashuvda ham chet tilida turistlardan intervyu olish, o'z sayohati haqida elektron kundalik (blog) yozish yoki o'quv platformalarida onlayn mavzu muhokamasini chet tilida olib borish kabi o'quv xonasidan tashqarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar kuzatiladi. Muammolarni xal qila olish ko'nikmasi va kommunikativ mashg'ulotlar dars jarayonida asosiy vosita hisoblanadi.[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] Q. A.Niyozovning fikriga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim olgan o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muayyan vaziyatlarda o'z pozitsiyani ko'rsata olish, liderlik qobiliyati shakllangan, axborot-texnologiya resurslaridan foydalanib tashabbus ko'rsatadigan va umummadaniy ko'nikmalari shakllangan kasbiy kompetentli kadrlar yetishib chiqadi.[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] Shu o'rinda, **kasbiy kompetentlik** terminiga berilgan ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak, N.A. Muslimovning ta'riflashicha, "...kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim,malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi." Shu bois, kasbiy kompetensiyani doimiy ravishda boyitish, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.[5]

## **XULOSA**

V.A. Bolotov va V.V. Serikovlarning fikricha, kompetensiyaviy yondashuv umumiy ta'lim sohasida hozirgacha qo'llanilib kelinayotgan didaktika uchun yangicha fenomen edi. [11] Me'yorlashgan qo'llanilish kasbiy kompetensiyadan farqli o'laroq, faoliyat natijalarining belgilangan namunalari va ularning sifatiga qo'yiladigan talablar, tayanch (ta'limiy) kompetentlik funksional savodxonlikning muayan darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki kompetensiya, bilim va ko'nikmalarni to'plash bilan chegeralanmagan xolda, vaziyatni idrok etishning yaxlitligi va konkretligini ta'minlaygan tajribani birlashtiradi.

I.A. Zimnyayaning N. Xomskiy, R. Uayt, Dj. Raven, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, V.N. Kunitsina, G.E. Beliskaya, L.I. Berestova, V.I. Baydenko, A.V. Xutorskoy, N.A. Grishanovanning kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga asoslanib, **kompetensiyaviy yondashuvni** uch bosqichga bo'lib o'rgangani kuzatishimiz mumkin. (1.-jadval)

Birinchi bosqichini Brown o'zining "Encyclopedia of language and linguistics" jurnalida e'lon qilgan maqolasida o'zining *ta'lim teoriyasi konsepsiyasida* ustida olib

